



University of
Business and Science

ILMIY AXBOROTNOMA

- UBS ILMIY AXBOROTNOMASI
- НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК УБС
- UBS SCIENTIFIC BULLETIN

2024

2





O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI



BIZNES VA FAN UNIVERSITETI
UNIVERSITY OF BUSINESS AND
SCIENCE

ILMIY AXBOROTNOMA 2024

2

*UBS Ilmiy Axborotnomasi
*Научный Вестник УБС
*UBS Scientific Bulletin



Bosh muharrir: University of Business and Science rektori, geografiya fanlari doktori, professor K. M. Boymirzayev.

Mas’ul muharrir: Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektor, iqtisodiyot fanlari doktori, professor N. J. Sotvoldiyev.

Mas’ul muharrir o’rinbosari: Ilmiy tadqiqot va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo’limi boshlig'i Sh. I. Mamadaliyev.

TAHRIR HAY’ATI

Fizika-matematika va texnika fanlari – f-m.f.d., prof., M. M. Rahmatullayev, f-m.f.d., prof. R. M. Xakimov, f-m.f.d., prof. G’. Jorayev.

Biologiya fanlari – b.f.d., akademik K. Sh. Tojiboyev, b.f.d., dots. A. Batoshev, b.f.d., dots. D. B. Dexqanov.

Tarix fanlari – tar.f.d., prof. A. N. Rasulov, tar.f.d., prof. F. A. Maqsudov, tar.f.d., prof. O. K. Komilov.

Iqtisodiyot fanlari – i.f.d., prof. H. T. Qodirova, i.f.d., dots. M. X. G’aniyev, i.f.f.d., prof. R. B. Ismoilov.

Falsafa fanlari – s.f.d., prof. T. Fayzullayev, f.f.d., prof. A. M. Mirzahmedov, s.f.d., prof. N. B. Dexqanov.

Filologiya fanlari – fil.f.d., prof. Z. Ya. Sodiqov, fil.f.d., prof. N. Ulukov, fil.f.d., prof. X. Sh. Usmonova.

Geografiya fanlari – g.f.d., prof. S. B. Abbasov, g.f.d., dots. Sh. Jumaxanov, g.f.d., dots. O. T. Mirzamahmudov.

Pedagogika va psixologiya fanlari – p.f.d., prof. M. Sobirova, p.f.d., prof. M. R. Qodirova, p.f.d., prof. Sh. K. Xo’jamberdiyeva.

Texnik muharrir: J. J. Xamrayev.

Tahririyat manzili:
Namangan shaxri, Beshkapa ko’chasi, 111-uy.

Tel: (78) 113-26-26, (90) 789-42-42 **e-mail:** uzinfo@ubsu.uz

UBS Ilmiy axborotnomasi – Научный Вестник UBS – UBS Scientific Bulletin O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2024-yil 22-yanvardagi 210192-sonli guvohnomasiga binoan chop etiladi.

Chop etilgan maqola mazmuni va unda keltirilgan ma'lumotlarning to‘g‘riligiga muallif(lar) javob beradi.

**MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS****DOLZARB MAVZU**

Қобилов Ш.Р. Янги Ўзбекистонни коррупциядан холи мамлакатга айлантиришда бирлашайлик.....	5
---	---

01.00.00 FIZIKA, MATEMATIKA VA TEKNIKA FANLARI**05.00.00 ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА И ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ****PHYSICS, MATHEMATICS AND TECHNICAL SCIENCES**

Qarshiboyev X.Q. Kichik tadbirkorlikning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri va uning ekonometrik tahlili.....	17
---	----

Abdug‘aniyev N.N. Foydalanuvchi tomonidan aniqlangan berilganlar turlari.....	26
---	----

IQTISODIYOT FANLARI**08.00.00 ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ****ECONOMIC SCIENCES**

Turdibekov I.X. Hududlarda turizm destinatsiyalarining sifatini baholash usullarini takomillashtirish.....	30
--	----

Аблаизов А.А. Ўзбекистонда экотуризм соҳасини ривожланиши ва уни аҳоли турмуш даражасига таъсир этиш жиҳатлари.....	36
---	----

Ишонкулова Ф.А. Ўзбекистон иқтисодиётида юк автомобиль транспорт хизматлари тизимининг инвестицион ресурслардан фойдаланиш ҳолати ва ривожланиш тенденциялари.....	43
--	----

Raximova M.I. Xalqaro sifat standartlari asosida to‘qimachilik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqiga eksport qilish imkoniyatlari.....	51
--	----

Yoqubjonov R.R. O‘zbekiston mintaqalarida qishloq xo‘jaligini rivojlantirish yo‘nalishlari.....	59
---	----

FILOLOGIYA FANLARI**10.00.00 ФИЛОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ****PHILOLOGICAL SCIENCES**

Alijonova D.F. O‘zbek tilida tovush fe’llarining leksik-semantik o‘rganilishining nazariy masalalari.....	66
---	----

Mo‘minova G.G. Boshlang‘ich sinf ona tili darslarida lingvistik kompetentlikni shakllantirishda lingvistik vazifalarni qo‘llash.....	72
--	----

**GEOGRAFIYA FANLARI****11.00.00 ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ НАУКИ
GEOGRAPHICAL SCIENCES**

Boymirzaev K.M., Otamirzayeva M.H. Shimoliy Farg'ona daryo havzalari landshaft komplekslarini zamonaviy metodlarni qo'llash orqali o'rghanish.....	80
Mirzamahmudov O.T., Xakimov M.M. Farg'ona vodiysi daryo havzalari barqaror rivojlanishi va ularni tadqiq etishning geografik xususiyatlari.....	90
Jumaxanov Sh.Z., Ne'matova M.A. Zamonaviy geourbanistik tadqiqotlarida "qulaylik indeksi" tushunchasi.....	96
Soliyev E.A. Farg'ona vodiysi havo xaroratidagi tebranishlar.....	111
Alimdjanov F.N. Iqlim o'zgarishi oqibatida insonlarda yangi epidemiya va bakteriyalarning tarqalishi.....	120

PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI**13.00.00 ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
19.00.00 PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SCIENCES**

Kambarov N.S. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda sharq yakkakurashlarining ahamiyati.....	126
Nazarov A.T. Sport turizmining shakllari va turlari.....	133
Narzullayev D.Sh. Jismoniy tarbiya yo'nalishi talabalarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning amaliyotdagi holati.....	138
Ataxo'jayeva Sh.A. Oliy ta'lim chet tili fani o'qituvchilarida sotsial emotsional kompetentlikning namoyon bo'lishi.....	146
Xolmirzayev Sh.A. Hamkorlik pedagogikasi asosida maktabgacha yoshdagি bolalar huquqlarini o'rGANISHNING dolzarbligi.....	153
Abdullayev D.Y. Yuqori sinf o'quvchilarida "tarbiya" fani vositasida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mexanizmi.....	158
Xudoyberdiyeva S.M. Sport turizmini rivojlantirishda tabiiy komponentlarning o'rni.....	164
Jurayev X.O. Shaxslararo munosabatlarda oilada yuzaga keladigan konfliktlarni bartaraf etishning ijtimoiy psixologik usullari va mexanizmlari.....	171

DOLZARB MAVZU

ЯНГИ ЎЗБЕКИСТОННИ КОРРУПЦИЯДАН ХОЛИ МАМЛАКАТГА АЙЛАНТИРИШДА БИРЛАШАЙЛИК!

Қобилов Ш.Р.

Ўзбекистон Республикаси Ички ишлар вазирлиги Академияси профессори,
и.ф.н.

Башарият тарихига назар солсак, коррупция иллати ҳатто энг қудратли ва энг кучли давлатларни ҳам жар ёқасига олиб келганига ва тўлиқ пароканда қилганига гувоҳ бўламиз.

Қадимда Рим, яқин ўтмишда СССР каби империяларнинг парчаланишига ҳам асосий сабаб, шак-шубҳасиз, коррупция бўлган. Тарихдан маълумки, ҳеч бир империя юзма-юз амалга оширилган урушларда енгилмаган, аммо империяларни кўзга кўринмас, худди саратон каби жамиятни аста-секин ичидан емирувчи коррупция мағлуб этган. Бу тарихий ҳақиқат барча ватанпарвар, тинчликсевар исонларни хушёрликка чорлаши лозим. Шу сабабли ўз келажагини ўйлаган халқ, давлат коррупцияга қарши бир тану-бир жон бўлиб курашиши шарт. Бу – тинчлик ва фаровонлик талаби.

Коррупция – ҳокимият пайдо бўлганидан буён ижтимоий-сиёсий иллат сифатида у билан ёнма-ён яшаб келмоқда. Аммо бундан ҳокимият ва коррупция бир-биридан ажralmas, бир нарсанинг икки томонидир, деган холосага келмаслик керак. Коррупция ҳокимиятни аста-секин емирувчи ички таҳдиддир. Темирнинг қушандаси занг бўлганидек, ҳокимиятнинг ашаддий душмани коррупциядир.

Хозир дунёда коррупциянинг зарари қарийб 3 триллион АҚШ долларини ташкил этади. Бироқ Президентимиз таъкидлаганидек, “Бу катта рақамлар ҳақиқий ҳолатни ва коррупция натижасида кўрилаётган реал зарарнинг аниқ ҳажмини тўлиқ ифода эта олмайди. Энг ёмони – жамият кўрадиган маънавий зарап кўламини ҳеч нарса билан ўлчаб бўлмайди”¹.

Бундай ўсиш дунё давлатлари коррупцияга қарши курашиш учун миллий ва халқаро даражаларда қўплаб хукуқий хужжатлар қабул қилган

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Коррупцияга қарши курашиш соҳасида юксак халқаро мукофотни топшириш маросимидағи нутқи //2023 йил. [Электрон манба]. URL: https://uz.a.uz/u/z/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-korrupciyaga-qarshi-kurashish-sohasida-yuksak-xal-qaro-mukofotni-topshirish-marosimidagi-nutqi_549682

ҳамда қўп сонли ваколатли идораларига эга бўлган ҳозирги шароитда юз бераётганлиги дунё ахлини ташвишга solaётганлиги ҳам сир эмас.

Глобал тусдаги муаммонинг бутун дунёда долзарблигини англаш коррупцияга қарши курашишнинг халқаро тизими яратилишига туртки берди. Ушбу соҳада халқаро-хуқуқий механизмнинг шаклланиши коррупцияга қарши курашнинг аниқ муаммолари бўйича актлардан, давлат ва жамият ҳаётининг айрим соҳаларида коррупцияга қарши курашнинг асосий восита ва вазифалардан тортиб то Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши кураш бўйича универсал конвенциясигача (2003 йил 31 октябрь) бир қанча босқичларни босиб ўтди.

Мамлакат ривожланишининг бугунги босқичида коррупция Ўзбекистон давлати ва жамияти тараққиёти учун энг жиддий хавф-хатарлардан бири эканлигини идрок эттириш (англатиш) коррупцияга қарши таълимнинг бош йўналишини ташкил этади. Сабаби, коррупция бутун инсониятга, барча жамиятлар асосига, иқтисодий тараққиётга зарба берадиган, қонун устуворлигини бузадиган ва халқнинг давлат сиёсатига ишончини кескин сусайтирадиган, демократик институтлар ривожига тўсқинлик қиласидиган хатарли таҳдиддир ва у барқарор ривожланиш мақсадларига эришиш борасидаги режаларимизга ҳам жиддий путур етказади.

Президент Шавкат Мирзиёев коррупция иллати ҳақида гапирав экан: “Сўнгти йилларда туб ислоҳотлар даврига қадам қўйган Ўзбекистонда ҳам тараққиёт қушандаси бўлган иллат – коррупцияга қарши изчил кураш олиб борилмоқда. Ушбу кураш давлат сиёсати даражасига кўтарилди”¹, – дея қайд этди.

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши конвенциясининг «Коррупциянинг олдини олиш бўйича чоралар», деб номланган 2-боби 6-моддасининг 6-бандида «коррупциянинг олдини олиш масалалари бўйича билимларни кенгайтириш ва тарқатиш» вазифаси юклатилган. Дарҳақиқат, жамият аҳлида коррупциянинг олдини олиш ва уларда коррупцияга қарши хулқ-атворни шакллантириш ҳамда коррупциянинг олдини олиш масалалари бўйича билимларни кенгайтириш ва тарқатиш орқали амалга оширилади.

Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2023 йил 19 декабрь куни Коррупцияга қарши курашиш соҳасида юксак халқаро мукофотни топшириш маросимидағи нутқида: “онги ва қалби болаликдан “ҳалоллик вакцинаси” билан эмланган янги авлодни камолга етказиш устувор вазифамиздир. Бу борада Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Коррупцияга қарши таълим ва ёшларнинг имкониятларини кенгайтириш

¹ Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. – Тошкент: O’zbekiston, 2021. – Б. 427.

глобал ресурси дастурини Ўзбекистонда кенг жорий этишдан манфаатдормиз”,¹ деган эдилар.

Дарҳақиқат таълим тизимида ўсиб келаётган авлодни коррупцияга қарши руҳда тарбиялаш ишларининг етарли даражада эмаслиги ёки йўқлиги ёхуд етарлича йўлга қўйилмаганлиги коррупцияни илдиз отишига олиб келди. Бугунги қунда “Кучли давлатдан қучли фуқаролик жамияти сари” тамойили давлат бошқаруви органларининг ваколатларини аста-секинлик билан босқичма-босқич фуқаролик жамиятига ўтказишни тақозо этмоқда. Бундай эркин фуқаролик жамиятини маънавий баркамол, эзгу ғоялар ҳаётий эътиқоди бўлган инсонларгина бунёд эта олади.

Янгиланаётган Ўзбекистонда соғлом ва баркамол авлодни тарбиялаш, эркин фуқаро маънавиятини шакллантиришга эътибор қаратилмоқда. Шу нуқтаи – назардан, дунё илмий маконида элитар таълимни ташкил этиш, ягона таълим жараёнини шакллантириш орқали билим интеграциясига эришиш, дунёда тинчлик ва барқарорликни таъминлаш учун, жиноятчиликни олдини олиш, хавфсиз макон яратиш юксак маданиятли шахсни тарбиялаш, унинг интеллектуал салоҳиятини бунёдкорлик фаолиятига йўналтириш ва иқтидорига яраша тақдирлаш ишларини такомиллаштириш борасида тадқиқотлар олиб борилмоқда. Мамлакатимизда ҳар томонлама камол топган, юксак касб-хунар маданиятига, ижодий, ижтимоий фаолликка эга бўлган, жамият, давлат, оила олдида ўз жавобгарлигини ҳис этадиган шахсларни тарбиялаш масаласига катта эътибор қаратилмоқда.

Давлат номидан иш кўриш, ҳукм чиқариш ваколатига эга бўлишининг мажбуриягини, жавобгарлигини ҳис қилишда намоён бўлади. Эгнида давлат рамзлари мавжуд касбий либосдаги ходимлар ўз касбий мажбуриятларини чуқур англашлари, инсон тақдири билан боғлиқ масалаларда вижданан, адолат билан қарор қабул қилишни ўз касбий ва инсонийлик бурчи деб қарashi лозим. Ўзбекистон Республикаси номидан гапириш ваколатига эга бўлган судья ёнида давлат байроби, бошининг устида давлат герби турган бир ҳолатда ҳар қандай ҳукм ўқилиши бу сиёсий ҳодиса эканлигини тушунмоғи ва номини тилга олаётган давлатни ҳаммадан кўра кўпроқ хурмат қиласидиган, унга эътиқоди юксак бўлган шахс эканлигини ҳар лаҳзада намоён қила олмоғи ўта муҳимдир. Давлат органлари ходимлари шуни унутмасликлари керакки: “Либосингизни кўрибоқ эл Сиздан қочмасин”! Порахўрлик тамғаси бир сизга эмас, бутун оилангизга ҳам иснод келтиради!

2023 йилнинг 3 ноябрь куни пойтахтимизда анъанавий III Тошкент аксилкоррупция форуми бўлиб ўтди. Мазкур нуфузли форум Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш агентлиги, Коррупцияга қарши

¹ Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М. Мирзиёевнинг Коррупцияга қарши курашиш соҳасида юксак халқаро мукофотни топшириш маросимидағи нутқи // 2023 йил. [Электрон манба]. URL: https://uza.uz/u/z/posts/ozbekiston-respublikasi-prezidenti-shavkat-mirziyoevning-korrupciyaga-qarshi-kurashish-sohasida-yuksak-xal-qaro-mukofotni-topshirish-marosimidagi-nutqi_549682

курашиш миллий кенгаши, Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг Гиёҳванд моддалар ва жиноятчиликка қарши курашиш бошқармаси, АҚШнинг Давлат департаменти Гиёҳванд моддаларни назорат қилиш ва ҳукуқни муҳофаза қилиш бюроси, Халқаро ҳамкорлик бўйича Германия жамияти, “Минтақавий муроқот” халқаро нодавлат ҳамкорлигида ташкил этилди.

Тошкент форуми нафақат маҳаллий ва минтақавий, балки халқаро миқёсда барча учун бирдек долзарб саналган муаммоларни ҳал этиш учун муҳим муроқот майдонига айланиб бораётганини таъкидлаш керак. Қувонарлиси, 2023 йилнинг 3 ноябрь куни III Тошкент аксилкоррупция форуми форматида Минтақавий платформанинг ишга туширилиши бу ўзаро муроқотимизнинг узлуксиз йўлга қўйилишини таъминлаш мақсадини кўзлайдики, сабаби, “коррупцияга қарши курашиш мавсумий иш эмас, кундалик вазифамизга айланиши керак” лигини англаш вақти келди.

Тожикистон Республикаси Давлат молиявий назорати ва коррупцияга қарши курашиш Агентлиги директори, адлия генерал-лейтенанти Султонзода Сулаймон Сайднинг таъкидлашича, III Тошкент аксилкоррупция форуми дастури амалий аҳамият касб этадики, унинг иштирокчилари қўшни давлатлардаги ҳамкасларимизнинг коррупцияга қарши курашишнинг илғор тажрибасини ўрганиш ва коррупцияга қарши курашиш соҳасида томонларни коррупция муаммоларига оид масалаларни муҳокама қилиш имкониятини беради. Дарҳақиқат, Минтақавий платформанинг ишга туширилиши коррупцияга қарши курашиш борасида мамлакатларимизнинг идоралараро алоқаларни ва ҳамкорликни янада мустаҳкамлаш учун қулай майдон бўлиб хизмат қиласди.

Тошкент форуми қатнашчилари коррупциянинг сиёсий, ижтимоий-иктисодий оқибатлари, мамлакатларнинг мавжуд ва кейинги тараққиёти учун жиддий хавф солишини англаган ҳолда, коррупция феноменига қарши курашишни давлатлар сиёсатининг устувор йўналишларидан бири сифатида эътироф этдилар.

Тошкент форумининг ялпи мажлисида халқаро эксперт ва академик доиралар вакиллари Президент Шавкат Мирзиёевнинг сиёсий иродаси ва ташабbusлари билан сўнгти йилларда Ўзбекисонда коррупцияга қарши курашишнинг мустаҳкам ҳукуқий ва институционал асослари яратилганини этироф этдилар.

Дарҳақиқат, Ўзбекистонда 2017 йилнинг 3 январида Ўзбекистон Республикасининг “Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида”ги¹ қонуни қабул қилинди. Коррупцияга қарши курашиш бўйича чора-тадбирларининг изчилигини таъминлаш мақсадида ҳар 2 йилга (2017 – 2018², 2019 – 2020³,

¹ Ўзбекистон Республикасининг «Коррупцияга қарши курашиш тўғрисида»ги Қонуни // [Электрон манба] URL: <https://lex.uz/docs/3088008>

² Ўзбекистон Республикаси қонун хужжатлари тўплами, 2017 й., 5-сон, 62-модда.

³ Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПФ-5729-сонли Фармони // [Электрон манба] URL: <http://lex.uz/ru/docs/4355399>

2021 – 2022¹, 2023 – 2024²) мўлжалланган давлат дастурларини қабул қилиш амалиёти йўлга қўйилди.

Конун ва Давлат дастурларида коррупция учун мансабдорларнинг шахсий жавобгарлиги, давлат ташкилотларида коррупцияга қарши мувофиқлик тизими (комплеанс назорати)ни жорий этиш, жиддий ва ўта оғир коррупция жиноятларида айбланганларни муддатидан олдин озод қилиш имкониятини истисно қилиш (амнистия қўлламаслик), хабар бериш ни рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш тизимини жорий этиш каби янги дастаклар киритилди.

2020 йил 29 июнда Президент фармони ва қарори билан барча куч ва воситаларга эга Ўзбекистон Республикаси Коррупцияга қарши курашиш Агентлиги ташкил этилди. Агентлик мамлакатимизда коррупцияга қарши курашиш сиёсатини мувофиқлаштиришда катта тажриба тўплаганлиги эксперталар томонидан қайд этилди.

Илгор хорижий тажриба асосида коррупцияга оид хукуқбузарлик ҳақида хабар берган ёки коррупцияга қарши курашишга кўмаклашган шахсларни рағбатлантириш механизми жорий этилди. Унга кўра, коррупция жинояти учун мансабдорларнинг шахсий жавобгарлиги, давлат ташкилотларида коррупцияга қарши мувофиқлик тизими (комплеанс назорати)ни жорий этиш, жиддий ва ўта оғир коррупция жиноятларида айбланганларни муддатидан олдин озод қилиш имкониятини истисно қилиш (амнистия қўлламаслик), хабар беришни рағбатлантириш ва ҳимоя қилиш тизимини жорий этиш каби янги дастаклар киритилди.

“Коррупциядан холи қонунчилик” тамойили асосида қонунчилик ҳужжатлари ва уларнинг лойиҳаларини коррупцияга қарши экспертизадан ўтказиш тартиби жорий этилди.

Илмий ташкилотлар ва олий таълим муассасалари вакиллари ҳамда мустақил эксперталарга норматив-хукукий ҳужжатлар ва уларнинг лойиҳаларини коррупцияга қарши илмий ва мустақил экспертизадан ўтказиш хукуки берилди.

Юртимизда 2016 йилнинг 24 сентябридан “Давлат – инсон учун” ғоясига таяниб, ҳалқ билан бевосита мулоқот қилиш, унинг дарду ташвишлари, муаммоларини ижобий ҳал этиш бўйича мутлақо янги тизим – Ўзбекистон Республикаси Президентининг Ҳалқ қабулхоналари ва Виртуал қабулхонаси фаолиятини йўлга қўйилганлиги, давлат ташкилотлари фаолиятида ўрнатилган “маҳаллалар кесимида ишлаш”, “ҳалқ ичига кириш,

¹ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 6 июлдаги “Коррупцияга қарши курашиш фаолиятини самарали ташкил этишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ти ПҚ-5177-сон Қарори [Электрон манба]. URL: <https://lex.uz/docs/5495533>.

² Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2023 йил 27 ноябрдаги “Коррупцияга қарши курашиш тизимини янада такомиллаштириш ҳамда давлат органлари ва ташкилотлари фаолияти устидан жамоатчилик назорати тизими самарадорлигини ошириш чора-тадбирлари тўғрисида”ти ПФ-200-сонли Фармони. Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 28.11.2023 й., 06/23/200/0896-сон.

унинг дардига қулоқ солиши”, “ташвишига шерик бўлиш” ва “муаммоларни кабинетларда ўтириб эмас, жойларга чиқиб жамоатчилик билан ўрганиш асосида ҳал этиш”, “ҳисобдорлик” каби мутлоқо янги эзгу бошқарув тамойиллари жорий этилди.

Бугунга келиб, Ўзбекистонда коррупцияга қарши курашишнинг мустаҳкам институционал асоси – профилактика ва жиноий-хуқуқий чора тадбирлар симбиози, жумладан, коррупцияга қарши курашишнинг янги воситалари яратилди. Асосий мақсад – фуқароларимиз ҳёти коррупциядан холи бўладиган шароитларни яратишdir. Бунга эришиш учун асосий эътибор ҳақиқатдан кейин жавоб беришдан, пушаймон бўлишдан кўра, профилактика чораларига қаратилганидир.

Амалга оширилаётган ислоҳотларимизнинг туб замирида Президент Шавкат Мирзиёев томонидан илгари сурилган “Халқ давлат идораларига эмас, давлат идоралари халққа хизмат қилиши керак”¹, деган устувор ғоя асосида давлат органларининг давлат бошқарувида иштирокини амалда таъминлаш масаласи кун тартибига олиб чиқилди ва мазкур тамойилга мувофиқ барча имкониятлар халқимиз манфаатлари йўлида сафарбар этилиши устувор вазифа этиб белгиланди.

Шу ўринда ислоҳотларнинг чинакам натижадорлигига эришиш мақсадида давлат ва жамиятнинг ҳар бир соҳасида коррупцияга қарши курашиш самарадорлигини изчил таъминлаб бориш алоҳида аҳамият касб этади. Сабаби, Ўзбекистон халқи миллий юксалишнинг муҳим босқичига қадам қўйди. Иқтисодий қадриятлар — хусусий мулк, тадбиркорлик ва бизнес учун янада қулай муҳит яратилмоқда. Янги иш ўринлари яратилмоқда.

Бугунги кунда коррупцияга қарши курашиш соҳасида ижобий ютуқларга эришган ривожланган давлатларнинг бу борадаги тажрибаси шуни кўрсатмоқдаки, коррупция кўринишларининг оқибати билан эмас, балки уни келтириб чиқараётган сабаб ва шарт-шароитларини бартараф этишга асосий эътибор қаратилган ва бу ўз самарасини берганини амалда кўриб турибмиз.

Коррупцияни идрок этиш индекси (CPI) 1995 йилдан буён 13 та эксперт манбаси, жумладан, Жаҳон банки, Жаҳон иқтисодий форуми, хусусий консалтинг ва рейтинг агентликлари, таҳлил марказлари ва бошқа ташкилотлар маълумотлари асосида шакллантириладиган, давлат секторидаги коррупцияни қабул қилишни аниқловчи рейтингдир. Унда 180 та давлат 0 дан 100 гача бўлган шкала бўйича таснифланади, 0 – энг юқори ва 100 – энг паст коррупция даражасини акс эттиради. Индекс кўплаб мамлакатларда

¹ Мирзиёев Ш.М. Халқ давлат идораларига эмас, балки давлат органлари халқимизга хизмат қилиши керак. Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма олти йиллига бағишлиланган тантанали маросимдаги нутқ. <https://kun.uz/news/2017/08/31/>

коррупцияни қиёсий баҳолаш соҳасидаги энг машҳур ишланмалардан биридир.

CORRUPTION PERCEPTIONS INDEX 2023

EASTERN EUROPE
& CENTRAL ASIA

35/100

AVERAGE SCORE



Score country
101 Georgia
47 Armenia
46 Montenegro
42 Moldova
42 North Macedonia
41 Kosovo
39 Kazakhstan
37 Albania
37 Belarus
36 Serbia
36 Ukraine
35 Bosnia and Herzegovina
34 Turkey
33 Uzbekistan
30 Kyrgyzstan
29 Russia
27 Azerbaijan
25 Tajikistan
19 Turkmenistan



[www.transparency](http://www.transparency.org)

This work is licensed under a

Official Statement

2024 йил йил 30 январь куни “Transparency International” халқаро ташкилоти 2023 йил учун Коррупцияни қабул қилиш индексини эълон қилди. Ундаги натижаларга кўра, Ўзбекистон индексдаги ўрнини изчил яхшилаб, 33 балл билан 180 давлат ичидаги 121-ўринни эгаллади.

МДҲ давлатлари орасида 2023 йил учун ТИ нинг коррупцияни қабул қилиш индекси янги рейтингида Россия Федерацияси 7 ўринга (129 дан 136 га), Украина 5 ўринга (117 дан 122 га), Қозоғистон 8 ўринга (94 дан 102 га), Қирғистон 20 ўринга (124 дан 144 га), Тожикистон 1 ўринга (149 дан 150 га), Туркманистон 4 ўринга (165 дан 169 га) пасайган бўлса, Грузия ва Арманистон Республикалари кўрсаткичлари ўзгаришсиз қолган.

Дания, Финляндия ва Янги Зеландия рейтингнинг юқори поғоналарини эгаллаб турибди. Экспертларнинг таъкидлашича, Ғарбий Европа ва Европа Иттифоқи энг яхши кўрсаткичли минтақа бўлиб қолса-да, назорат ва мувозанат заифлашиши ва сиёсий бирдамлик бузилиши оқибатида 2023 йилда ўртача минтақавий балл 65 га пасайди. Бу сиёсий барқарорликни, давлат аппаратининг қонун устуворлиги тамойили асосида фаолият юритиши ва ҳуқуқ тизимида адолатли сиёсатни таъминлаш масалаларига тизимли ва изчил эътибор қаратиш зарурлигини кўрсатади.



“Тоза қўллар” сиёсатини амалга ошираётган, “Инсон қадри учун” тамойили асосида давлат хизматида ҳалоллик стандартларини жорий этишга қатъият билан киришган мамлакатимизда илғор хорижий тажрибани ўзлаштириш ва БМТ конвенцияси қоидаларига риоя этилишини таъминлашга қаратилган ҳалқаро ҳамкорлик фаол ривожланмоқда. Хусусан, коррупцияга қарши курашиш бўйича стратегик чора-тадбирларни ишлаб чиқиш ва қабул қилиш, самарали ҳамкорликни йўлга қўйиш мақсадида БМТ, Жаҳон банки, Иқтисодий ҳамкорлик ва тараққиёт ташкилоти каби нуфузли ҳалқаро тузилмалар билан ҳамкорлик қилинганди. Бу ва бошқа чора-тадбирлар мамлакат коррупцияни қабул қилиш индексининг сўнгги 7 йил ичида яхшиланиши, 2017 йилдаги 22 баллдан ҳозирги 33 баллга қўтарилиши гарови бўлиб хизмат қилди.

Ҳалқаро эксперталарнинг қайд этишича, Ўзбекистон кейинги йилларда коррупцияни қабул қилиш бўйича ижобий ўзгаришлар қайд этаётган ягона давлат ва унинг кўлами бўйича минтақа етакчисига айланди. Бу 2017 йилдан бўён мамлакатимизда коррупцияга қарши курашиш асосий йўналишлардан бири сифатида юритилаётган давлат сиёсати туфайли амалга ошди

“Ўзбекистон – 2030” стратегиясида (2023 йил 11 сентябрь) коррупцияга қарши курашиш энг муҳим устувор йўналишларда бири сифатида белгиланиб, мамлакатимиз 2030 йилга бориб, ўз позициясини 50 пунктга яхшилаш ва 76 ўринга қўтарилишни мақсад қилиб олган.

Эндиликда амалий ишларни қучайтириш, маълумотлар очиқлигини таъминлаш ва жамоатчилик назорати кўламини янада кенгайтириш орқали мавжуд бўлган коррупциявий омилларни бартараф этиш мумкинлигини илғор хорижий тажрибаларга асосланиб тавсия этамиз.

Таъкидлаш зарурки, непотизм, фаворитизм каби коррупция омилларининг олдини олишга қаратилган чора-тадбирлар асносида глобал иллатнинг пайини қирқиши мумкин. Бунда, албатта, меритократия тамойилларига амал қилиш, адолат, очиқлик ва шаффофликни таъминловчи кадрлар сиёсати инструментларидан самарали фойдаланган ҳолда энг салоҳиятли ва муносиб кадрларни саралаб олишга эътибор қаратиш лозим.

Ҳалқаро нодавлат ташкилот «Transparency International» маълумотларига кўра, маълум ютуқларга қарамай, аксарият мамлакатлар ҳали ҳам коррупцияга қарши самарали кураша олмаяпти¹. Шу билан бирга, 180 та давлатда ўтказилган тадқиқотлар шуни кўрсатдики, эксперталар баҳоси ва тадбиркорлар сўровномаларига кўра, давлат секторида коррупцияни идрок этишнинг ўртacha даражаси тавсия этилган 50 балл ўрнига атиги 43 баллни ташкил этмоқда.

¹ Электрон манба: <https://www.transparency.org>

Коррупцияга қарши курашишга оид чора-тадбирларга стратегик тус берган ҳолда коррупция даражасига таъсир бўйича кутилаётган натижаларни белгилаб, коррупцияга қарши кураш сиёсатини тизимлаштириш зарур.

Мамлакатимизда жамоатчилик назоратини кучайтириш, фуқаролик жамияти институтлари вакиллари фаолиятини фаоллаштириш, оммавий ахборот воситалари билан ўзаро ҳамкорлик қилиш учун шарт-шароит яратишга катта эътибор қаратилаётгани ҳам бу натижаларга туртки бўлди. Давлатимиз раҳбари 2023 йил 19 декабрда коррупцияга қарши курашиш бўйича халқаро юксак мукофотни топшириш маросимдаги нутқида белгилаб берган вазифаларни мувваффакиятли амалга ошириш, хусусан, Коррупцияга қарши курашиш бўйича 2030 йилгача мўлжалланган миллий стратегияни қабул қилиш, Коррупция муаммолари бўйича минтақавий тадқиқот марказини ташкил этиш, БМТнинг Коррупцияга қарши таълим ва ёшларнинг имкониятларини кенгайтириш глобал ресурси дастурини Ўзбекистонда кенг жорий этиш, журналистлар имкониятларидан унумли фойдаланиш, фуқаролик жамиятининг саъй-ҳаракатларини бирлаштириш коррупцияга қарши кураш соҳасида янада яхши натижаларга эришиш имконини беради.

Коррупцияга қарши кураш бўйича маҳсус миллий ва халқаро тузилмаларда ишлаётган шахслар сони миллиондан ошиб кетган ва уларнинг фаолияти давлат бюджетига жуда қиммат тушаётган бир пайтда коррупциянинг ҳамон ўсишда давом этмоқда. Бу эса «коррупция – енгилмас, унга қарши курашиш бефойда» деган пессимитик дунёқарааш ва нигилистик муносабат шаклланишига олиб келмоқда. Шундай вазиятда энг тўғри йўл, назаримизда, коррупцияга қарши кураш стратегияси ва тактикасини қайта кўриб чиқишидир.

Коррупцияга қарши курашнинг мажбурлаш, озодликдан маҳрум қилиш, ўлим жазосини қўллаш билан қўрқитиши каби анъанавий йўллари коррупцияни маълум бир вақт жиловлаб турса-да, аммо бартараф эта олмаяпти. Бизнингча, ушбу усуулардан охирги тактик чора сифатида фойдаланиш лозим. Лекин, коррупцияга қарши кураш борасидаги янги қабул қилинаётган миллий стратегиянинг асосий йўналишлари сифатида қўйидагиларни белгилаш мақсаддага мувофиқ.¹

Биринчидан, “коррупция”га берилган мавхум таърифларга аниқлик киритиш керак. Бугун, илмий-публицистик адабиётларда коррупцияга юздан ортиқ таърифлар берилган бўлса-да, уларнинг ўзагини “мансадбор шахс билан жиноятчининг моддий ва номоддий манфаатдорлик асосидаги ҳамкорлиги”, “давлат хизматчисининг шахсий манфаатлар йўлида ваколатларини суиистеъмол қилиши” ташкил этади.

¹ Батафсилроқ қаранг: Қобилов Ш.Р., Мамадалиев С.Ш. Коррупцияга қарши курашишнинг ҳукуқий асослари. Илмий-оммабоп нашр. – Т.: Ўзбекистон Республикаси ИИВ Академияси, 2020. – 160 б.

Албатта, ушбу таърифларда коррупция элементлари акс этган, аммо улар давлат мансабдор шахсларининг фаолияти билан чекланиб қолган. Аслида эса, коррупция нодавлат, нотижорат ва тижорат ташкилотлари фаолиятида ҳам учрайди. Шу боис, қуйидаги таърифни ҳуқуқий ва сиёсий лугатларга киритишни таклиф этамиз: “коррупция – мансабдор шахсларнинг ўз ваколатларидан халқ ва давлат манфаатларига зид равишда фойдаланишидир”. Янги таърифда: биринчидан, коррупция ваколатли шахсларга тегишлилигига; иккинчидан, ваколатли шахсларнинг халқ ва давлат манфаатларига зид фаолиятига ургу берилади. Ушбу таъриф ихчам, рационал ҳамда дилеммадан холилиги билан бошқа таърифлардан фарқланади.

Иккинчидан, коррупциянинг генезисини инсон дунёқараси ташкил этади. Коррупция инсондаги очкўзлик, пулпарастлик, молпарастлик каби ахлоққа зид иллатлардан озиқланади. Эгоцентризм, конформизм эса коррупциянинг мафкурасидир. Жамиятда пул фетишизми ҳукмронлик қилиб, ғоявий бўшлиқ ҳосил бўлса, коррупция ривожланади, жамият инқизозга юз тутади.

Бинобарин, коррупцияга қарши кураш муваффақиятли кечиши учун инсон дунёқарашидаги иллатларни маънавий-ахлоқий фазилатлар билан алмаштириш зарур. Дунёқарашнинг асосини эзгулик, яратувчанлик, меҳроқибат, хуллас одамийлик мулки ташкил этмас экан, коррупция енгилмайди.

Бугун инсонларда илмий дунёарашибни шакллантириш ҳар қачонгидан ҳам долзарб аҳамият касб этмоқда. Бу эса халқ манфаатларини ифода этувчи миллий ғоя ва мафкурани ривожлантириш зарурлигини англаради.

Учинчидан, қонунлардаги ноаниқлик, зиддият, бўшлиқлар, қонуности ҳужжатларининг ҳаддан ташқари кўплиги, «ўлик» қонунлар чиқарилиши ҳамда қонунларни четлаб ўтиш амалиёти коррупцияга йўл очади. Ўзбекистон Республикасининг Президенти Шавкат Мирзиёев таъкидлаб келаётганидек, биз “ўлик” қонунлардан воз кечишимиз, тўғридан-тўғри ишлайдиган қонунларни қабул қилишимиз, қонуности ҳужжатларни камайтиришимиз керак. Бу эса амалиётда бўлган 850 дан зиёд қонун, 34 мингдан зиёд қонуности норматив-ҳуқуқий ҳужжатларни қайта кўриб чиқиши тақозо этади. Ушбу талабнинг амалиётга жорий этилиши коррупцияга қаттиқ зарба бериши шубҳасиз.

Тўртингчидан, жамиятда коррупцияга қарши муросасиз, жирканч мухит яратилиши лозим. Агар коррупцияга нисбатан кузатувчанлик, бефарқлик, муросасозлик, томошабинлик давом этса, у ривожланаверади. Уни енгиш учун ҳар бир инсон, ташкилот, муассаса ва умуман, фуқаролик жамияти институтлари ўзига ва бошқаларга нисбатан талабчан ва курашчан бўлиши зарур. Бугун жамиятимизда “коррупцияга қарши давлат курашади, мени қўлимдан ҳеч нарса келмайди”, – деган фикрнинг устунлиги коррупцияга нисбатан лоқайдлик, бефарқлик мухитини яратмоқда. Бу эса коррупциянинг хуфия фаолиятига шароит яратмоқда.

Коррупция жамиятдан ташқарида эмас, балки унинг ичида ривожланади, шу боис уни енгиш ўзимизга, жамият аъзоларининг курашувчанлигига, ҳуқуқий ва сиёсий маданияти даражасига, ва фуқаролик позициясига боғлиқ.

Бешинчидан, “яширин иқтисодиёт” – коррупция мавжудлигининг зарурый шарти, коррупциянинг манбай. Мамлакатимиз Президенти Шавкат Мирзиёевнинг 2018 йил декабрдаги Олий Мажлисга мурожаатномасида яширин иқтисодиётга қарши курашиш, унинг ҳажмини кескин қисқартириш вазифаси қўйилди. Чунки, очик иқтисодиёт, соғлом рақобат, ишбилармонлик ва инвестиция муҳити коррупцияни йўққа чиқарадиган омиллардир.

Дарҳақиқат, коррупция қанча кам бўлса, инвестиция шунча қўпаяди. Инвестиция эса Ўзбекистон иқтисодиётини ҳаракатлантирувчи, ривожлантирувчи кучdir.

Хулоса қилиб айтганда, коррупцияни енгсак, бизни ҳеч ким ҳеч қачон енга олмайди, Ўзбекистонимиз ривожланади, халқнинг ҳокимиятга ва келажакка ишончи ортади.

01.00.00
05.00.00

FIZIKA, MATEMATIKA VA TEKNIKA FANLARI
ФИЗИКА, МАТЕМАТИКА И ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ
PHYSICS, MATHEMATICS AND TECHNICAL SCIENCES

KICHIK TADBIRKORLIKNING HUDUDLARNING IJTIMOIY-IQTISODIY RIVOJLANISHIGA TA'SIRI VA UNING EKONOMETRIK TAHLILI

Qarshiboyev X.Q.

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti, f.-m.f.n.

Annotatsiya. Ushbu maqolada mamlakatimizda kichik tadbirkorlikning hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'siri va uning ekonometrik tahlili keltirilgan. Tahlilda eng kichik kladratlar usuli yordamida tahlil olib borilgan.

Kalit so'zlar: tadbirkorlik, ekonometrik tahlil, innovatsiya, korrelyatsiya-regressiya, ekstrapolyatsiya, samara, samaradorlik, natijaviy omil.

Аннотация. В данной статье представлено влияние малого бизнеса в нашей стране на социально-экономическое развитие регионов и его эконометрический анализ. Анализ проводился методом наименьших квадратов.

Ключевые слова: предпринимательство, эконометрический анализ, инновации, корреляционно-регрессионный анализ, экстраполяция, результативность, результативность, фактор результата.

Abstract. This article presents the impact of small business in our country on the socio-economic development of regions and its econometric analysis. The analysis was carried out using the method of least squares.

Key words: entrepreneurship, econometric analysis, innovation, correlation-regression, extrapolation, effectiveness, efficiency, result factor.

Kirish

O'zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish, unga keng iqtisodiy erkinlik berish bilan tavsiflanadi. Shu jihatdan, hozirgi kunda respublikamizda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishga alohida e'tibor berilmoqda. Chunki, kichik biznes va tadbirkorlik sohasini rivojlantirish masalasiga davlatimiz iqtisodiy siyosatining strategik vazifasi sifatida qaralmoqda.

Kichik biznes kapital taqchilligi sharoitida ko‘p mablag‘ talab etmaydigan xo‘jalik faoliyati sifatida resurslar aylanmasining yuqori sur’atlarini ta’minlaydi, iqtisodiyotni qayta qurish, iqtisodiy nobarqarorlik va resurslar cheklanganligi sharoitida iste’mol bozorini shakllantirish va uni to’ldirish muammosini tez hamda tejamlı tarzda hal etadi. Kichik korxonalar iste’mol talabining o‘zgarishiga darhol moslashadi va shu yo‘l bilan iste’mol bozoridagi zaruriy muvozanatni ta’minlaydi.

Kichik biznes yangi ish o‘rinlarini yaratishi bilan ishsizlik muammosini hal etishda muhim rol o‘ynaydi. Hozirgi payta ushbu soha nafaqat iqtisodiyotning o‘sish sur’atlarini jadallashtirishda, balki mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo‘lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishda ham yetakchi o‘rin tutmoqda. Oxirgi yillarda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi korxonalar soni yil sayin ortib borayotgani sohaning izchil rivojlanayotganligidan dalolat beradi.

So‘nggi yillarda respublikamiz iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida tadbirkorlikda ilmiy texnik faoliyat natijalaridan yanada samaraliroq foydalanish borasidagi amalga oshirilayotgan tadbirlar natijasida ijobjiy natijalarga erishilmoqda. Ayniqsa, kichik tadbirkorlikning jadal sur’atlar bilan rivojlanib borishi va raqobat muhitini kengaytirish sohasida bu holat aniq ko‘zga tashlanmoqda. Shu o‘rinda aytish kerakki, milliy iqtisodiyotni rivojlantirishning hozirgi holatida innovatsion faoliyatni rivojlantirish bo‘yicha metodologik yondashuvlarning yetarlicha ishlanmaganligi kichik tadbirkorlik sohasida innovatsion faoliyatga yo‘naltirilgan investitsiyalardan foydalanish samaradorligini baholashda bir muncha qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Bozor iqtisodiyoti asoslari, jumladan xususiy mulk shakllariga asoslangan korxonalar faoliyati ilmiy tadqiqotchilar tomonidan ko‘p yillar davomida har tomonlama o‘rganilib kelingan. Kichik biznes muammolarining ayrim nazariy va amaliy yo‘nalishlari chet ellik iqtisodchi olimlar K.Dj.Kempbell, Djon Berdjes, Den Shtaynxoff, X.Shvalbe, E.A.Utkin, M.M.Maksimtsov, V.Ya.Gorfinkel va boshqalarning ilmiy ishlarida yoritib berilgan. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorilkni rivojlantirish va kengaytirishning nazariy muammolari bilan iqtisodchi olimlar: S.S.G‘ulomov, Yo.A.Abdullaev, V.B.Berkinov, B.Yu.Xodiev va boshqalar shug‘ullanib kelmoqdalar. Jumladan, S.S.G‘ulomovning – Tadbirkorlik va kichik biznes, B.Yu.Xodiev, M.S.Qosimova va boshqalarning – Kichik biznesni boshqarish, D.A.Shodibekova, M.S.Qosimova va boshqalarning – Kichik biznesni boshqarish, M.R.Boltaboev va boshqalarning – Kichik biznes va tadbirkorlikl kabi o‘quv qo‘llanmalarida kichik biznesning shakllanishi va rivojlanishi, kichik biznes tashkiliy formalari, rejalashtirish, litsenziyalash, boshqarish psixologiyasi, kichik biznesni moliyaviy holati va kredit bilan ta’minalash, kichik biznesda marketingni xususiyatlari ko‘rib chiqilgan. “Tadbirkorlik va kichik biznes asoslari” fani hozirgi vaqtida iqtisodiy fanlarning

asosiyalaridan biri bo'lib, uni zamon talabida talqin qilish, o'qitish, o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq etish juda ham dolbzarb masaladir. Islohotlarni chuqurlashtirish, iqtisodiyotni liberalizatsiyalashtirishni asosiy negizi sifatida kichik biznesni rivojlantirishga bo'lgan e'tibor kichik biznes boshqaruvchilaridan katta bilimlarni talab qiladi. Hozirgi kunda nodavlat sektorida iqtisodiyotda band bo'lgan kishilarning to'rtdan uch qismi mehnat qilmoqda. Ularning daromadini oshirish har bir tadbirkordan ishni nimadan va qanday boshlash kerak, uni qanday tashkil etish va boshqarish kerakligi haqida ko'nikmaga ega bo'lishni taqqozo etadi. Shu jihatdan olib qaraganda ushbu maqola hozirgi modernizatsiyalash sharoitida nafaqat iqtisodiyotning o'sish sur'atlarini jadallashtirishga, balki, mamlakatimiz uchun nihoyatda muhim bo'lgan bandlik va aholi daromadlarini oshirish masalalarini hal etishga muhim hissa qo'shadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Iqtisodiyotning innovatsion rivojlanishi sharoitida mehnat taqsimoti nisbatan yuqori darajada chuqurlashib borayotgan kichik korxonalarda jarayonlar samaradorligini oshirish uchun maqbul iqtisodiy va boshqaruv qarorlarini ishlab chiqish va ularni ijrosini ta'minlash alohida muhim hisoblanadi. Zamonaviy boshqaruv tizimi esa iqtisodiy jarayon va hodisalarning kelgusidagi holati hamda ko'lamini aniqlashda ishonchli usul va vositalardan foydalanishni taqozo etadi.

Kichik tadbirkorlikning hududning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini ekonometrik tahlili iqtisodiy-matematik usullar vositasida murakkab ijtimoiyiqtisodiy hodisalarning bog'liqlik kuchini tadqiq etish, ularning qonuniyatlarini aniqlash va tajriba orqali kuzatish imkonini beradi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqotimizda kichik tadbirkorlikning hududning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishiga ta'sirini baholash va prognozlashtirish modelini ishlab chiqish maqsadida Yo.A.Abdullayev, Ya.R.Magnus, M.Ivanova, Endryu F.Sigel kabi olimlarning ilmiy ishlarini o'rganib chiqdik. Ular ekonometrik tahlil, ya'ni korrelyatsion-regression tahlil asosida istiqbollashtirish usullari-ni ishlab chiqishgan va ularni takomillashtirish bo'yicha ishlarni amalga oshirganlar.

Kichik tadbirkorlikning hududning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishiga ta'siri samaradorligini oshirishni korrelyatsion-regression tahlil usullari yordamida tahlil qilish asosida omillar orasidagi bog'liqlik kuchini aniqlash hamda investitsion faoliyatni tahlil etish va baholash orqali kichik tadbirkorlik sohasida samarali iqtisodiy va boshqaruv qarorlari aniqlanadi.

Bunda model tuzilishining eng muhim bosqichi natijaviy, bashorat qilingan ko'rsatkichning tanlab olingan omillarga bog'liqligini tavsiflovchi ekonometrik ifodani tanlashdan iboratdir. Kichik tadbirkorlikning hududning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishiga ta'siri samaradorligini oshirishni istiqbollashtirish ko'lami qanchalik aniq va mufassal bo'lsa, ushbu tizimni boshqarish va jozibadorlikni oshirish

imkoniyatlari shunchalik yuqori bo‘ladi. Kichik tadbirkorlikning hududning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishiga ta’siri samaradorligini oshirishni tahlil etish va istiqbollashtirishda formallahsgan usulga taalluqli bo‘lgan korrelyatsiya-regressiya, ekstrapolyatsiya, trend va boshqa matematik-statistik usullardan foydalanish maqsadga muvofiq, deb hisoblaymiz. Formallahsgan usulda iqtisodiy jarayonlarni istiqbollashtirish masalasiga ijobiy yondashuvlar bilan bir qatorda miqdoriy baholashning iqtisodiy ahamiyati unchalik yuqori emas, degan nuqtai nazar tarafdarları ham mavjud. Ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni tadqiq etishda ilmiy istiqbollashtirishning uch guruhini alohida ko‘rsatib o‘tish mumkin: taraqqiyot yo‘nalishlari va tendensiylarini tavsiflovchi istiqbollar; kelajakdagি aniq bir vaqtda sodir bo‘lish ehtimoli yuqori bo‘lgan hodisalarni tavsiflovchi istiqbollar; kelajakda kutilayotgan holatni tavsiflovchi istiqbollar. Kichik tadbirkorlikning hududning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishiga ta’siri samaradorligini oshirishni istiqbollashtirishda faqatgina birinchi guruhga taalluqli bo‘lgan modellardan foydalanish maqsadga muvofiqdır.

Hozirgi vaqtda Kichik tadbirkorlikning hududning ijtimoiyiqtisodiy rivojlanishiga ta’siri samaradorligiga ta’sir etuvchi asosiy omillarni korrelyatsion-regression usullardan foydalanib aniqlash, ko‘p omilli regression modellarni tuzish orqali uning rivojlanish istiqbolini bashorat qilish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Ushbu tadqiqot ishlarini bajarish uchun birinchi navbatda Kichik tadbirkorlik sohasida investitsion jarayonlarga ta’sir etuvchi barcha omillarni aniqlash va korrelyatsion-regression usullardan foydalanib, ulardan eng asosiylarini tanlab olishdan boshlanadi. Kichik tadbirkorlikning hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri samaradorligini oshirishning ekonometrik modelini tuzish uchun unga ta’sir etuvchi quyidagi omillar tanlab olindi (1-jadval):

1-jadval

Hududlarning aholi jon boshiga to’g’ri keladigan yalpi ichki mahsuloti hamda undaa kichik tadbirkorlik ulushi

Hududlar	Aholi jon boshiga to’g’ri keladigan yalpi ichki mahsulot (ming. сўм) – Y	YaIM da kichik tadbirkorlik ulushi (%), X
Samarqand shahar	7427,0	81,2
Kattaqo’rg’on	1629,1	79,4
Oqdaryo	1057,9	76,8
Ishtixon	1165,2	74,6
Qo’shrabot	258,9	25,9

Ushbu omillarning natijaviy omilga ta’sirini aniqlash uchun korrelyatsion-regression tahlil usullaridan foydalanish mumkin. Bu esa juft korrelyatsiya koeffitsiyentlarini hisoblash yo‘li bilan aniqlanadi. Bu usul bizga bir-birini takrorlaydigan va natijaviy omil bilan kuchsizroq bog‘lanishda bo‘lgan omillarni

tuzilayotgan ekonometrik modelga kiritmaslik imkonini beradi. So‘ngra korrelyatsion-regression usullar yordamida ko‘p omilli ekonometrik model tuziladi.

Omillar bog‘liqligining ekonometrik modelini aniqlash uchun ko‘p omilli korelyatsion-regression tahlil usulidan foydalaniladi. Ishda samaradorlik ko‘rsatkichlarini tahlil qilish uchun quyidagi ekonometrik modeldan (ko‘p omilli regressiya tenglamasidan) foydalanildi:

$$y = \beta_0 + \sum_{i=1}^m \beta_i x_i \quad - \text{chiziqli model}$$

$$y = \beta_0 + \sum_{i=1}^m \beta_i \ln x_i \quad - \text{logarifmik model}$$

$$y = \beta_0 + \sum_{i=1}^m \frac{\beta_i}{x_i} \quad - \text{giperbolik model}$$

$$y = \beta_0 \prod_{i=1}^m x_i^{\beta_i} \quad - \text{ko'rsatkichli model}$$

bunda, β_0 – ozod hadi;

y – xizmat ko‘rsatish sohasi asosiy kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar hajmi

x – xizmat ko‘rsatish sohasi asosiy kapitaliga kiritilayotgan investitsiyalar

hajmiga ta’sir etuvchi asosiy omillar;

m – tanlangan omillar soni.

$Y=a+bx$ chiziqli regressiyaning a va b parametrlarini hisoblash uchun quyidagi normal tenglamalar sistemasini a va b larga nisbatan yechamiz:

$Y=a+bx$ chiziqli regressiyaning a va b parametrlarini hisoblash uchun quyidagi normal tenglamalar sistemasini a va b larga nisbatan yechamiz:

$$\begin{aligned} n \cdot a + b \cdot \sum x &= \sum y \\ a \cdot \sum x + b \cdot \sum x^2 &= \sum x \cdot y \end{aligned}$$

Hisoblashni amalga oshirish uchun quyidagi ishchi jadvalni tuzamiz:
(Korrelyatsion jadval)

	Y	x	yx	x ²	y ²	deltaY(x)	y-deltaY(x)	A(i)
1	7,427.00	81.20	603,072.40	6,593.44	55,160,329.00	836.14	6,590.86	88.74
2	1,629.10	79.40	129,350.54	6,304.36	2,653,966.81	834.98	794.12	48.75
3	1,057.90	76.80	81,246.724	5,898.24	1,119,152.41	833.30	224.60	21.23
4	1,165.20	74.60	86,923.92	5,565.16	1,357,691.04	831.87	333.33	28.61

5	258.90	25.90	3,234.00	670.81	67,029.21	800.37	-541.47	209. 14
Jami	11,538.10	337.90	903,827.5 8	25,032. 01	60,358,16 8.47	4,136.67	7,401.43	396. 47
o'rtacha qiymat	827.33	67.58	180,765.5 2	5,006.4 0	12,071,63 3.69	X	x	79.2 9
Sigma	- 503,714.93	439.35	x	x	X	X	x	x
sigma kvadrat	253,728,72 9,137.79	193,024.56	x	x	X	X	x	x
		124,854.33	55911.18 66					
b=		0.64683132 4						
a=		783.62						

Jadval ma'lumotlaridan foydalanib, a va b parametrlarini qiymatini hisoblaymiz:

$$b=0,65$$

$$a=783,62$$

Parametrلarning qiymatlarini o'rniqa qo'ysak ushbu regressiya tenglamasini olamiz:

$$Y_x = 783,62 + 0,65 \cdot x$$

Tuzilgan regressiya tenglamasi o'rtacha kunlik ish haqqini 1000 so'mga ortishi oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olish uchun xarajatlar ulushi o'rtacha 650 so'mga ortishini ko'rsatadi.

Chiziqli juft korrelyatsiya koeffitsiyentini hisoblaymiz:

$$r_{xy} = b \frac{\delta_x}{\delta_y} = 0,647 \frac{439.35}{-503714.93} = -0,0006$$

Bog'lanish o'rta miyona, teskari.

Determinatsiya koeffitsiyentini hisoblaymiz:

$$r_{xy}^2 = (-0,0006)^2 = 0,00000036$$

Determinatsiya koeffitsiyentining bu qiymati natija-y ning variatsiyasi 0.000036 foiz x omil belgining variatsiyasiga bog'liqligini ko'rsatadi.

Regressiya tenglamasiga x ning haqiqiy qiymatlarini qo'yib, δy_x ning nazariy qiymatlarini topamiz.

Endi delta A – approksimatsiyaning o'rtacha xatoligini hisoblaymiz.

$$\bar{A} = \frac{1}{n} \sum \left| \frac{y - \delta y_x}{y} \right| \cdot 100\% = 4,4$$

Bu, natijaviy belgining hisoblangan qiymatlari nazariy qiymatlaridan 4,4 foizga chetlanishini ko'rsatadi.

Fisherning F-kriteriyasini hisoblaymiz:

$F_{haq} = \frac{r_{xy}^2}{1-r_{xy}^2} \frac{n-m-1}{m}$, bu yerda n- kuzatuvlar soni, m – erkli o’zgaruvchilar sono.

$$F_{haq} = \frac{0,00000036}{0,99999964} 3 = 1.08$$

Demak, hosil qilingan ko’p omilli regressiya tenglamamiz ahamiyatli hisoblanadi. Yuqorida ishlab chiqilgan hududlarda kichik tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisdiy samaradorligini ishirishga tegishli ekonometrik modellar asosida O’zbekiston Respublikasi kichik tadbirkorlik sohasini rivojlanishini prognozlash imkonini yuzaga keladi.

Mamlakatimizda bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishga shaxsan davlatimiz rahbari tomonidan e’tibor qaratilmoqda. Tadbirkorlik vakillari bilan muntazam ravishda o’tkazilayotgan, shu jumladan 2021 yil 20 avgustida bo’lib o’tkan uchrashuv ham bu fikrning yaqqol dalili.

Jahon tajribasi shuni ko’rsatmoqdaki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari barqaror iqtisodiy o’sishning asosiy omili, iqtisodiy kon“yunkturaning o’zgarishlariga tez moslasha oladigan, yangi texnika va texnologiyalarni doimiy ravishda talab qiladigan, mehnat unumdarligi yuqori bo’lgan xo’jalik sub“ektlari sifatida keng faoliyat yuritmoqda. Darhaqiqat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini izchil rivojlantirish natijasida aholini yangi ish joylari va daromad manbai bilan ta“minlash, joylarda tashabbuskorlikni rag’batlantirish orqali aholi orasida tadbirkorlik ko’nikmalarini ommalashtirish imkoniyatlari paydo bo’ladi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalari milliy iqtisodiyotning samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Shu bois, bugungi kunda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish asosida mamlakatda o’rtal mulkdorlar sinfini shakllantirish, ichki bozorni nisbatan arzon va sifatli zaruriy tovar va xizmatlar bilan to’ldirish, yangi ishchi o’rinlarini yaratishga, shuningdek, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni eksportga yo’naltirish orqali mamlakatimizning eksport salohiyatini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Shu maqsadda biz turli manbalarni o’rganish asosida rivojlangan va rivojlanish bosqichiga kirayotgan bir necha xorijiy mamlakatlarning bu boradagi tajribalarini o’rganish va tahlil etish asosida ulardan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda kichik biznes va xususiy kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning salmog’ini oshirishga tadbiq etishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Shuningdek, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish borasida Janubiy Koreya, Isroil, Malayziya va Iordaniya davlatlarida ham foydali tajribalar to’plangan. Xorijiy mamlakatlar tajribalarida, birinchidan, rivojlanayotgan mamlakatlarda muhim iqtisodiy omillardan biri, bu kichik biznes rivoji bo’lib, bu boradagi har qanday umummanfaatini ko’zlagan samarali faoliyatlar davlat ahamiyatiga ega bo’ladi va qo’llab-quvvatlanadi. Zero, kichik biznes faoliyati o’sib, yanada samarali biznesga aylanishi, mamlakat ichki bozorini tovar hamda xizmatlar turlari bilan to’ldirishi, shu tariqa eksport salohiyati rivojiga hissa qo’shilishi, aholining ish bilan bandligi muammosi echilishiga ko’maklashuvi, aholining real daromadi o’sishiga, pirovard natijada aholinining

turmush darajasini yuksalishiga olib keladi. Ikkinchidan, iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida, jahon bozorida raqobat kuchayayotgan bir paytda, yirik korxonalardan ko'ra aynan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarida raqobatga dosh berish, manevrilar qilish, ishlab chiqarish yo'naliшини o'zgartirish kabi iqtisodiy chora tadbirlar ko'rish oson kechadi. Ko'rinish turibdiki, xorijiy mamlakatlarda kichik biznesni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning rivojlangan tizimi mavjud bo'lib, bu hol raqobatning kuchayishi sharoitida ijtimoiy-itisodiy muhitning barqaror taraqqiy etishini ta'minlaydi. Bu esa, davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash mexanizmining to'laqonli rivojlanganligidan dalolat beradi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqotning ilmiy yangiligi shundan iboratki, hududlarning aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsuloti hajmida kichik tadbirkorlik ulushining ham ahamiyati bor. Hududlarda kichik tadbirkorlik salohiyatini oshirish orqali aholi jon boshiga to'g'ri keladigan yalpi ichki mahsulotning hajmini oshirishga erishish mumkin.

Tadbirkorlik va biznes iqtisodiy faoliyatning bir turi bo'lib, bu tushunchalar xususiy shaxslar, korxona, tashkilotlar tomonidan daromad olish maqsadida o'zining va shartnomadagi sheriklarining manfaatlarini ko'zlab, ishlab chiqarish, sotib olish va sotish yoki boshqa tovarlar, xizmatlarni amalga oshirish yoki pulga ayirboshlash kabi erkin xo'jalik yuritish faoliyatini yuritishni bildiradi. Kichik biznes subyektlari huquqiy maqomi, band bo'lган xodimlar soni, mulkchilik shakli, faoliyat yo'naliishi, faoliyatning tarmoq yo'naliislari bo'yicha bir qancha shakllari mavjud. Kichik biznes subyektlari jahon moliyaviy iqtisodiy inqirozini salbiy oqibatlarini natijasida vujudga kelgan muammolarni hal etishga muhim hissa qo'shadi.

Foydalaniłgan adabiyotlar ro`yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi "2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli farmoni // www.lex.uz
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 24 yanvardagi "Respublikada ishlab chiqarishni rivojlantirish va sanoat kooperatsiyasini kengaytirishning samarali tizimini yaratish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-99 son Qarori // www.lex.uz
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 iyulda "O'zbekiston Respublikasida raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 3832-sonli Qarori
4. Engle va Granger, 1987; Hassler va Wolters, 2006.



5. Dickey D.A., and W.A.Fuller 1979. Distribution of the estimators for autoregressive time series with a unit root. Journal of the American Statistical Association 74: 427–431
6. Dihub Mustafa U.Karakaplan “This time is really different: The multiplier effect of the Paycheck Protection Program (PPP) on small business bank loans” Journal of Banking & Finance Volume 133, December 2021, 106223.
<https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S0378426621001825?via%3>
7. Oilaviy tadbirkorlik: ish o‘rinlarini o‘zimiz yaratamiz.
<https://uzanalytics.com/iqtisodi%D0%B5t/3671>

FOYDALANUVCHI TOMONIDAN ANIQLANGAN BERILGANLAR TURLARI

Abdug‘aniyev N.N.
University of Business and Science o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolani maqsadi algoritmlarni tahlil qilish, ularning belgilanishlari, munosabatlari va iloji boricha ko‘proq masalalarni yechishning ahamiyatini tushuntirishdan iborat.

Tayanch iboralar: o‘zgaruvchilar, rekursiv funksiyalar, berilganlar turlari, int, float, char, double, bool, struct, berilganlarning abstrakt turi (BAT), LIFO (Last-In First-Out), algoritm kalit so‘zlaridan foydalaniladi.

Аннотация. Цель этой статьи объяснить важность анализа алгоритмов, их определений, взаимосвязей и решения как можно большего количества проблем.

Ключевые слова: переменные, рекурсивные функции, типы данных, int, float, char, double, bool, struct, абстрактный тип данных (BAT), LIFO (Last-In First-Out), алгоритм, полученный из ключевых слов.

Abstract. The purpose of this article is to explain the importance of analyzing algorithms, their definitions, relationships, and solving as many problems as possible.

Key words: variables, recursive functions, data types, int, float, char, double, bool, struct, abstract data type (BAT), LIFO (Last-In First-Out), algorithm derived from keywords.

Kirish

Avvalo algoritmlarning asosiy elementlarini tushunishga, algoritmlarni tahlil qilishning ahamiyatiga to‘xtalamiz. Ushbu maqolanii tugatgandan so‘ng, har qanday berilgan algoritm (ayniqsa, rekursiv funksiyalar)ning murakkabligini aniqlay olishingiz mumkin. Keling, algoritm ishlataligani tushunchalarni ko‘rib chiqaylik.

O‘zgaruvchilar – bu berilganlarni saqlash uchun ishlatalib, algoritm ishlashi davomida har xil berilganlarni o‘zgaruvchilarda saqlashi mumkin, shuning uchun berilganlarni saqlash uchun algoritmda o‘zgaruvchilar kerak bo‘ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Axborot texnologiya sohasida bugungi kunda juda katta yangiliklar bo‘lgan va bo‘lib kelmoqda. Berilganlar strukturasi fani ham ma’lumotlarni saralashni takomillashib kelayotgan sohalardan biridir. Ushbu sohada ilmiy ishlarni olib borgan tadqiqotchi olimlarni, ilmiy ishlaridan foydalangan holda ushbu maqolani

yaratdik. Ular S.M.Gaynazarov, D.Saidovlar, Sh.Madraximov, R.Lafore, N.Karuman, M.A.Weiss, Aho A.V., Hopcroft J.E., Ullman J.E, Bucknall J. kabi olimlar ilmiy ishlaridan foydalanilgan holda ushbu maqola yozildi.

Tadqiqot metodologiyasi

Algoritmlarni bosqichma-bosqich amalga oshirish, berilganlar tuzilmalari va algoritmlarning qanday ishlashini ko‘rsatish uchun muayyan muhim usullarda tushuntirish.

Tahlil va natijalari

O‘zgaruvchilar har qanday qiymatlarni saqlashi mumkin, masalan, butun (10, 20), haqiqiy sonlar (0.23, 5.5) yoki shunchaki 0 va 1. O‘zgaruvchilardan foydalanish uchun ularni qabul qilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar turiga bog‘lashimiz kerak. Berilganlar turi – bu dasturlash tilida oldindan aniqlangan qiymatlarga ega bo‘lgan ma'lumotlar to‘plamiga murojaat qilish uchun ishlatalidigan nom. Berilganlar turlariga misollar: butun son, suzuvchi nuqtali haqiqiy son, belgi, satr va boshqalar. Kompyuter xotirasida faqat nol va bir saqlanadi. Faraz qilamiz bizda qandaydir berilganlar mavjud bo‘lib, biz ularni kodlashni xohlasak, unda nol va bir shaklida yechim berish juda qiyin. Foydalanuvchilarga yordam berish uchun dasturlash tillari va kompilyatorlar bizga berilganlar turlarini taqdim etadi. Masalan, butun son int 2 baytni egallaydi (aslida qiymat kompilyatorga bog‘liq), float 4 baytni egallaydi va hokazo. Bu shuni anglatadiki, biz xotirada 2 baytni (16 bit) birlashtiramiz va uni butun son deb ataymiz. Xuddi shunday, 4 baytni (32 bit) birlashtirib, uni haqiqiy son deb ataymiz. Berilganlar turi kodlash mashaqqatini kamaytiradi. Yuqori darajada berilganlarning ikkita turi mavjud:

- Tizim berilganlar turlari (tayanch berilganlar turlari deb ham ataladi);
- Foydalanuvchi tomonidan aniqlangan berilganlar turlari.

Tizim tomonidan aniqlanadigan berilganlar turlari tayanch turlar deyiladi. Ko‘pgina dasturlash tillaridagi berilganlarning tayanch turlariga quyidagi turlar: int, float, char, double, bool va boshqalar kiradi. Har bir tayanch tur uchun kompyuter xotirasidan ajratiladigan baytlar soni dasturlash tillariga, kompilyatorga va operatsion tizimga bog‘liq. Turli tillar bir xil tayanch berilganlar turi uchun turli o‘lchamlardan foydalanishi mumkin. Berilganlar turlarining hajmiga qarab, ular qabul qilishi mumkin bo‘lgan qiymatlar diapozoni ham turlicha bo‘ladi. Masalan, int 2 yoki 4 bayt egallashi mumkin. Agar u 2 baytli (16 bit) bo‘lsa, unda umumiylumkin bo‘lgan qiymatlar diapozoni -32768 dan +32767 oraliqgacha ya’ni -2 15 dan 215 -1 oralig‘idagi butun sonlarni qabul qilishi mumkin. Agar 4 baytli (32 bit) bo‘lsa, unda mumkin bo‘lgan qiymatlar [-2147483648, +2147483647] oqaliqdagi butun sonlarni qabul qiladi ya’ni -2 31 dan 231 -1 gacha. Boshqa berilganlar turlari ham xuddi shu tarzda bo‘ladi.

Agar qo‘yilgan masalani yechishda tizimda aniqlangan tayanch turlar yetarli bo‘lmasa, aksariyat dasturlash tillari foydalanuvchi tomonidan aniqlangan berilganlar turlari deb nomlangan yangi berilganlar turlarini aniqlashga imkon beradi. C/C++ dagi strukturalar va Java dagi sinflar maxsus berilganlar turlariga yaxshi misol bo‘la oladi. Masalan, quyidagi dastur matnida bir nechta tizim berilganlar turlarini birlashtirish orqali foydalanuvchi tomonidan aniqlangan Circle nomli berilganlar turi yaratilgan. Bu kompyuter xotirasi bilan ishlashda ko‘proq moslashuvchanlik va qulaylik beradi.

```
struct Point {double x; double y}; struct RGBColor {char red; char green; char blue;}; struct Circle {Point center; double radius; int thickness; RGBColor color};
```

Yuqoridagi mulohazalarga asoslanib, bizda o‘zgaruvchilarda berilganlar mavjud bo‘lganda, muammoni hal qilish uchun ushbu berilganlarni manipulyatsiya qilish uchun qandaydir mexanizm kerak bo‘ladi. Berilganlar tuzilmasi – bu berilganlarni samarali ishlatish uchun kompyuterda saqlash va tartibga solishning maxsus usuli. Berilganlar tuzilmasi – bu berilganlarni tartibga solish va saqlash uchun maxsus format. Berilganlar tuzilmalarining keng tarqalgan turlariga massivlar, fayllar, bog‘langan ro‘yxatlar, steklar, navbatlar, daraxtlar, graflar va boshqalar kiradi. Elementlarning tashkil qilinishiga qarab berilganlar tuzilmalari ikki turga bo‘linadi: 1) Berilganlarning chiziqli tuzilmalari: elementlarga murojaat ketma – ket tartibda amalga oshiriladi, ammo barcha elementlarni ketma – ket saqlash shart emas. Misollar: bog‘langan ro‘yxatlar, steklar va navbatlar. 2) Berilganlarning nochiziqli tuzilmalari: bu berilganlar tuzilmasining elementlari chiziqli bo‘lmagan tartibda saqlanadi. Misollar: daraxtlar va graflar.

Berilganlarning abstrakt turlarini aniqlashdan oldin, tizim tomonidan aniqlangan berilganlar turlarini boshqa nuqtai nazar bilan ko‘rib chiqamiz. Barchamizga ma’lumki, barcha tayanch berilganlar turlari (int, float va boshqalar) kelishuv bo‘yicha qo‘sish va ayirish kabi asosiy amallarni qo’llab-quvvatlaydi. Tizim ushbu amallarni berilganlarning tayanch turlari uchun amalga oshirilishini ta’minlaydi va har xil turlar uchun ular mashina buyruqlarining turli guruhlari tomonidan amalga oshiriladi.

Foydalanuvchilar tomonidan yaratiladigan berilganlar turlari uchun biz amallarni ham aniqlashimiz kerak bo‘lib, bu amallar hatto butun tuzilma 13 ustida ham amal qilishi mumkin, odatda foydalanuvchi tomonidan aniqlangan berilganlar turlari ularning amallari bilan bir qatorda aniqlanadi.

Masalani hal qilish jarayonini soddalashtirish uchun biz berilganlar tuzilmalarini ulardagи amallar bilan birlashtiramiz. Biz bu birlashishni berilganlarning abstrakt turlari (BAT) deb ataymiz.

BAT ikki qismdan iborat:

1. Berilganlarni e’lon qilish;
2. Amallarni aniqlash.

Odatda ishlatiladigan BAT lariga quyidagilar kiradi: bog‘langan ro‘yxatlar, steklar, navbatlar, ustuvor navbatlar, ikkilik daraxtlar, lug‘atlar, to‘plamlar (birlashma va izlash), xesh jadvallar, graflar va boshqa ko‘plab berilganlar tuzilmalari.

Masalan, stekda berilganlarni saqlash uchun LIFO (Last-In First-Out) mexanizmidan foydalaniladi. Stekka oxirgi kirgan element birinchi bo‘lib olib tashlanadi. Umumiyl amallar quyidagilardir: stekni yaratish, stekga elementni qo‘sish, stekdan elementni olib tashlash, stekning joriy uchini izlash, stekdagi elementlar sonini aniqlash va h.k.

BATni aniqlashda, tafsilotlari haqida qayg‘urmasligingiz kerak. Ular biz foydalanmoqchi bo‘lgan paytdagina amalga oshiriladi. Har xil turdag'i BATlar har xil turdag'i ilovalarga mos keladi, ba'zilari esa aniq vazifalar uchun ixtisoslashgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. R. Lafore / Структуры данных и алгоритмы на Java.
2. N. Karumanchi / Data Structures and Algorithms Made Easy: Data structures and Algorithmic Puzzles, Second edition, 2015.
3. M. A. Weiss / Data Structures & Algorithm Analysis in C++, 4th edition, 2014.
4. Aho A.V., Hopcroft J.E., Ullman J.E. / Data Structures and Algorithms, 2003.
5. Bucknall J. / The Tomes of Delphi™ Algorithms and Data Structures, 2003.
6. M.X. Hakimov, S.M.Gaynazarov BERILGANLAR BAZASINI BOSHQARISH TIZIMLARI Toshkent 2013.
7. X.N.Zaynidinov, J.T.IJsmnov, SH.B.Redjepov, I.Yusupov. MA’LUMOTLAR BAZASI Toshkent 2020.
8. Sh. Nazirov, A. Ne’matov, R. Qobulov MA’LUMOTLAR BAZASINI DASTURLASH CHUQURLASHTIRILGAN KURSI Toshkent – 2007.



**IQTISODIYOT FANLARI
08.00.00 ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ
ECONOMIC SCIENCES**

**HUDUDLARDA TURIZM DESTINATSIYALARINING SIFATINI
BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH**

Turdibekov I.X.

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Samarqand filiali dotsenti, i.f.n.

Annotatsiya. *Ushbu maqolada turizm destinatsiyalarini rivojlantirishda infratuzilma tashkilotchilarining boshqaruvini muvofiqlashtirishning nazariy jihatlari o'r ganiladi va destinatsiyalar infratuzilmasining holati misol tariqasida o'r ganiladi. Tahllillar asosida turizm infratuzilmasi obyektlarini rivojlantirish bo'yicha xalqaro tajribalar asosida takliflar ishlab chiqildi.*

Tayanch iboralar: turistik destinatsiyalar, turizm infratuzilmasi, destinatsiya sifati, baholash mezonlari.

Аннотация. В данной статье рассмотрены теоретические аспекты координатии управления организаторами инфраструктуры в развитии туристских направлений и проведено практическое исследование состояния инфраструктуры в направлениях. На основе анализа разработаны предложения на основе международного опыта развития объектов туристской инфраструктуры.

Ключевые слова: туристические направления, туристическая инфраструктура, качество направления, критерии оценки.

Abstract. This article explores the theoretical aspects of coordinating the management of infrastructure organizers in the development of tourism destinations, and the state of infrastructure in destinations is a case study. Based on the analysis, proposals have been developed based on international experiments on the development of tourism infrastructure facilities.

Key words: tourism destinations, tourism infrastructure, destination quality, evaluation criteria.

Kirish

Jahonda turizm sohasini barqaror rivojlantirishda turizm resurslaridan samarali foydalanishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalariga

e'tiborning kuchayishi avvalo, turizmning keng ko'lamli va yuqori daromadli faoliyat turi sifatida iqtisodiy ahamiyatining ortib borishi bilan bog'liq bo'lib, 2022-yilda uning dunyo yalpi ichki mahsulot (YaIM) tarkibidagi ulushi 7,6% ni tashkil qilgan. Butunjahon turizm va sayohatlar bo'yicha kengashi (The World Travel & Tourism Council, WTTC) prognozlariga ko'ra¹, 2033-yilda turizm va madaniy meros sohalari dunyo yalpi ichki mahsulotiga qo'shgan hissasini 15,5 trillion AQSh dollariga yetkaziladi, bu jahon iqtisodiyotining 11,6 foizini tashkil etadi hamda 430 million kishini ish bilan ta'minlaydi. Shu bois, 10 yil ichida mehnatga layoqatli aholining 12 foizi turizm va madaniy meros sohalarida band bo'ladi.

Yangi O'zbekistonni 2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan yangi taraqqiyot strategiyasidagi maqsadlari natijasida turizm obyektlarini saqlash, restavratsiya va konservatsiya qilish orqali turizm sohasini ham kelgusi yillarda sezilarli rivojlantirish ko'zda tutilgan. «Turizm sohasida yaratilgan 1 ta yangi ish o'rni boshqa sohalarda yana 2 ta ish o'rni paydo bo'lishiga turtki beradi. Hozirgi kunda turizm eksporti 1 milliard dollardan oshib o'tdi. Agar uni 3 – 4 barobar oshirsak, paxta ekmasak ham bo'laveradi»². Bu, o'z navbatida, hududlarning turizm infratuzilmasini diversifikatsiya qilish va modernizatsiyalashning ustuvor yo'nalishi hisoblanadi. Mamlakatimizda turizm sohasida erishilgan natijalar bilan bir qatorda madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish va sohada davlat nazoratini amalga oshirish, muzeylarning ommaviyligini oshirish va xizmatlar sohasini kengaytirish, marketing sohasini rivojlantirish, madaniy tadbirdari uchun infratuzilmani yaratish, madaniy meros resurslari salohiyatidan oqilona va samarali foydalanish usullarini takomillashtirish kabi istiqbolli yo'nalishlarni ishlab chiqish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Turizmni rivojlantirishda asosiy maqsad infratuzilmaning ahamiyatini aniqlab, uni takomollashtirish yo'llarini aniqlashdan iborat. Turistik infratuzilmalar turistik destinatsiyalarning jozibadorligi va raqobatbardoshligini oshiradi. Turistik infratuzilma turizmni rivojlantirish bilan birga xususiy sektordagi manfaatdor tomonlarning faol ishtiroy etishini taqozo etadi. Mazkur tadqiqotlar turizm infratuzilmasi konsepsiyasini o'rganishga qaratilgan bo'lib, turistik infratuzilma ob'ektlari va turizmning rivojlanishini o'zaro muvofiqlashtirish, xususiy sektorning turistik infratuzilmasi va turistik destinatsiyalarni rivojlantirishdagi o'rmini aniqlashga xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Ushbu maqolaga oid mavzuni yoritishda «Infratuzilma», «Turistik infratuzilma» atamasining ma'nosи aks ettirilgan Turistik infratuzilmani rivojlantirish bilan bog'liq bo'lgan nazariy fikrlardan foydalanilgan. Amaliyotda

¹ <https://wttc.org/research/economic-impact/> The World Travel & Tourism Council, WTTC

² <https://kun.uz/news/2023/06/26/> Шавкат Мирзиёев: «Туризм экспортини 3-4 баробар оширасак, пахта экмасак ҳам бўлаверади». Самарқанд, 26 июнь 2023 йил

qo'llanilishi darajasi esa mualliflar tomonidan olingan olib borilgan tadqiqot natijalari asosida tahlil qilingan.

Bugungi kunda turizm yuqori daromadli va jadal rivojlanayotganligi sababli hududiy iqtisodiyotda ushbu sohaning rivojiga katta axamiyat berilmoqda. Turistik ifratuzilmaning ahvolini izchil o'rganishdan avval, "turistik ifratuzilma" tushunchasining ma'nosi, ahamiyati, tarkibi va asosiy elementlarini anglab olishimiz zarur.

"Turistik ifratuzilma – ma'lum bir vaqt va joy oralig'ida turistning turli tuman istaklarini sifatli tarzda muhayyo etishga qaratilgan, turli moddiy va nomoddiy xususiyatlarga ega bo'lgan ob'ektlar yig'indisidir". "Turizm" va "Turist" so'zlari ilmiy adabiyotda XVIII asr oxirlarida paydo bo'ldi. U fransuzcha "tour" – sayohat so'zidan kelib chiqqan. Birinchi marta Buyuk Britaniyadagi yoshlar kontinentga o'qishga ketgan vaqtidan boshlab qo'llanilgan. Aniqrog'i bunday sayohat "grandtour" deb atalgan, sayohatchilarni sayyoohlар, deb atashgan. Odатда, turistik destinatsiya deganda turistlarga xizmat ko'rsatish uchun qulay sharoit yaratilgan turistik ob'ekt tushiniladi va bu butistik ifratuzilma tushuchasi bilan chambarchas bog'liq.

Keng ma'noda turistik ifratuzilmasi moddiy, huquqiy, ekologik va psixologik qulayliklarni o'z ichiga olib, ular turistik mahsulotning qulay, ishonchli va barqarorligini ta'minlaydi [5]. Turizm o'zida bir nechta tarmoqlarni mujasaamlashtirgani uchun "turizm ifratuzilmasi" ning yagona ta'rifi mavjud emas [1]. Maxsus adabiyotlar tahlili turizm ifratuzilmasi tushunchasining turli yondashuvlarga asoslangan ta'riflari mavjudligini ko'rsatadi. Mos ravishda iqtisodiy kapital ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan bo'lib, (masalan, yo'l, ko'cha, ko'priq va boshqalar), ijtimoiy kapital inson kapitalini xizmatlar ko'rsatish asosida oshirish bilan bog'liq (masalan, sog'liqni saqlash, ta'lim va boshqalar).

Turizm ifratuzilmasi keng ma'noga ega bo'lib, turistik destinatsiyadagi turizmni rivojlantirishga imkon beruvchi elementlar bilan bog'liq [6]. Bunda hudud ifratuzilmasining ba'zi jihatlari turizm ifratuzilmasi elementlari sifatida qaralishi mumkin [2]. Turizm ifratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha sa'yi-xarakatlar mamlakat turizm taraqqiyotiga bevosita ta'sir etadi [4].

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotning ob'ekti sifatida Samarqand shahrida joylashgan turistik destinatsiyalarning ifratuzilmasi olindi. Bunda turizm ifratuzilmasi ob'ektlari sifati va samaradorligini oshirish imkoniyatlari bilan bog'liq molivayi-iqtisodiy munosabatlar majmuidan iborat. Tadqiqotlar Samarqand shahridagi turistik destinatsiyalarda olib borilgan. Bunda ifratuzilmalar sifatini baholashning Buyuk Britaniya tizimidan foydalanildi. Tadqiqotning metodi bir qancha uslub va usullar majmuidan iborat. Tadqiqot davomida analiz va sintez, induksiya va deduksiya, sabab va oqibat, zamon va makon, tizimli yondashuv kabi uslublardan, natija bilan

omillar o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganishda moliyaviy-iqtisodiy matematik va statistik usullardan ham foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqotlar Samarqand viloyatida olib borilgan bo‘lib, 2023 yilda o‘tkazilgan. Samarqand viloyati hududida 1626 ta arxeologik, 670 ta me’moriy, 37 ta diqqatga sazovor joy, 18 ta monumental, 21 ta memorial moddiy-madaniy meros ob’ektlari mavjud. Shundan sayyoohlар tashrif buyuradigan arxitektura yodgorliklari 473 ta, arxeologik yodgorliklar obidalari 5 tani, monumental san’at yodgorliklari 18 tani, muzeylar 8 tani, davlat ro‘yxatidan o‘tmagan muzeylar 3 tani, diqqatga sazovor joylar 37 ta, ziyorat turizm ob’ektlari 23 tani tashkil etadi. Tadqiqotlar uchun eng ommabop 10 ta turistik destinatsiya ajratib olindi.

Turistik destinatsiyalarning sifatini aniqlashda Buyuk Britaniyada turizm infratuzilmasi ob’ektlarini qo‘llaniladigan baholashning 5 balli sifatni ta’minlash sxemasiga asoslandik¹. Unga ko‘ra turistik destinatsiyalar 0 dan 5 balgacha baholanadi va ularga yulduzlar bo‘yicha daraja beriladi. Baholash ob’ektiv ko‘rsatkichlar bo‘yicha mustaqil ekspertlar tomonidan amalga oshiriladi. Bunda turistik infratuzilma 6 ta komponent bo‘yicha 5 balli shkala asosida baholanib, maxsus baholash varaqasi yuritiladi. Jarayon so‘ngida baholovchi ekspert natijalarni turistik destinatsiya rahbariyatiga taqdim etadi. Bunda asosan 6 ta bo‘lim asosida baholash amalga oshiriladi (1-jadval).

1-jadval

Turistik destinatsiyalar sifatini baholash mezonlari

Nº	Bo‘limlar	Baholash ko‘rsatkichlari
1	Turistik destinatsiyagacha etib kelish	<ul style="list-style-type: none"> - yo‘riqnomalar; - yo‘l ko‘rsatkichlari; - ob’ektning chetdan ko‘rinishi, obodonlashganligi; - mashinalar qo‘yish joyi holati.
2	Destinatsiyaga kirish	<ul style="list-style-type: none"> - aniq va tushunarli ko‘rsatkichlari; - bino yoki inshootning tashqi ko‘rinishi; - xodimlar tomonidan kutib olish sifati; - xodimlarning tashqi ko‘rinishi; - bino umumiy tuzilishi sifati; - tozalik va sarishtalik.
3	Ob’ektning namoyon qilinganligi	<ul style="list-style-type: none"> - mazmunini namoyon etish darajasi; - mijozlar oqimini boshqarish darajasi; - mijozlar guruhiiga moslashish darajasi; - axborotlarning etarliligi va xorijiy tillarga to‘g‘ri tarjima qilinganligi; - personalning munosabati;

¹ <https://www.qualityintourism.com/safety-standards>

		<ul style="list-style-type: none"> - ichki lavhalar; - tozalik va orastalik.
4	Ovqatlanish	<ul style="list-style-type: none"> - mijozlar oqimini boshqarish imkoniyati; - menyu tuzilishi; - taomlar assortimenti va xizmatlar; - personal munosabati; - muhit holati (sokin yoki shovqinli); - xonalarning bezatilishi; - tozalik va orastalik.
5	Chakana savdo	<ul style="list-style-type: none"> - mijozlar oqimini boshqarish imkoniyati; - mahsulotlar assortimentining mijozlar tarkibiga mosligi; - mahsulotlarni namoyish etish holati; - personal munosabati; - tozalik va orastalik.

Yuqorida keltirilgan uslubiyat asosida 10 turistik destinatsiyaning infratuzilmasi baholandi va ularning reytingi aniqlandi (2-jadval).

2-jadval

Turistik destinatsiyalar infratuzilmasining sifatini baholash natijalari

№	Turistik destinatsiya nomi	Bahosi	Reytingi
1	Registon majmuasi	5 (bebaho)	87
2	Amir Temur majmuasi (Go‘ri Amir maqbarasi)	4 (a’lo)	81%
3	Ruhobod majmuasi	4 (a’lo)	79%
4	Bibixonim masjidi majmuasi	4 (a’lo)	80%
5	Saroy mulkxonim maqbarasi	3 (juda yaxshi)	75%
6	Shohi Zinda majmuasi	4 (a’lo)	82%
7	Xazrati Hizr masjidi	4 (a’lo)	81%
8	I.A.Karimov yodgorlik kompleksi	5 (bebaho)	90%
9	M.Ulug‘bek rasadxonasi	4 (a’lo)	82%
10	Xuja Doniyor maqbarasi	3 (juda yaxshi)	75%

Xulosa va takliflar

Ilmiy izlanishlar ko‘rsatishicha barcha turistik destinatsiyalarning turistlarga xizmat ko‘rsatish sifati har yili betaraf ekspertlar tomonidan baholanishi va unga asosan maxsus sertifikat berib borish amaliyotini qo‘llash maqsadga muvofiq. Bunda turistik destinatsiyadani infratuzilma holatidagi mavjud kamchiliklarni bartaraf etish va jihozlash bo‘yicha tegishli tuzatishlarni kiritib borish imkoniyati vujudga keladi. Jumladan:

1. Viloyatdagi eng ko‘p sayyoh tashrif buyuradigan barcha madaniy meros ob’ektlarida mobil ilovalardan foydalanish imkoniyatini oshirish, jumladan QR-kod asosida turli xorijiy tillarda ma’lumot olish, buning uchun bepul Wi-Fi qurilmalarini o‘rnatish, ob’ektlarning veb-saytni va 3D o‘lchamli namoyishini

ta'minlash, yo'l ko'rsatkichlarini o'rnatish yaxshi natija beradi va turistlar oqimini yanada ko'naytiradi.

2. "SOS" tugmalar tashkillashtirish. Samarqand shahriga tashrif buyuradigan sayyoohlар oqimining ortib borishi natijasida sayyoohlarning havfsizligini ta'minlash uchun "SOS" tugmachalarini o'rnatish amaliyotini qo'llash maqsadga muvofiq. Buning asosida sayyoohlarning murojaatlarini tezlik bilan qabul qilish hamda o'z vaqtida yordam ko'rsatishga erishiladi.

3. Hozirgi paytda Samarqand shahridagi turistik destinatsiyalarda nogironlar uchun etarli sharoitlar yaratilmagan. Bu holatni bartaraf etish uchun nogironlar yo'lakchalarini tashkillashtirish, obidalar oldida nogironlar aravachalarini qo'yish orqali nogironlar uchun qulay ziyorat qilishga imkon tug'iladi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Dwyer, L., Forsyth, P., Dwyer, W. (2010), *Tourism Economics and Policy*, Bristol, Buffalo, Toronto, Channel view publications.
2. Lohmann, G., Netto, A.P. (2017), *Tourism theory concepts, models and systems*, CABI, Oxfordshire.
3. Mera, K. (1973), "Regional production functions and social overhead capital: An analysis of the Japanese case", *Regional and Urban Economics*, Vol. 3, pp. 157-186. DOI: [https://doi.org/10.1016/0034-3331\(73\)90013-4](https://doi.org/10.1016/0034-3331(73)90013-4).
4. Sharpley, R. (2009), *Tourism development and the environment: Beyond Sustainability*, UK and USA: Earthscan.
5. Simmons, D., Moore, K. (2016), "Recreation", In: Jafari, J., Xiao, H. (eds.), *Encyclopaedia of Tourism*, Springer Reference, Switzerland, pp. 777-780.
6. Swarbrooke, J., Horner, S. (2001), *Business travel and tourism*, Butterworth-Heinemann, Jordan Hill, Oxford.
7. Possibilities Of Application Of Digital Technologies In Tourism In The Context Of Covid-19 Pandemy / Kh.I.Turdibekov, S.N.Matlabov, I.K.Nimatov, Y.I.Turdibekov – PalArch's Journal of Archaeology of Egypt/Egyptology 17 (6), pp. 2323 – 2329.-2020.
<https://archives.palarch.nl/index.php/jae/article/view/1159>

ЎЗБЕКИСТОНДА ЭКОТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ВА УНИ АҲОЛИ ТУРМУШ ДАРАЖАСИГА ТАЪСИР ЭТИШ ЖИҲАТЛАРИ

Аблаизов А.А.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти ўқитувчisi

Аннотация. Уибу мақолада Ўзбекистонда экотуризм соҳасини ривожлантириши ва уни аҳоли турмуш даражасига таъсир этиши жиҳатлари баён қилинган.

Таянч иборалар: туризм, экотуризм, даромад, реал даромад, самарадорлик, турмуши даражаси, нафака, стипендия, социал трансферлар, мулк, рента, дивидент, ижара.

Аннотация. В данной статье описаны аспекты развития сферы экотуризма в Узбекистане и его влияние на уровень жизни населения.

Ключевые слова: туризм, экотуризм, доход, реальный доход, эффективность, уровень жизни, пенсии, стипендии, социальные трансферты, имущество, рента, дивиденды, аренда.

Abstract. This article describes aspects of the development of the field of ecotourism in Uzbekistan and its impact on the standard of living of the population.

Key words: tourism, ecotourism, income, real income, efficiency, standard of living, allowance, scholarship, social transfers, property, rent, dividend, rent.

Кириш

Тадқиқотларимизнинг натижалари туризмнинг таркибий қисми экотуризм бугун туризм бозорининг барқарор ривожланишида янги иш ўринларини яратишга ва унга турдош бўлган тармоқлар тараққиёти ҳамда соҳада юқори даромад олинишига имконият яратилаётганлигини кўрсатмоқда. Бутунжаҳон туризм ташкилотининг маълумотларига қўра, “2021 йилда экотуризмдан олинган даромад 185,87 млн АҚШ долларидан иборат бўлиб, 2027 йилга келиб 333,8 млн АҚШ долларига етиши кутилмоқда, экотуристлар сони эса 38,9 млн кишидан 71,6 млн кишига ортади” [1]. Ушбу маълумотлар экотуризм туристик-рекреаціон ресурслар самарадорлигини оширишга, табиатни асраш ва муҳофаза қилишга, маҳаллий аҳоли фаровонлигини юксалтиришга салмоқли ҳиссасини қўшишини кўрсатади.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Туризм соҳаси билан дунё олимлари шуғулланиб келганлар. Биз мазкур мақолада Ўзбекистонлик иқтисодчи олимлар номлари ва асарларини келтириб ўтишни мақсадга мувофиқ, деб топдик. Булар таркибига: Н.Тухлиев, И.С.Тухлиев, М.М.Мухаммедов, М.Қ.Пардаев, М.Т.Алиева, Д.Х.Аслanova, М.А.Ҳошимов, О.Ҳ.Ҳамидов, М.Т.Алимова, А.Эштаев, Б.Ш.Сафаров, Р.Хайтбаев, М.Э.Аҳтамова кабиларни киритиш мумкин. Ушбу олимлар туризм соҳасига оид илмий тадқиқот ишларини олиб бормоқдалар. Ушбу олимларнинг ишларида экотуризм соҳасини ривожлантириш бўйича умумий жиҳатлари ўрганилган.

Тадқиқот методологияси

Мақолада илмий абстракция, таққослаш, тизимли ва мантикий таҳлил, анализ ва синтез, индукция ва дедукция, даврийлаштириш каби усулларидан фойдаланилган.

Таҳлил ва натижалар

Тадқиқот натижалари шуни қўрсатадики, даромадлар тақсимотини тадқиқ этиш ва уни турли ижтимоий-иқтисодий ва замон ва макон нуқтаи назаридан истиқболли таққослаш аҳоли турмуш даражасини, ижтимоий таъминот даражасини ва жамият томонидан яратилган моддий бойликларни тақсимлашда ижтимоий адолатни баҳолаш учун асос бўлади. Шу сабабли аҳоли даромадларини тақсимлашнинг статистик таҳлиллари бюджет ва ижтимоий сиёsat бўйича қарорлар қабул қилиш учун асос бўлиб хизмат қиласди. Аҳоли турмуш даражасининг яхшиланиши, орттирган даромади борган сари ўсиб бориши ўз навбатида экотуризм ривожига ижобий таъсир ўтказади. Куйида экотуризмнинг ривожланиш манбаи бўлган аҳоли даромадлари, уларнинг статистик ҳолати тўғрисида қисқача фикр юритамиз.

Аҳоли даромадлари – бу аҳоли ёки унинг оила аъзолари томонидан маълум давр ичida олинган ёки ишлаб чиқарилган пул ва натурал маблағлар йиғиндисидир [2].

Энциклопедик луғатларда қайд қилинишича, “аҳоли даромадлари – барча аҳолига тегишли пул ва натурал (маҳсулот шаклида) тушумлар ҳамда қўрсатилган бепул хизматлар суммаси; аҳолининг миллий даромаддаги ҳиссаси. Аҳолининг жами турдаги даромадлари манбаи – иш ҳақи, пенсия, стипендия, нафақалар, мукофот, фойда, дивиденд, заём ва лотерея ютуғ‘и, банк тўлаган фоиз пули, кўчмас мулкдан келган рента тўлови ва ижара пули, суг‘урта қопламалари ва бошқалардан иборат. Бозор шароитида аҳоли даромадларининг енг катта қисми пул шаклига эга. Қишлоқ аҳолиси ўзининг томорқа хўжалигидан ҳам маҳсулот олиб, даромад кўради ва у натурал даромадга киради. Шунингдек, аҳолининг ёрдамга муҳтож қатламларига бепул маҳсулот берилади ва хизматлар қўрсатилади (бепул

овқатланиш, кийим-кечак, доридармон, транспорт ва коммунал хизмати ва ҳоказо); булар натурал даромадлар ҳисобланади. Аҳоли даромадлари номинал ва реал даромадларга бўлинади. Номинал даромад аҳоли муайян пул суммаси шаклида олган даромад бўлиб, инфляция таъсирида унинг ҳарид қобилияти пасайиши мумкин. Реал даромад – пул шаклидаги даромадга амалда қандай миқдорда истеъмол буюмлари ва хизматлар ҳарид этиш мумкинлигини кўрсатади. Аҳоли жон бошига ҳисобланган реал даромад аҳоли турмуш даражасининг умумлашган ва яхлит кўрсаткичи ҳисобланади. Иқтисодиётда аҳоли ялпи пул даромадларидан барча мажбурий ва ихтиёрий тўловлар (соликлар, қарз пули, бадаллар) чегириб ташлангандан сўнг унинг қўлига тэгадиган даромад ҳам муҳим аҳамиятга эга. Аҳоли қўлига тэгадиган даромад миқдорига соликлар кучли таъсир этади” [3].

Аҳолининг даромадлари аҳоли учун шахсий эҳтиёжларини қондиришда, муҳим манба боълиб хизмат қилади. Аҳоли даромадларига қўйидагиларни киритишимиш мумкин:

- меҳнати учун олган иш ҳаққи ва бошқа тўловлар;
- индивидуал меҳнат ҳамда тадбиркорлик фаолиятидан даромад;
- нафақа, стипендия ва бошқа социал трансферлар, мулк даромадлари, рента, дивидент, ижара даромадлари;
- ворислик, суғурта, қишлоқ хўжалик маҳсулотлари сотишдан тушумлар ва бошқалар. Аҳоли турмуш даражаси сифатига таъсир кўрсатувчи енг асосий омиллардан бири аҳолининг умумий ва жон бошига тўғри келадиган даромадлари ҳисобланади [4].

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг 2015 – 2030-йиллар учун мўлжалланган “Барқарор ривожланиш мақсадлари” дастурида 17 та глобал мақсаднинг биринчиси етиб “Мамлакатларда аҳолининг кам таъминланганик даражасини пасайтириш” мақсадини белгилади. Шунингдек, мазкур ҳужжатда 8-мақсад сифатида “Самарали бандликни ошириш ҳамда еркаклар ва хотин-қизларни муносиб иш билан та“минлаш асосида барқарор ва кенг қамровли иқтисодий ўсишга қўмаклашиш мақсади” белгиланди [5]. Қишлоқ ҳудудлари аҳолисининг даромадини ошириш бўйича бир қатор чоратадбирлар жаҳоннинг барча мамлакатларида амалга оширилмоқда. Шу билан бир қаторда Ўзбекистон Республикасида ҳам аҳоли даромадини ошириш ва камбағаллик даражасини қисқартириш бўйича амалий ишлар амалга оширилмоқда. Бинобарин, Президентимиз Шавкат Миромонович Мирзиёев томонидан илгари сурилган 2022 – 2026-йилларга мўлжалланган “Янги Ўзбекистон тарққиёти стратегияси”да қишлоқ хўжалиги ходимлари даромадини 2 баробарга ошириш кераклиги таъкидланган ва камчиликларни камайтириш мақсадида мамлакат ўз олдига 2026-йилга қадар камбағаллик даражасини 2 баробарга камайтириш ва мамлакат экспорт

ҳажмини 30 миллиард АҚШ долларига етказиш ҳамда хусусий секторнинг експортдаги ҳажмини 60 фоизга етказишни мақсад қилиб қўйди [6].

Ўзбекистон Республикасида камбағаллик даражасини камайтиш мақсадида жуда катта салмоғли ишлар қилинди. Хусусан “Темир дафтари”, “Аёллар дафтари” ва “Ёшлар дафтари” каби рўйхатлар шакиллантирилиб, қишлоқ ҳудудлари аҳолисининг ижтимоий ҳимояга муҳтоҷ қатламига субсидиялар ва кам фоизли кредитлар берилмоқда. Бу каби сайи ҳаракатлар замирида мамлакатда камбағаллик даражасини қисқартириб, қишлоқ ҳудудлари аҳолисини хусусий ҳамда якка тадбиркорлик фаолияти билан шуғуллантириш орқали аҳоли даромадларини ошириш кўзда тутилган.

Даромадларни тақсимлаш тўғрисидаги билимлар бутун мамлакатнинг барча аҳолисининг турмуш даражасини баҳолаш, шунингдек, турли ижтимоий групкалар ёки турли минтақалар аъзоларининг турмуш даражасини солишиши имконини беради. Даромад, шунингдек, бошқа мамлакатларга нисбатан мамлакат аҳолисининг нисбий турмуш даражасини кўрсатади. Кенг маънода, барча моддий ва ижтимоий ҳаёт шароитлари мажмуаси билан белгиланадиган турмуш даражасини ушбу умумий тушунчада аниқлаб бўлмайди.

Жадвал маълумотларидан кўриш мумкинки, Ўзбекистон Республикасида аҳоли даромадлари йилдан йилга ўсиш суръатини қайд этмоқда.

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида аҳоли умумий даромадларининг 5 йиллик ҳолати даражаси¹

Кўрсаткичлар номи	2017	2018	2019	2020	2021
Аҳоли умумий даромадлари, млрд.сўм	236893,1	300842,7	365735,6	415085,0	515660,7
Ўтган йилга нисбати %	119,7	127,0	121,6	113,5	124,2
Аҳоли жон бошига умумий даромадлар, минг сўм	7314,1	9128,6	10891,3	12125,6	14769,0
Ўтган йилга нисбати %	117,7	124,8	119,3	111,3	121,8
Аҳоли реал умумий даромадлари, млрд.сўм	216400,1	255971,0	319336,1	367559,6	465271,8
Ўтган йилга нисбати %	109,3	108,1	106,1	100,5	112,1
Аҳоли жон бошига реал умумий даромадлар, минг сўм	6681,4	7767,0	9509,6	10737,3	13325,8
Ўтган йилга нисбати %	107,5	106,2	104,2	98,6	109,9

¹ O‘zbekiston Respublikasi statistika qo‘mitasi - stat.uz.

Маҳаллий ижтимоий-иқтисодий ривожланишда экотуризмнинг ролини аниқлаш учун унинг қишлоқ жойларидаги уй хўжаликлари даромадига қўшган ҳиссасини аниқлаш муҳимдир.

Ушбу қишлоқ жойларида экотуризмнинг уй хўжаликлари даромадларига қўшадиган ҳиссасини ҳисоблаш респондентларнинг маълум маошлари ва уларнинг ойлик уй хўжаликлари даромадлари асосида амалга оширилди.

Демак, экологик туризмни ташкил етишда маҳаллий аҳоли манфаатларини инобатга олган ҳолда намунавий лойиҳаларни яратиш, уларни амалга оширишда реал ижтимоий-иқтисодий фойда олиш асосий вазифалардан ҳисобланади.

Олинган маълумотларга асосланиб, Самарқанд вилоятида экотуризм ривожланишининг 2015 – 2020 йиллардаги ўсиш динамикасини куйидагича беришни лозим топдик

2-жадвал

Самарқанд вилоятида экотуризмнинг ривожланиш динамикаси¹

№	Кўрсаткичлар	Йиллар					
		2015	2016	2017	2018	2019	2020
1	Экотуризм соҳасида ишловчи ходимлар киши (минг киши)	1047	1118	1232	1964	2907	897
	Ўтган йилга нисбатан ўзгариши	102,54	106,78	110,19	159,41	148,01	30,85
2	Экотуризм субектлари сони	23	26	35	44	115	93
	Ўтган йилга нисбатан ўзгариши % да	107,31	113,04	134,61	125,71	261,36	80,86
3	Экотуризм субектлардан олинган даромад, млрд.сўм	5,8	11	13,29	14,15	22,69	13,6
	Ўтган йилга нисбатан ўзгариши	132,47	189,65	120,81	106,47	160,35	59,93

Экотуризм соҳасида банд бўлган аҳоли сони 2015 йилда 2,54% га ўсган бўлса, 2016 йилда 6,78% ни, 2017 йилда 10,19% ни, енг юқори ўсиш

¹ Samarqand viloyati statistika boshqarmasi 2015 – 2020 yy. ma’lumotlari asosida muallif hisob-kitoblari .

2018 йилда 59,41% ни 2019 йилда esa 48,01% ни ташкил етган 2020 йилга келиб бу соҳада фаолият юритадиган меҳнат ресурслари 69,15% га қисқаришига бутун дунёда юзага келган пандемиянинг тарқалиши ва туризмнинг тўхтаб қолиши сабаб бўлган.

Экотуризмда бандлик уй хўжаликларининг даромадларига ижобий таъсир қўрсатади, аммо хавфга таъсир икки хил бўлиши мумкин; агар диверсификация кучайса, бу хавфни камайтириши мумкин, аммо экотуризмга бўлган талаб ўзгарувчан бўлган ҳудудларда уй хўжаликлари экотуризмга суянса, хавфни ошириши мумкин ёки экотуризм ҳам иқтисодий, ҳам иқтисодий бўлмаган екзоген зарбаларга мойил бўлади. Умуман олганда, ўрганишлар шуни қўрсатадики, ушбу чекка қишлоқ жойларда юқори даражадаги экотуризм таклиф етаётган иш билан таъминланганлик уй хўжаликлари учун хавфсизроқ ва ишончли даромад манбаи бўлиб хизмат қилишини қўрсатди, улар кўпинча бошқа ҳолларда яъни қишлоқ хўжалиги, хизмат қўрсатиш соҳасидан бундай даромадга эга бўлмайдилар [7].

Бизнинг натижаларимиз шуни қўрсатдики, экотуризмни ривожланиши екологик масканлар жойлашган қишлоқ ҳудудларини ижтимоий-иқтисодий ривожланишига ижобий таъсир қўрсатади. Хизмат қўрсатиш секторининг ривожланиши тадбиркорлик субектларини сони ва кўламини кенгайишига, бу орқали аёллар ва ёшлар бандлиги ҳамда даромадларини ошишига сабаб бўлади. Янгидан барпо етиладиган умумий овқатланиш обектлари, кунгилочар масканлар аҳоли пунктларини кўркамлигини ошириш билан бирга, маҳаллий аҳоли учун ҳам қўрсатилаётган хизматлар кўламини кенгайтириб, буларнинг барчаси биргаликда қишлоқ ҳудудларида камбагъалликни камайтиришга ва фаровонликни оширишга хизмат қиласди. Шу билан бирга, екологик масканлардан ҳаддан ортиқ фойдаланиш уларнинг емирилишига олиб келиб, ушбу масканларга келаётган туристлар оқимини мақбуллаштиришнинг иқтисодий-ташкилий асосларини ишлаб чиқиши талаб етади. Ундан ташқари, инсонлар фойдаланишида бўлган екологик масканлар табиий тикланиш салоҳиятига қўшимча равища ундан келадиган даромад ҳисобига доимий равища тозалаш ва тиклаш тадбирларини олиб боришни талаб қиласди.

Хулоса ва таклифлар

Ўрганишлар жараёнида шундай хулоса ва таклифлар ишлаб чиқилди:

- чекка қишлоқ ҳудудларида мавжуд экотуристик манзилларни аниқлаш ва уни рўйхатга олишни ташкил этиш;
- аниқланган экотуризм масканларини иқтисодий баҳолаш лозим. Нафақат янгиларини балким эски экотуристик масканларнинг баҳосини шакиллантириш лозим;
- экотуризм масканларида штатдаги иш фаолиятларини шакиллантириш;

- экотуризм масканларида иш фаолиятини амалга оширадиган аҳолининг мавсумий ишлаш жараёнини доимийга айлантириш чора-тадбирларини ишлаб чиқиш лозим.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. <https://www.alliedmarketresearch.com/eco-tourism-market>
2. <https://www.elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlar-mustaql-ish-kursishi/item/14358-aholining-turmush-darajasi-va-uning-daromadlari>
3. https://uz.wikipedia.org/wiki/Aholi_daromadlari.
4. T.Turgunov, I.Jalolov “Aholi turmush darajasi rivojlanishi statistic baholash: milliy va xalqaro tajriba” – “Jamiyat va boshqaruv” №4, 2018 y.
5. United Nations. Department of Economic and Social Affairs. Sustainable Development. (<https://sustainabledevelopment.un.org/content/documents/6754T>).
6. Sh.Mirziyoyev “Yangi O‘zbekiston taraqqiyoti strategiyasi” – Т.: “O‘zbekiston” nashiryoti 2022 yil. 416 b.
7. Susan Snyman “The impact of ecotourism employment on rural household incomes and social welfare in six southern African countries” January 2014 Tourism and Hospitality Research 14(1-2):37-52.

ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИДА ЮК АВТОМОБИЛ ТРАНСПОРТ ХИЗМАТЛАРИ ТИЗИМИНИНГ ИНВЕСТИЦИОН РЕСУРСЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ ҲОЛАТИ ВА РИВОЖЛАНИШ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ

Ишонқулова Ф.А.

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти мустақил тадқиқотчиси

Аннотация. Ушбу мақолада Ўзбекистон иқтисодиётида юк автомобиль транспорт хизматлари тизимининг инвестицион ресурслардан фойдаланиши ҳолати, қанча инвестицион ресурсларни йўналтириши, асосий капиталга инвестициялар улуши ва инвестициялар самарадорлигига таъсир этадиган айрим омиллар тўғрисида тадқиқот олиб борилган.

Таянч иборалар: юк автомобили, транспорт хизматлари, инвестициявий жозибадорлиги, инвестицион ресурслар, хизматлар, инфратузилмавий лойиҳалар, капитал, миллий иқтисодиёт, макроиктисодий кўрсаткичлар, транспорт сектори, соҳалар, самарадорлик, суръатлар, тармоқлар, транспорт тармоқлари, транспорт воситалари, транспорт компаниялари, таҳлил, тенденция.

Аннотация. В данной статье рассматривается состояние использования инвестиционных ресурсов в системе грузовых транспортных услуг в экономике Узбекистана, сколько направляется инвестиционных ресурсов, доля инвестиций в основной капитал и некоторые факторы, влияющие на эффективность инвестиций.

Ключевые слова: грузовые автомобили, транспортные услуги, инвестиционная привлекательность, инвестиционные ресурсы, услуги, инфраструктурные проекты, капитал, национальная экономика, макроэкономические показатели, транспортная отрасль, отрасли, эффективность, тарифы, отрасли, транспортные сети, транспортные средства, транспортные компании, анализ, тенденция.

Abstract. This article examines the state of use of investment resources in the system of freight transport services in the economy of Uzbekistan, how much investment resources are directed, the share of investments in fixed assets and some factors that affect investment efficiency.

Key words: trucks, transport services, investment attractiveness, investment resources, services, infrastructure projects, capital, national economy, macroeconomic indicators, transport sector, sectors, efficiency, rates, sectors, transport networks, vehicles, transport companies, analysis, trend.

Кириш

Бугунги кунда транспорт соҳасидаги давлат бошқаруви тизимини тубдан такомиллаштириш, республиканинг инвестициявий жозибадорлиги ва экспорт салоҳиятини ошириш, транспорт коммуникацияларини стратегик ривожлантириш ва барқарор фаолият кўрсатишини таъминлаш мақсадида, шунингдек 2017 – 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясида белгиланган.¹

Юк автомобиль транспорт хизматларида кечаётган инвестицион жараёнларни, соҳага йўналтирилган инвестицион ресурсларнинг ҳолати ва уларнинг ривожланиш тенденцияларини ҳам 2 жиҳатдан, яъни юк автомобиль транспорт хизматларининг миллий иқтисодиётга, унинг асосий макроиктисодий кўрсаткичларига таъсири, аҳамияти, роли нуқтаи назаридан, иккинчидан эса туризмда инвестицион ресурсларнинг ҳолати, ривожланиш тенденциялари ва фойдаланиш самарадорлигига таъсир кўрсатувчи омилларни аниқлаш ва таҳлил қилиш орқали ёндашишга ҳаракат қилдик.

Мавзуга оид адабиётларнинг таҳлили

Транспорт хизматлари соҳасини ривожлантириш ҳамда унинг самарадорлигини ошириш муаммолари бир қатор хорижий ва маҳаллий иқтисодчи олимлари томонидан атрофлича ўрганилган ва ўз фикр ва ёндашувлари баён қилинган.

Америкалик мутахассис А.Т.Керней ўтказган тадқиқотларида Ғарбий Европанинг ривожланган давлатларидаги юк автомобильлари транспорт хизматлари тизими даражаси компаниялар бўйича бир хил эмаслигини кўрсатиш ва бу борада чуқур тадқиқотлар олиб бориш зарурлигини таъкидлаган.

Д.Бауэрсокснинг фикрича, анъанавий усуулларга нисбатан юк ташувларини ташкил этишнинг афзаллиги ва иқтисодий самарадорлиги масалаларини киритган ҳолда мультимодал ва интермодал юк ташувларини ташкил этиш муаммоларига алоҳида эътибор қаратган.

А.Л.Носов, ҳозирги шароитда халқаро транспорт-логистика тизимларининг ташкил этилиши ва мақбул фаолият юритиши муаммолари тадқиқ этилади.

Тадқиқот методологияси

Юк автомобиль транспорт хизматлари соҳасини ривожлантириш учун қанча инвестицион ресурслар йўналтирилиши керак, бозор иқтисодиёти шароитида соҳанинг ушбу ресурсларга бўлган умумий эҳтиёжларини қондиришда экстенсив ва интенсив омилларнинг улуши қанча бўлиши керак, ресурслардан қандай оқилона фойдаланиш мумкинлиги тўғрисидаги долзарб

¹ Ўзб.Рес.Президенти Ш.М.Мирзиёев Фармони, 01.02.2019 йил ПФ-5647-сон.

муаммоларнинг ечимини топиш учун, авваламбор, амалиётдаги аҳволни атрофлича ўрганишимиз, чуқур ва ҳар томонлама таҳлил қилишимиз, вазиятни объектив баҳолашимиз лозим бўлади.

Амалга оширилган таҳлил натижалари Ўзбекистонда инвестицион фаолиятни ривожлантириш миллий иқтисодиётни юксалтиришнинг муҳим омили сифатида қаралади ва уни тез суръатлар билан ўстириб бориш сиёсатига амал қилинади. Расмий статистик маълумотларга кўра, фақат 2022 йилда Ўзбекистонда асосий капиталга инвестицияларнинг ЯИМдаги улуши олдинги 2021 йилга нисбатан 7,1 фоизга кўтарилди ва 37,1 фоизни ташкил этди (ушбу кўрсаткич 2010 йилда 24,6 фоизга тенг бўлган)¹. Айни пайтда Қозогистонда асосий капиталга инвестиацияларнинг мамлакат ЯИМдаги улуши 14,0 фоизни², Россияда 23 фоизни³ ташкил этган.

Айниқса, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги “Инвестицион ва инфратузилмавий лойиҳалари рўйхатини шакллантириш тўғрисида”ги 3507-сонли Қарорига асосан, Давлат ривожланиш дастурига киритилган йирик лойиҳаларнинг амалга оширилиши натижасида йиллар давомида асосий капиталга инвестиацияларнинг юқори ўсиш суръатларига эришилмоқда. Республикада ижтимоий соҳа ва иқтисодиётни ривожлантириш учун барча молиялаштириш манбалари ҳисобидан 2022 йилда 189924,3 млрд. сўм асосий капиталга инвестициялар ўзлаштирилди, бу эса 2021 йилга нисбатан 177,0 фоизни ташкил этди. 2018 йилда эса ушбу кўрсаткич 107333,1 млрд. сўм ёки 2017 йилга нисбатан 157,0 фоиз асосий капиталга инвестиациялар ўзлаштирилди⁴.

Лекин Ўзбекистонда асосий капиталга инвестиацияларнинг ЯИМдаги улуши юқори бўлишига қарамасдан, унинг мутлақ миқдори ЯИМ ҳажмининг камлиги оқибатида катта салмоққа эга эмас. Хулосамизнинг далили сифатида, аҳоли жон бошига инвестициялар бўйича таққослама таҳлил натижаларини келтирмоқчимиз. 2022 йил маълумотларига асосан, асосий капиталга инвестиацияларнинг аҳоли жон бошига нисбатан ўртача миқдори 565580,0 сўмни ёки 584,0 АҚШ долларини⁵ ташкил этган бўлса, у Россияда 131645,0 рублни ёки 1843,0 АҚШ долларини⁶, Қозогистонда эса 661504,0 тенге ёки 1653,0 АҚШ долларини⁷ ташкил этган.

Агар миллий иқтисодиётнинг ўсиш имкониятлари асосий капиталга инвестиацияларнинг ЯИМдаги улуши билан эмас, балки унинг мутлақ

¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси маълумотлари. [Электрон ресурс]. – Кириш йўли: <https://stat.uz>

² Инвестиции в основной капитал в Казахстане выросли на 14%. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://ru.sputniknews.kz>

³ Росстат опубликовал первую оценку роста экономики в 2019 году. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.vedomosti.ru>

⁴ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси маълумотлари. [Электрон ресурс]. – Кириш йўли: <http://lex.uz>

⁵ 2019 йил 189,9 трлн. сўм асосий капиталга инвестициялар ўзлаштирилди. Давлат статистика кўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

⁶ “Инвестиции в РФ в 2019 году выросли на 1,7 процентов”. Россия Федерациясининг расмий статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

⁷ “Инвестиции в основной капитал: обзор за 2019 год”. Қозогистоннинг расмий статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.

миқдори ва аҳоли жон бошига ўртача кўрсаткичлари билан белгиланишини ҳисобга олсан, Ўзбекистонда миллий иқтисодиётни инвестициялашда жиддий муаммолар мавжудлигини ва бу муаммолар туризм соҳасини инвестицион ресурслар билан таъминлашда ҳам ўз таъсирини кўрсатишни таъкидламоқчимиз.

Таҳлил ва натижалар

Таҳлиллар мамлакатимиз иқтисодиётига йўналтирилган инвестициялар ҳажмининг тез суръатларда ошаёғанлиги билан бир қаторда, унинг таркиби сифат жиҳатидан ҳам яхшиланиб бораётганлигини кўрсатди.

Ўзбекистонда аҳоли жон бошига инвестицион ресурслар таҳлилини чуқурлаштириш ва ўзгариш тенденцияларини аниқлаш мақсадида республика вилоятлари кесимида маълумотларни таққослаб чиқдик (1-жадвал). Жадвал маълумотлари Ўзбекистон вилоятлари бўйича аҳоли жон бошига инвестицияларда кескин тафовутлар мавжудлигини кўрсатди. Ушбу кўрсаткич бўйича республикада Тошкент шаҳри, Навоий, Қашқадарё, Бухоро каби вилоятлар пешқадамлик қилмоқда.

1-жадвал

Ўзбекистон Республикасида асосий капиталга инвестициялар ҳажми аҳоли жон бошига нисбатан ўзгариши¹

Худудлар номи	2010 йил			2022 йил			2022 йилда 2010 йилга нисбатан аҳоли жон бошига инвестицияларнинг ўсиши
	инвестициялар ҳажми, млрд. сўм	аҳоли жон бошига инвестиациялар ҳажми, минг сўм	аҳоли жон бошига инвестиациялар республика кўрсаткичларига нисбатан, %	инвестициялар ҳажми, млрд. сўм	аҳоли жон бошига инвестиациялар ҳажми, минг сўм	аҳоли жон бошига инвестиациялар республика кўрсаткичларига нисбатан, %	
Қоракалпогистон Республикаси	458,8	272,8	51,8	8434,6	4476,7	79,1	16,4 марта
Андижон вилояти	552,5	206,7	39,3	8183,7	2642,3	46,7	12,8 марта
Бухоро вилояти	2069,1	1228,8	235,5	9867,0	5167,3	91,4	4,2 марта
Жizzах вилояти	359,7	308,3	58,5	7919,3	5792,3	102,4	18,8 марта

¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Қашқадарё вилояти	1690,4	620,8	117,9	23525,3	7246,1	128,1	11,7 марта
Навоий вилояти	1704,6	1952,7	370,7	17775,3	17985,7	318,0	9,2 марта
Наманган вилояти	540,2	227,1	43,1	12187,0	4380,8	77,5	19,3 марта
Самарқанд вилояти	934,2	285,6	54,2	9798,6	2552,7	45,1	8,9 марта
Сурхондарё вилояти	569,8	261,9	49,7	12232,4	4705,5	83,2	18,0 марта
Сирдарё вилояти	383,1	526,8	100,0	6129,2	7312,4	129,3	13,9 марта
Тошкент вилояти	1510,4	571,6	108,5	16935,1	5799,9	102,5	10,1 марта
Фарғона вилояти	849,1	262,9	49,9	9164,2	2465,1	43,6	9,4 марта
Хоразм вилояти	357,1	223,1	42,4	5566,8	3007,2	53,2	13,5 марта
Тошкент шаҳри	3309,0	1440,8	273,6	41497,9	16332,0	288,8	11,3 марта
Ўзбекистон Республикаси	15338,7	526,6	100,0	189924,3	5655,8	100,0	10,7 марта

Таҳлил натижалари Ўзбекистонда иқтисодиётга йўналтирилган инвестицион ресурслар таркибида туризмнинг улуши жуда пастлигини кўрсатди (3-жадвал). Жадвал маълумотлари 2022 йилда мамлакат миллий иқтисодиёти асосий капиталига ялпи инвестициялар миқдорининг (107333,0 млрд. сўм) 7,4 фоизи ёки 7969,5 млрд. сўм юк автомобиль ташиш ва сақлаш хизматларига йўналтирилганлигини кўрсатди.

2-жадвал

Ўзбекистонда 2010-2022 йилларда инвестицияларнинг тармоқлар ва соҳалар бўйича таркибидаги ўзгаришлар, млрд. сўм¹

Тармоқлар ва соҳалар	Йиллар				2022 йил 2010 йилга нисбатан, %	
	2010		2022			
	хажми	улуши, %	хажми	улуши, %		
Инвестициялар, жами	15338,7	100,0	107333,0	100,0	699,8	
Саноат	4659,9	30,4	12253,9	11,4	263,0	
Кишлоқ хўжалиги	530,6	3,4	3561,1	3,3	671,1	

¹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика кўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ишлаб чиқилган.

Курилиш	219,6	1,4	2436,2	2,3	1109,4
Транспорт ва алоқа	4562,6	29,7	4962,3	4,6	108,8
Савдо, умумий овқатланиш моддий техника таъминоти, тайёрлов ва бутлов	743,3	4,8	1296,8	1,2	174,5
Ташиш ва сақлаш	x	x	7969,5	7,4	X
Уй-жой, коммунал хўжалик, аҳолига ноишлаб чикириш туридаги майший хизмат кўрсатиш	2742,2	17,9	x	x	X
Кўчмас мулк билан боғлиқ ишлар	x	x	1056,0	0,9	X
Соғлиқни сақлаш, жисмоний тарбия ва ижтимоий таъминот	343,7	2,2	2720,4	2,5	791,5
Маориф, маданият, санъат, фан ва илмий хизмат кўрсатиш	167,3	1,1	6283,5	5,9	3755,8
Молия ва сугурта фаолияти	x	x	1064,3	1,0	X
Бошқа фаолият турлари	x	x	4542,7	4,2	X
бундан ташқари					
Тураг-жой курилишига инвестициялар	x	x	17695,8	16,4	X
Туризм	357,8	2,3	1741,6	1,8	546,7

Агар юк автомобиль транспорти билан боғлиқ ташиш хизматининг мамлакат ЯИМдаги улуши 7,4 фоизни, иқтисодиётда банд аҳоли сонидаги улушининг 5,5 фоиз эканлигини ҳисобга олсақ, ялпи инвестициялардаги улушининг етарли эмаслиги, яъни тармоққа йўналтирилган инвестицион

ресурсларнинг ҳажми унинг асосий макроиқтисодий кўрсаткичларини шакллантиришга қўшган ҳиссасига мос эмаслиги тўғрисида муҳим хулоса чиқариш мумкин.

Бугунги кунда автомобиль транспортида нодавлат сектори етакчи ўринни эгаллаган. Юк ташишнинг қарийб 90 фоизи ва йўловчилар ташишнинг 100 фоизи нодавлат мулк шаклига эга бўлган транспорт корхоналари томонидан амалга оширилмоқда. Масалан, Ўтган беш йил мобайнида Ўзбекистон иқтисодиёти 24%, саноат – 34%, экспорт ҳажми 1,5 баробарга, хорижий инвестициялар – 3 баробарга ўсади. Кейинги беш йилда иқтисодий ўсишнинг юқори суръатларини таъминлаш учун 120 млрд. доллар жалб қилинади, шундан камида 70 млрд. доллар хорижий инвестициялар бўлади. Транспорт соҳаси, йўл қурилиши ва бошқа соҳаларга давлат-хусусий ҳамкорлигига асосланган лойиҳалар доирасида 14 млрд. доллар инвестициялар жалб этилади. Ўзбекистон Республикаси кейинги беш йилда иқтисодий ўсишни 1,5 баробар ошириш ва ЯИМни 100 млрд. долларга етказишни шунингдек, саноат маҳсулотлари ишлаб чиқариш ҳажмини 1,4 баробар оширишни режалаштирунмоқда. Мамлакат экспорт салоҳияти 1,7 баробар ошиб, 2026 йилда 30 млрд. долларга етади. Экспорт таркибида хом ашё улуши 23% камаяди ва тайёр маҳсулот ҳажми 2,5 баробарга ошади. Дастлабки ҳисоб-китобларга кўра, мамлакатда юк ташишнинг умумий ҳажми 1,4 баробар, ҳалқаро юк ташиш (экспорт, импорт ва транзитни ҳисобга олган ҳолда, қувур транспортидан ташқари) ҳажми эса 1,6 баробар ошади. Транспорт секторидаги тузилмавий қайта шаклланишлар хусусий автомобиль юк ташишлар бозорининг ривожланишини таъминлади, ҳамда юкларни ташишнинг умумий ҳажмида у тобора қўпроқ улушга эга бўлиб бормоқда. Автомобиль транспорти секторини ўсиб бораётган талабларга мос равища ривожлантириш учун инвестицион фаолликни янада ошириш вазифаси долзарб ҳисобланади.

Хулоса ва таклифлар

Бирлашган Миллатлар Ташкилотининг (БМТ) Ўзбекистон Республикасидаги Ваколатхонасининг башоратларига кўра транспорт секторига инвестицияларни йўналтириш ялпи ички маҳсулотга нисбатан 4,6 фоизгача ошириш мақсадга мувофиқ. 2030 йилга бориб инвестицияларнинг умумий суммаси 46,7 млрд. АҚШ доллари атрофида бўлиши мумкин¹.

¹ Ўзбекистон Республикаси Статистика Бошқармасининг маълумотлари асосида тузилган.

Фойдаланилган адабиётлар рўйхати

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев Фармони, 01.02.2019 йил ПФ-5647-сон.
2. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. [Электрон ресурс]. – Кириш йўли: <https://stat.uz>
3. Инвестиции в основной капитал в Казахстане выросли на 14 %. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://ru.sputniknews.kz>
4. Росстат опубликовал первую оценку роста экономики в 2019 году. [Электронный ресурс]. – Режим доступа: <https://www.vedomosti.ru>
5. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси маълумотлари. [Электрон ресурс]. – Кириш йўли: <http://lex.uz>
6. Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитасининг 2000-2019 йиллар маълумотлари. [Электрон ресурс]. – Кириш йўли: <http://lex.uz>
7. 2019 йил 189,9 трлн. сўм асосий капиталга инвестициялар ўзлаштирилди. Давлат статистика қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.
8. “Инвестиции в РФ в 2019 году выросли на 1,7 процентов”. Россия Федерациясининг расмий статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.
9. “Инвестиции в основной капитал: обзор за 2019 год”. Қозоғистоннинг расмий статистик маълумотлари асосида муаллиф томонидан ҳисобланган.
10. Жаҳон банки маълумотлари. // <http://data.worldbank.org/indicator/NE.GDI.FTOT.ZS>
11. Булатов А.С.Воздействие экспорта и импорта капитала на валовое накопление в Российской Федерации // Деньги и кредит. – 2011. – № 9. – 3-8.

XALQARO SIFAT STANDARTLARI ASOSIDA TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARINI YEVROPA ITTIFOQIGA EKSPORT QILISH IMKONIYATLARI

Raximova M.I.

University of Business and Science o’qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada tadbirkorlik sub’ektlari bo‘lgan to‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport qilish imkoniyatlari tahlil etilgan. Maqolada to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini Yevropa Ittifoqining ichki bozorlariga eksport qilishda majburiy bo‘lgan ISO 9001:2015 va OEKO-TEX® xalqaro sifat standartlarini joriy qilish va sertifikatlash tartibi keltirilgan. Shuningdek to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport qilish imkoniyatlarini oshirish bo‘yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tayanch iboralar: *Sifat, xalqaro sifat standart, texnik reglament, xavfsizlik, sertifikat, eksport, ISO 9001:2015, OEKO-TEX®, sifat menejment tizimi, xalqaro ILAC/IAF tashkilotlari, xalqaro talab.*

Аннотация. В статье анализируются возможности экспорта текстильных и швейно-трикотажных предприятий, являющихся субъектами хозяйствования, в страны Европейского Союза. В статье представлена процедура внедрения и сертификации международных стандартов качества ISO 9001:2015 и OEKO-TEX®, которые являются обязательными для экспорта текстильной и швейно-трикотажной продукции на внутренние рынки Европейского Союза. Также разработаны научно-практические рекомендации по увеличению возможностей экспорта текстильной и швейно-трикотажной продукции в страны Европейского Союза.

Ключевые слова: Качество, международный стандарт качества, технический регламент, безопасность, сертификат, экспорт, ISO 9001:2015, OEKO-TEX®, система менеджмента качества, международные организации ILAC/IAF, международный спрос.

Abstract. The article analyzes the export possibilities of textile and sewing-knitting enterprises, which are business entities, to the countries of the European Union. The article presents the procedure for the introduction and certification of international quality standards ISO 9001:2015 and OEKO-TEX®, which are mandatory for the export of textile and sewing-knitted products to the internal markets of the European Union. Also, scientific and practical recommendations have been developed to increase the possibilities of exporting textiles and sewing-knitting products to the countries of the European Union.

Key words: Quality, international quality standard, technical regulation, safety, certificate, export, ISO 9001:2015, OEKO-TEX®, quality management system, international ILAC/IAF organizations, international demand.

Kirish

Maqolada tadbirkorlik sub'ektlari bo'lgan to'qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalarining Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport qilish imkoniyatlari tahlil etilgan. Maqolada to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini Yevropa Ittifoqining ichki bozorlariga eksport qilishda majburiy bo'lgan ISO 9001:2015 va OEKO-TEX® xalqaro sifat standartlarini joriy qilish va sertifikatlash tartibi keltirilgan. Shuningdek to'qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport qilish imkoniyatlarini oshirish bo'yicha ilmiy va amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Sifat ko'p asrlar davomida rivojlanib kelgan kategoriya. Sifat umum ehtiyojlar va ishlab chiqarish imkoniyatlarini o'sib borishi va ularni qondirish bo'yicha turli xil vaziyatlarda rivojlangan. «Sifat» kategoriyasini belgilashda turlicha yondashuvlar mavjud bo'lib, masalan J.M.Juran sifatni "mahsulot yoki xizmatning kutilgan maqsadga mosligi" deb ta'riflagan bo'lsa, E.Deming "sifat – mahsulot yoki xizmat iste'molchining talab va umidlarini qondirish darajasi" deb ta'riflagan, F.Krosbi esa "sifat - nuqsonsizlik" yoki "talablarga to'liq moslik" deya ta'rif bergan va A.V.Feygenbaum sifatni "mijoz tomonidan belgilangan va iste'molchi foydasi uchun kerak bo'lgan xususiyatlar majmuasi" deya ta'rif bergan. ISO (International Organization for Standardization) xalqaro tashkiloti tomonidan chop etilgan ISO 9000:2015 xalqaro standartida esa "sifat – bu mahsulotning xossalari va tavsiflari majmui bo'lib, ular mahsulotga belgilangan yoki kutilayotgan ehtiyojlarni qondirish xususiyati"¹ deb ta'riflanadi. Bizning fikrimizcha, "sifat bu – mahsulot va xizmatlarning belgilangan yoki kutilayotgan turli xildagi ehtiyojlarni qondirishdagi xususiyat va tavsiflar majmuidir.

Tadqiqot metodologiyasi

Olib borilgan tadqiqot ishimizda tadbirkorlik sub'ektlarining eksport salohiyatini "ekspert baholash" usulidan foydalilanilgan xolda ishlab chiqildi. Ekspert baholashni olib borishni tashkil etishda tanlab olingan tadbirkorlik sub'ektlarining eksport bo'yicha mas'ullari va rahbarlari ishtirokida ishchi guruh tuzilib, so'rovnama o'tkazildi, materiallarni qayta ishlandi va jamoa ekspert baholash natijalarini tahlil qilindi.

Ma'lumotlarga qaraganda, bugungi kunda Yevropa Ittifoqi hududida 450 million nafardan ortiq aholi istiqomat qiladi. Ushbu ittifoqqa a'zo davlatlar har yili butun dunyodan 177 milliard yevro miqdorida kiyim-kechak, 147 milliard yevrolik

¹ ISO 9000:2015 xalqaro standarti.

matodan ishlangan choyshab, yostiq, ko‘rpa, sochiq va boshqa uy buyumlarini turli davlatlardan import qiladi.

Agar mamlakatimizning to‘qimachilik sanoatining tarkibiga e’tibor qaratsak, ayni ushbu tarmoqlarning ishlab chiqarishi va eksporti o‘sib borayotganini kuzatish mumkin. Mamlakatimizda ishlab chiqarilayotgan to‘qimachilik va tikuv trikotaj mahsulotlariga talab ortmoqda. Sababi, bizning mahsulotlarimiz tabiiyligi, sifatining yuqoriligi va narxining maqbulligi bilan xaridorlar e’tiborini tortyapti.

2022 yilda tarmoq korxonalari tomonidan 3 milliard 229,2 million AQSh dollarlik to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari eksport qilingani, o‘sish sur’ati avvalgi yildagiga nisbatan 10,2 foizga oshgani buning yaqqol tasdig‘idir. Eksport tarkibida tayyor mahsulotlar ulushi 41,5 foizni tashkil etib, 2021 yildagiga nisbatan 44 foiz o‘sishga erishilgan. Shu o‘rinda bunday ijobiy natijaga erishilishida eksportchi korxonalar soni 96 taga ko‘paytirilib, 1503 taga yetkazilgani muhim omil bo‘ldi.

Bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan to‘qimachilik mahsulotlari asosan Hamdo‘stlik davlatlariga (2107,8 mln. doll.), Turkiyaga (535,2 mln. doll.), Xitoyga (248,8 mln. doll.) eksport qilinayotgan bo‘lsa, endilikda hamkorlarimiz Yevropa davlatlari hisobiga yanada kengayadi. Davlatimiz rahbari e’tirof etganidek, joriy yilda barcha imkoniyatlar ishga solingan holda hududlarning eksport geografiyasini kengaytirish, to‘qimachilik mahsulotlarining eksport hajmini 5 milliard dollardan oshirish kutilmoqda.

Tikuv-trikotaj mahsulotlari eksportini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar talabini doimiy ravishda o‘rganish va talab etilgan sifat standartlari asosida mahsulotlarni ishlab chiqarish muhim vazifa xisoblanadi.

Joriy yil yanvar-iyun holatiga 610 ta korxonada sifat standartlari bo‘yicha sertifikatlar rasmiylashtirilgan, shundan: sifat menejment tizimlari (ISO 9001) bo‘yicha 261 ta; ekologik menejment tizimlari bo‘yicha (ISO 14001) 158 ta; oziq-ovqat xavfsizligi menejment tizimlari (ISO 22000) bo‘yicha 24 ta; energetik menejment tizimlari (ISO 50001) 3 ta; kasb-hunar, sog‘liqni saqlash va xavfsizlik menejment (ISO 45001) bo‘yicha 164 ta menejment tizimlari.

Sifat standartlari asosida sertifikatlashtirish jarayonlari 19 ta akkreditlangan organlari tomonidan amalga oshirilmoqda. Shuningdek, to‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlari ishlab chiqaruvchi 89 ta korxonada “OEKO-TEX” xalqaro sifat standart talablari asosida mahsulot ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yildi.

To‘qimachilik va tikuv-trikotaj mahsulotlarini Yevropa Ittifoqining ichki bozorlariga eksport qilishda ISO 9001:2015 va OEKO-TEX® xalqaro sifat standartlarini joriy qilish va sertifikatlash majburiy xisoblanadi.

ISO 9001 xalqaro standarti asosan boshqarish mexanizmidir. Ushbu standartning maqsadi – xatolar va nuqsonlarni kamaytirish, yo‘q qilish va oldini olish. Standart mahsulot va xizmatlarning sifati bilan emas, balki boshqaruv tizimining sifatiga bevosita bog‘liqdir. Asosiy taxmin shundan iboratki, agar

samarali Sifat Menejmenti Tizimi yaratilsa va joriy etilsa, mijozlar ehtiyojlarini qondirish uchun sifatli mahsulotlar va xizmatlar ishlab chiqariladi.

ISO 9001 sifat menejmenti tizimi dunyodagi eng mashhur sifat menejmenti tizimi standarti bo‘lib, dunyo bo‘ylab 180 mamlakatlaridagi milliondan ortiq tashkilotlarni sertifikatlashtirgan. 9001 standarti Xalqaro standartlashtirish tashkiloti (ISO) tomonidan e’lon qilingan 9000 seriyali standartlardan muvofiqlikni baholash uchun ishlatalishi mumkin bo‘lgan yagona standartdir. ISO 9001, shuningdek, keng tarqalgan ishlataladigan OHSAS 13485 va ISO 16949 kabi ISO 9100 (tibbiy asboblar), ISO / TS 18001 (avtomobil), AS / EN 14001 (aerokosmik) va boshqaruv tizimlari kabi sanoat uchun standartlar uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Tahlil va natijalar

To’qimachilik korxonalarda xalqaro standartlarga muvofiq bo‘lgan sifat menejment tizimini joriy etish ishlari 4 bosqichda amalga oshiriladi.

1-bosqich “Sifat menejment tizimini joriy qilish uchun tayyorgarlik ishlari” deb nomlanadi va ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- 1) Korxonadagi mavjud sifat tizimi xalqaro standart talablariga muvofiqligini baxolash;
- 2) Sifat bo‘yicha raxbariyat vakili va sifat menejment tizimi joriy qilish bo‘yicha javobgar shaxslarni tayinlash;
- 3) Xodimlarga xalqaro standart talablarini o‘rganish bo‘yicha o‘qitish o‘tkazish.

2-bosqich “Sifat menejment tizimi xujjatlarini ishlab chiqish” deb nomlanadi va ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- 1) SMT xujjatlarini ishlab chiqish bo‘yicha reja-jadval tuzish;
- 2) Sifat soxasida siyosat va maqsadlar ishlab chiqish;
- 3) SMTning protsedura xujjatlarini ishlab chiqish;
- 4) SMT jarayonlari xujjatlarini va sifat bo‘yicha qo‘llanmani ishlab chiqish;
- 5) Ishlab chiqilgan xujjatlarni tasdiqlash;

3-bosqich “Sifat menejment tizimini joriy qilish” deb nomlanadi va ushbu bosqichda quyidagi ishlar amalga oshiriladi:

- 1) Sifat menejment tizimi xujjatlarini korxona bo‘limlariga tarqatish va joriy qilish;
- 2) «Ichki audit» kursi bo‘yicha o‘qish o‘tkazish va Ichki audit o‘tkazish;
- 3) Ichki audit natijasida topilgan nomuvofiqlarni bartaraf etish va SMTning natijaviyligini taxlil etish.

Sifat menedjment tizimini joriy etishning 4-bosqichi “Sifat menejment tizimini sertifikatlashtirish” deb nomlanadi va quyidagi ishlar amalga oshirilad:

- 1) Sertifikatlashtirish idorasini tanlash;
- 2) Sertifikatlashtirish auditini o‘tkazish;
- 3) Sertifikat taqdimoti.

Korxonalarga sifat tizimlarini joriy etish uchun avvalambor sifat tizimlarini joriy etish uchun sifat tizimlarini joriy etish davlat va konsalting kompaniyalar bilan shartnoma imzolanadi, tizimni joriy etish qiymati korxonadagi tizimning murakkabligi va ishchilar soniga bog‘liq bo‘ladi.

“OEKO-TEX Standard 100” asosan Yevropa Ittifoqi mamlakatlariiga eksport qilishni rejalashtirgan tadbirkorlik sub’ektlari uchun talab qilinadi. 100 dan ortiq mamlakatlarda 21 000 dan ortiq ishlab chiqaruvchilar, brendlar va chakana sotuvchilar OEKO-TEX® bilan rasman hamkorlik qiladi. “OEKO-TEX Standard 100” – bu to‘qimachilik mahsulotlarining tarkibida inson salomatligi uchun xavfli moddalar yo‘qligini sinovdan o‘tkazish va sertifikatlashning tizimidir.

OEKO-TEX® standartining umumiy tahlili 100 dan ortiq mezonlar, jumladan, nafaqat ishlab chiqarishda taqiqlangan moddalarni, balki potensial xavfli moddalarni ham o‘rganish asosida amalga oshiriladi. Sinov muvaffaqiyatli yakunlangandan so‘ng, OEKO-TEX® sertifikati 12 oy muddatga beriladi, shundan so‘ng kompaniya sertifikatning amal qilish muddatini uzaytirish uchun ariza berishi mumkin. Bunday holda, baholash jarayoni mutlaqo qayta o‘tkaziladi.

OEKO-TEX® tekshiruvlari doimo to‘qimachilik mahsulotlarining zararli moddalarga tekshirishga qaratilgan. Ushbu standartning o‘z mezonlari mavjud bo‘lib, unga qo‘ra to‘qimachilikning teri bilan aloqasi qanchalik kuchli bo‘lsa (va teriga ta’siri kuchli bo‘lsa), inson ekologiyasining talablari shunchalik yuqori bo‘ladi. Sertifikatlashdan o‘tishda tovarlar 4 guruhga bo‘linadi:

I. Chaqaloqlar va 3 yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun to‘qimachilik mahsulotlari va to‘qimachilik o‘ynchoqlari: tayyor mahsulotlar, ichki kiyimlar, choyshablar, aksessuarlar va boshqalar.

II. Ko‘p qismi teri bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qiladigan to‘qimachilik buyumlari: ichki kiyim, choyshab, terri mahsulotlar, ko‘ylaklar, bluzkalar, paypoqlar va boshqalar.

III. Foydalanilganda teri bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri aloqa qilmaydigan yoki uning yuzasining bir qismi bilan kam aloqa qiladigan to‘qimachilik mahsulotlari: kurtkalar, paltolar, tashqi kiyim uchun materiallar va boshqalar.

IV. Ichki qism uchun bezak materialari: mebel matolari, pardalar, to‘qimachilik fon rasmi va gilamlar va boshqalar.

OEKO-TEX® standarti bo‘yicha sertifikatlash mas’uliyati dunyoning 40 dan ortiq mamlakatlarida filiallariga ega bo‘lgan Oeko-Tex xalqaro hamjamiyatiga kiruvchi 17 ta tadqiqot instituti tomonidan taqsimlanadi.

OEKO-TEX® sertifikat olishda anketani to‘ldirish – namunalarni yuborish, laboratoriya tadqiqotlari – testdan muvaffaqiyatli o‘tgan holdagina sertifikat beriladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi «2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-60-sod Farmoniga muvofiq, tashqi savdoni tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, mahalliy tadbirkorlik sub’ektlarining eksport

faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish choralarini yanada kuchaytirish orqali yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlar eksportini kengaytirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 6 apreldagi "Tashqi savdo faoliyati ishtirokchilarini qo'llab-quvvatlashning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni qabul qilindi va farmonga muvofiq 2022 yil 1 apreldan boshlab, 2023 yil 1 aprelga qadar:

- mahalliy korxonalar (ularning vakolatli vakillari)ga Yevropa Ittifoqi davlatlariga yuqori qo'shilgan qiymatlari mahsulotlarni eksport qilishda tashish xarajatlarini 70 foizgacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etildi;

- qo'shni davlatlarga eksport qilingan yuqori qo'shilgan qiymatga ega mahsulotlarni eksport qilishda tashish xarajatlarini 50 foizgacha miqdorda kompensatsiya qilishga subsidiyalar taqdim etildi;

- muvofiqlikni baholash organlarini xalqaro ILAC/IAF tashkilotlari a'zosi hisoblangan akkreditatsiya idorasi tomonidan akkreditatsiyadan o'tkazish bilan bog'liq xarajatlar Eksportni rag'batlantirish agentligi tomonidan qoplab berildi;

- tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan tovarlar (maxsus turdag'i tovarlardan tashqari), ishlar va xizmatlar eksportini shartnoma tuzmasdan hisobvaraq-fakturalar (invoyslar) asosida amalga oshirishda talab etiladigan oldindan to'lov miqdori 100 foizdan 50 foizga kamaytirildi;

- eksportoldi va eksport bilan bog'liq savdo operatsiyalarini moliyalashtirish uchun Eksportni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan ajratilgan kreditlarni qaytarish muddatini yana olti oygacha uzaytirish vakolati berildi. Bunda, ushbu kreditlarni qaytarish muddatining o'zgartirilishi Markaziy bank tomonidan kredit shartlari qayta ko'rib chiqilgan aktivlar sifatida hisoblanmasligi belgilab qo'yildi;

- «Bojxona ombori» rejimida olti oydan ko'p bo'lgan tovarlarning bojxona rasmiylashtiruvida bojxona to'lovlari bo'yicha imtiyozlarni qo'llashni taqiqlovchi tartib bekor qilindi.

- Yoshlar tadbirkorligini yanada qo'llab-quvvatlash, shu jumladan innovatsion texnologiyalarga asoslangan eksportbop mahsulotlar ishlab chiqarish va xizmatlar ko'rsatish faoliyatini rag'batlantirish maqsadida Hukumat komissiyasining qaroriga asosan Yosh tadbirkorlarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi mablag'lari hisobidan ularga 500 ming AQSh dollarigacha kreditlar ajratishga ruxsat berildi.

Xulosa va takliflar

Taqiqotlarimiz natijasida xalqaro sifat standartlari asosida to'qimachilik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi mamlakatlariga eksport qilish imkoniyatlarini oshirishda bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirish tavsiya etiladi. Jumladan:

- “O‘zto‘qimachilik sanoat” uyushmasi xalqaro tashkilotlar va sanoat korxonalarini bilan hamkorlikda to‘qimachilik mahsulotlarini Yevropa Ittifoqi bozoriga olib chiqish strategiyasini ishlab chiqishi lozim;
- to‘qimachilik korxonalar bilan “GSP+” tizimi doirasidagi imtiyozlarni samarali qo‘llash orqali Yevropa Ittifoqi bozoriga kirib borish yuzasidan tegishli maslaxatlar berish va ko‘maklashish tizimini yo‘lga qo‘yish;
- to‘qimachilik mahsulotlarini Yevropa talabi asosida sertifikatlash-tirish, sifat va marketing masalalari yuzasidan o‘quv-amaliy treninglarni o‘tkazish va bu jarayonlarga imtiyozlarni taqdim etish;
- Yevropa bozoriga to‘qimachilik mahsulotlarini eksport qilishda ushbu mahsulotlarning Yevropa Ittifoqi tomonidan o‘rnatilgan texnik, sanitar, fitosanitar talablarga va xalqaro standartlarga muvofiqligini ta‘minlash choralarini ko‘rish;
- Respublikada yangi turdagiga, Yevropa bozorida yuqori talabga ega bo‘lgan to‘qimachilik mahsulot turlarini ishlab chiqarish quvvatlarini yanada kengaytirish va ularning kelgusidagi Yevropa Ittifoqiga a’zo mamlakatlar bozorlariga yetkazib berishni yo‘lga qo‘yish choralarini ko‘rish;
- mahsulotlar xavfsizligini ta‘minlash texnik reglamentlarini Yevropa va Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqi talablariga moslashtirish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish;
- to‘qimachilik mahsulotlarini sinash laboratoriylarini zamonaviy xalqaro standartlarga asosan yaratish va mavjudlarini modernizatsiya qilish;
- Yevropa Ittifoqining yirik biznes uyushmalari va moliyaviy institutlari bilan investitsion hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha ishlarni amalga oshirish.

Shu bilan birga, eksport qilinadigan mahsulotlar sifatiga alohida e’tibor qaratish lozim. To‘qimachilik va tikuv-trikotaj korxonalar tomonidan muntazam ravishda bozorni o‘rganish va mavjud talabga qarab bir oqimda yurish, Yevropa standartlarini joriy etish va mahsulotni sifat standartlari asosida sertifikatlash, xalqaro brendlarni jalb etish, chakana sotuvchilar, eksport hujjatlari, mahsulotlarni markalash, xavfsizlikni ta‘minlash kabi choarlar kelgusida to‘qimachilik korxonalarini eksport imkoniyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022 – 2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 11 sentabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Investitsiyalar va tashqi savdo vazirligi huzuridagi Eksportni rag‘batlantirish agentligi tomonidan eksport qiluvchi tashkilotlarga moliyaviy yordam ko‘rsatish tartibi to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash xaqida”gi 756-sonli qarori.

3. Okboev A.R. Methodology of development of branding strategy of sewing and knitting enterprises // Actual problems of innovative technologies of cotton ginning, textile, light industry, printing production in the context of science, education, production integration and their solutions. Collection of republican scientific-practical online theses. September 24, 2020. – Tashkent, 2020. – B. 73 – 80.
4. Okboev A.R. Social Network Marketing and Its Development // International Journal of Research in Management & Business Studies (IJRMBS 2020). Vol. 7 Issue 3 July – Sept. 2020. Impact Factor: SJIF#23 2016= 7.05. ISSN: 2348-6503 (Online) ISSN: 2348-893X (Print) pp. 38 – 42.
5. Okboev A.R., O.J.Ashurkulov Directions for the introduction of an integrated quality management system to increase the competitiveness of light industry enterprises // South Asian Journal of Marketing & Management Research (SAJMMR). Vol.10, Issue 11, November 2020 Impact Factor: SJIF#23 2020= 7.11. pp. 107 – 110.
6. A.R.Akboev, M.I.Rakhimova, M.A.Kakharamonov. Development of a National Rating System to Evaluate the Brand Attraction of Sewing and Knitting Enterprises. International Journal of Multicultural and Multireligious Understanding. Vol.8, Issue 10. October 2021, pages 335-340. DOI: <http://dx.doi.org/10.18415/ijmmu.v8i10.3142>

O'ZBEKISTON MINTAQALARIDA QISHLOQ XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISH YO'NALISHHLARI

Yoqubjonov R.R.
Namangan davlat universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolaning ob'ekti sifatida O'zbekiston Respublikasi fermerlari iqtisodiy faoliyati tanlangan. Iqtisodiyotni tarkibiy jihatdan o'zgartirish va diversifikatsiyalash sharoitida O'zbekiston mintaqalarida qishloq xo'jaligini rivojlantirish yo'naliшlarining iqtisodiy mexanizmini takomillash-tirish, boshqaruv mexanizmi samaradorligini oshirish bo'yicha ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tayanch iboralar: qishloq xo'jaligi, diversifikatsiya, agroklaster, fermer xo'jaliklari, intensiv, samaradorlik.

Аннотация. Объектом исследования была выбрана хозяйственная деятельность фермеров Республики Узбекистан. В условиях структурных преобразований и диверсификации экономики она заключается в разработке научных предложений и практических рекомендаций по совершенствованию экономического механизма развития сельского хозяйства в регионах Узбекистана, повышению эффективности механизма управления.

Ключевые слова: Сельское хозяйство, диверсификация, агрокластер, фермерские хозяйства, интенсив, эффективность.

Abstract. The economic activity of farmers of the Republic of Uzbekistan was selected as the object of the study. In the context of structural transformation and diversification of the economy, it consists in the development of scientific proposals and practical recommendations on improving the economic mechanism of agricultural development in the regions of Uzbekistan, improving the effectiveness of the management mechanism.

Key words: Agriculture, diversification, agrocluster, farms, intensive, efficiency.

Kirish

Ma'lumki, har qanday mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda qishloq xo'jaligi asosiy o'rinni egallaydi. Aholini oziq-ovqat mahsulotlari, sanoat sohasini esa xomashyo bilan ta'minlash agrar soha zimmasidagi asosiy vazifa ekanini inobatga olsak, qishloq xo'jaligining ijtimoiy-iqtisodiy hayotimizdagи ahamiyati yaqqol namoyon bo'ladi.

Shuni alohida qayd etish joizki, istiqlolning dastlabki yillardan O'zbekistonda iqtisodiyotning barcha jabhalari qatori qishloq xo'jaligida ham keng ko'lamlı islohotlar amalga oshirilmoqda. Ayniqsa, xo'jalik yuritishning eng

samarali, taraqqiy etgan davlatlar tajribasida o’zini oqlagan fermerlik harakatini va dehqonchilikni har tomonlama qo’llab-quvvatlanayotgani soha rivojida muhim ahamiyat kasb etadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Qishloq xo’jaligini rivojlantirish bo'yicha bir qator taniqli xorijiy iqtisodchi olimlardan I.A.Altuxov [1], I.N.Buzdalov [2], M.Bakket [3], V.M.Bautin [4] va boshqalar katta hissa qo’shganlar.

O’zbekistonlik iqtisochi olimlardan Q.H.Abdurahmonov [5], Y.A.Abdullayev [6], S.S.G’ulomov [7] M.SH.Sharifxo’jayev [8] va boshqa bir qator olimlar ilmiy ishlarida qishloq xo’jaligini boshqarishning nazariy va uslubiy asoslari atroflicha yoritilgan. Shuningdek, B.A.Akramov [9], B.Berkinov [10], F.Nazarova [11], K.A.Nasirova [12], R.X.Tashmatov [13] lar tomonidan agrar soha muammolari, shu jumladan, qishloq xo’jaligi korxonalarini rivojlantirishning nazariy asoslari hamda tadbirkorlik sohasini takomillashtirishga qaratilgan tadqiqotlar olib borilgan. Ammo, mazkur tadqiqotlarda O’zbekiston mintaqalarida qishloq xo’jaligini rivojlantirish yo’nalishlariga ta’sir etuvchi omillar, sohani rivojlantirishdagi muammolar hamda sohani boshqarishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish masalalariga etarlicha e’tibor berilmagan va ushbu muammo alohida ilmiy tadqiqot ob’ektisifatida o’rganilmagan. Mazkur ishning boshqa ilmiy ishlardan farqi shular bilan belgilanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqola jarayonida statistik guruhlash va taqqoslash, qiyosiy tahlil, tarkibiy tahlil, iqtisodiy tahlil, funktsional yondashuv, monografik kuzatish usullaridan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Bugungi kunda qishloq xo’jaligining mamlakat iqtisodiyotdagi o’rni juda katta. Mamlakatda ishlab chiqarilayotgan yalpi ichki mahsulotning 20 – 25 foizi shu tarmoqning ulishiga to’g’ri keladi. 2021 yilda mamlakat jami yalpi ichki mahsulotining 24,6 foizi shu tarmoqda yaratilgan bo’lsa, 2022 yilda 23,5 foizni tashkil etdi. Mamlakatimiz iqtisodiyoti uchun zarur bo’lgan erkin harakatdagi qattiq valyuta tushumining yarimidan ko’prog’i shu tarmoq mahsulotlarini eksport qilishdan olinadi. Jumladan, 2022 yilda jami eksportda paxta va oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 7,0 foizni tashkil etdi. Mamlakatda etishtiriladigan oziq-ovqatning 96 foizidan ko’prog’i qishloq xo’jaligida ishlab chiqariladi. Aholining 60 foizidan ortiqrog’i qishloq joylarda yashaydi. Halqimizning turmush darajasi, inson resurslarining katta bir qismining ish bilan ta’minlanishi qishloq xo’jaligi bilan bog’liq. Bugungi kunda iqtisodiyotda band bo’lgan mehnat resurslarining 28 foizdan ko’prog’i qishloq va o’rmon xo’jaligida faoliyat

ko’rsatadi. Shu boisdan ham qishloq xo’jaligiga e’tibor, ayniqsa keyingi mustaqillik yillarida, xaqli ravishda katta bo’lmoqda.

Mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy islohotlarning muvaffaqiyati ko’p jihatdan qishloq xo’jaligining rivojlanish darajasiga bog’liq. Chunki qishloq xo’jaligi mamlakatimiz uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasbetgan soha bo’lib, u quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- mamlakatmizni oziq-ovqat fondini shakllantiradi;
- yurtimizning oziq-ovqat sohadagi mustaqilligini, xavfsizligini ta’minlaydi;
- qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat uchun homashyo etkazib beradi;
- aholini ish joylari bilan ta’minlaydi.

Qishloq xo’jaligining o’ziga xos xususiyatlaridan biri uning moliyaviy imkoniyatlarining shakllanishi o’zgachadir. Ya’ni yil davomida asosan faqat xarajat, daromad esa yil oxirida shakllanadi. Demak qishloq xo’jaligining yaxshi ishlashidan manfaatdor tarmoqlar (qishloq xo’jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi tarmoqlar) yil davomida qishloq xo’jaligini moddiy qo’llab turish imkoniyatlari ustida ishlashlari kerak. Buning yo’llaridan biri fyuchers shartnomalar asosida ishlashdir. Bu qayta ishlovchi tarmoq uchun ham yaxshi. Chunki qaysi turdagи mahsulot qancha va qanday sifatda kerakligiga qarab shartnomalar tuzadi. Bozor sharoitida zarar bilan ishlaydigan har bir korxona alohida tahlil qilinishi va bir to’xtamga kelinishi ma’qul. Bankrot holatiga kelgan, shu shaklda tiklanishi mumkin bo’lmagan korxonalar tugatilish va eri aholiga ijara shartnomasi asosida taqsimlanib berilishi maqsadga muvofiqligini prezidentimiz juda to’g’ri belgilab berdi.

Qishloq xo’jaligi yaqin va uzoq kelajakda oziq-ovqat mahsulotlari etishtirishning asosiy manbasi bo’lganligi uchungina emas, balki quyidagi holatlar uchun ham agrosanoat majmuasining asosini tashkil etadi:

Birinchidan, qishloq xo’jaligi sanoatining ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlari mahsulotlariga talabning asosini belgilaydi. Sanoatning bu tarmoqlarini rivojlantirish yo’nalishlarni, shuningdek, sanoat mahsulotlarining sifati, xossalari qanday bo’lishini belgilab beradi, ba’zan esa sanoat korxonalarining joylashuviga ham katta ta’sir o’tkazadi;

Ikkinchidan, qishloq xo’jaligi mahsulotlari tarkibi va joylashuvi ularni tayyorlovchi va qayta ishlovchi korxonalarining rivojlanishini belgilaydi. Qishloq xo’jaligi mahsulotlarining turlarga qarab, ularni tayyorlovchi va qayta ishlovchi korxonalar o’zlarining quvvatini tashkil etadi. Qishloq xo’jaligi sanoatning qayta ishlovchi tarmoqlari joylashuviga ham ta’sir ko’rsatadi;

Uchinchidan, sanoatda yaratilayotgan ishlab chiqarish vositalarining samaradorligi qishloq xo’jaligida yuzaga chiqadi.

Jahon davlatlari o’rtasida yuz beradigan keskin raqobat sharoitida mamlakat iqtisodiyotining bardoshli bo’lishi va yanada rivojlanishi ma’lum

darajada ushbu tarmoqqa bog'liq bo'ladi. Qishloq xo'jaligi o'ziga aloqador barcha sanoat tarmoqlariga rivojlanish uchun qaysidir ma'noda kompas rolini o'ynaydi;

To'rtinchidan, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumidorligi butun agrosanoat majmuasi tarmoqlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Agarda qishloq xo'jaligida mehnat unumidorligi yuqori bo'lsa, agrosanoat majmuasi oxirgi mahsulotining arzon bo'lishi ta'minlanadi. Bu mamlakat iqtisodiyotini kuchaytiradi, aholining turmush darajasini oshiradi. Chunki aholi daromadining katta bir qismini o'z komilligini oshirish yo'lida sarflash imkoniyati ko'payadi;

Beshinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxi agrosanoat majmuasining oxirgi mahsulotlari tannarxining darajasini belgilaydi. Ya'ni sotish uchun bozorga chiqarilgan tayyor mahsulotlar narxning past bo'lishi uchun imkoniyat yaratadi. Binobarin, kuchli raqobat sharoitida arzon mahsulot ishlab chiqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega omil hisoblanadi;

Oltinchidan, agrosanoat majmuasi oxirgi tayyor mahsulotining sifati qanday bo'lishi qishloq xo'jaligida etishtirilgan mahsulot sifati bilan belgilanadi, desak xato bo'lmaydi. Albatta, tayyorlash va qayta ishlash jarayonida sifatli mahsulotning sifatini buzush mumkin, lekin o'zi sifatsiz bo'lgan qishloq xo'jaligi mahsulotidan sifatli sanoat mahsuloti ishlab chiqarish amrimahol. To'g'ri, tayyorlash va qayta ishlash jarayonida ayrim biologik ishlovlar berish, turli vitamin va mineral tuzlar qo'shish evaziga qishloq xo'jaligi mahsulotlarining dastlabki sifatini yaxshilash mumkin. Lekin bu yaxshilanish hal qiluvchi kuchga ega emas. Axir, faqatgina sifatli materialdan sifatli mahsulot olish mumkin.

Yettinchidan, aynan qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish (industrlash) jarayoni agrosanoat integratsiyasini kuchaytiradi. Bunda qishloq xo'jaligi va sanoat yanada yaqinlashadi. Bu esa fan, texnika taraqqiyotini tezlashtiruvchi asosiy omillardan biridir.

O'zbekiston qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish asosan shirkatlar, fermer va dehqon xo'jaliklari shakllarida tashkil etilgan.

Qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishi uning raqobatbardoshligiga, modernizatsiyalashni amalga oshirishga bevosita bog'liqdir. Modernizatsiyalash, o'z navbatida, qishloq xo'jaligining istiqbolli raqobatbardosh modelini yaratish, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarida faoliyat yuritayotgan turli xo'jalik yuritish sub'ektlari bilan o'zaro hamkorligini mustahkamlash, uning maqbul ijtimoiy tarkibi va qishloq xo'jaligi sub'ektlarini bozor tamoyillariga mos tashkiliy turlarini shakllantirishni taqozo etadi. Ushbu yo'nalishda agroklasterlarni O'zbekistonda barpo etish muhim omil hisoblanadi. Shu sababdan respublika sharoitida yangi institutsional tuzilma xisoblangan agroklasterlarning nazariy, uslubiy jihatlari va xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish muhim omil hisoblanadi.

Agroklaster – qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotish jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish va yuqori texnologik innovatsiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini

ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish, qishloq joylarda infratuzilma majmuini shakllantirish va rivojlantirish, qishloq aholisini ish bilan bandligi darajasi va daromadlarini oshirish hamda kelajakda qishloq xo'jaligi mahsulotlari sifati va ekologik muhitni yaxshilashda faoliyat yuritadigan xo'jalik yuritish sub'ektlaridan tarkib topadi, degan xulosaga kelish mumkin.

Agroklasterlarning umumiy xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Mazmuni
Tashkil etishdan maqsadi	Innovatsiya aloqalarini rivojlantirish, ixtisoslashuvi va jöylashuvi orqali bozor sub'ektlarini bir-birlariga yaqinlashishlari evaziga alohida tarmoqlar yoki mintaqalarning raqobatbardoshligini oshirish
Aloqalarning turlari va xususiyatlari	Vazifalari, bozor, mintaqaviy va tarmoqlar o'rtasida
Samarali tizimning shakllanishi(usullari)	Bozor munosabatlari va mexanizmlari ta'sirida, davlat-xususiy korxonalar hamkorligini maqsadli tashkil etish, agroxoldinglar va qo'shma korxonalar hamda alohida iqtisodiy hududlar tuzish
Iqtisodiy asosi	Innovatsion ishlab chiqarish, texnoparklar,yagona texnologik jarayonlarga ega bo'lgan ishlab chiqarish va tarmoqlar
Institutsional xususiyatlari	Davlat strategiyasi ob'ekti, shu jumladan, innovatsiya sohasida
Tashkil etish va boshqarish usullari	Strategik va indikativ rejalshtirish, maqsadli-dasturiy yondashuv, loyiha usullari
Nazariy asoslari	M.Porter raqobat nazariyasi, tizimli yondashuv asoslari, o'sish doirasi kontseptsiyasi va boshqalar
Iqtisodiy tizimi	Bozor iqtisodiyoti
Chegaralari	Belgilangan hududi chegaralanmagan,analitik usullar orqali aniqlanadi

Rivojlangan mamlakatlar tajribasining ijobjiy natijalariga ko'ra, agroklasterlarni shakllantirish va ular faoliyatini rivojlanishining qishloq xo'jaligining raqobatbardosh rivojlanishining samarali omillaridan biri hisoblanadi.

Agroklasterlarni tashkil etish va qo'llab-quvvatlashda davlat bevosita ishtirok etishi muxim ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar

O'zbekiston mintaqalarida qishloq xo'jaligini rivojlantirishda yuqori malakali mutaxassislar bo'lishlariga e'tibor berish kerak. Bu bilan qishloq xo'jaligini oqilona boshqarish va ishlab chiqarish resurslarini samaradorligi, ishlab chiqarish rentabelligini oshirishga imkoniyat yaratiladi. O'zbekistonda qishloq xo'jaligida amalga oshirilayotgan institutsional va tarkibiy o'zgarishlar natijasida

shakllangan xo'jalik yuritish sub'ektlari hamda tarmoqda ular o'rtaсидаги huquqiy, tashkiliy va iqtisodiy munosabatlarning muntazam ravishda takomillashtirib borilishini taqozo etishdan kelib chiqqan holda agroklasterlarni barpo etish borasida yangi yo'nalishni amalga oshirish bugungi kunda agrar siyosatining muhim vazifalaridan biriga aylanishi lozim. Agroklasterlarni tashkil etish zaruriyati, tamoyillari, bosqichlari, rivojlantirish yo'llari va samaradorligini baholashda keng qamrovli yondashuv talab etiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Алтухов И.А., Девяткина Л.Н. Становление фермерства в России // Аграрная наука. – М., 2000. – № 8. – С. 2-3.
2. Буздалов И.Н. Аграрная реформа в России (концепции, опыт, перспективы). – М.: «Знание», 2000. – С. 325.
3. Баккет М. Фермерское производство: организация, управление, анализ. - М.: Агропромиздат, 2002. – С. 470.
4. Баутин В.М. Понятие «инновация» как экономическая категория // Развитие инновационной деятельности в АПК: материалы международной научно-практической конференции. - М.: ФГНУ «Росинформагротекс», 2003. - С. 251-253.
5. Abdurahmonov Q.H., Imomov V.A. O'zbekistonda mehnat potentsialidan samarali foydalanish va uni boshqarish. Monografiya. – Т.: Akademiya, 2008. – B. 224.
6. SHarifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik. – Т.: «O'qituvchi», 2001. – B. 451.
7. G'ulomov S.S. va boshqalar. Tadbirkorlik va kichik biznes. – Т.: «Mehnat», 2002 . – B. 337.
9. SHarifxo'jaev M., Abdullaev Yo. Menejment. Darslik. – Т.: «O'qituvchi», 2001. – B. 451
Gidrologik sharoit. Ichki suvlar o'simlik va hayvonot dunyosi uchun muhim hayot manbai hisoblanadi. Gidrologik tizimlar har bir tabiiy landshaftning, shuningdek, har bir inson-ekologik tizimning muhim tarkibiy qismidir, chunki ular yer qoplamenti, xususan, yashash muhiti va biologik xilma-xillikni shakllantiradi, yerdan foydalanish va qishloq xo'jaligi salohiyatiga ta'sir qiladi. Muhim resurslarni, jumladan sug'orish, ichimlik suvi, sanoat va boshqa aholi extiyoji uchun xizmat qiluvchi tarmoqlarni ham suv bilan ta'minlaydi. Bir vaqtning o'zida gidrologik omillar toshqin hodisalari, eroziva va cho'kindi jarayonlari bilan bog'liq holda harakat qiladi. Landshaft faoliyatiga ham shubhasiz ta'sir ko'rsatib boradi. Shunga qaramay, hidrologik va hidrografik ma'lumotlar havza landshaftlarining tipologik xaritalarini yaratishda asosan chiziqli xarakterga ega bo'lganligi uchun chegaralangan.

Tuproqlar. Turli landshaftlarning tuproq xususiyatlari har xil bo'lib, geologik, iqlim, gidrologik va boshqa tabiiy jarayonlarning natijasidir. Tuproqning xususiyatlarini va ularning landshaftlarning gidrologik jarayonlariga qanday ta'sir qilishini tushunish daryo havzalarini boshqarishning kalitidir. Tuproq landshaftning o'simlik komponenti bilan ko`proq bog`langan va uning tarqalish arealiga ta`sir etadi. O`z navbatida o'simliklar o`zi o'sayotgan tuproq sharoitini aks ettiradi.

O'simliklar dunyosi. O'simliklar dunyosi daryo havzalarining tabiiy landshaft turlarini aniqlash uchun asos bo`lish bilan birga hududiy mikroiqlim, litologik qatlamlar, tuproq, hayvonot dunyosining vujudga kelishi va shakllanishida rol o`ynashi bilan ajralib turadi.

Hayvonot dunyosi. Daryo havzalari landshaft komponentlarining hosil bo`lishi va rivojlanishidagi tabiiy komponentlarning oxirgi bog'liqlik ketma-ketligida bo`lganligidan hayvonot dunyosi landshaft tipologiyasida kam e'tiborga olinadi.

Yerdan foydalanish. Yerdan foydalanish landshaftning odamlar uchun funksional roli va qiymatini tavsiflaydi. Yerdan foydalanish to'g'risidagi ma'lumotlar murakkab landshaft tipologiyasining oxirgi ma'lumot manbai hisoblanadi. Yerdan foydalanish makonda inson faoliyatining o'ziga xos taqsimlanishini ko'rsatadi va shuning uchun antropogen ta'sir tezligini belgilaydi [1].


Daryo havzalarida erdan foydalanish va er qoplami turlarini ajratish landshaftlarning antropogen transformatsiyalashuvini aniqlash, landshaftlarni loyihalash, aholi soni, infratuzilma ehtiyojlari va daryo havzasini salomatligi kabilarni baholash uchun maqsadga muvofiq. Yerdan foydalanish va yer qoplami ko'pincha bir-birining o'rnila ishlatiladigan ikkita alohida atamadir. Bunda yer qoplami deganda muayyan daryo havzasining qancha qismini o'rmonlar, botqoq yerlar, qishloq xo'jaligi hamda boshqa yer va suv havzalari turlari bilan qoplanganligi tushuniladi. Yerdan foydalanish deganda yerdan odamlar va ularning yashash joylaridan foydalanish usuli tushuniladi, odatda yerning iqtisodiy faoliyat uchun funksional roliga urg'u beriladi [5]. Daryo havzalarida yerdan foydalanishning o'zgarishi inson ta'siri – antropogen transformatsiyaning ko'rsatkichidir. Bu ko`rsatkich inson va daryo havzalari landshaftlarining umumiyligi o'rtasidagi dinamik munosabatlarni tushunish uchun juda muhimdir. Daryo havzalari o'zining relyefi, litologiyasi, yer qoplami, tuproqlari va yer boshqaruvi jihatidan o'zgaruvchandir. Bu o'zgaruvchanlik, suv va energiyani qayta taqsimlashi – yog'ingarchilikning tuproq namligiga, suv oqimiga, bug'lanishga, infiltratsiyaga va yer osti suvlari oqimiga bo'linishiga ta'sir qiladi. Bu bo`linish havza bo`ylab tekis taqsimlanmaydi. Yer qoplami va yerdan foydalanish dinamikasi suv, cho'kindi, ifloslantiruvchi moddalar va energiya oqimlarini o'zgartirishga qodir bo'lgan muhim landshaft jarayonidir. Daryo havzalaridagi yer

qoplami va yerdan foydalanishning landshaft jarayonlarini tadqiq etishdagi ahamiyati quyidagilarda namoyon bo`ladi:

- gidrologik rejimga ta`siri – yog'ingarchilikning yuza suv oqimi va infiltratsiya orqali tuproq namligi va yer osti suvlarining hosil bo`lishida;
- mahalliy va mintaqaviy gidrometeorologik jarayonlar hamda iqlim dinamikasiga ta`siri – yer va atmosfera o`rtasida namlik va energiya almashinuvini yuzaga keltirishida;
- yer qoplami va yerdan foydalanishning albedo xususiyati yer sirti energiya oqimi bilan o`zaro bog'liq ekanligida;
- daryo havzalarini modellashtrishda jumladan, Soil and Water Assessment Tool (SWAT Model), CropWat Model, Storm water management model (SWMM) kabi modellarda oqim tezligini aniqlash, ifloslanish manbalarini baholash uchun foydalanishda;
- daryo havzasi landshaftlarining antropogen transformatsiyalashuvini aniqlash kabilarda kuzatiladi.

Turli tadqiqotlarda yer qoplamini xaritalash vositalari va yerdan foydalanish o'zgarishlarini tushuntirish usullaridan foydalanilgan. Masofadan zondlash va GIS erdan foydalanish va yer qoplaming makonda taqsimlanishi bo'yicha aniq va yangi ma'lumot olish uchun eng yaxshi vositadir. GIS yerdan foydalanish va yer qoplamini aniqlash uchun zarur bo'lgan raqamli ma'lumotlarni yig'ish, saqlash, ko'rsatish va tahlil qilish imkoniyatiga ega. Masofadan zondlash va GIS texnikasining yaratilishi yerdan foydalanish va yer qoplamini xaritalash mintaqaning qishloq xo'jaligi, shahar va sanoat hududlari uchun mo'ljallangan hududlarni tanlashni yaxshilashning foydali usuli hisoblanadi. Shuningdek masofadan zondlashdan olinadigan ma'lumotlar inson va atrof-muhit o'zaro ta'sirini, ayniqsa yerdan foydalanish va yer qoplaming o'zgarishini o'rganish uchun foydalidir. Masofadan zondlash turli jismlardan aks ettirilgan yoki chiqarilgan nurlanishni o'lchashga asoslangan [6]. Sun'iy yo'ldosh tasvirlari fotosuratlar emas, balki o'lchangan ma'lumotlarning tasvirli ko`rinishidir. Sun'iy yo'ldosh sensorlari ob'ektlar haqidagi ma'lumotlarni to`r sifatida saqlaydi. Raqamli ma'lumotlar piksellar deb ataladigan alohida tasvir nuqtalari shaklida qoplangan maydonдан yig'iladi. Piksel raqamli tasvirdagi eng kichik maydon birligidir. Masofadan zondlashdan olingan tasvirlar yer qoplami va yerdan foydalanish turini ajratishda dastavval tasvirni qayta ishlash amallari bajariladi. Tasvirni qayta ishlash – bu tasvirni ma'lum bir foydalanish uchun tuzatish jarayonidir. Ko'p usullar mavjud, ammo bu yerda faqat eng keng tarqalganlari geometrik va radiometrik ishlov berish taqdim etildi. Tasvir ma'lumotlarini geometrik tuzatish geografik axborot tizimlarida (GIS) va boshqa tasvirni qayta ishlash dasturlarida tasvirlardan foydalanishdan oldin bajarilishi kerak bo'lgan muhim shartdir. GISdagi boshqa ma'lumotlar yoki xaritalar bilan ma'lumotlarni qayta ishlash uchun barcha ma'lumotlar bir xil ma'lumot tizimiga ega bo'lishi kerak. Geometrik tuzatish, shuningdek, geo-referensiya deb ham ataladi, xarita mazmuniga fazoviy


koordinatalar tizimi (masalan, geografik kenglik va uzunlik) tanlanadigan jarayon. Radiometrik ishlov berish masofadan seziladigan tasvirlar yordamida yer turlarini aks ettirishi qobilyatini o'lchashimizga to'sqinlik qiladigan effektlarni kamaytirish uchun ishlataladi. Masalan, tog'li muhitda ko'pincha tog'ning bir tomoni yorqin, ikkinchi tomoni esa soyada bo'ladi. Agar tuzatilmasa, bu ta'sir avtomatlashtirilgan tasniflash uchun muammolarni keltirib chiqaradi, chunki bir xil bo`lgan yer qoplami turli xil bo`lib ko'rinishi [7]. Tasniflashning aniqligini oshirish uchun sun'iy yo'ldosh suratlaridan tashqari boshqa ma'lumotlardan ham foydalanish mumkin. Ba'zi mumkin bo`lgan yordamchi ma'lumotlar raqamlı balandlik modellari (DEMs) va ulardan olingan ma'lumotlar to'plami (qiyalik), yomg'ir va harorat kabi iqlim ma'lumotlari, yo'llar, daryolar va aholi punktlari kabi vektor qatlamlar tashkil etadi. Tasniflash jarayonida sun'iy yo'ldosh tasviridagi piksellar, shu jumladan uning qiymatlari (aks ettirish qiymatlari) ma'lum sinflarga (masalan, seliteb landshaftlar, agrolandshaftlar) aylantirishni o'z ichiga oladi. Tasniflash jarayoni tegishli ma'lumotlar olingandan so'ng boshlanadi. Birinchi qadam sun'iy yo'ldosh tasvirining vizual talqinidir (5-rasm).



4-rasm. ArGIS dasturida yer qoplami yerdan foydalanish kartasini yaratish jarayoni

Tasvirni qayta ishlash va yaxshilash bo'yicha bir qator operatsiyalardan so'ng (masalan, radiometrik va geometrik tuzatish,) haqiqiy tasniflash jarayoni boshlanadi. Arc GIS dasturida tasvirlarni tasniflashda ikkita umumi yondashuv mavjud: nazorat qilinadigan (supervised) va nazoratsiz (unsupervised). Nazorat ostidagi tasnifda tadqiqotchi yer qoplaming o'ziga xos turlarini o'rganilayotgan

hududni bevosita kuzatishlari asosida belgilaydi, ammo nazoratsiz tasniflashda hech qanday o'quv maydonchasi talab qilinmaydi va so'ralsan sinflar soniga qarab yer qoplami sinflari yaratiladi (5-rasm).



5-rasm. Kosonsoy daryo hazzasining yer qoplami va yerdan foydalanish kartasi

Ikkala usulning ham tasniflash algoritmlari bor. ISODATA algoritmi nazoratsiz tasniflashning eng keng tarqalgan vositasidir. Nazorat ostida tasniflash algoritmlarining ham bir necha turlari mavjud. Eng ko`p foydalilaniganlardan biri Maximum likelihood (maksimal ehtimollik)dir [7]. Nazorat qilinadigan statistik tasniflash algoritmlarining har xil turlari o'rtasidagi farq shundaki, ular piksellar orasidagi o'xshashlikni qanday aniqlashidadir. Nazorat qilinadigan statistik tasniflash algoritmlari bilan ishlaganda tahvilchi avvalo har bir sinf tasviridagi namunalarni topishi va aniqlashi kerak. Misol uchun, aholi qo`rg'onlarini aniqlashda tasvirda ularni ifodalovchi hududlarning bir nechta belgilab olanadi. Ushbu namunalar o'quv joylari deb ataladi. Yer qoplami kartalari ko`pincha dala tadqiqotisiz yaratish mumkin bo`lsada, dala tadqiqoti asosida ajratilgan sinflar ularning aniqligini ta`minlaydi. Shunday bo`lsada suniy yo`ldosh tasviri asosida ajratilgan tasvirlarning aniqligini tekshirish muhim hisoblanadi. Buning uchun Kappa koeffitsienti aniqlanadi. Ajratilgan sinflardan namunalar olib Google Earth tasviri yoki dala amaliyoti yordamida solishtirib ko`riladi.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, daryo havzalarini aniqlashning raqamli balandlik modeli (DEM) asosida masofadan zondlash ma'lumotlarini Arc GIS dasturida deshifrovka qilish ananaviy usullarga taqqoslaganda aniq chegaralash va kam vaqt talab etadigan usulidir. Daryo havzalari yer qoplami va yerdan foydalanish turlarini aniqlash daryo havzalari landshaftlarini tadqiq etish ayniqsa ularning antropogen transformatsiyalashuvini aniqlash uchun xalqaro miqyosda foydalilanayotgan mos yondoshuvdir. Yer qoplami va yerdan foydalanish malumotlarini olish uchun GIS tehnologiyalarini qo'llash eng so`nggi ma'lumotlarga ega bo`lishni ta`minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Dušan Romportl., Tomáš Chuman Chexiya Respublikasida landshaft tipologiyasiga hozirgi yondashuvlar // Landshaft ekologiyasi jurnali (2012), jild: 5 / № 3 (Dušan Romportl., Tomáš Chuman Present approaches to landscape typology in the Czech Republic //Journal of Landscape Ecology (2012), Vol: 5 / No. 3)
2. Jianguo Vu. Landshaft ekologiyasi://Ekologik tizimlar (179-200-betlar) 2013 yil (Jianguo Wu. Landscape Ecology In book://Ecological Systems (pp.179-200) January 2013) DOI:10.1007/978-1-4614-5755-8_11
3. Anornul G.K., Kabo-bah A. va Kortatsi B.K. Tropiklarda daryo havzalarini aniqlash uchun yuqori va past aniqlikdagi raqamli balandlik modellarining solishtirishma tadqiqotlari: Ganadagi Densu daryosi havzasini misolida // Kooperativ tadqiqotlar xalqaro jurnali jild. 1, № 1, 2012 yil, 9-14 (Anornul G.K., Kabo-bah A., and Kortatsi B.K. Comparability Studies of High and Low Resolution Digital Elevation Models for Watershed Delineation in the Tropics: Case of Densu River Basin of Ghana // International Journal of Cooperative Studies Vol. 1, No. 1, 2012, 9-14)
4. Assefa M., Melesse Wossenu Abtew. Turli iqlimdagisi landshaft dinamikasi, tuproq va gidrologik jarayonlar // Springer geografiyasi (Assefa M., Melesse Wossenu Abtew. Landscape Dynamics, Soils and Hydrological Processes in Varied Climates // Springer Geography) <http://www.springer.com/series/10180>, 2016
5. Nagaraju Arveti., Balaji Etikala., Padmanava Dash Yerdan foydalanish/Yer qoplaming turli xil keng qamrovli geofazoviy ma'lumotlar to‘plamiga asoslangan tahlili: Janubiy Hindistonning Tirupati hududi misolida; // Masofadan zondlash sohasidagi yutuqlar (Nagaraju Arveti., Balaji Etikala., Padmanava Dash Land Use/Land Cover Analysis Based on Various Comprehensive Geospatial Data Sets: A Case Study from Tirupati Area, South India; //Advances in Remote Sensing) 2016, 5, 73-82
6. <https://seos-project.eu/remotesensing/remotesensing-c06-s01-p01.html>
7. Horning, N. Yer qoplalimi tasniflash usullari, 1.0-versiya. Amerika tabiiy tarix muzeyi, bioxilma-xillik va tabiatni muhofaza qilish markazi, 2004. (Horning, N. Land cover classification methods, Version 1.0. American Museum of Natural History, Center for Biodiversity and Conservation, 2004). <http://biodiversityinformatics.amnh.org>

FARG'ONA VODIYSI DARYO HAVZALARI BARQAROR RIVOJLANISHI VA ULARNI TADQIQ ETISHNING GEOGRAFIK XUSUSIYATLARI

Mirzamahmudov O.T.

University of Business and Science dotsenti, g.f.d.

Xakimov M.M.

University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada, Farg'ona vodiysi daryo havzalari barqaror rivojlanishi va u bilan bog'liq geografik xsusiyatlar o'r ganilib ularni tadqiq etishning o'ziga xos yo'llari bayon etilgan.

Tayanch iboralar: Daryo havzasi, barqaror rivojlanish, barqaror rivojlanish strategiyasi, ekologik yondashuv, landshaftning barqarorligi, tabiiy komplekslartabiiy komplekslar, agrolandshaftlar, gidrologik suv ko'rsatkichlari, iqtisodiy suv ko'rsatkichlari, sanitarno-gigenicheskie water indicators.

Аннотация. В данной статье изучено устойчивое развитие речных бассейнов Ферганской долины и связанные с ним географические особенности и описаны конкретные пути их исследования.

Ключевые слова: речной бассейн, устойчивое развитие, стратегия устойчивого развития, экологический подход, устойчивость ландшафта, природные комплексы, природные комплексы, агроландшафты, гидрологические водные показатели, экономические водные показатели, санитарно-гигиенические водные показатели.

Abstract. This article examines the sustainable development of river basins in the Fergana Valley and the associated geographical features and describes specific ways to study them.

Key words: River basin, sustainable development, sustainable development strategy, ecological approach, landscape stability, natural complexes, natural complexes, agro-landscapes, hydrological water indicators, economic water indicators, sanitary hygienic water indicators.

Kirish

Daryo havzalari barqarorligi bilan bog'liq masalalarni o'r ganish va ularni kartalashtirish jamiyat va tabiat o'rtasidagi o'zaro munosabatlarning dolzarb muammolarini, yashash muhitini saqlash va sifatini yaxshilash, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish muammolarini hal qilish zarurati bilan bog'liq. Farg'ona vodiysi daryo xavzalari va uning xududlarini barqaror rivojlantirish muammosi uzoq vaqt davomida dolzarb masala bo'lib turibdi. Farg'ona vodiysining asosiy

aholi qo'rg'onlari tarixan anashu joyda istiqomat qilishi va iqtisodiy infratuzilmaning ham ko'p qismi shu joyda joylashgan ekanligi havzalar xududida ko'plam ekologik vaziyatning keskinlashuviga, kasallanishning oshishiga va atrof-muhitni muhofaza qilish zarurati belgilab beradi. Bularning barchasi barqaror rivojlanish strategiyasi har tomonlama xarakterga ega bo'lishi va ijtimoiy, demografik va ekologik va iqtisodiy muammolarni hal qilishni o'z ichiga olishi kerakligini anglatadi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 2015 yilning sentyabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan sammitida 2030 yilgacha bo'lган davrda davlat va hukumat rahbarlari tomonidan qabul qilingant hujjat printsipial jihatdan yangi global majburiyat hisoblanadi. Barqaror rivojlanishining 17 maqsadi va tegishli vazifalar keng miqyosli masalalarni, ya'ni sog'liq va farovonlikdan tortib to iqlim o'zgarishlarigacha, gender tengligidan tortib iste'mol va ishlab chiqarish modellari o'zgarishlarigacha bo'lган jarayonni qamrab olgan.

Ularga muvofiq ravishda, O'zbekistonning uchta taraqqiyot strategik dasturi – 2017 – 2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'naliishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi, 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi va "O'zbekiston – 2030" strategiyasi inson sha'ni va qadr-qimmati, uning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash va himoya qilish sohasida mamlakat o'z zimmasiga olgan xalqaro majburiyatlarni to'liq qamrab olgan [1]. Shu bilan birga O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan 2030 yilgacha bo'lган davrda barqaror rivojlanish sohasida 16 ta Milliy maqsad hamda ularga samarali erishish yo'lida 126 ta vazifa belgilab berildi hamda O'zbekiston Respublikasini barqaror rivojlantirish sohasidagi Milliy maqsadlar va vazifalarning 2030 yilgacha bo'lган davrda amalga oshirilishini nazorat qilish bo'yicha Parlament komissiyasi tuzildi.

O'rghanish shuni ko'rsatdiki, juda ko'p konvensiyalar qatori Atrof-muhitga taalluqli masalalar bo'yicha qarorlar qabul qilish va BMTning Iqlim o'zgarishi bo'yicha doiraviy konvensiyasi, Biologik xilma-xillik to'g'risidagi konvensiya, Cho'llanishga qarshi kurash konvensiyasi va h.k.larga alohida e'tibor qaratilgan. Barqaror rivojlanish maqsadlari kompleks (birgalikda) va bo'linmas xarakterga ega bo'lib, barqaror rivojlanishning "uchta asosi" – ya'ni iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik muvozanatni va barqaror taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan.

Dunyo konstitutsiyalarining qariyb yarmi to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita toza, sifatlari yoki sog'lom atrof-muhitga bo'lган muhim huquqni kafolatlaydi. Ya'ni, xozirda "qulay atrof-muhit" konstitutsiyaviy huquqning asosiy tamoyillaridan biriga aylandi. Ushbu huquqni ta'minlash bevosita: fuqarolarning ekologik huquqlarini himoya qilish; atrof-muhitga zarar etkazilishining oldini olish; ekologik huquqni demokratlashtirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; ekologik xavfsizlikni ta'minlash; ekologik ma'lumotlardan erkin foydalanishni o'z ichiga oladi [2].

Inson ehtiyojlarini qondirish landshaftning umumiyligi tabiiy salohiyatining bir qismi bo’lgan tabiiy resurslardan foydalanmasdan turib tasavvur qilib bo’lmaydi. Ekologik yondashuv bilan landshaftlarning tabiiy salohiyati tirk organizmlarning ijobiy hayot kechirishi va ularning ko’payish uchun zarur bo’lgan sharoit to’plami sifatida baholanadi. Tabiiy landshaft ekotizimning barqarorligiga olib keladigan, o’zini o’zi boshqarish jarayonlari ya’ni, ularning barqarorligini ta’minlaydigan ichki va tashqi aloqalarni saqlash bilan tavsiflanadi. Tabiiy landshaftning barqarorligini baholashda kompleks yondashuv muhim sanaladi. Ya’ni bu jarayonda tabiiy kompleksning har bir komponenti alohida hisobga olingan holda uning ahamiyati va funktsiyasini xisobga olib yondashish zarur. Daryo tizimlari tabiiy komplekslarning asosiy tarkibiy qismlaridan biri bo’lib, ularning barqarorligi muammosi hozirda vaqtida ayniqsa dolzarbdir. Ushbu muammoni hal qilish maqsadida nafaqat hududning tabiiy holatini baholash balki tadqiqotlarning ajralmas qismi bo’lgan kartografik yondoshuv asosida kartalashtirish ishlari muhim sanaladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

O’zbekiston daryo havzalari geotizimlari bo‘yicha kompleks tabiiy geografik tadqiqotlar E.M.Murzayev, L.N.Babushkin, N.A.Kogay, A.Abdulqosimov, V.N.Veber, A.A.Yuryev, V.M.Chetirkin, N.P.Kostenko N.A.Gvozdetskiy, T.V.Zvonkova, B.P.Alisov, L.Alibekov, Sh.Ergashov, A.K.Urazboyev, K.M.Boymirzayev, Q.S.Yarashev va boshqalar tomonidan amalga oshirilgan.

Hududning barqarorligi konsepsiyasiga va ularni xaritalash masalalariga bir qator olimlar jumladan, Antipov A.N., Armand A.D., Glazovskaya M.A., Grishankov G.E., Grodzinskiy M.D., Dyakonov K.N., Karpik A.P., Korotkiy A.M., Krauklis A.A., Kulikov V.V., Kuprianova T.P., Levich A.P., Preobrajenskiy B.C., Puzachenko Yu.G., Rakita S.A., Svetlosanov V.A., Solnsev N.A., Skrylnik G.P., Tikunov B.C., Tsapuk D.A. Nokelainen T.S., Trinder Jon S. (Avstraliya), Rubanova I.N., Krasovskaya T.M., Kotova O.I., Moskvina V.N. lar katta hissa qo’shdilar.

Tadqiqot metodologiyasi

Ushbu maqolada konseptual tahlil, geografik taqqoslash, kartografik tahlil hamda landshaftlar barqarorligini o’rganishda tizimli tahlil va ekologik yondoshuv kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Barqaror rivojlanish kontseptsiyasi uchta komponentni o’z ichiga oladi: iqtisodiy, ekologik va ijtimoiy. Ekologik nuqtai nazardan barqaror rivojlanish yaxlitlikni saqlash qobiliyati bilan tavsiflanadi tabiiy tizimlar, ya’ni ularning tashqi va ichki aloqalarini saqlab qolish ularning barqarorligi bilan bog’liq. Shuning

uchun birinchi navbatda tabiiy tizimlar va ularning tarkibiy qismlarining barqarorligini maxsus deb hisoblash barqaror rivojlanishning ekologik tarkibiy qismi bo'lib xisoblanadi.

Tabiiy-hududiy kompleks va uning tarkibiy qismlarining barqarorligi-bu o'zgaruvchan atrof-muhit sharoitida yoki geosistemaning tarkibi sifatida o'z tuzilishini va o'z vaqtida saqlab turish qobiliyatidir. Zamonaviy ko'rinishda tabiiy-hududiy majmua turli darajadagi barqarorlik bilan tavsiflangan murakkab dinamik tizim. Ta'sirning xususiyatiga qarab, xuddi shu tizim barqarorroq, kamroq barqaror va beqaror bo'lishi mumkin. Tabiiy-hududiy komplekslar o'zgarishiga tabiiy va antropogen omillar ta'sir qiladi. Jumladan, keyingi vaqtlardagi iqlim o'zgarishi Farg'ona vodiysi daryo havzalari tabiiy landshaftlari tarkibining o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Shu bilan bog'liq ravishda o'zgarishlarning kengroq ko'rinishlari antropogen omillar bilan bog'liq xolda vujudga kelmoqda. Ular tasirida xududning katta qismini agrolandshaftlar tashkil qilgan. Ular tuzilishiga va xususiyatlariga ko'ra turli-tuman bo'lib xisoblanadi. Farg'ona vodiysi daryo havzalari agrolandshaftlarini sug'orma dehqonshilik, lalmi dehqonshilik, yaylov va o'tloqlar landshaftlariga bo'lish mumkin. Agrolandshaftlar tabiiy landshaftlarga nisbatan tabiiy-dinamik o'zgarishlarga kam bardoshliligi bilan ajralib turadi. Chunki bu landshaftlarda antropogen ta'sir natijasida tirik organizmlar hayotida, suv va issiqlik rejimida, tuproq hosil bo'lishi jarayonida, biogeokimyoiy modda almashinuvida ma'lum o'zgarish yuz berganki, ularning hammasi ma'lum darajada qishloq xo'jalik erlarida agrolandshaftlarda muvozanat ozgina buzilsa turli ko'ngilsiz hodisalarining (eroziya, deflyatsiya, ikkilamchi sho'rланish, yaylovlarining buzilishi va boshqalar) vujudga kelishiga va rivojlanishiga olib keladi [3.5.6].

Sug'orma dehqonchilik landshaftlari meridional tarmoqlangan soy havzalari yo'nalishlari bilan tarkib topgan. Bu sug'orma dehqonchilik maydonlari Farg'ona vodiysi daryo havzalarining yuqori qismlariga nisbatan pastki hududlarida yaxshi rivojlangan. Lalmikor dehqonchilik landshaftlari esa havzaning yuqori qismlarida yaxshi rivojlangan. Yaylov landshaftlari ham havzaning yuqori qismlarida ma'lum qismlarini egallagan.

Farg'ona vodiysi daryo havzalari qishloq xo'jaligi tarmoqlarining joylashuvi va rivojlanib borishi kelajakda ham davom etishi tabiiy. Chunki, birinchidan, daryo havzalari vodiyning asosiy er fondi hisoblanadi, ikkinshidan, viloyat aholisining son jihatdan o'sib borishi sababli, ularni er ushastkalari bilangina ta'minlash emas, balki, qishloq xo'jaligi mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojni qondirish muhim vazifalardan biridir. Bu esa daryo havzalariga antropogen ta'sir ko'payib borishini bildiradi. Modomiki, Farg'ona vodiysi daryo havzalaridan jamiyat taraqqiyoti yo'lida foydalanish davom etar ekan, buning ushun daryo havzalari landshaftlariga ehtiyotkorona munosabatda bo'lish lozim.

Qishloq xo'jalik ekinlarini joylashtirishda tuproq unumdorligini saqlash va oshirishning asosiy omillaridan biri qishloq xo'jalik ekinlarini tuproqlarning

ekologik-meliorativ sharoitini, xossa va xususiyatlarini hamda hududlarning suv bilan ta'minlanishini hisobga olib, tabaqalashtirib joylashtirishdir [4.6].

Qishloq xo'jalik ekinlarni joylashtirishda ishki kushlarining etarli ekanligi, xo'jaliklarning ixtisoslashuvi, har bir hududning tabiiy sharoitlaridan, ya'ni rel'efi va geomorfologik joylashishi, tuproq-iqlimi sharoiti, suv bilan ta'minlanganligi, yuvilishi va sho'rланish darajasi, sizot suvlarini joylashuvi, tuproqlarni unumdorligi, sifati va meliorativ holatlariga e'tibor berish lozim.

Farg'ona vodiysi daryo havzalari barqaror rivojlanishi uchun yuqoridagi lardan tashqari suv ko'rsatkichlari bilan bog'liq tadqiqotlarga alohida etibor qaratish lozim. Chunonchi, gidrologik, iqtisodiy hamda sanitar gigenik ko'rsatkichlar.

Gidrologik ko'rsatkichlar daryo havzalari barqarorligini o'rganishda va baholashda asosiy omil sanaladi, unga suv istemoli, suvning minirallashuvi, navigatsiya gidralogiyasi, tektonik omillar kiradi.

Suvning iqtisodiy ko'rsatkichlarini o'rganishda aholining suvdan foydalanishi, daryoning ifloslanishdan saqlash, baliqchilik ho'jaliklari ko'rsatkichlari, gidrotexnik tuzilmalar bilan tadqiqot o'tkazish muhim sanaladi.

Suvning sanitar gigenik ko'rsatkichlari organoleptik ko'rsatkichlar, umumiy sanitariya ko'rsatkichlari, sanitariya-toksikologik ko'rsatkichlar, mirkrobiologik va parazitlar ko'rsatkichlar bilan bog'lik izlanishlarni olib borishni talab etadi.

Xulosa va takliflar

Bugungi kunda Farg'ona vodiysining barqaror rivojlanishida muhim sanalgan tarixan shakllangan daryo xavzalarining rivojlanishi yuqorida sanab o'tilgan geografik xsusiyatlarga ko'proq bog'liq ravishda amalga oshadi deb o'ylaymiz. Bu yo'nalishlarda olib boriladigan tadqiqot ishlari Farg'ona vodiysining barqaror rivojlanishida keng ijobjiy ahamiyatga ega bo'lib hisoblanadi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati

1. 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳаси кун тартиби // Электрон ҳавола: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru> 2030 йилгача бўлган даврда барқарор ривожланиш соҳаси кун тартиби // Электрон ҳавола: <http://www.uz/undp/org/content/uzbekistan.ru>
2. М.Ш.Усманов Барқарор ривожланиш мақсадлари ва инсон хуқуқларини таъминлаш // Фалсафа ва хуқуқ, 2023, №3, 4-6 бетлар.
3. Боймирзаев К.М., Мирзамахмудов О.Т., Мақсудова М.А. Изменение структуры почвенного покрова адыров Северной Ферганы под антропогенным воздействием // Университетское образование в современном обществе. Труды международной конференции. Вестник ОшГУ, серия Естествознание науки. № 4. – Ош: Былим, 2002. – С. 156 – 158.

4. Исмонов А.Ж., Ахмедов А.У., Кўзиев Р., Абдурахмонов Н.Ю. Фарғона водийси сугориладиган тупроқларининг хоссалари, экологик- мелиоратив ҳолати ва маҳсулдорлиги. Монография – Т., «Navro‘z» нашриёти, 2017 й. - 328 б
5. Мирзамахмудов О.Т. Передгорные ландшафты Ферганской долины (монография). – Германия – 2021. – 80 с. 5. Мирзамахмудов О.Т. Hil landscapes of the fergana valley and prospects for their effectiye yse.// TJG Thematics Journal of Geography Yol-4. Issue-12-December. 2022. – P. 2-11.
6. Максудов А. Изменение почвенно-экологических условий Ферганской долины под антропогенным воздействием: Автореф. дисс. докт. ...биол. наук. –Т.: ИПИА, 1993. – 48 с.

ZAMONAVIY GEOURBANISTIK TADQIQOTLARIDA “QULAYLIK INDEKSI” TUSHUNCHASI

Jumaxanov Sh.Z.

Namangan davlat universiteti dotsenti, g.f.d.

Ne'matova M.A.

Namangan davlat universiteti II bosqich magistranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada “Qulaylik indeksi” tushunchasining mazmuni va qulaylikni belgilovchi omillarning zamonaviy geourbanistik tadqiqotlarda qo'llanilishi, qulay shahar muhitini tashkil etish va rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillar yoritib berilgan. Namangan shahrining qulaylik darajasini baholash uchun sotsiologik so'rovnoma usuli docs.google platformasi orqali IT texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirilgan. Sotsiologik so'rovda O'zbekistonning eng yirik shaharlaridan biri hisoblangan Namangan shahrining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish muammolari aniqlangan. Shuningdek, bu boradagi respondentlarning reprezentativ fikrlari o'r ganilib tegishli xulosalar olingan.

Tayach iboralar: indeks, shahar, qulay, noqulay, Arcadis barqaror shaharlar, indikator, shahar muhiti, respondent.

Аннотация. В данной статье освещено содержание понятия “индекс удобства” и применение факторов, определяющих удобство, в современных геоурбанистических исследованиях, факторы, влияющие на организацию и развитие комфортной городской среды. Метод социологического опроса для оценки уровня комфорtnости города Наманган докс.реализовано с использованием IT-технологий через платформу google. Социологический опрос выявил проблемы социально-экономического развития города Наманган, одного из крупнейших городов Узбекистана. Также были изучены репрезентативные мнения респондентов по этому вопросу и сделаны соответствующие выводы.

Ключевые слова: индекс, город, комфортный, некомфортный, Аркадис Устойчивые города, индикатор, городская среда, респондент.

Abstract. In this article, the content of the concept of "Convenience index" and the use of factors determining comfort in modern geo-urban studies, the factors affecting the organization and development of a comfortable urban environment are studied. In order to assess the comfort level of the Namangan city, the sociological research method was implemented using IT technologies through the docs.google platform. In a sociological research, problems of socio-economic development of the Namangan city, which is considered the largest city of

Uzbekistan, were identified, and the representative opinions of the respondents were studied and relevant conclusions were drawn.

Key words: index, city, comfortable, uncomfortable, Arcadis Sustainable cities, indicator, urban environment, respondent.

Kirish

Bozor iqtisodiyoti sharoitida shaharlar – mamlakat milliy iqtisodiyoti, madaniyati va ijtimoiy hayotini shakllantirishda muhim rol o‘ynaydi. Binobarin, shaharlar aholisi o‘sishda davom etar ekan, aholi uchun qulay va barqaror shahar muhitini ta’minlash bilan bog‘liq muammolar ham o‘sib boradi.

Shu jihatdan, geourbanistik tadqiqotlarda “qulaylik indeksi” tushunchasini iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganish muhim hisoblanadi. Shahar muhitining qulayligi infratuzilma sifati, xizmatlarning mavjudligi, atrof-muhitning ifloslanish darajasi, xavfsizlik darajasi va ijtimoiy faollik imkoniyatlarini o‘z ichiga olgan keng ko‘lamli jihatlarni qamrab oladi. “Qulaylik indeksi” – bu shaharda aholi uchun turli xil xizmatlar, infratuzilma va resurslarning qulayligi va mavjudlik darajasini baholaydigan kategoriya bo‘lib, unda baholovchi mezonlar sifatida jamoat transporti, yo‘l tarmog’ining sifati, yashil maydonlar, sog’liqni saqlash muassasalari, ta’lim muassasalari, do’konlar va boshqa obyektlarning mavjudligi kabi omillar e’tiborga olinadi. Shuningdek, “qulaylik indeksi” aholi uchun yuqori hayot sifatini ta’minlaydigan, shaharni yashash, ishlash va dam olish uchun yanada jozibador qiladigan va barqaror iqtisodiy rivojlanishini ta’minlaydigan ijtimoiy-iqtisodiy muhitini yaratish hisoblanadi.

Binobarin, shaharlarning yuqori sur’atlarda rivojlanishi, asosan, sanoat inqilobi bilan bog‘liqdir. Ko’plab zavod va fabrikalarning barpo etilishi, shaharlar funksiyasining takomillashuvi, demografik yukning ortishi shaharlarning kattalashishiga, ular konfiguratsiyasining o‘zgarishiga olib kelgan. O’zbekistonda ham shaharlarni qayta qurish va qulaylik indeksini ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilishda keng ko‘lamli tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda.

Foydalilanigan adabiyotlarning taxlili

Shaharlar geografiyasi, geourbanistika fanlarining nazariy-metodologik masalalari xorijiy va mahalliy mutaxassislar tomonidan ilmiy jihatdan tadqiq qilinib kelingan. Jumladan, Geourbanistika fanining jahondagi eng yirik namoyondalaridan G.M.Lappo [4], I.M.Mayergoyz [5], R.Merfi, M.Pacione [6], E.N.Pertsik [3] kabi olimlar shaharlarni shakllanishi, funksional tiplari, klassifikatsiyasi, konfiguratsiyasi, tuzilishi hamda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi borasida o‘zlarining tadqiqotlarini olib borgan. “Qulay shahar muhit” tushunchasini qurilish industriyasini nuqtai nazaridan D.N.Ganchenko va Y.A.Tarzanova [2] fuqarolar ehtiyojlarini yuqori darajada qondiradigan makon sifatida baholagan. Bu borada E.A.Razomasova [9] esa qulay shahar muhitini shakllantirish yashash sharoitlarini yaxshilash, modernizatsiya qilish va sifatini

oshirishdan iborat ekanligini ta’kidlagan. Ushbu maqolada Namangan shahrining qulaylik darajasini baholash uchun anketa-so‘rov sotsiologik tadqiqot usuli docs.google platformasi orqali IT texnologiyalaridan foydalangan holda o‘tkazildi va baholanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Mazkur maqolani yoritishda hududiylik, komplekslilik, tarixiylik, ekologik va demosentrizm kabi tamoyillar hamda kartografik, tizim–tarkib, tarixiy–geografik tahlil, geografik taqqoslash, statistik tahlil kabi metodlardan foydalanilgan.

Tahlil va natijalar

Inson omili – shaharlarda “qulaylik indeksi”¹ darajasini maqbul yoki nomaqbul ekanligini belgilovchi asosiy mezon hisoblanadi. Shahar “qulaylik indeksi”ni aniqlash, bu – ma’lum bir belgilab olingan mezonlariga asoslanib, ko’rsatkich indikator ma’lumotlari asosida maxsus algoritm tuziladi. Hisoblashlar natijasida, ma’lum bir hududning belgilangan maqsadga ko’ra qulay yoki noqulay ekanligi baholanadi. Bunday tadqiqot o‘tkazish o’z navbatida shahar muhitini monitoring qilishda, muammolarini o’rganishda ahamiyatli bo’lib, tavsiyalar ishlab chiqish orqali qulaylik darajasi oshiriladi.

Zamonaviy geourbanistika fani shahar aholi punktida turli qulayliklarni belgilab beruvchi ko’plab omillarni hisobga oladi:

1) jamoat transporti – rivojlangan jamoat transporti tarmog’i aholiga shaharning turli qismlariga qulay kirish imkoniyatini beradi. Jumladan, bunday qulayliklarga metro, avtobuslar, tramvaylar, velosiped yo’llari va hokazo;

2) piyodalar va velosipedchilar uchun infratuzilma – xavfsiz va qulay piyoda yo’laklari, velosiped yo’llarini yaratish aholi faolligini oshirishga, ifloslanishni kamaytirishga va avtomobil oqimini kamaytirishga yordam beradi;

3) yashil hududlar va istirohat bog’lari – istirohat bog’lari, yashil maydonlar, botanika bog’lari va boshqa yashil hududlarning mavjudligi aholiga tabiatdan zavqlanish, ochiq havoda dam olish, hordiq chiqarishi va shaharning ekologik holatini yaxshilash imkonini beradi;

4) ommaviy dam olish va ko’ngilochar joylar – restoranlar, kafelar, teatrlar, kinoteatrlar, muzeylar va boshqa madaniy hamda ko’ngilochar joylar muloqot vositasi, dam olish va madaniy rivojlanish uchun imkoniyatlar yaratadi;

5) ta’lim muassasalari – maktablar, litseylar, kollejlar, universitetlar, kutubxonalar va boshqa ta’lim muassasalarining mavjudligi shahar aholisi uchun bilim va ta’lim olish imkonini beradi;


¹ “Indeks” so’zi lotincha index – ko’rsatkich, ro’yxat, nom, ism yoki boshqa kombinatsiyalar ko’rsatkichi va ro’yxati hisoblanadi

6) sog'liqni saqlash muassasalari – kasalxonalar, poliklinikalar, dorixonalar va boshqa tibbiy muassasalar aholiga sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatini beradi;

7) savdo infratuzilmalari – do'konlar, supermarketlar, bozorlar va boshqa savdo markazlarining mavjudligi kundalik hayot uchun zarur bo'lgan tovarlar va xizmatlardan foydalanish imkonini beradi;

8) mehnat va biznes infratuzilmalari – ofis binolari, biznes-parklar, biznes markazlari va boshqa obyektlar ish joylarini, biznesni rivojlantirish va shaharning iqtisodiy rivojlanishini ta'minlaydi.

Ushbu qulayliklar nafaqat aholining asosiy ehtiyojlarini qondiribgina qolmay, balki shaharlarda barqaror, rivojlangan va yoqimli shahar muhitini yaratishga yordam beradi (1-rasm).



1-rasm. Shahar hududining qulaylik indeksi
Izoh: Chizma mualliflar tomonidan shakllantirilgan

Qulay shahar muhiti – shahar aholisining farovon va sifatli hayot kechirishi, xavfsiz va sog'lom turmush tarzini tashkil etish imkonini beradi. Shahar muhitining qulaylik darajasi unda istiqomat qiluvchi aholining jismoniy salomatligiga, charchoq va stress holatiga ham ta'sir ko'rsatadi. Qolaversa, shaharni “qulaylik indeksi”ni shakllanishida yashil zonalarni tashkil etilishi ham katta ahamiyatga ega.

Yirik shaharlarda ko'kalamzor hududlar aholi jon boshiga kamida 30 – 50 m² bo'lgani ma'qul. Bir kishiga sutka davomida etarli kislород ishlab chiqarish uchun to'rt tup daraxt talab etiladi. Jumladan, 1 ga daraxtzor yiliga o'rtacha 18 mln m³ havoni tozalaydi. Ushbu yer maydonidagi daraxtlar issiq davrda havo tarkibidagi 220 – 280 kg karbonat angidridni o'zlashtiradi, yiliga 70 t changni

tutadi, atmosferaga 180 – 220 kg kislorod ishlab chiqaradi. Daraxtzor va ko'kalamzor xiyobonlar jazirama kunlarda soya-salqin beradi, tuproqda namni saqlaydi. Shu tufayli, shahar bog'larida yo'l va xiyobonlarga qaraganda harorat biroz salqin ($2 - 4^{\circ}\text{C}$), havo namligi esa yuqori (13 – 14%) bo'ladi. Xiyobonlardagi yashil o'tloqlarning har bir kvadrat metri soatiga 200 g suvni bug'latib, havoning salqin bo'lishiga hissa qo'shadi [8].

Bundan tashqari daraxtzor va ko'kalamzordagi yashillik kishi ruhiyatini tinchlanadiradi, mehnat faoliyatini tiklashga ketadigan vaqtini 60% gacha kamaytiradi, kishilardagi chidam-toqatini 15%ga ko'paytiradi, fikrni bir joyga jamlashni orttiradi. Shunga ko'ra, turar joydan oromgoh bog'lari 2 – 3 km, tuman bog'lari 1,5 km, bolalar oromgohlari – 1 km, gulzor va yashil xiyobonlar 400 – 500 m dan uzoq bo'limgani ma'qul.

Shuningdek, shaharlar atrofida yashil zonalarini kengaytirish muhim ahamiyatga ega. Bu mintaqalar shahar aholisining dam olishini tashkil etish, shahar mikroiqlimini yumshatish, havo tozaligini ta'minlashga yordam beradi. Bu mintaqalar ko'lami shaharlarning katta-kichikligi, funksiyasi kabi omillarga mos tarzda barpo etilmog'i darkor. Ushbu mintaqalarda mavjud turar joylarni kengaytirish, yangilarini qurish, sanoat korxonalarini joylashtirish maqsadga muvofiq emas. Ularda faqat dam olish va sog'lomlashtirish maskanlari, sayyoqlik, hayvonot va botanika bog'lari tashkil etish mumkin, xolos.

Ko'pgina shaharlarda ko'kalamzorlashtirishga e'tiboring orta borishidan Tokio, Nyu-York, London, Vankuver, Moskva kabi global shaharlar yashil-bog'larga aylantirilgan. Bu esa shahar ekomuhitiga juda katta ijobjiy ta'sir ko'rsatgan [8].

Shaharlardagi shovqin kuchini kamaytirishda ham daraxtzorlarning ahamiyati katta. Sanoatlashgan hududlar va turarjoylar oralig'ida, turarjoy binolari bilan serqatnov yo'llar o'rtaсидаги barpo etilgan daraxtzorlar shovqinni 20 foizga, kengligi 25 m bo'lган buta va daraxtzor-xiyobonlar ovoz kuchini 10 – 12 db ga kamaytiradi. Turarjoylarning yo'llardan 200 m uzoqroqda qurilishi shovqin kuchini 20 db ga kamaytirishi aniqlangan. Masalan, havo ifloslanishi, shovqin darajasining kuchayishi, suv hamda yo'l sifatining yomonligi shahardagi aholi qatlami uchun bir qator muammolarni yuzaga keltiradi. Natijada, doimiy yashovchi aholining salomatligiga salbiy ta'sir etib, yurak-qon tomir kasalliklari, nafas yo'llaridagi kasalliklarni keltirib chiqaradi. Bunga proporsional tarzda, ekologik toza muhitga erishish uchun zarur bo'lgan daraxt hamda o'simliklar ham infratuzilmalar qurilishi hamda yo'llar kengayishi oqibatida yashil maydonlar kamayib borishi salbiy oqibatlarni keltirib chiqaradi. Ushbu yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish uchun, shaharda doimiy shahar muhiti monitoringini amalga oshirish zarur.

Qulaylik inson va uning yashashi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar bo'lib, masalan, havoda namlik qanchalik yuqori bo'lsa, issiq harorat insonga shunchalik kuchli ta'sir etadi, nisbiy namlik 50 foiz, havo harorati $16 - 18^{\circ}\text{C}$ bo'lishi inson

organizmi uchun qulay sharoit hisoblanadi. Havo harorati 24°C, nisbiy namlik 44 – 60 foiz, shamol tezligi sekundiga 0,7 – 1 m bo‘lganda inson organizmi uchun juda qulay sharoitni vujudga keltiradi [7].

Shaharda yashash qulayligini oshiruvchi asosiy omillar sifatida shahar toza havosi, yashil maydonlar, sifatli infratuzilma, toza ichimlik suvi, keng, toza va ravon ko‘chalar, sifatli yo‘llar hamda faol turmush tarzini targ‘ib qiluvchi, aholini salomatligini ta’minlovchi muassasalarni hisobga olish kerak. Shahar muhitining yuqori darajada bo‘lishi, xizmatlarning xilma xilligi va sifati sayyoohlarni jalb qiladi. Natijada, shahar iqtisodiyoti rivojlanadi hamda yangi ish o‘rnlari yaratiladi. Shaharlarda qulay muhitni hosil qilishda ma’lum bir to‘siqlarga duch kelish mumkin. Ulardan biri bu – shaharlarda shovqin kuchini kamaytirish hisoblanadi. Bu muammoning oldini olish uchun bir-biri bilan uzviy bog‘langan quyidagi majmuali tadbirlarni amalga oshirishni taqozo etadi:

- shahar qurilishi va me’morchiligidagi tovush yutuvchi moslama va materiallardan keng foydalanish;
- shovqinsiz transportlar yaratish (elektromobil, velosiped, smart samokat-lardan foydalanishni takomillashtirish).

Dunyodagi shaharlarning yashash uchun qulaylik darajalarini baholashning bir necha mezonlari ishlab chiqilgan. Xorijiy usullar orasidan quyidagilarni ajratish mumkin:

Arcadis barqaror shaharlar (The Arcadis Sustainable Cities Index) hayot sifati ko‘rsatkichlarining yangi tasavvurlarini taklif etadigan bu indeks 3 ta asosiy mezonga tayanadi. Ya’ni dunyodagi shaharlarni 3 ta asosiy ustunga ma’lum bir ko‘rsatkichlarga ko‘ra joylashtiriladi. Jumladan:

1). “Ijtimoiy reyting” – ijtimoiy ko‘rsatkichlarni, shu jumladan shahardagi ijtimoiy infratuzilma sifatini o‘lchaydi. Yevropa bu ko‘rsatkich bo‘yicha yaqqol etakchi bo‘lib, G‘arbiy Yevropa shaharlari eng yaxshi 20 ta o‘rindan 15 tasini egallagan. Seul, Singapur va Tokio kabi Osyoning yirik shaharlari kuchli 10 otalikdan o‘rin olgan. Ushbu reyting asosan odamlar va ularning hayot sifatini baholashni hisobga olish orqali dunyodagi shaharlar reytingini ko‘rsatib beradi.

2). “Global reyting” – ekologik omillarni hisobga oladi, asosan ekologik toza muhitga ega bo‘lgan shaharlarni yuqoriga o‘ringa qo‘yadi va yashash uchun yaroqli deb baholaydi. Yevropa shaharlari ushbu reyting o‘rinlarini monopoliya qiladi. 2022-yil hisobi bo‘yicha birinchi o‘ntalikda Oslo, Parij, Stokholm, Kopengagen, Berlin, London, Antverpen, Rotterdam kabi shaharlarning tabiiy muhiti yuqoriligi aniqlangan.

3) “Iqtisodiy reyting” – ishbilarmonlik muhiti va iqtisodiy ko‘rsatkichlarni baholaydi. Iqtisodiy salohiyati, mehnatga yaroqli aholi ulushi yuqori, ish sifat darajalari yuqori bo‘lgan shaharlar reytingi beriladi. AQSh shaharlari bu borada etakchilik qiladi. Ammo bu reytingni egallagan shaharlar ijtimoiy reyting va global reyting bo‘yicha nisbatan past ballga ega [10].

Arcadis Sustainable Cities Indexning (Arcadis Barqaror shaharlar indeksi) [1] 2022-yildagi 5-nashri shahar barqarorligi va shaharlardagi farovonlikni ochish va hayot sifatini yaxshilashning kaliti bo'lgan eng keng qamrovli va chuqur tahlil qilingan loyiha sifatida tan olindi. Arcadis Sustainable Cities Index – 2022 barqarorlikning uchta ustuni: sayyora, odamlar va foyda ostida joylashgan 26 ta indikator mavzusi bo'yicha 51 ko'rsatkich asosida dunyoning 100 ta shaharlarini shu uch ustunga joylashtiradi. Berilgan indekslar bo'yicha jami 360 ballik tizimda baholanadi. Yakuniy ballga qarab, shahar atrof-muhit sifati aniqlanadi: 0 dan 180 ballgacha indeks bo'lsa noqulay shahar muhitiga ega deb baholansa, 180 balldan yuqori bo'lsa shahar muhiti qulay hisoblanadi. 2021-yil natijalariga ko'ra Sankt-Peterburg shahri 256 ball bilan baholangan. Ushbu shaharni baholashda 6 ta mezonga tayanib xulosalar berilgan [1]. O'tkazilgan tadqiqotlar natijasiga ko'ra dunyoning yashash uchun eng yaxshi shaharlar reytingida Top 5 talikning birinchi o'rinni Norvegiyaning Oslo shahri egallagan.

The Global Liveability Index Economist Intelligence Unit (EIU) (Jahonda yashashga yaroqli shaharlar indeksi) yashash qobiliyatini, dunyo bo'ylab qaysi joylar eng yaxshi yoki eng yaxshi yashash sharoiti bilan ta'minlanganligini baholaydi. Asosiy maqsadi yashashga yaroqlilik reytingi har qanday holatda insonning turmush tarziga duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni aniqlaydi. Buning natijasida berilgan shaharlarni bevosita taqqoslash imkonи mavjud. Har bir shahar 30 dan ortiq sifat va miqdoriy ko'rsatkichlar bo'yicha qulaylik reytingi bo'yicha baholanaadi [11]. Bunda beshta keng toifadagi omillar: barqarorlik (Stability); sog'liqni saqlash (Healthcare); madaniyat va atrof-muhit (Culture & Environment); ta'lim va infratuzilma (Education and Infrastructure) kabi ko'rsatkichlar asosiy mezon bo'lib xizmat qiladi.

Shahardagi har bir omil maqbul, bardoshli, noqulay, nomaqbul yoki chidab bo'lmas deb baholanaadi. Sifat ko'rsatkichlari bo'yicha kompaniya ichidagi tahlilchilar va shahar ichidagi hissa qo'shuvchilarning fikriga ko'ra beriladi. Miqdoriy ko'rsatkichlar uchun reyting bir qator tashqi ma'lumotlar asosida nisbiy hisoblanadi. Jami 173 ta shaharni baholash yuqoridagi indikatorlarga asoslanadi. Indikatorlarga ko'ra ballar belgilanadi, bunda 1 balldan 100 balgacha etib belgilanadi. Shunda 1 ball – chidab bo'lmas darajadan 100 ball yashash uchun eng maqbul hisoblanadi.

Mazkur loyihalardan birini Rossiya Federatsiyasi 2019-yilda shahar atrof-muhit sifati indeksi metodologiyasini tasdiqladi. Uning yordami bilan birinchi marta butun mamlakat bo'ylab vaziyat tahlil qilindi. Indeks Rossiya shaharlarining 23,5 foizida shahar muhiti uning aholisi uchun haqiqatan ham qulay ekanligini ko'rsatdi. Rossiyaning 1100 ta shahri o'rganildi va 2020-yildagi natijalarga ko'ra 816 ta shaharida ijobjiy o'zgarishlar ko'rsatkich va indekslar bo'yicha yaxshilan-gani ayniqsa, 3 ta mezon bo'yicha yaqqol sezildi. MDH mamlakatlari qatori Rossiyada ham shaharlarni sifat indeksini baholashda 6 ta mezon asosida aholi eng ko'p bo'ladigan 6 ta joyni 36 ta ko'rsatkichga ko'ra baholanaadi. Bunda ham jami

360 ballni tashkil qiladi, shahar muhitini qulay deb baholash uchun yig'ilgan ball 180 ball va undan yuqori bo'lishi kerak. Noqulay yashash muhitiga ega shahar ko'rsatkichlari 0 balldan 180 ballgacha belgilangan. Shahar atrof-muhit sifati indeksining ko'rsatkichlari shahar rezidentlari uchun muhim bo'lgan 6 ta mezon bo'yicha baholanadi. Ular quyidagilar:

I mezon: xavfsizlik – belgilangan joylarning xavfsizlik darajasini aniqlash va inson hayoti va sog'ligiga potensial tahdidlarni aniqlashdan iborat.

II mezon: qulaylik – mavjud joydagi barcha foydalanuvchilar guruhlari, shu jumladan harakatlanish imkoniyati cheklangan odamlar uchun shaharning qulayligi va ulardan foydalanish imkoniyatini baholash.

III mezon: atrof-muhit va salomatlik – shahardagi atrof-muhitning hozirgi holatini baholash, shuningdek shahar infratuzilmasidan foydalanish, shahar ekomuhitini saqlash va kerak bo'lganda qayta tiklash maqsadlariga qay darajada javob berishini aniqlash imkonini beradi.

IV mezon: o'ziga xoslik va xilma xillik – shahar ko'rinishining o'ziga xosligi va funksional xilma xilligi, rejalashtirish va shahar ichidagi binolarni me'moriy o'zgaruvchanligini baholash imkonini beradi.

V mezon: atrof muhitning zamonaviyligi va dolzarbligi – shaharni aholiga berayotgan imkoniyatlari nuqtai nazaridan baholash mavjud imkoniyatlar ko'lami va shaharning xalqaro tamoyillarga qanchalik mos kelishini aniqlash.

VI mezon: boshqaruva samaradorligi – shahar hokimiyatining yuqori sifatli shahar muhitini shakllantirish uchun zarur shart sharoitlarni yaratish bo'yicha ishini baholashga imkon beradi.

Mezonlar belgilangan ko'rsatkichlar asosida shahar muhitini baholashda shahar aholisining ehtiyojlarini maksimal darajada qondirish qobiliyati bilan bog'liq, shuning uchun har bir makon turini baholash mezonlari shahar aholisining asosiy ehtiyojlaridan hisoblanadi.

Namangan shahri qulayligini baholash uchun yuqorida keltirilgan mezonlardan foydalanildi. "Gullar shahri" nomi bilan mashhur bo'lgan Namangan shahri Yangi O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlar, yangilanishlar va keng qamrovli bunyodkorlik ishlari samarasini o'laroq, yanada ko'rkamplashib bormoqda. Binobarin, bugungi kunda Namangan shahri e'tiborga molik, jozibador va maftunkor, yirik maskanlaridan biriga aylandi. Aholini barqaror o'sishini natijasida, Namangan shahari "millioner shahar" qiyofasini olmoqda. Bu o'z navbatida turli xizmatlarga ehtiyoj va turar joyga bo'lgan talabni oshiradi.


Namangan shahrida 2021-2022 yillarda umumiyligi qiymati 2,2 trillion so'mlik jami 209 ta investitsiya loyihasini amalgaga oshirildi. Mazkur davr mobaynida qiymati 1,1 trillion so'mga teng 156 ta loyiha foydalanishga topshirildi. Buning natijasida 7 ming 218 ta doimiy ish o'rni yaratildi. Namangan shahri aholisi 2018 – 2023-yillarda 152 ming kishiga ko'paydi. Shu davrda 300 dan ziyod ko'p qavatli uylar qurilib, qariyb 65 ming aholi yangi uy-joyga ega bo'lgan. Namangan shahrida 30 ming aholini uy-joyga ehtiyoji mavjud. Shaharning yangi tumanlari bo'lib

qo'shilgan Davlatobod, Yangi Namangan tumanlari yaqin kelajakda aholisi yiliga 25 ming nafarga ko'payishi kutilmoqda.¹ Shu bois shaharda yashash qulayligini baholash kerak bo'ladi.

Shu maqsadda, Namangan shahrining qulaylik darajasini baholash uchun sotsiologik so'rovnama usuli docs.google platformasi orqali IT texnologiyalaridan foydalangan holda amalga oshirildi. Sotsiologik so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning asosiy qismini – talabalar, shaharga ish yuzasidan kelib ketuvchilar, doimiy yashovchi aholi qatlami tashkil etadi. Namangan shahrining asosiy qulayligi bu – ta'lim, uy-joy, ma'muriy boshqaruv idoralari, tibbiy xizmat, savdo va ish manbalari bilan bog'liq. Bu esa, aholi oqimining qishloq joylardan shahar hududida yuqori bo'lishiga sabab bo'lgan. Zero, Namangan shahri ham bugungi kunda respublika miqyosida o'z o'rniغا ega.

So'rovnomada jami 218 nafar respondent ishtirok etgan bo'lib, ularning 80,0 foizi Namangan viloyati aholisi hisoblanadi. So'rovnomada asosan Namangan shaharining yashash uchun qulaylik darjasini, uning hozirgi va yaqin istiqboldagi holatini yaxshilash uchun respondentlar tomonidan reprezentativ javoblar olingan. Ayniqsa, avtomobil yo'llarida tirbandlik muammolarini bartaraf etish, transport vositalari qatnovini tartibga solish, yo'llarni kengaytirish, ta'mirlash (Lola-Chorsu

Sardobani bog'lovchi yo'l) kabi dolzarb muammolarga reprezentiv javoblar olingan. Qolaversa, Namangan shahrini yanada rivojlantirish uchun aholiga qulay uy-joylar, yo'llar va dam olish hududlarini tashkil etish va yashil makon barpo etish kabi fikrlar berilgan. Namangan shahrining qulaylik darajasini baholash uchun respondentlarning hayotida shahar qanday ahamiyat kasb etishi, shaharning qulayligi va jozibadorligi so'rovnama orqali tadqiq etilgan.




2-rasm. "Namangan shahri sizning hayotingizda qanday ahamiyatga ega?" – mazmunidagi savolga resperezentiv javoblar

¹ <http://www.namstat.uz/uz/>

O'tkazilgan anketa so'rovnomaning: "Namangan shahri sizning hayotin-gizda qanday ahamiyatga ega?" – degan birinchi savoliga respondentlarning 15,0 foizi shaharda doimiy istiqomat qilishini, 25,0 foizi ijarada turishini, 48,0 foizi esa shaharga o'qish yuzasidan kelib ketishini bildirgan (2-rasm). Asosiy respondentlar shaharga ish va o'qish yuzasidan kelib ketuvchilar bo'lib, ularga ishchi va xizmatchilarni kiritish mumkin. Respondentlarning ish yuzasidan kelib ketuvchilar 7,0 foizni tashkil qilgan holda turli xizmatlardan foydalanish (bozor, tibbiyot va h.k.) maqsadida kelib ketuvchilar 2,0 foiz tashkil etgan. Eng past ko'rsatkichni esa, shaharga dam olish, hordiq chiqarish uchun keladigan aholi bo'lib, uning ulushi atigi 1,0 foizni tashkil etayotganini ko'rish mumkin. Demak, shahar muhiti dam olish, hordiq chiqarish yoki sayr qilish uchun qulaylik darajasi birmuncha past ekanligini ko'rsatadi.


O'tkazilgan tadqiqotning ikkinchi savoli: "Namangan shahrining qulay va jozibadorligi nimada?" – mazmundagi savol natijasini tahlili shuni ko'rsatadi, aksariyat ishtirokchilar uchun texnikum va oliy ta'lif muassasalari, shuningdek, litsey va maktablarning ko'pligi ishtirok etgan respondentlar uchun shahar qulayligini va jozibadorligini belgilab beruvchi asosiy omillardan ekanligini belgilagan.



Bundan ko'rinish turibdi, so'rovnomada ishtirok etgan respondentlarning ko'pchilik qismi talaba yoshlar ekanligini ko'rsatadi. Chunonchi, respondentlarning 126 nafari yoki 56,0 foizi shaharni qulayligi va jozibadorligi sifatida – oliygoҳ, texnikum, litsey kollej kabi ta'lif muassasalarini mavjudligi sabab qilib ko'rsatgan. Shu bilan birligida shaharning qulayligini belgilovchi omillardan yana biri sifatli o'quv markazlarining mavjudligi hisoblanadi. Chunonchi, respondentlarning 15,0 foizi shahardagi o'quv markazlarga kelib ketuvchilardan iborat. Jami ishtirokchilarning 8,0 foizi Namangan shaharning qulayligi va

jozibadorligi sifatida, unda yirik istirohat bog'larining joylashganligi hamda xizmat ko'rsatish sohalari (tibbiyat, maishiy xizmat va umumiy ovqatlanish, salonlar) ning sifat darajasi yuqoriligini ko'rsatishgan. Keyingi o'rinda katta va ko'p tovarlik bozorlarning mavjudligi – 2,0 foiz; ma'muriy boshqaruv idoralarining joylashganligi – 3,0 foiz; ish va yashash joyining deyarli bir joyda uyg'unlashganligi – 2,0 foiz; infratuzilma (elektr, issiqlik, suv ta'minoti, kanalizatsiya) tizimining yaxshiligi – 2,0 foiz kabilar shahar qulayligini belgilaydigan asosiy omil ekanligini ko'rsatishgan (3-rasm).

Sotsiologik so'rovnomaning 4-savoli: "Namangan shahrining noqulayligini nima(lar) bilan baholaysiz?" – mazmunida nomlangan bo'lib, quyidagi natijalar olindi: yo'l loyihalaridagi kamchiliklar natijasida yo'llarning torligi va tirbandlikning mavjudligidan aziyat chekadiganlarning ulushi – 74,0 foiz; shaharning shovqinligini va soya salqin joylarning kamligini bildirgan aholi – 4,0 foiz; ekologik muhitning ijobjiy emasligi (shahar tozaligi, chiqindixonalar holati va ko'kalamzorlashtirish ishlari)ni kam ekanligidan shikoyat qiluvchi aholi qatlamining ko'rsatkichi – 12,0 foiz; bino va inshootlarning betartib joylashtirilganligini ta'kidlaydiganlar – 1,0 foiz; kanalizatsiya va suv ta'minotining to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligini bildirganlar – 1,0 foiz; avtomashinalar uchun avtoturargoh etishmasligini bildirganlar – 2,0 foiz; yo'l harakati qoidalariga amal qilinmaslididan aziyat chekadiganlar – 4,0 foiz; boshqa shu kabi muammolar borligini belgilovchi respondentlar – 3,0 foizni tashkil qilgan (4-rasm).




4-rasm. Respondentlarning "Namangan shahrining noqulayligini nima(lar) bilan baholaysiz?" – mazmundagi savolga bergan reprezentiv javoblari

Yuqoridagilar shuni aniqlash mumkinki, shaharga kiruvchi avtomobil yo'llarining torligi va transport vositalarini o'tkazuvchanlik ko'rsatkichining pastligi, tirbandlik kabi muammolarni ko'rsatadi. Natijada, transport vositalari harakatlanishida noqulayliklar kelib chiqarayotganligi aniqlandi. Shahar hududida yo'l qurilishi, yo'llarni qayta ta'mirlash asosiy dolzarb muammo bo'lib qolmoqda. Respondentlar fikrlari tahliliga ko'ra shahardagi ekologik muhit barqaror emasligi, ko'kalamzorlashtirish ishlarini olib borish kerakligi ko'rindi. Buning uchun maxsus loyihibar ishlab chiqish hamda shahar ekomuhitini yaxshilashga oid chora tadbirlarni amalga oshirish lozim.

Anketa-so'rovnama ishtirokchilari shahar hududining qaysi qismi yashash uchun qulayligini belgilash ko'rsatilgan: "Namangan shaharining qaysi qismida yashash qulay deb hisoblaysiz?" – mazmunidagi savolga quyidagi javoblarni belgilagan. Bunda asosan shahar hududining eng yirik va gavjum aholi yashash joylari – Chorsu, Lola, Do'stlik, Go'zal, Oromgoh dahasi, Davlatobod tumani hududi yashash uchun qulay ekanligi respondentlar tomonidan ta'kidlangan. Ayniqsa, yuqori ko'rsatkichlar respondentlar xulosasiga ko'ra Chorsu (34,0 foiz), Lola (17,0 foiz), Do'stlik (14,0 foiz) dahasini, Davlatobod (18,0 foiz) tumani yuqori ko'rsatkichli hududlar hisoblanadi. Chunonchi, Go'zal – 4,0 foiz, Oromgoh – 4,0 foiz va boshqa hududlarda 9,0 foiz aholi yashash uchun qulay deb baholashgan.

Shahar muhitini belgilashda avvalo, suv, elektr energiya, gaz, maishiy xizmat ko'rsatish sohalari bilan ta'minlanish darajasi yashash afzalligini belgilaydi (5-rasm).




5-rasm. "Namangan shaharining qaysi qismida yashash qulay deb hisoblaysiz?" – mazmunidagi savolga berilgan reprezentiv javoblar

“Namangan shahrining qulaylik darajasini 5 ballik tizimda qanday baholaysiz?” – mazmunidagi savolga javob orqali ishtirokchilarning fikrlarini o’rganildi. Unga ko’ra respondentlarning 35,0 foizi – “kamroq qulay” ekanini qayd etgan bo’lsa, “qulay” variantini 35,0 foiz ishtirokchilar belgilashgan. Juda qulay variantini esa so’rovnomada ishtirok etgan respondentlarning 17,0 foizi Namangan shahrini yashash uchun “juda qulay” deb hisoblagan. Bu shahar muhitining qulaylik darajasi o’rtacha ekanligini ko’rsatadi.

Qolaversa, shaharda ma’daniy maskanlar konsentratsiyasining yuqoriligi, sog’liqni saqlash va boshqa ijtimoiy infratuzilmalar, aynan, shahar hududida joylashgan. Shuningdek, shahar muhiti yo’ldosh aholi punktlariga nisbatan sifatli xizmat sohalari, suv, gaz, elektr energiyasining uzluksiz ta’minlangan. Bu esa ma’lum darajada, shaharning qulaylik darajasi yuqori bo’lishini belgilaydi (6-rasm).

Shaharda yashashni noqulay deb hisoblaydiganlar 8,0 foiz qismini tashkil etsa, juda noqulay deb biladiganlar nisbatan ulushi kam 5,0 foizni tashkil etgan. Bundan shuni xulosa qilish mumkinki, shahar atmosferasining yuqori darajada ifloslanishi yoki shahar yo’l transportidagi tirbandlik va noqulayliklar, shahar ekomuhitining yomonligiga sabab bo’lgan. So’rovnomaning 6-savoli “Namangan shahar muhitini yanada yaxshilash uchun qanday taklif yoki shikoyatlaringiz bor” – degan mazmundagi savolga respondentlar bergen fikr va takliflarning asosiy qismi shahar yo’l tizimini qayta qurish yoki qayta ta’mirlash kerakligini bildirgan.

Respondentlarning reprezentativ fikrlari tahlili shuni ko’rsatadiki: ularning 22,0 foizi shahar yo’llarini qayta ta’mirlash, yo’llardagi tirbandlikni oldini olish va bu muammoni qayta ko’rib chiqish kerakligini taklif etgan. Ularning 6,0 foizi shahar yashil maydonlarni kengaytirish, ko’plab manzarali daraxtlar ekish, gullar festivalini yanada kengaytirish va shahar ekologik holatini yaxshilashga qaratilgan yangicha loyihalar ishlab chiqish lozimligi taklifni bergen. Ishtirokchilarning 16,0 foizi turli fikrlarini bergen. Masalan, shahar infratuzilmasini yangilash, elektr ta’mintonini qayta takomillashtirish, ichimlik suvi muammosini ko’rib chiqish, shahardagi arxitektura va arxeologik yodgorliklarga e’tiborni kuchaytirish, yangi turistik maskanlarni barpo etish kabilar.



6-rasm. “Namangan shahrining qulaylik darajasini 5 ballik tizimda qanday baholaysiz?” mazmunidagi savolga reprezentiv javoblar

Xulosa va takliflar

Sotsiologik anketa-so'rovnama o'tkazish orqali Namangan shahrida yashash muhitini yaxshilash uchun, barcha sohalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi borasida ustuvor yo'nalishlarni belgilab olish muhim hisoblanadi va bu borada quyidagicha xulosalar olindi:

– shahar muhiti qulayligini belgilovchi omillardan biri undagi infratuzilmalar va yo'llar hisoblanadi. O'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra Namangan shahrining transport yo'llari va ularni qurilishini qayta ko'rib chiqish zarur. Chunki tirbandlik yo'llarda harakatlanishni cheklashga olib keladi, natijada, shaharda avtomobillardan chiqadigan zararli gazlarning miqdorini ko'payishiga va atmosferaning ifloslanishiga sabab bo'ladi. Qolaversa, shaharda jamoat transport tarmog'ini takomillashtirish muammoning echimi sifatida keltirish mumkin.

– Namangan shahrida ta'lim muassasalari hududiy konsentratsiyasining yuqoriligi, ixtisoslashgan tovar bozorlarning mavjudligi, tibbiyat, maishiy xizmat ko'rsatish, ma'muriy boshqaruvi idoralarining shahar hududida joylashganligi uning "qulaylik" ahamiyatini yanada oshiradi. Biroq, uy va yashash joyidagi elektr-energiyasi, issiqlik, suv ta'minoti, kanalizatsiya tizimini yaxshilash va qayta ko'rib chiqish kerakligini taqozo etadi. Chunki shaharni o'tgan asrning 90-yillarigacha bo'lgan davrdagi demografik sig'imi bilan hozirgi vaziyati keskin farq qiladi. Natijada, aholining turarjoy, kommunal xizmat va maishiy xizmatga bo'lgan talabi ortadi. Bu esa shahar elektr tizimi, ichimlik suvi, gaz ta'minoti va kanalizatsiya tizimi bilan ta'minlanish darajasini qayta ishlab chiqish kerakligini anglatadi.

– shaharni ekologik muhitining ijobiy emasligi undagi yashil maydonlar cheklanganligi bilan bog'liq. Bu esa ko'kalamzorlashtirish ishlarini keng ko'lamda amalga oshirishni va ekologik toza muhit shakllantirishni dolzarbligini ko'rsatadi. Shaharda aholi zichligining yuqoriligi va avtomobillar serqatnov bo'lganligi bois atmosfera havosi ifloslanishi yo'ldosh aholi punktlariga nisbatan yuqqori darajada. Buni oldini olish uchun yashil zonalarni ko'paytirish ayniqsa, havo tarkibida kislород miqdorini ko'paytiruvchi daraxt va o't-o'simliklar maydonlarini ko'paytirish lozim.

Yuqoridagi kabi tahlillar shaharlardagi real vaziyatni baholash imkonini beradi. Bunday kuzatishlar boshqa yirik shaharlarda ham amalga oshirilishi, muammolarni izchil o'rganilishi natijasida ko'plab muammolar o'z echimini topdi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

- Беляева Л.О., Стрелец К.И. Оценка комфортности городской среды Санкт-Петербургский политехнический университет Петра Великого (СПбПУ), г. Санкт-Петербург, Россия DOI 10.15826/rj cst.2023.1.004
- Ганченко Д.Н., Тарзанова Ю.А. Комфортная городская среда: инновация или трансформация термина // Развитие теории и практики управления социальными и экономическими системами. 2019. №. 8. С. 81 – 85.]

3. Геоурбанистика и градостроительство: теоретические и прикладные исследования. Сб. статей. Отв. ред. А.Г.Махрова. – М.: Геогр. ф-т МГУ, 2021. – 305 – 325 с.
4. Лаппо Г.М. География городов: Учеб. пособие для геогр. ф-тов вузов, М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1997. – 480 с.; илл. ISBN 5-691-00047-0.
5. Маергойз И.М. Экономико географическое положение. [Электронный ресурс]. 17.02.2023 URL: <https://topogis.ru/mayergoyz-ekonomiko-geograficheskoye-polozheniye.php>
6. Michael Pacione Urban Geography: A Global Perspective. [Electronic resource]. 17.04. 2001 URL: <https://www.goodreads.com/en/book/show/7433235-urban-geography>
7. Rafiqov A., Vahobov H. va boshq. Amaliy geografiya. Akademik litsey va kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma / Mas’ul muharir V.Rafiqov. – Т.: «Sharq», 2010. – 160 b.
8. Лосев А.В., Провадкин Г.Г. Социальная экология: Учеб. пособие для вузов / Под ред. В.И.Жукова. – М.: Гуманит. изд. центр ВЛАДОС, 1998 – 312 с. ISBN 5-691-00130-2
9. Разомасова Е.А., Романова Н.Г. Комфорт как условие аттрактивности городской среды // Идеи и идеалы. 2018. Т. 2. №. 2 (36). С. 16 – 27.
10. The Arcadis Sustainable Cities Index 2022 [Electronic resource]. URL: https://images.connect.arcadis.com/Web/Arcadis/%7Be08e5cda-768d-46a3-91ce4efe16cbfc05%7D_The_Arcadis_Sustainable_Cities_Index_2022_Report.pdf (27.11.2022)
11. The Global Liveability Index 2023 Optimism amid instability [Electronic resource]. URL: <https://www.newmoney.gr/wpcontent/uploads/2023/06/%CE%95%CE%94%CE%A9-2.pdf>

FARG‘ONA VODIYSI HAVO XARORATIDAGI TEBRANISHLAR

Soliyev E.A.
Namangan davlat universiteti dotsenti, g.f.n.

Annotatsiya. Maqolada Farg‘ona vodiysida joylashgan meteorologik stansiyalarda qayd etilgan ma’lumotlar asosida havo xaroratidagi o‘zgarishlar ikkita iqlimiylar davrlar uchun (bazaviy iqlimiylar davr (1961 – 1990 yy.) va JID – joriy iqlimiylar davr (1991 – 2022 yy.) ko‘rib chiqildi. Shu maqsadda vodiyning turli tabiiy geografik xududlarida kuzatishlar olib boradigan 8 ta meteorologik stansiyalar ma’lumotlaridan foydalandik. Shuningdek, tadqiqot ishida, havo xaroratining bazaviy va joriy iqlimiylar davrlardagi o‘zgarishlari o‘rganilib, ular orasidagi farqlar aniqlandi.

Таянч иборалар: Farg‘ona vodiysi, meteorologik stansiya, havo xarorati, xaroratning o‘zgarishi, bazaviy iqlimiylar davr, joriy iqlimiylar davr, trend chizig‘i.

Аннотация. В статье рассматривается изменение температуры воздуха для двух климатических периодов по данным метеостанций Ферганской долины. Для этого использовались данные 8 метеостанций, ведущих наблюдения в различных природно-географических зонах долины. В ходе исследования также изучены изменения температуры воздуха в базовый и текущий климатические периоды и выявлены различия между ними.

Ключевые слова: Ферганская долина, метеостанция, температура воздуха, изменение температуры, базовый климатический период, текущий климатический период, линия тренда.

Abstract. The article explores the changes in air temperature for two climatic periods based on data recorded at meteorological stations in Fergana Valley. For this purpose, we used data from 8 meteorological stations conducting observations in different natural geographical areas of the valley. The study also examined changes in air temperature in the base and current climatic periods and identified differences between them.

Key words: Fergana Valley, meteorological station, air temperature, temperature change, base climate period, current climate period, trend line.

Kirish

Bugungi kunda, dunyo miqyosida sanoat rivojlanishi natijasida atmosferaga chiqayotgan uglevodorod gazlari miqdori yil sayin ko‘paymoqda. Bu esa sayyoramizda “issiqxona effekti”ni kuchaytirib, iqlim o‘zgarishlariga sabab bo‘lmoqda. Oqibatda gidrometeorologik kelib chiqishli tabiiy ofatlar ko‘paymoqda. Masalan, dunyoning ayrim joylarida yog‘ingarchilik odatdagidan ancha ko‘p bo‘lsa, boshqa hududlarda qurg‘oqchilik avj olyapti [3].

Butunjahon Meteorologiya Tashkiloti ma'lumotlariga ko'ra, Yer yuzida o'rtacha yillik xaroratning Selsiy bo'yicha bir darajaga ko'tarilishi oqibatida, kamida bir milliard odam qishloq xo'jaligi, chorvachilik va dalada ishlash uchun yuzaga kelgan iqlim sharoitiga moslashishga yoki boshqa joyga ko'chib o'tishga majbur bo'ldi [1]. Qayd etish lozimki, zamonaviy iqlimiyl davr avvalgilaridan ancha farq qiladi. Iqlim ilishining hozirgi tendensiyasi alohida ahamiyatga ega, chunki xarorat juda tez ko'tarilmoqda. Yer yuzasida xarorat 1975-yildan boshlab, har o'n yilda Selsiy bo'yicha taxminan 0,15 – 0,20 darajagacha ko'tarilmoqda. Buning natijasida dunyo okeani suv sathi ma'lum darajada ko'tarildi, yer yuzasida muz qoplamlari maydoni kamayishi va boshqa ekstremal gidrometeorologik hodisalar kuzatilmogda [6].

Jahon Meteorologiya Tashkilotining yangi ma'ruzasida 2015, 2016 va 2017 yillar eng iliq yillar sifatida tasdiqlandi [9]. Bu atmosferada issiqxona gazlarining meyordan ko'payib ketishi natijasida yuzaga kelgan iqlim o'zgarishining rad qilib bo'lmaydigan isbotidir. Bu boradagi jahon rekordi hozircha 2016 yilga "tegishliligicha" qolgan. Kuzatuvlar boshlanganidan buyon o'tgan eng issiq 18 yilning 17 tasi hozirgi, ya'ni yangi asrimizga to'g'ri kelmoqda. Ayniqsa, havoning isish darajasi oxirgi uch yilda o'tgan yillardagidan mutlaqo farq qiladi. Arktikadagi meteorologik stansiyalarda havo xaroratining ko'tarilishi qayd etilgani buning dalilidir. Bunday hodisalar dengiz sathi va sayyoramizning boshqa qismlaridagi ob-havo rejimiga uzoq vaqt ta'sir ko'rsatadi [4].

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Iqlimning keyingi vaqtida global o'zgarishi sharoitida turli darajadagi geoekologik muammolar paydo bo'lmoqda. Bunday muammolar hududlarning tabiiy-iqlimiyl imkoniyatlarini o'rganish, noqulay meteorologik jarayonlar va ularning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, hududlar uchun qulay tabiiy muhitni saqlab qolishni taqozo etadi. Respublikamiz, xususan Farg'ona viloyatida bunday muammolarni o'rganish, tadqiq etish, halq xo'jaligi uchun yetarli tavsiyalar berishda boy ilmiy, va amaliy tajribalar to'plangan. Jumladan, Y.N.Babushkin rahbarligidagi agrometeorologik tadqiqotlar asosida bayon qilingan manbalarda, A.A.Abdullayev, B.A.Kamolov, V.YE.Chub, D.A.Ivanova, N.S.Kopovalova, O.N.Reyzvix, F.A.Mo'minov, F.H.Hikmatov va boshqalarning gidrometeorologik tadqiqotlarida Farg'ona vodiysining gidroiqlimiy xususiyatlarina emas, balki keng miqyosda iqlimiyl tadqiqotlar olib borilgan [2]. Lekin, shunga qaramasdan, iqlimning ilib borishi sharoitida tabiiy geografik hodisa va jarayonlarning o'zgarish tendensiyasi Farg'ona vodiysi misolida, tadqiqotchilar nazaridan chetda qolgan.

Ushbu ishni o'rganishdan maqsad vaqt o'tishi bilan Farg'ona vodiysi havo xaroratidagi o'zgarishlar tendensiyasini aniqlashdir.

Tadqiqot maqsadiga erishish uchun quyidagi vazifalar qo'yildi:

- Farg'ona vodiysi meteorologik stansiyalarda qayd qilingan havo xarorati ma'lumotlarini to'plash;

- o‘rtacha yillik havo xarorati bo‘yicha ma’lumotlarni statistik qayta ishlash;
- havo xaroratidagi o‘zgarishlarni bazaviy va joriy iqlim davrlariga tegishli bo‘lgan ma’lumotlar asosida o‘zaro solishtirish natijasida tahlil etish.

Ishda tadqiqot obyekti sifatida Farg‘ona vodiysi tanlab olindi. Farg‘ona vodiysi havo xaroratidagi o‘zgarishlar aniqlash va bu o‘zgarishlarni tabiiy geografik jarayonlarga ta’sirini baholash ishni predmeti hisoblanadi.

Tadqiqot metodologiyasi

Birlamchi ma’lumotlar va tadqiqot usullari. Ishni bajarish jarayonida Farg‘ona vodiysining turli xududlaridagi 8 ta (Fedchenko, So‘x, Shoximardon, Andijon, Farg‘ona, Qo‘qon, Pop, Namangan) meteorologik postlarda kuzatilgan ko‘p yillik (1961 – 2022 yy.) havo xarorati ma’lumotlaridan foydalanildi. Tadqiqotda statistik, qiyosiy-geografik, xronologik, chiziqli trend, korrelyatsion tahlil va boshqa meteorologik hisoblash usullari qo‘llanildi.

Tahlil va natijalar

Farg‘ona vodiysida havo xaroratining ko‘tarilishi qanday oqibatlarni keltirib chiqarishini aniqlash va undan tegishli amaliy xulosalarga kelish juda muhim bo‘lib, ayni paytda jiddiy gidrometeorologik tadqiqotlar o‘tkazishni talab etadi. Biz o‘rganayotgan vodiy o‘ziga xos geografik joylashuvga egaligi sababli, bu yerda havo xaroratining oylik va yillik o‘zgarishlari o‘ziga xosligi bilan boshqa hududlardan ajralib turadi[7].

Farg‘ona vodiysining umumiyligi iqlim xususiyatlari uning geografik joylashishi, tevarak-atrofning baland tog‘ tizmalari bilan o‘ralganligi, hududning subtropik iqlim mintaqasining kontinental tipiga mansub ekanligi, katta suv havzalaridan uzoqligi va ulkan cho‘llarga qo‘sniligi bilan bog‘liq. Unda yoz issiq, quruq va davomlidir, qish esa qisqa davom etadi. Yog‘inlar, asosan, bahor va qishda yog‘adi, yoz va kuz ancha qurg‘oqchil. Yil davomida quyosh 2550 – 2800 soat nurini sochib turadi va bu jihatdan vodiy Toshkent va Bayramalidan qolishmaydi. Summar quyosh radiatsiyasi yiliga 150 kkal/sm² bo‘lib, yuqoriga chiqqan sari oshib boradi va 4000 m balandlikda 170 kkal/sm² atrofida bo‘ladi [5]. Uning 65 kkall ga yaqin qismi yozga, 26 kkall qish oylariga to‘g‘ri keladi. Demak, vodiy hududiga yozda qishdagiga nisbatan 4 marta ko‘p issiqlik tushadi. O‘rtacha yillik xarorat tekisliklarda 15 – 17°C, tog‘larda 10 – 12°C bo‘ladi. Vodiyda eng sovuq xarorat yanvar oyida kuzatiladi. Tog‘lardan esadigan sovuq havo qishda vodiyning markaziy qismida to‘plaiib qoladi, natijada yanvarning o‘rtacha haroragi 3°C bo‘ladi. Ba‘zi yillari shimal va shimoli-sharqdan sovuq havo massasi esib, vodiyning g‘arbiy qismidagi past tog‘lardan oshib o‘tadi. Natijada xaroratni pasaytirib yuboradi. Ana shunday paytlarda vodiyda minimal xarorat pasayib -30°C ga tushadi. Havoning isishi iyulgacha davom etadi va avgustdan yanvargacha havo xarorati pasayib boradi [5].

Vodiyini o‘rab olgan tog‘lardan esadigan sovuq havo qishda markaziy qismida

to‘planib qolishi, natijada yanvarning o‘rtacha xarorati -7 °C gacha pasayadi. Ba’zi yillari shimol va shimoli-sharqdan sovuq havo massasi esib, tog‘lardan oshib o‘tadi va vodiy xaroratini juda pasaytirib yuboradi. Ana shunday paytlarda eng past xarorat -27, -31°C ga tushadi. Ammo qish faslida sovuqlar bilan birga, ba’zan + 22 °C issiq kunlar ham bo‘lib turadi.

Farg‘ona vodiysida tabiiy geografik hodisa va jarayonlarning o‘zgarishiga ta’sir etuvchi asosiy meteorologik elementlardan biri – bu havo xarorati hisoblanadi. Shundan kelib chiqib, ishda Farg‘ona vodiysida havo xaroratini o‘zgarishini o‘rganish maqsadida vodiyda joylashgan 8 ta meteorologik stansiyalar tanlandi (1-jadval).

1-жадвал

Farg‘ona daryosi vodiysida joylashgan meteorologik stansiyalarda kuzatilgan havo xaroratlarining o‘zgarishlari


T/r	Meteorologik stansiya	BID havo xarorati, °C			JID havo xarorati, °C			$\Delta t_{o\cdot rt} = t'_{jid} - t'_{bid}$
		max	min	o‘rt.	max	min	o‘rt.	
1	Fedchenko	20,4	8,8	13,5	18,2	13,2	14,6	1,14
2	So‘x	11,8	8,9	10,3	12,3	9,7	10,9	0,6
3	Shoximardon	10,8	6,1	8,9	12,8	7,9	10,2	1,3
4	Andijon	20,3	8,4	13,2	16,0	13,2	14,5	1,3
5	Farg‘ona	14,7	11,8	13,6	15,7	13,3	14,6	0,97
6	Qo‘qon	20,2	11,7	14,1	16,3	13,9	15,1	1
7	Pop	15,0	12,5	14,1	18,0	13,7	15,2	1,11
8	Namangan	20,1	12,3	14,2	15,8	12,2	14,8	0,64


Izoh: BID – bazaviy iqlimi davr (1961 – 1990 yy.); JID – joriy iqlimi davr (1991 – 2022 yy.); t'_{bid} va t'_{jid} – mos ravishda BID va JIDlardagi o‘rtacha ko‘p yillik havo xaroratlari; $\Delta t_{o\cdot rt}$ – havo xaroratlarining farqi, °C.

Tadqiqotlardan ma’lumki, O‘zbekiston meteorologik stansiyalarining kuzatuv ma’lumotlari asosida havo xarorati va yog‘inlar yig‘indilarining bazaviy (1961 – 1990 yy.) va joriy (1991 – 2016 yy.) iqlimi davrlardagi o‘rtacha oylik, yarim yilliklar va yillik qiymatlarining qiyosiy tahlili o‘tkazilgan. Kuzatish ma’lumotlarining ko‘rsatishicha, O‘zbekistonning barcha iqlimi rayonlarida, birinchidan, ko‘p yillik o‘rtacha oylik havo xaroratining bazaviy iqlimi davrdagiga nisbatan ortishi xarakterli [5]. Shu asosda tadqiqot ishining keyingi bosqichida Farg‘ona daryosi vodiysida havo xaroratidagi o‘zgarishlar ikki iqlimi davrlarga (BID – 1961 – 1990 yy. va JID – 1991 – 2022 yy.) tegishli bo‘lgan ma’lumotlarni o‘zaro solishtirish natijasida aniqlandi.


Jadval tahlili shuni ko‘rsatadiki, Fedchenko meteorologik stansiyasida bazaviy iqlimi davrda (1961 – 1990 yy.) qayd etilgan o‘rtacha yillik havo xarorat $13,5^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan. Shu meteorologik stansiyada joriy iqlimi davrda (1991 – 2022 yy.) esa havo xaroratning o‘rtacha yillik qiymati $14,64^{\circ}\text{C}$ ga teng bo‘lgan. Ushbu qiymatlardan ko‘rinib turibdiki, o‘rtacha yillik havo xarorati joriy iqlimi davrda, bazaviy iqlimi davrga nisbatan $1,14^{\circ}\text{C}$ ga ko‘tarilgan. Tanlangan bu ikki davrdagi o‘rtacha yillik havo xaroratidagi eng katta farq Andijon meteorologik stansiyasida kuzatilgan bo‘lib, $1,34^{\circ}\text{C}$ ni tashkil qilgan. Eng kichik farq esa, So‘x meteorologik stansiyasida kuzatilgan bo‘lib, $0,57^{\circ}\text{C}$ ga yetgan. Umuman olganda, Farg‘ona vodiysining turli geografik xududlarida joylashgan barcha meteorologik stansiyalarda joriy iqlimi davrda havo xarorati sezilarli darajada $1,1^{\circ}\text{C}$ ga ko‘tarilgan.

Tadqiqot ishining keyingi bosqichida Farg‘ona vodiysida bazaviy va iqlimi hisob davrlarida havo xaroratining yillararo o‘zgarishlari aniqroq ifodalash maqsadida, vodyida joylashgan meteorologik stansiyalarda qayd etilgan havo xaroratlarining yillararo o‘zgarishi grafiklari chizildi va ular tahlil qilindi (1-rasm).







г) Андижон метеорологик станцияси



д) Кўқон метеорологик станцияси



е) Фарғона метеорологик станцияси



1-rasm. Farg'ona vodyisida joylashgan meteorologik stansiyalarda BID va JIDLarda qayd etilgan o'rtacha yillik havo xaroratlarining o'zgarishi

Grafiklardan ko'rilib turibdiki, Fedchenko meteorologik stansiyasida o'rtacha yillik havo xaroratining eng katta qiymati bazaviy iqlim davrida $20,42^{\circ}\text{C}$ bo'lib, bu qiymat 1982 yilga, joriy iqlimi davrda esa o'rtacha yillik havo xaroratining eng katta qiymati $18,2^{\circ}\text{C}$ bo'lib, bu qiymat 2002 yilga to'g'ri keldi. Shuningdek, bazaviy iqlim davrida o'rtacha yillik havo xaroratining eng katta qiymatlari Andijon, Qo'qon meteorologik stansiyalarida 1982 yilda, Namangan, Farg'ona meteorologik stansiyalarida 1981 yilda, So'x va Shoximardon meteorologik stansiyalarida 1973, 1979 yillarda kuzatilgan.

So'x meteorologik stansiyasida o'rtacha yillik havo xaroratining eng katta qiymati bazaviy iqlim davrida $11,86^{\circ}\text{C}$ bo'lib, bu qiymat 1973 yilga, joriy iqlimi davrda esa o'rtacha yillik havo xaroratining eng katta qiymati $12,34^{\circ}\text{C}$ bo'lib, bu qiymat 2016 yilga to'g'ri keldi. Shuningdek, joriy iqlim davrida o'rtacha yillik havo xaroratining eng katta qiymatlari Shoximardon, Farg'ona meteorologik stansiyalarida 2016 yilda kuzatilgan bo'lsa, Andijon meteorologik stansiyasi 2018 yilda, Qo'qon meteorologik stansiyasida 2019 yilda, Pop meteorologik

stansiyasida 1992 yilda, Namangan meteorologik stansiyasida 2004 yilda kuzatilgan.

Umuman olganda, bazaviy iqlim davrida vodiy meteorologik stansiyalarida qayd etilgan o‘rtacha yillik havo xaroratining eng katta qiymatlari $11,86 \div 20,4^{\circ}\text{C}$, joriy iqlimi davrda esa $12,34 \div 18,2^{\circ}\text{C}$ gacha o‘zgargan. Fedchenko, Andijon, Qo‘qon, Namangan meteorologik stansiyalarida o‘rtacha yillik havo xaroratining eng katta qiymatlari joriy iqlim davrida bazaviy iqlim davridagiga nisbatan $-2,21^{\circ}\text{C}$ dan $-4,3^{\circ}\text{C}$ gacha kamaygan. So‘x, Shoximardon, Farg‘ona, Pop meteorologik stansiyalarida esa sezilarli, ya’ni $+0,48^{\circ}\text{C}$ dan $+2,96^{\circ}\text{C}$ gacha ortgan.

Farg‘ona vodiysida joylashgan meteorologik stansiyalarda bazaviy iqlimi davrda eng past o‘rtacha yillik havo xaroratlari 1969, 1971, 1972, 1977, 1982, 1988 yillarda, joriy iqlimi hisob davrida eng past o‘rtacha yillik havo xaroratlari 1991, 1993, 1996, 2003, 2012 yillarda kuzatilgan.

Farg‘ona vodiysi meteorologik stansiyalari bo‘yicha chizilgan havo xaroratlari o‘zgarishi grafiklariga trend chizig‘lari ham o‘tkazildi va trend tenglamalari hisoblandi (2-jadval).

2-jadval

Farg‘ona daryosi vodiysida joylashgan meteorologik stansiyalarda qayd etilgan o‘rtacha yillik havo xaroratlarining trend tenglamalari

T.r.	Meteorologik stansiya	Trend tenglamalari	
		BID	JID
1	Fedchenko	$t = -0,0088x + 13,662$	$t = 0,0414x + 13,995$
2	So‘x	$t = -0,0151x + 10,468$	$t = 0,0443x + 10,206$
3	Shoximardon	$t = 0,0851x + 8,0563$	$t = 0,036x + 9,6634$
4	Andijon	$t = 0,0376x + 12,573$	$t = 0,0439x + 13,814$
5	Farg‘ona	$t = 0,0307x + 13,187$	$t = 0,0392x + 14,002$
6	Qo‘qon	$t = 0,0602x + 13,206$	$t = 0,0348x + 14,585$
7	Pop	$t = 0,0148x + 13,869$	$t = 0,0078x + 15,119$
8	Namangan	$t = 0,0422x + 13,59$	$t = 0,0594x + 13,924$

Bazaviy va joriy iqlimi davrda havo xaroratlari o‘zgarishi grafiklarida o‘tkazilgan trend chizig‘i yuqoriga qarab ko‘tarilib borayotganligini ko‘rsatib turibdi. Faqatgini, bazaviy iqlimi davrda Fedchenko va So‘xda meteorologik stansiyalari uchun bu holat kuzatilmadi.

Xulosa va takliflar

Tadqiqot natijalarni umumlashtirgan holda, quyidagi xulosalarni qayd etish mumkin:

O‘rtacha yillik havo xarorati Farg‘ona vodiysining turli geografik xududlarida bazaviy iqlimi davrga nisbatan joriy iqlimi davrda havo xarorati sezilarli darajada $1,1^{\circ}\text{C}$ ga ko‘tarilgan;

Farg‘ona vodiysining markaziy qismlarida joylashgan meteorologik stansiyalarida o‘rtacha yillik havo xaroratining eng katta qiyatlari joriy iqlim davrida bazaviy iqlim davridagiga nisbatan $-2,2^{\circ}\text{C}$ dan $-4,3^{\circ}\text{C}$ gacha kamaygan. Tog‘ oldi va tog‘li xududlarida joylashgan meteorologik stansiyalarida esa sezilarli, ya’ni $+0,5^{\circ}\text{C}$ dan $+2,9^{\circ}\text{C}$ gacha ortgan;

Eng past o‘rtacha yillik havo xaroratlari vodiyning deyarli barcha meteorologik stansiyalarida 2000 yildan oldin kuzatilgan;

O‘rganilgan meteostansiyalarda havo xaroratlarining o‘zgarishi trendi har ikkala davr uchun deyarli barchasida musbat qiyatlarga ega bo‘ldi. Faqatgina Fedchenko va So‘xda meteorologik stansiyalari uchun musbat qiyatlarga bazaviy iqlim davrida trend manfiy ekanligi qayd etildi.

Foydalanimizga yaroqchi adabiyotlar ro‘yxati

1. Бюллетень ВМО. Том. 67(2) – Изменение климата, 2018 г.
2. Ziyayev R.R. Zarafshon daryosi havzasida havo xaroratidagi o‘zgarishlar va uning belgilari // O‘zbekiston Geografiya jamiyati axboroti, 57-jild. – Toshkent: 2020. – B. 294 – 301.
3. Осокова Т.А., Хикматов Ф.Х., Чуб В.Е. Изменение климата. – Ташкент: НИГМИ, 2005. – 40 с.
4. Soliyev E.A. Iqlim o‘zgarishining Farg‘ona vodiysi suv resurslariga ta’siri. Namangan. “Namangan” nashiryoti. 2021. – 147 bet.
5. Xolmatjanov B.M. Mintaqaviy atmosfera sirkulyatsiyasi, uning O‘rta Osiyo iqlimining o‘zgarishi va O‘zbekistonning tog‘li hududlarida havoning ifloslanishiga ta’siri xususiyatlari. Dissertatsiya avtoreferati. Toshkent – 2019. – 60 bet.
6. Чуб В.Е. Изменение климата и его влияние на природно-ресурсный потенциал Республики Узбекистан. – Ташкент: НИГМИ, 2000. – 252 с.
7. Berdiev G.H., Soliev E.A. Statistical and Comparative Analysis of Temperature and Rain in Fergana. Nature and Science. ISSN 1545-0740 (print); ISSN 2375-7167 (online).
8. Soliev, E.A. (2022). About the reaction of the drain of rivers with glacier food to climate heating. ISJ Theoretical & Applied Science, 01 (81), 335-340.
9. Бюллетень ВМО. Том. 66(2) – 2017 г. – Готовность к погодным условиям, климатическая безопасность – Поддержка Повестки дня в области устойчивого развития на период до 2030 г.

IQLIM O‘ZGARISHI OQIBATIDA INSONLARDA YANGI EPIDEMIYA VA BAKTERIYALARING TARQALISHI

Alimjanov F.N.

University of Business and Science o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Global iqlim o’zgarishi – yangi epidemiyalarga va bakteriyalarni global darajada axoli salomatligining yomonlashuviga sabab bo’lishi – hozirgi kunda eng dolzarb masala ekanligi xech kimga sir emas chunki atmosfera xavosi turli zararli gazlar va chang to‘zonlar bilan to‘lganligi sababli ob-xavonning keskin o’zgarishi va uning inson salomatligiga jiddiy ta’sir ettirayotganligi, axoli qatlami turli xil zararli epidemiya va bakteriyalar ta’sirida turli kasalliklar bilan aziyat chekayotganligi va qishloq xo‘jaligi ekinlari sifati buzulishi natijasida boshqa bir qator muammolarni keltirib chiqarmoqdi. Iqlim o’zgarishi, uning ta’sirini tushunish va xavfli oqibatlarini baholash, uni oldini olish, O’zbekistonda iqlim o’zgarishi sharoitiga mostlashish chora-tadbirlarini axoli va talabalarga joriy etish va amaliyotda qo’llash choralarini amalga oshirish nazarda tutilgan va axolining salomatligi o’z qo’lida ekanligini ularga tushuntirishni maqsad qilingan.

Tayanch iboralar: iqlim o’zgarishi, suv, tuproq, epidemiya, bakteriya, qishloq xo‘jaligi, globallashuv, atmosfera, sho’rlanish, konkurensiya, ekologik muammolar, kasalliklarning kelib chiqish sabablari.

Аннотация. В статье не секрет, что глобальное изменение климата, которое повлечет за собой новые эпидемии и глобальную популяцию бактерий, является сегодня наиболее актуальной проблемой, поскольку атмосфера наполнена различными вредными газами и пылью, что вызвало ряд других проблем. в результате ее внезапного изменения и серьезного воздействия на здоровье людей население страдает от различных заболеваний, вызываемых вредными эпидемиями и бактериями, а качество сельскохозяйственных культур ухудшается. Он предназначен для понимания последствий изменения климата, оценки его опасных последствий, предотвращения его, внедрения и реализации мер по адаптации к условиям изменения климата в Узбекистане для населения и студентов, а здоровье населения находится в их собственных руках. ... оно призвано объяснить им, что это.

Ключевые слова: изменение климата, вода, почва, эпидемия, бактерии, сельское хозяйство, глобализация, атмосфера, соленость, конкуренция, экологические проблемы, причины болезней.

Abstract: In the article, it is no secret that global climate change, which will cause new epidemics and global population of bacteria, is the most urgent issue

today, because the atmosphere is filled with various harmful gases and dust. It caused a number of other problems as a result of its sudden change and its serious impact on human health, the population suffers from various diseases caused by harmful epidemics and bacteria, and the quality of agricultural crops deteriorates. It is intended to understand the effects of climate change, assess its dangerous consequences, prevent it, introduce and implement measures to adapt to the conditions of climate change in Uzbekistan to the population and students, and the health of the population is in their own hands. it is intended to explain to them that it is.

Key words: climate change, water, soil, epidemic, bacteria, agriculture, globalization, atmosphere, salinity, competition, environmental problems, causes of diseases.

Kirish

Bugun nafaqat Markaziy Osiyo mamlakatlari, balki butun jahon hamjamiyati iqlim o'zgarishi tufayli yuzaga kelayotgan muammo va tahdidlarga javob topishga intilmoqda. Bu muammolar qatoriga atmosferada issiqxona gazlarining ko'payishi, arning ustki qobig'i haroratining ortishi, suv resurslari taqchilligi, tabiiy ofatlarning tez-tez takrorlanishi, sahrolashish jarayonining o'sishi va boshqalarni kiritish mumkin. Mutaxassislar iqlim o'zgarishi tabiiy ofatlarning yangi turlari paydo bo'lishiga sharoit yaratishi bilan birga, mavjud tabiiy ofatlarning zarar etkazish kuchini bir necha barobar oshirishi, hattoki, boshqarib bo'lmaydigan darajaga etkazishi mumkinligini aytmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Maqolada Global iqlim o'zgarishi – yangi epidemiyalarga va bakteriyalarni global darajada axoli salomatligining yomonlashuviga sabab bo'lishi – hozirgi kunda eng dolzarb masala ekanligi xech kimga sir emas chunki atmosfera xavosi turli zararli gazlar va chang to'zonlar bilan to'lganligi sababli ob-xavoning keskin o'zgarishi va uning inson salomatligiga jiddiy ta'sir etayotganligi achinarli xolat bo'lishini T.Raximova, R.X.Allaberdiyev, O'.Nabihev, D.K.Muxamedjanova, Isashov A., Aripov A. va boshqa mutaxassislar bu borada o'z fikrlarini aytib o'tishgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada pedagogik-kuzatuv, sotsiometriya (suhbat, anketa, so'rovnama), umumlashtirish, modellashtirish va ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berish hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Mutaxassislar iqlim o'zgarishi tabiiy ofatlarning yangi turlari paydo bo'lishiga sharoit yaratishi bilan birga, mavjud tabiiy ofatlarning zarar etkazish

kuchini bir necha barobar oshirishi, hattoki, boshqarib bo’lmaydigan darajaga etkazishi mumkinligini aytmoqda.

Xalqaro tashkilotlar va ilmiy doiralar iqlim o’zgarishi dunyoning qator hududlarida turli darajadagi ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni yuzaga keltirishini taxmin qilyapti. Xususan, Jahon banki ma’lumotiga ko’ra, iqlim o’zgarishi kuchli ichki migratsiyaga sabab bo’lib, 2050 yilgacha dunyoning oltita mintaqasida yashayotgan 216 million nafar inson o’zlari yashayotgan makonni tark etib, boshqa hududlarga ko’chishga majbur bo’ladi. Bu mintaqalar orasida Markaziy Osiyo hamda unda yashayotgan 5 milliondan ortiq aholining borligi ushbu muammoning mintaqasi davlatlari uchun juda dolzarb ekanligini isbotlaydi.

Tojikiston Respublikasi Dushanbe shahrida bo’lib o’tgan Markaziy Osiyoda iqlim o’zgarishi masalalariga bag’ishlangan 5-xalqaro konferentsiya atrof-muhit, suv, er resurslari va boshqa ekologiya bilan bog’liq masalalar allaqachon boshqarish qiyin bo’lgan dolzarb muammolarga aylanib ulgurganini ko’rsatdi. Hozirda Markaziy Osiyo iqtisodiy jihatdan tez suratlarda rivojlanib borayotgan mintaqalardan biri hisoblanadi. Shu bilan birga, mintaqasi geografik jihatdan shundayki, bu erdagisi suv va er resurslaridan unumli foydalanish, ularni boshqarishda oqilona yo’l tutish kelgusida davomli rivojlanish, barqarorlik va fuqarolarning farovonligiga xizmat qiladi.

Mintaqadagi barcha davlatlar, xususan, O’zbekiston, Qozog’iston, Qirg’iziston, Tojikiston va Turkmaniston iqlim o’zgarishi bilan bog’liq tahdidlarga qarshi kurashish va tegishli chora-tadbirlarni qabul qilish maqsadida Parij Bitimini ratifikatsiya qilgan. Mazkur bitim 2015 yilda ishlab chiqilgan bo’lib, shu yilning o’zida 196 ta davlat tomonidan imzolangan. Parij Bitimining asosiy jihatlaridan biri rivojlangan davlatlar bilan bir qatorda rivojlanayotgan davlatlar ham atmosferaga tashlanmalar miqdorini kamaytirish majburiyatini olishi belgilangan.



Shu bilan birga, ushbu xalqaro hujjatda davlatlar oldiga quyidagi uchta muhim maqsadlar qo'yilgan:

Birinchisi maqsad – davlatlar oldiga qo'yilgan maqsad – iqlim o'zgarishi oqibatlarini yumshatishdan iborat. Bunda er yuzidagi global o'rtacha haroratning sanoatlashuv davrigacha (XVIII asrning o'rtalari) bo'lган darajaga nisbatan 2°Sdan pastda, imkon qadar 1,5°Sda ushlab turish nazarda tutiladi. Shu kunga qadar dunyo davlatlari tomonidan olib borilgan siyosat hamda sayyoramizning global isishini 1,5°S da ushlab turish uchun talab qilinadigan siyosat o'rtasida juda katta bo'shliq mavjud bo'lgan. Ekspertlar prognoziga ko'ra, mavjud voqelik o'zgarmasa hamda Parij Bitimiga a'zolar tomonidan o'z vaqtida tegishli choralar qabul qilinmasa, 2100 yilga kelib er yuzidagi global isish o'rtacha 3,2°Sni tashkil qiladi. Bu yer sharining katta qismida ekotizim izdan chiqadi. Yer yuzidagi global isishni 1,5°Sda ushlab turish atmosferaga chiqariladigan tashlanmalarни 2030 yilgacha 43 foiz va 2050 yilgacha 84 foizga kamaytirishni ko'zda tutadi. Faqat ushbu maqsadga erishishgina sayyoramizni "sog'lom" holda saqlab qolishga imkon yaratadi.

Ikkinchi maqsad – iqlim o'zgarishining noqulay ta'sirlariga moslashish salohiyatini oshirishga va past uglerodli rivojlanishga ko'maklashishni nazarda tutadi. Ushbu maqsadga erishish yo'lida mintaqadagi barcha davlatlar tomonidan milliy qonunchilikka tegishli o'zgartirishlar kiritilib, davlat dasturlari qabul qilingan. Xususan, Qozog'istonda 2060 yilgacha uglerod neytralligiga erishish bo'yicha Strategiya tasdiqlangan. Unga muvofiq, iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini qayta tiklanuvchi energiya manbalariga o'tkazish, bioenergetikani rivojlantirish orqali atmosferaga tashlanmalar miqdorini 0 foizga tushirish belgilangan. Tojikistonda esa 2030 yilgacha iqlim o'zgarishlariga moslashish bo'yicha Milliy Strategiya qabul qilingan.

Shuningdek, 2019 – 2030 yillarda O'zbekistonning "yashil iqtisodiyot"ga o'tishi bo'yicha Strategiya qabul qilindi. Ushbu hujjatda suv va qishloq xo'jaligi sektorlarida iqlim o'zgarishiga moslashish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar belgilangan. Iqlim o'zgarishlariga moslashish bo'yicha mintaqadagi alohida davlatlar tomonidan olib borilayotgan sa'y-harakatlar mintqa miqyosida olib qaraganda juda kam foizni tashkil etishiga guvoh bo'lamic.

Uchinchi maqsad – esa, davlatlarni iqlim barqarorligini saqlab qolgan holda rivojlanishga qaratilgan loyihalarni moliyalashtirishga chaqirishdan iborat. Xususan, Jahon banki guruhi 2021 yilda keyingi besh yillikda ajratiladigan mablag'larning 35 foizi aynan iqlim o'zgarishiga moslashgan loyihalarga qaratilishini ma'lum qildi. 2016 – 2020 yillar oralig'ida bu raqam 26 foizni tashkil qilgan.

Ushbu mezon rivojlanayotgan barcha Markaziy Osiyo davlatlari uchun muhim ahamiyatga ega. Mintqa davlatlarida amalga oshirilayotgan yirik loyihamalar iqlim o'zgarishlariga moslashuv bo'yicha talablarni o'zida aks ettirmasa, ularning xorijiy investorlar tomonidan moliyalashtirilishi qiyinlashib boradi. Bu o'z navbatida iqtisodiyot o'sishining sekinlashuviga sabab bo'ladi. Kelgusida investitsiya bo'yicha jozibadorligini oshirishga intilayotgan barcha davlatlar iqlim

o'zgarishi bilan yuzaga kelayotgan talablarni inobatga olishi zarur. Ta'kidlash joizki, bugun iqlim o'zgarishi natijasida vujudga kelayotgan ekologik muammolar allaqachon milliy darajadan transmilliy tahdidiga aylanib ulgurdi. Shu bois ushbu muammolarni hal qilish bo'yicha alohida bitta davlat tomonidan qilinayotgan harakatlar o'z samarasini bermasligi yaqqol namoyon bo'lmoqda. Bu muammoning yagona echimi qo'shni davlatlar o'rtasida hamkorlikni barcha darajalarda kengaytirish, jamoatchilikni keng jalb qilish va iqlim o'zgarishi bilan bog'liq masalalarda birgalikda qaror qabul qilish lozim.

Shu bilan birga, mintaqadagi ekologik vaziyatni keng ommaga etkazish va fuqarolarda ekologik madaniyatni shakllantirish maqsadida ommaviy axborot vositalaridan unumli foydalanishga zaruryat tug'ilmoqda. Ayniqsa, Orol muammoosi va suv resurslarining tanqisligi bilan "yashayotgan" Markaziy Osiyo iqlim o'zgarishining oqibatlariga bardosh berishi bo'yicha dunyoning boshqa mintaqalariga qaraganda ancha zaif hisoblanadi.

Mutaxassislar fikricha, Markaziy Osiyo davlatlaridagi sug'orish texnologiyalarining samarasizligi tufayli sug'orish uchun ishlatiladigan suvning 50 foizi yo'qotilmoqda. Iqlim sharoitlarining o'zgarishi natijasida mintaqaning muzliklar maydoni oxirgi 50 – 60 yil ichida 30 foizga qisqarib, erlar degradatsiya bilan bog'liq yillik xarajatlar YaIMning 4 foizini tashkil etmoqda. Ushbu raqamlar Markaziy Osiyo mintaqasiga iqlim o'zgarishi intensiv kirib kelayotganini ko'rsatadi. Bugungi kunda Markaziy Osiyo mintaqasida iqlim o'zgarishiga moslashish va uning salbiy oqibatlariga qarshi kurashish bo'yicha qator xalqaro tuzilmalar, xususan, Markaziy Osiyo mintaqaviy ekologik markazi, Orolni qutqarish xalqaro jamg'armasi, shuningdek, xalqaro moliya institatlari va donor davlatlar tomonidan moliyalashtiriladigan dasturlar asosida faoliyat yurituvchi nodavlat tashkilotlar, ekologiya faollari, jurnalistlar va ilmiy-tadqiqot institatlari mavjud. Bundan tashqari, so'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlari tomonidan iqlim o'zgarishi masalalari bo'yicha xalqaro va mintaqaviy tashkilotlarda ilgari surilayotgan tashabbuslar muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoev 2022 yil 16 sentyabr kuni Samarqand shahrida bo'lib o'tgan Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT) sammitida tashkilot doirasida Iqlim masalalari bo'yicha Kengash tuzishni taklif qildi. Shuningdek, Qozog'iston Prezidenti Qosim-Jomart Toqaev 2022 yil 11 noyabrdagi Turkiy davlatlar tashkilotining (TDT) Samarqand sammitida "Turkiy davlatlar yashil moliya kengashi"ni ta'sis etish tashabbusini ilgari surdi. Bunday tashabbuslarning davlat rahbarlari tomonidan ilgari surilishi mintaqadagi iqlim o'zgarishiga moslashish va uning oqibatlari bilan kurashishda hamkorlik aloqalarini yanada kengaytirish, mavjud kuch va vositalarni birlashtirish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Markaziy Osiyo mintaqasidagi iqlim o'zgarishi bo'yicha oliy va yuqori darajali xalqaro tadbirlar, uchrashuvlar kun

tartibiga iqlim o’zgarishi masalalarini muntazam kiritib borish zarur. Shuningdek, tegishli vazirlik va idoralar tomonidan “yashil texnologiyalar” asosida faoliyat ko’rsatayotgan sanoat korxonalari va tadbirkorlar reestrini shakllantirish hamda ular sonining ortib borishini rag’batlantirish kerak. Bu jarayonda eko-jurnalistikani rivojlantirish, xususan, milliy va xalqaro nashrlar, telvideniya faoliyatini kengaytirish, nufuzli tanlovlarda eko-jurnalistikani alohida yo’nalish sifatida kiritish foydali bo’ladi. Barcha maktablar va oliy o’quv yurtlarida “Yosh tabiatshunoslar”, “Yosh ekologlar” nomlari ostida ko’ngillilar guruhini shakllantirish va eko-faollar bilan hamkorlikda trening mashg’ulotlarini o’tkazish maqsadga muvofiq bo’ladi.

Foydalanimanadabiyotlar ro‘yxati

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. Toshkent, O’zbekiston nashriyoti, 2017.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minalash – yurt taraqqiyoti va xalq farovonlining garovi. Toshkent, O’zbekiston nashriyoti, 2017.
3. T.Raximova, R.X.Allaberdiyev. Perspektivne zasuxoustoychivye rasteniya dlya poseva na osušennom dne Arala. Materialy mejdunarodnoy konferentsii. Tashkent, 2018. 23 b.
4. O’.Nabiiev, D.K.Muxamedjanova. Ta’lim va tarbiya jarayonida uzlusiz ekologik tarbiya. «Maktab va hayot» ilmiy metodik jurnal., № 5, Toshkent, 2008 y. 54 b.
5. Xolmo’minov J.T. Iqlim o’zgarishining qishloq ho’jaligi rivojlanishiga ta’siri va uning oqibatlarini yumshatish, iqlim o’zgarishi masalalarini hal qilishga zamonaviy yondashish. Qo’llanma. Toshkent – 2018. 63 b
6. Isashov A., Aripov A. Tuproq unumdorligini yaxshilashda zamonaviy agrotexnologik usullarini qo’llash (svuni tejaydigan va tomchilatib sug’orish, lazer bilan erni tekishlash, erni chuqur haydab yumshatish va h.k.). O’quv qo’llanma. Navoiy: Alisher Navoiy Nomli Nashriyot, 2016. 74 b.



**13.00.00 PEDAGOGIKA VA PSIXOLOGIYA FANLARI
19.00.00 ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ НАУКИ
PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL SCIENCES**

**YOSHLARNI VATANPARVARLIK RUHIDA TARBIYALASHDA
SHARQ YAKKAKURASHLARINING AHAMIYATI**

Qambarov N.S.
University of Business and Science dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sharq yakkakurashlari turlari, inson sog'ligi uchun hamda vatanparvarlik ruhida tarbiyalashdagi muhimligi haqida fikr yuritilgan. Sharq yakkakurashlari mashg'ulotlari yoshlarni vatanga va qadriyat-larga muhabbat asosida tarbiyalash yo'llari yoritilgan. Maqolada barkamol shaxs tarbiyasida sharq yakkakurashlarining o'rni muhimligi nazarda tutilgan.

Tayanch iboralar: Sharq yakkakurashlar, barkamol shaxs, vatanparvarlik, tarbiya, qadriyatlar, so'fiy jang san'ati, milliy kurash, metodklar.

***Аннотация.** В данной статье рассматриваются виды восточных единоборств, их значение для здоровья человека и воспитания в духе патриотизма. Тренинги по восточным боевым искусствам выявили пути воспитания молодежи на основе любви к Родине и ценностям. В статье говорится о значении восточных единоборств в воспитании всесторонне развитой личности.*

***Ключевые слова:** восточные боевые искусства, совершенная личность, патриотизм, воспитание, ценности, суфийские боевые искусства, национальная борьба, методы.*

***Abstract.** This article discusses the types of oriental martial arts, their importance for human health and education in the spirit of patriotism. Oriental martial arts trainings have highlighted the ways of educating young people based on love for the homeland and values. The article mentions the importance of oriental martial arts in the education of a well-rounded person.*

***Key words:** Eastern martial arts, perfect personality, patriotism, education, values, Sufi martial arts, national struggle, methods.*

Kirish

Sharq yakkakurashlari shug‘ullanuvchilari, bo‘lg‘usi kadrlarni vatanparvar barkamol shaxs etib tarbiyalashni takomillashtirish jarayonining yangicha ilmiy-amaliy pedagogik modellarini yaratish va ularni amalga oshirishda innovatsion usullar, texnologiyalarni qo‘llash, shaxsning o‘zini o‘zi anglash vositasi, Sharq yakkakurashi an’analariga nisbatan munosabati, Sharq yakkakurashlari mashg‘ulotlari jarayonlarida allomalar, yakkakurash ustalari va asoschilarini ta’limotlaridan foydalangan holda ta’lim-tarbiya berishga doir ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Yoshlarni har tamonlama etuk shaxs bo‘lib etishishlarida Sharq yakkakurashlarining amaliy ahamiyati juda muhim va dolzarbdir.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Yoshlarni vatanparvar etib tarbiyalash, ta’lim olishlariga bo‘lgan qiziqishlari rivojlantirishda Sharq yakkakurashlarining o‘rni juda muhindir va borada bu bo‘yicha dunyodagi etakchi olimlar, yakkakurash ustalari o‘z izlanishlarini olib borishmoqda. Ushbu izlanishlar asosan ta’lim jarayonining ijtimoiy ehtiyojlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ko‘plab olimlar tadqiqotlar olib borganlar. Xusan, xorij Benjamin Lou, A.Pflyuger, Y.Palayma, P.Vendi, V.Doyil, D.Jonson, R.Piloyan, R.Konnul, V.Palmer, Yilu Sun, G.Funokoshi, S.Sami, S.Mahmudiy, S.Aghaiy, Y.Koch, SH.Iong Yob, L.Li, M.Oyama, G.Yayusin, Y.Lee, M.Nakayama, M.Safrit, Y.Tsyumin, H.Nupponen kabi ko‘blab olimlar izlanishlar olib borganlar.

Sharq yakkakurashlari orqali yoshlarni vatanparvar etib tarbiyalash bo‘yicha ko‘plab maqolalar chop etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada yoshlarni Sharq yakkakurashlari orqali vatanparvar etib tarbiyalash, ta’lim olishlariga bo‘lgan qiziqishlari rivojlantirishda yakkakurashlarning o‘rni muhokama qilinadi. Uning asosiy tarkibiy omillari va qismlari tavsiflanadi. Yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasini o‘rganish, qiziqishlari rivojlantirishda Sharq yakkakurashlari tyrlari, mezonlari tahlili qilindi va solishtirildi. Sharq yakkakurashlari turlari bo‘yicha yondashuvlar o‘rginildi.

Tahlil va natijalar

Sharq yakkakurashlari mashg‘ulotlarida yoshlarni har tomonlama etuk shaxs etib shakllantirishning pedagogik tarbiya metodikasi – komil inson tarbiyasiga oid pedagogik jarayonning xususiyatlari, vazifalari, shakli va metodlarini o‘z ichiga qamrab olgan kompleks tarbiyaviy jarayondir. Aslida barkamol shaxs tarbiyasi inson jismoni, ruhiy, estetik, axloqiy rivojlanishining sifat va qobiliyatlariga asoslangan ko‘rinishidir. Inson kamoloti jarayonida organizmnning qobiliyatlarini saqlab qolish, uning faolligini oshirish, buzilgan funksiyalarni tiklash yo‘lida har bir soha o‘ziga xosdir.

Insonning matonati, diyonati, riyozati, qanoati, ilmi, sabri, intizomi, nafsi, vijdoni, haqgo‘yligi, nazari, ibrati, hayosi, idroki, zakovati, iqtisodi, itoati, haqshunosligi, kechirimlili, vatanni sevishi kabi ijobjiy hislatlariga (A.Avloniy, Turkiy Guliston yoxud axloq, Toshkent: O‘qituvchi, 11-bet) faqat sog‘lom jism, tanisihatilik orqali erishiladi deb qaralgan [2].

Sharq yakkakurashlarining eng asosiy ta’limoti, kuchli, irodali, jismonan va ruhan tetik, qalban go‘zal, vatanparvar, mehnatsevar, halol, ma’nan etuk, tirishqoq, kuchsizlarga doimo yordamini ayamaydigan barkamol inson bo‘lishga qaratilganligi bilan bir qatorda insonni falsafiy mushohada qilishga o‘rgatadi. “Jangchi tog‘dek mustahkam, viqorli, olovdek yondiruvchi, shamoldek tez, o‘rmondek sokin, osmondek musaffo bo‘lishi lozim” deyiladi Sharq yakkakurashlari ta’limotlarida.

Sharq yakkakurashi ustozlari faqat etuk sportchi va yakkakurash ustalarini tayyorlamaydi, balki – bu ruhiy tarbiya, hayot qiyinchiliklarini engib o‘tishga o‘rgatadilar. Bu esa yakkakurashlar keng qamrovli san’at turi sifatida ularning kelajakda barkamol shaxs bo‘lib ulg‘ayishlarini kafolatlaydi. Agar, biror sababga ko‘ra ushbu yakkakurash turlari bilan shug‘ullanmay qo‘ysalar ham, bu mashg‘ulotlarda singdirilgan ruhiy, jismoniy, estetik va axloqiy tarbiya yoshlarga hayoti davomida turli muammolarni hal qilishda muhim ahamiyat kas etadi.

Deyarli barcha mamlakatlarning jang san’atlari bo‘lib, bular, o‘z navbatida, insonlarni dushmanlardan saqlanishda, vatanini himoya qilishlari uchun va sog‘lom bo‘lishlarida muhim zaruratga aylandi. Shu bilan birga ko‘plab Sharq yakkakurashlari turlari paydo bo‘ldi. Ammo, ko‘pchilik yakkakurashlarning 100 dan ortiq turlari va yo‘nalishlari mavjudligini bilmaydi. Bu Sharq yakkakurashlari turlari barcha mamlakatlarda bo‘lib, o‘sha millatga xos va mos ravishda yaratilganligini ko‘rishimiz mumkin. Ularning ruhiyati, madaniyati, yashash tarzi o‘sha jang san’atlarida ham o‘z aksini topgan.

Sharq yakkakurashlari turlari va tarixi, ta’limotlari bilan tanishtirish, so‘ngra ushbu jang san’atlari bilan shug‘ullanishlari maqsadga muvofiq va ahamiyatlidir. Jang san’atlarini falsafiy mushohada bilan o‘rgatib boriladi. Zero, o‘rganuvchi nafaqat jangchi, balki sog‘lom fikrlovchi, vatanparvar hamda barkamol insonga aylansin.





Sharq yakkakurashi (jang san'ati) – bu shunday yo'lki, inson butun umri mobaynida o‘z tanasini jismoniy chiniqtirib, ruhini mustahkamlab, estetik va axloqiy tarbiyalanib, o‘zidagi yangi qobiliyat va imkoniyat qirralarini ochishga intilishdir. Buni bilish uchun Sharq yakkakurashi ildizlarini chuqur o‘zlashtirish darkor. Tayland, Xitoy, Yaponiya, Koreya kabi davlatlar Sharq yakkakurashi turlarining yaratilishida muhim o‘rin egalladi.

Endi bir necha davlatlar yakkakurashlari haqida alohida so‘z yuritamiz. Yuqorida ta’kidlab o‘tilgan jang san’atlari tarixini, ta’limotlarini va jang san’atlarini ko‘plab olimlar o‘rganganlar. Buning isbotini ajdodlar qoldirgan tarixiy, tasviriyl, ilmiy-pedagogik asarlarda ko‘rishimiz mumkin. Ko‘plab jang san’ati ustalari ham bu ta’limotlar asosida shogirdlarini o‘qitgan va shug‘ullantirganlar. Bu jang san’atlari va ta’limotlari ustozdan-shogirdga, otadan-farzandga meros bo‘lib kelgan va shu sababli bizning kunlargacha etib keldi. Albatta bizlardan keyingi avlodlarga ham bu meroslar etib boradi. Bunda ustoz-murabbiylarga ulkan vazifalar yuklanadi.

Yuqoridagi fikrlardan ko‘rinadiki, yer yuzida qancha millat bo‘lsa barchasida o‘zlarining milliy jang san’atlari mavjuddir. Bular o‘sha millatga xos, o‘z urf-odatlari, iqlimi, ruhiyatidan, zaruratlaridan kelib chiqqan, xozirgacha saqlanib kelayotgan jang san’atlaridir. Ba’zilari dunyo bo‘yicha tarqalgan va ommalashgan, ba’zilari yashirin, o‘z oilasigagina meros bo‘lib kelayotgandir. Jang san’atlari orqali o‘z oilasini, yurtini himoya qilishgan. Eng avvalo, sog‘lom bo‘lishga intilishgan. Tana, ruhlarini chiniqtirganlar va bizning davrimizgacha etib kelgan ushbu jang san’atlaridan nafaqat himoya, sog‘lik uchun balki, kishilar kayfiyatini ko‘tarish va shu yakkakurashga qiziqtirish uchun musobaqalar o‘tkaziladigan sport turlariga aylanib ulgurgan. Sharq yakkakurashlari bilan hozirda ko‘plab insonlar shug‘ullanmoqdalar. Sog‘lom turmush tarzini shakllantirishda tatbiq etmoqdalar va o‘z yurtini dunyoga tanitmoqdalar.

Yurtimizda ham Sharq yakkakurashlari orqali yoshlarni vatanparvar shaxs tarbiyasiga katta e’tibor berilmoqda. Hozirda ko‘plab Sharq yakkakurashlari maktablari, federatsiya va assosiatsiya faoliyat ko‘rsatmoqda. Ular esa, o‘z navbatida, yurtimiz yoshlarini vatanparvar, barkamol inson etib tarbiyalashga o‘z hissalarini qo‘shamoqdalar.

Yangi O‘zbekiston ham kadrlar tayyorlash tizimida o‘ziga xos yo‘liga ega mamlakat hisoblanadi. O‘zbek milliy qadriyatları orqali yoshlarimizni vatanparvar,

axloqli inson etib tarbiyalash eng ustuvor vazifalardan biri bo‘lib, unda milliy san’atimiz turlari, xalq o‘yinlari, urf-odatlari va shu bilan birga milliy o‘zbek Sharq yakkakurashlarimiz ham muhim ahamiyat kasb etadi.

Yurtimizda jahon andozalariga mos yakkakurash va sport majmularini yanada ko‘proq qurish, jang san’ati musoboqalari va seminar-festivallar, turli uchrashuvlarni tashkil etish zarurdir. Buni o‘quvchi va talaba-yoshlar o‘rtasida tuman, viloyat, Respublika miqyosidagi sport musobaqalarining tizimli tashkil etib borilayotgani o‘z samarasи sifatida milliy jamoamiz sportchi-yoshlarining Olimpiyada va jahon, Osiyo hamda boshqa xalqaro musobaqalarda egallab kelayotgan o‘rinlari va g‘alabalaridan ham bilsa bo‘ladi. Yuqorida keltirilgan tadbirlar, o‘yinlar va sport musobaqalari, seminarlarni tashkillashdan asosiy maqsad “Jamiyat oldida turgan o‘rtacha va uzoq muddatli strategik vazifalarni samarali amalga oshirish uchun sog‘lom turmush tarzini hamda jismoniy tarbiya va ommaviy sport bilan uzlusiz shug‘ullanishning foydasini targ‘ib qilish, ushbu jarayonga barcha davlat muassasalari, nodavlat muassasalar va xo‘jalik yurituvchi sub’ektlarni jalb etishni ta’minalash talab etiladi” [4]. Sport va Sharq yakkakurashlari faqatgina jismoniy sog‘lomlik asosi bo‘libgina qolmay, balki ma’naviy-ruhiy, estetik va axloqiy barkamollik, o‘quvchi-yoshlardagi yosh bilan bog‘liq zararli yot g‘oyalarga kuchli immunitet hosil qilgan yoshlar bo‘lib etishishlariga ko‘maklashishdan iborat. Bu esa Sharq yakkakurashlarining oliy maqsadidir.

Barkamol shaxs tarbiyasining ustuvor yo‘nalishlaridan biri yoshlarni har tamonlama garmonik rivojlantirishda Sharq yakkakurashlarining o‘rni beqiyos bo‘lib, ularni jismonan, ruhan, ahloqan, etetik va ma’nan kuchli, halol, vatanparvar va turli yot g‘oyalarga kuchli immunitet hosil qilgan yoshlar bo‘lib etishishlariga ko‘maklashishdan iborat. Bu esa Sharq yakkakurashlarining oliy maqsadidir.

Bunda, milliy o‘zbek jang san’atlarimiz, ularni yoshlarimizga o‘rgatish va ma’naviy, xalqona ta’limotlari bilan tanishtirish, mashg‘ulotlar jaryonida milliy jang san’atlarimizni o‘rgatishda shu jang san’atlarining pedagogik va falsafiy qarashlari, ta’limotlari orqali tarbiyalab boriladi.

Milliy jang san’atlarimiz orqali faqat yakkakurash turlarini o‘rgatib qolmay, yoshlarni jismoniy baquvvat, ruhan tetik, yuksak ahloqli, estetik va ma’naviy jihatdan tarbiyalab boriladi. Milliy jang san’atlarimiz o‘zimizga va ajdodlarimizga xos, o‘z qadryatlarimizga mos holda yaratilgan bo‘lib, unda ajdodlarimiz ruhi, madaniyati va tarixi aks etadi. Milliy jang san’atlarimiz usullari va atamalari ham o‘zbek tilida nomlanadi. Hozirda yurtimizda “So‘fiy jang san’ati” (So‘fiy jang san’atining bir necha yo‘nalishlari mavjud), “Turon” yakkakurashi, “O‘zbek kurashi”, “Belbog‘li kurash” va yangi, zamonaviy “O‘zbek jang san’ati” turlari mavjud bo‘lib, shu yakkakurashlar bo‘yicha federatsiya, assosatsiya, klublar va to‘garaklar faoliyat olib bormoqdalar. Bu federatsiya, assosatsiya, klublar va to‘garaklarimizda malakali murabbiy ustozlar dars bermoqdalar.

Yuqorida ta'kidlab o'tganimizdek, turli millatlarning jang san'atlari bo'lgani kabi bizning ham qadimiy va zamonaviy, milliy jang san'atlarimiz mavjud. Bu milliy jang san'atlarimiz o'zbek millatining ruhiyatiga, madaniyatiga, qadriyatlariga va tarixiga mos ravishda yaratilgan va sayqallanib kelgan. Ko'p asrlik tarixiga ega o'zbek yurti ko'plab ichki, tashqi va bosqinchilik urushlarini boshidan o'tkazgan va mardonavor engib o'tgan. Bunday urushlar xalqimizning irodasini chiniqtirib keldi va shu bilan birga vatanni himoya qilishga undadi. Yurtimiz grek, mo'g'ul, arab va rus bosqinlarini ko'rdi. Xalqimiz qaxramonliklar ko'rsatib ularga qarshi tura oldi. Bu sinovlarda ko'plab qahramonlarimiz etishib chiqdilar. Bunday qahramon ajdodlarimiz sirasiga To'maris, Jaloliddin Manguberdi, Amir Temur kabi sarkardalar va Najmuddin Kubro, Pahlavon Muhammad kabilarni misol qilishimiz mumkin. Shu bilan birga xalq qahramonlari Alpomish, Shiroq, Go'ro'g'li haqida afsonalar yaratildi.

Qadimdan o'zbek xalqida dushmanlardan himoyalanish majburiyatga aylandi. Erkaklar bilan birga ayollar, yoshlari, hattoki bolalar ham jang san'atlarini o'rgandilar. Otda yurish, qilichbozlik, kamondan o'q otish, tayoq bilan jang qilish (o'qlov (norg'ich)) bilan shug'ullanib jangovar qobiliyatlarini rivijlantirib borganlar. Shu yo'sinda milliy jang san'atlarimiz paydo bo'ldi. Ayniqsa, buyuk sarkarda, davlat arbobi sohibqiron Amir Temur davrida milliy jang san'atlarimiz rivojlandi, yangi usullar bilan boyidi. Bunday jang san'at turidan biri "Zo'rmergan" so'fi jang san'atidir.

Amir Temur xukumronligi davrida "Ming askar" unvoni eng kuchli, sara jangchilariga berilgan. Yana shunday kuchli jangchilardan saralangan maxsus guruh (otryad) tuzilgan. Bu maxsus guruh kuchli himoyalangan dushman hududlarini mahv etishda va maxsus topshiriqlarni bajarish uchun yuborilgan. Bunday jangchilar "Zo'rmergan" so'fi jang san'ati bilan mukammal shug'ullan-ganlar. Bu jang san'ati hozirgi kungachaga otadan o'g'ilga, ustozdan shogirdga o'tib saqlanib kelmoqda.

Shunday milliy jang san'ati turlaridan bo'lmish "So'fiy jang", "O'zbek jang san'ati", "Kurash", "Belbog'li kurash", "Turon" yakkakurashlari va ularning ta'limotlari ko'rib chiqsak va mashg'ulotlar jarayonida pedagogik ta'limot sifatida foydalanilsa maqsad muvofiq bo'ladi.

Milliy jang san'ati turlaridan bo'lmish "So'fiy jang" san'ati ustalaridan biri Zo'rmerganning avlodlarga vatanparvarlik va komilllik to'risida qoldirgan pand-nasihatlaridan birini ko'rib chiqsak

"Zo'rmergan"dan

"Xo'sh, jang san'ati nima beradi?" degan savol tug'iladi. Bu tabiiydir, chunki sizlar yashayotgan go'zal va baxtli hayotda bu jang san'tining keragi yo'qdek tuyuladi. Ammo so'fiy jang san'ati, avvalambor, insonda aql-idrokni tarbiyalaydi. Bu esa sizlarning zamoniningizda ichkilikbozlik, giyohvandlik girdobiga tushib qolmaslikka yordam beradi. Insonga Alloh tamonidan hadya etilgan umrni qanday

bir lahzalik ishratga almashtirmaslikka o'rgatadi. Jangovarlik qobiliyatining rivojlanishi hayotingizning mazmunli va serqirra o'tishiga hissa qo'shadi.

So'fiy jang san'ati orqali siz o'zingizni, oilangizni va jonajon Vataningizni himoya qilishingizga to'g'ri kelishi mumkin. Bu esa oddiy hodisa emas!

Bundan tashqari, so'fiy jang san'ati orqali siz o'z tarixingizga nazar tashlaysiz, ota-bobolarimiz quvvatini sezasiz va undan bahramand bo'lasiz. Ulug' sarkarda, lashkarboshilar va vatanparvar qaxramonlarimizni taniysiz, ularning qilgan ishlaridan g'ururlanasiz. Masalan, men bilan ham so'fiy jang san'ati orqali ruhan tanisha oldingiz.

Sizlarning barkamol, etuk insonlar bo'lib etishishingizda ota-bobolarimiz, jasurlar, Alloh ilohiy quvvati yor bo'lishini tilayman. Siz bilan boshqa mavzularda yana suhbat qurishga umid qilaman [3].

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rniда shuni ta'kidlash lozimki, o'zbek xalqining milliy madaniyati, musiqa, tasviriy san'at va amaliy san'ati turlari, xalq o'yinlari, sport turlari kabi jang san'ati turlari ham mavjud va san'at darajasiga etgan. Bular xalqimizning boy merosi, o'tmishi va kelajagi bo'lib, ular avloddan-avlodga, ustozdan shogirdga o'tib saqlanib, sayqallanib kelmoqda. Ajdodlarimiz merosini keljak avlodlarga borligicha etkazish oliy maqsadimiz bo'lishi zarur. Ajdodlarimiz meroslari tarixni o'rganish va keljakni yaratishda muhim poydevor bo'lib xizmat qiladi. Yosh avlodni bilimli, kuchli, jismonan va ruhan tetik, ma'nан etuk, estetik jihatdan tarbiyalangan barkamol inson bo'lib etishishlarida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbek milliy Sharq yakkakurashlari yoshlarimizni vatanparvar, milliy g'ururli, halol, oqibatli va mehnatsevar bo'lib etishishlariga yordam beradi.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati

1. Abdurasulov R.A. Sharq yakkakurashi va shaxs takomili. Monografiya. – Toshkent: Fan, 2008. – B. 7, 25.
2. Avloniy A. Turkiy guliston yoxud axloq. – Toshkent. B. 11.
3. Kushkarov S, Kushkarov U. So'fiy jang san'ati. – Toshkent, O'zbekiston, 2003 y. 2-kitob. – B. 13, 24.
4. 2019 – 2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish konsepsiysi. Qonun hujatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2019 yil 14 fevral. www.lex.uz



SPORT TURIZMINING SHAKLLARI VA TURLARI

Nazarov A.T.

University of Business and Science dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada sport turizmi bo'yicha razryadlar va kategoriyalar qiyinchiligi. Xalqaro yagona sport klassifikatsiyasida turizm mustaqil sport turi hisoblanadi va boshqa sport turlaridagi razryadlar haqida nazariy ma'lumot va amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Tayanch iboralar: Sport turizmi, jahon turizmi, mutaxassislarini tayyorlash, sifatli ta'lim, barkamol shaxs, Sayohatlar, jismoniy tayyorgarlik, O'zbekturizm Milliy kompaniyasi, istiqbolli yo'nalish.

Аннотация. В данной статье затруднена классификация и категории туризма. В международной единой спортивной классификации туризм является самостоятельным видом спорта, а также описаны теоретические сведения и практические рекомендации по разрядам в других видах спорта.

Ключевые слова: Спортивный туризм, мировой туризм, подготовка специалистов, качественное образование, всесторонне развитая личность, Путешествие, физическая культура, Национальная компания «Узбектуризм», перспективное направление.

Abstract. In this article, the classification and categories of tourism are difficult. In the international single sports classification, tourism is an independent sport, and theoretical information and practical recommendations about discharges in other sports are described.

Key words: Sports tourism, world tourism, training of specialists, quality education, well-rounded person, Travel, physical fitness, Uzbektourism National Company, promising direction.

Kirish

Mustaqil O'zbekistonda turizm xalqaro ahamiyatga ega bo'Igan ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy va tarbiyaviy jarayon sifatida mavjuddir. Mamlakatning geografik sharoiti va ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy tuzilmalari asosida turizm ikki yo'nalishga (ichki va xalqaro turizm) ajratilgan. Ular asosan sayr (ekskursiya) va sayohatlar (piyoda va turli ulovlarda yurish) shaklida olib boriladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarining kasbiy mahoratini rivojlantirish, sportchilarda ma'naviy qadriyatlarni shakllantirish ishlarini samarali

tashkil qilishga doir ko‘plab tadqiqotlar olib borilgan Jumladan, tadqiqotchilar A.N.Abdiyev, R.S.Salomov, R.D.Xalmuxamedov. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi mamlakatlaridan J.K.Xolodov, B.S.Kuznetsov, S.R.Erdavletov, L.P.Matveyev, Y.D.Jeleznyak, bo‘lajak jismoniy tarbiya va sport mutaxassislarini tayyorlashning ilmiy-uslubiy hamda pedagogik jihatlarini yoritish, Yoshlarni ommaviy sport-sog‘lomlashtirish jarayoniga yo‘naltirish, bunda sport turizmi imkoniyatlaridan oqilona foydalanish masalalari olimlardan K.Shyputs, R.Blanshar, V.Koleda, J.Xargrives, A.Vett, E.Zadarko, J.Yunger, Z.Barabas, D.Braun, A.Alpers, V.Balsevich, L.Volf-Vendel, Y.G.Tatur, V.Xutmaxerlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda qo‘yilgan maqsadga erishish va vazifalarni hal etish uchun ilmiy-nazariy, pedagogik-psixologik, mantiqiy, ilmiy-metodik manbalarni o‘rganish va qiyosiy tahlil qilish, modellashtirish (loyihalash), sotsiologik-pedagogik (anketa, test, so‘rovlar, suhbat); bevosita va bilvosita pedagogik kuzatuv kabi nazariy va emperik usullardan foydalanildi.

Tahlil va natijalari

Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga oid bilimlarini rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari aniqlangan.

Bo‘lajak jismoniy tarbiya fani o‘qituvchilarining sport turizmiga oid bilimlarini rivojlantirish jarayonida qo‘llaniladigan innovatsion metod va texnologiyalar takomillashtirilgan.

Sog‘lom avlod davlat dasturi (1997) talablari bo‘yicha aholining barcha qatlamlari va toifalari orasida milliy sport turlari, zamonaviy sport turlari va turizm bo‘yicha xilma-xil nufuzli sport musobaqalari, ommaviy-madaniy tadbirlar, ilmiy-amaliy anjumanlar tashkil etilmoqda.

Jismoniy tarbiya o‘quv jarayonlari, yozgi dam olish va sog‘lomlashtirish oromgohlari, sport maskanlari, dam olish uylarida turizmning piyoda yurish sayohati muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining «Turizm to‘g’risida» (1999) «Jismoniy tarbiya va sport to‘g’risida»gi (2015, yangi tahrir) qonunlari va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining (O‘zRVM) Respublikada jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirishga qaratilgan qarorlari (1993, 1996, 1999, 2000, 2002 va b.q.) hamda turizm ishlari bo‘yicha mutaxassis kadrlar tayyorlash bo‘yicha qarorlari (1999) turizm ishlarini yaxshilashga qaratilishi bilan muhim ahamiyatga egadir.

O‘zbekturizm Milliy kompaniyasining tashkil etilishi (1995), Toshkent Davlat madaniyat instituida (keyinchalik Toshkent Davlat iqtisodiyot universitetida) turizm fakultetining ish boshlashi (1999) va shuningdek, tarixiy-madaniy shaharlarda Turizm kollejlarining tashkil etilishi, ularning hozirgi davr talablari asosida faoliyat ko‘rsatishi mamlakatda turizm va xalqaro turizmni rivojlantirishga katta hissa qo‘shmoqda.

Xalqaro ekosan-tur tashkiloti (uyushma) va uning barcha xududlaridagi tarmoqlari ekologik tarbiya ishlarini yuqori saviyada olib borishda O'zbek turizm Milliy kompaniyasi bilan yaqin hamkorlikda ish olib borishi turizmni takomillashtirishda maqsaddagidek ish olib bormoqda.

«Alpomish» va «Barchinoy» maxsus testlarining ishlab chiqilishi, unda barcha yosh (6 yoshdan boshlab) va toifadagi kishilar uchun sayr-sayohatlar mezon (normativ) talablarining qo'yilishi (1990 va amalda bajarilishi (2000 – 2009 y.y.) turizmga bo'lgan e'tibordir.

Xalq ta'limi tizimi va bir qator nodavlat idoralar, tashkilotlar tomonidan Bolalar turistik stantsiyalarining (muassasa) faoliyat ko'rsatishida o'lkani o'rganish, tabiat bilan tanishish, ilmiy-qidiruv (ekspeditsiya) ishlarini shakllantirishda munosib o'ringa egadir.

Maktabgacha bolalar tarbiya muassasalarida «Jismoniy tarbiya» dasturi asosida bolalarning yoshi, salomatligi va jismoniy holatlariga qarab barcha fasllarda, ob-havoning qulay paytlarida sayr-sayohatlar olib borilishi kelajak avlodlarning jismoniy barkamolligini tarbiyalash, atrof-muhitni tamosha qilish, bor mavjudodlar, haqiqatlarni ko'z bilan ko'rib his etishlarida muhim omil bo'lib hisoblanmoqda.

O'zbekistondagi turli islohotlar, ba'zi shart-sharoitlar (o'zini-o'zi boshqarish, moddiy-texnik ta'minlash va h.k.) tufayli sport turizmi bo'yicha maxsus tadbirlar, musobaqalar rasmiy ravishda tashkil qilinmayotir. Shu sababdan faqat tog' turizmi, qoyani zabit etish, avto-moto turizmi bilan shug'ullanuvchilargina o'z faoliyatlarini to'xtatgan emas.

Xalqaro sport klassifikatsiyasiga kiritilgan turizm turlari quyidagi yo'nalishlar va talablardan iborat.

Turizm bo'yicha razryadlar va kategoriylar qiyinchiligi. Xalqaro yagona sport klassifikatsiyasida turizm mustaqil sport turi hisoblanadi va boshqa sport turlaridagi razryadlar bunda ham mavjud. Bular quyidagilardan iborat:

Razryad normalarini qayta bajarish muddati ikki yilga belgilanadi va bunda bir kategoriya yuqori normativni bajarish talab etiladi.

Sayohatlar marshrut kvalifikatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangan holda uyushtirilgan va belgilangan talablar to'la bajarilgandagina haqiqiy hisoblanadi. Buning uchun:

I kategoriya qiyinchilikdagi sayohatlar haqida yozma hisobot;

II va III toifa qiyinchiliklardagi sayohatlar haqida yozma hisobot;

IV va V toifa qiyinchilikdagi yurish uchun rahbar to'la yozma hisobot topshiradi.

Sayohatlar soni

Unvonlar	Jinsi	Sayohatlarning toifalari										
		I		II		III		IV		V		
		Qatnashchi	Rahbarlik	Qatnashchi	Rahbarlik	Qatnashchi	Rahbarlik	Qatnashchi	Rahbarlik	Qatnashchi	Rahbarlik	Barcha sayohatlar
Sport ustasi	Erkaklar	1	1	1	1	1	1	1	1	1	2	11
	Ayollar	1	1	1	1	1	1	1	2	2	-	11
Sport ustaligiga nomzod	Erkaklar	1	1	1	1	1	1	1	1	2		11
	Ayollar	1	1	1	1	1	1	1	-	-		7
1	Erkaklar va Ayollar	1	1	1	1	1	1	1	-	-	-	7
2	Erkaklar va Ayollar	1	1	1	-	-	-	-	-	-	-	3
3	Erkaklar va Ayollar	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
1 yoshlar	-/-	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
2 yoshlar	-/-	1	-	-	-	-	-	-	-	-	-	1
3 yoshlar	-/-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-

Tegishli marshrut kvalifikatsiya komissiyasi tomonidan tasdiqlangach, yuqori organlarga tavsiya etiladi hamda turizm va ekskursiyalar Markaziy Kengashi tomonidan tasdiqlanadi.

IV, V toifali yurishlarning bir yilda ikki marta o'tkazilishi maqsadga muvofiqdir.

Unvonlarni berish qoidasiga ko'ra, I, II, III toifa qiyinchilikdagi yurishlarga rahbarlik normasini II, IV, V kategoriya qiyinchilikda qatnashish yo'li bilan bajarsa bo'ladi.

Avtomashina, mototsikllarni bevosita boshqargan kishilargina unvon talabini bajargan hisoblanadi.

Dala sharoitida 5 kun tunash sharti bilan 1 marta yurish uyushtirilib, jami masofa 65 km dan kam bo'limganda berildadi. 3 kunlik yurishda 30 km masofani bosib o'tish kerak.

Xulosa va takliflar

Xulosa shundan iboratki, turizmnинг barcha shakllari va turlari shug'ul-lanuvchi va qatnashchilarining jismoniy tayyorgarligini tarbiyalash, sayohatlar

jarayonida nazariy bilimlarni kengaytirish, amaliy malakalarni mustahkamlashda xizmat qiladi. Ayniqsa, piyoda yurish sayohatlarida tog' turizmi, g'or turizmi, qoyalarni zabit etish turizmi, sportcha chamalab topish (sportivnoe orientirovanie) va boshqa turlardan maqsadli foydalaniladi. Bunda har bir shug'ullanuvchining sayohat qoidalariga to'la rioya qilish, gavda (tana-organizm) a'zolarining to'g'ri ishlashi, ayniqsa qon aylanishi, nafas olish va ular bilan bog'liq bo'Igan fiziologik, psixologik, biomexanik, biokimyoviy jarayonlar haqidagi bilim va tushunchalarga ega bo'lishni ta'minlaydi.

Foydalaniqan adabiyotlar ro'yxati

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning «O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lif tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmoni. <https://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasi-oliy-talim-tizimini-2030-yilgacha-riv-09-10-2019>
2. 2019 – 2023 yillar davrida O'zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va ommaviy sportni rivojlantirish kontseptsiyasi. Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi. 2019 yil 14 fevral.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Iqtidorli yoshlarni aniqlash va yuqori malakali kadrlar tayyorlashning uzluksiz tizimini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4306-sonli Qarori. / Xalq so'zi. 2019 yil 4 may.
4. Mahkamjanov K., Salamov R., Ikromov I., Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi. – Toshkent: Iqtisod-moliya, 2008. – B.14.
5. Milliy va ma'naviy qadriyatlar va komil inson tarbiyasi. – Toshkent. 2011. – B.166.
6. ziyouz.com. O'zbekiston Milliy entsiklopediyasi.
7. <https://webofknowledge.com>
8. http://www.centeroko.ru/timss/timss_res.html
9. <http://www.istedod.uz/>
10. <http://www.ziyonet.uz/>
11. <http://www.pedagog.uz/>
12. [https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Motiv_\(psixologiyada\)](https://uz.wikipedia.org/w/index.php?title=Motiv_(psixologiyada))

JISMONIY TARBIYA YO‘NALISHI TALABALARIDA PEDAGOGIK TOLERANTLIKNI RIVOJLANTIRISHNING AMALIYOTDAGI HOLATI

Narzullayev D.Sh.
University of Business and Science dotsenti, p.f.f.d.

Annotatsiya. Maqolada jismoniy tarbiya yo‘nalishi talabalarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning amaliyotdagi holati sifatida ko‘rib chiqilgan va tahlil qilingan.

Tayanch iboralar: Etnomadaniyat, Integratsiya, Tushunish, Madaniy tolerantlik, Millatlararo tolerantlik, Gender tolerantlik, Diniy tolerantlik.

Аннотация. В статье рассмотрено и проанализировано на практике развитие педагогической толерантности у студентов физического воспитания.

Ключевые слова: Этнокультура, Интеграция, Взаимопонимание, Культурная толерантность, Межнациональная толерантность, Гендерная толерантность, Религиозная толерантность.

Abstract. In the article, the development of pedagogical tolerance among students of physical education was considered and analyzed in practice.

Key words: Ethnoculture, Integration, Understanding, Cultural tolerance, Interethnic tolerance, Gender tolerance, Religious tolerance.

Kirish

Yangi O‘zbekistonda zamonaviy talablar asosida ta’lim sifatini oshirish, jumladan, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash tizimini xalqaro tajribalar asosida tashkil etish kabi ishlarga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’lim sohasida amalga oshirilgan keng qamrovli islohotlar natijasida, jismoniy tarbiya o‘qituvchilarini tayyorlash sifatini oshirishda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishga oid yondashuvlarni jadallashtirish zarurati ko‘zga tashlanmoqda.

Maktab ijtimoiy institut sifatida bolalarda tolerantlikni tarbiyalashda katta imkoniyatlarga ega. Maktab jamoasida go‘dakning dastlabki insonparvarlik qarashlari va tolerant hulq-atvori tarkib topishi uchun zamin yaratiladi.

Respublikamiz ta’lim tizimida amalga oshirilgan islohotlar ta’lim mazmunini umuminsoniy qadriyatlar bilan xalqimizning tarixiy tajribasi, madaniyat va fan bobidagi ko‘p asrlik an’analari asosida boyitishga keng yo‘l ochib berdi. Ta’lim tizimida juda katta ishlar amalga oshirildi. Xususan, ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari, darsliklarning yangi avlodи yaratildi. Ayni paytda ular takomillashtirilmoqda, modernizatsiya qilinmoqda.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Tolerantlikning ilmiy-pedagogik jihatlari, pedagogik jarayonda talabalarda millatlararo tolerantlik va pedagogik muloqotni rivojlantirish masalalari bo'yicha tadqiqotlar bir qator olimlar tomonidan o'rganilgan. Biz mazkur maqolada mamlakatimiz, mustaqil davlatlar hamdo'stligi va xorij olimlar nomlari va asarlarini keltirib o'tishi maqsadga muvofiq, deb topdik. Bular tarkibiga: G.Aripova, O.Musurmonova, S.T.Turg'unov, Z.R.Qodirova, B.Xodjaev, Z.Azimova, M.Quronov, M.Axmadjonova. (MDH) mamlakatlari pedagog va psixolog olimlaridan A.G.Asmolov, L.G.Balanovskaya, V.V.Boyko, A.M.Guryanov, T.G.Gavrilova. Xorij olimlaridan G. Auernheimer, H Barkowski, M. Bennet kabilarni kiritish mumkin.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada pedagogik-kuzatuv, sotsiometriya (suhbat, anketa, so'rovnoma), umumlashtirish, modellashtirish va ma'lumotlarga matematik-statistik ishlov berish hamda pedagogik tajriba-sinov metodlaridan foydalanildi.

Tahlil va natijalar

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadi, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirish samaradorligini ta'minlovchi ta'llim-tarbiya tizimidagi pedagogik-psixologik xususiyatlar va omillari aniqlashirilgan;

talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning o'quv-metodik ta'minoti "Talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik mexanizmlari" nomli uslubiy qo'llanma ishlab chiqilgan;

talabalarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirishga doir mustaqil ta'llimi tashkil etish metodikasi takomillashtirilgan;

bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini aniqlashtirishga doir takliflar asosida "Jismoniy tarbiya nazariyasi va metodikasi" fanining o'quv-uslubiy ta'minoti takomillashtirilgan.

Har bir madaniyat shu maskanda yashovchilarning dunyoqarashini shakllantiradigan milliy, o'ziga xos xususiyatlar tizimini o'z ichiga qamrab oladi, bular esa, bizning fikrimizcha, shaxs tomonidan umuminsoniy, universal va etnomadaniy qadriyatlarning o'ziga xos talqini natijasida yig'iladi.

Etnomadaniyat atamasi ikki iboradan tashkil bo'lib: etno va madaniyat so'zlari qo'shilmasidan hosil bo'lib, biror xalqning (masalan, o'zbek xalqining) kelib chiqishi, uning madaniyati, turmush tarzi, ma'naviy-ma'rifiy xususiyatlarini tarixiy jarayon (davr)larda ravnaq topib, hozirgi kunimizgacha rivojlanib kelayotgan ma'naviy hamda madaniy merosini o'rganadigan fan hisoblanadi. Etno – yunoncha – elat, xalq demakdir va shu bilan birga, ma'lum bir elat yoki xalqka

bo‘lgan ishora, ko‘rsatuv. Bu ibora biror xalqning kelib chiqishi (etnogenez)ni ifodalaydi.

Madaniyatlararo integratsiya etnomadaniy ta’lim jarayonining asosiy va strategik maqsadi hisoblanadi. Agar alohida millat nisbatan qisqa vaqt ichida etnik o‘ziga xoslikka erisha olsa, madaniyatlararo integratsiyaga erishish mintaqada yashovchi barcha etnik guruhlar vakillarining sa’y-harakatlarini talab qiladigan uzoq jarayondir. Ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra pedagogik tolerantlik, ijtimoiymadaniy kompetensiyani o‘z ichiga olib, autentik nutqning milliy xususiyatlarini: o‘zi yashayotgan mamlakatning urf-odatlari, qadriyatlari va boshqa milliy-madaniy xususiyatlarini bilish, tushnish, tan olish, qabul qilish qobiliyatini nazarda tutadi.

Kasbiy ta’limga oid ko‘pchilik tadqiqotlarda (V.I.Baidenko, I.A.Dmitriyeva, V.S.Kukushin, O.I.Rebrin, S.E.Shishov) ko‘pincha oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari o‘z malakalari va zamon talablariga mos ravishda kasbiy faoliyatga tayyor emasligi qayd etilgan. Ish beruvchilar ko‘pincha universitetda noto‘g‘ri ta’lim berishlari haqida fikr bildiradilar, chunki yosh “mutaxassis” ishlab chiqarishda o‘qitilishi va qayta tayyorlanishi, bunga pul va vaqt sarflashi kerak. Hatto qizil diplomli bitiruvchiga ko‘pincha mustaqil ishlab chiqarish vazifasi ishonib topshirilmaydi, ayniqsa jamoada ishlash bilan bog‘liq. Pedagogika oliy o‘quv yurtlari bitiruvchilari ham bundan mustasno emas.

Bugungi kunda tolerantlikning turlari tavsiflash masalalariga qaritilgan qator ishlar mavjud. Jumladan, kommunikativ tolerantlikni shakllantirish jarayonidagi: (1) nega insonlar o‘zaro muloqot qilishga ehtiyoj sezadilar?; (2) boshqalarning fikrlarini diqqat bilan eshita olish uchun kishida qanday sifatlar mavjud bo‘lishi lozim?; (3) sizga qanday holatda hamsuhbatingizning fikrini tinglash qiyinlik tug‘diradi?; (4) nima uchun ba’zi insonlar o‘zlarining nuqtai nazarlariga qarama-qarshi fikrlarni qabul qila olmaydilar?; (5) do‘sst bo‘lish uchun albatta bir xil yoshda bo‘lish shartmi?; (6) ikki kishi bir-birini yoqtirmasa, o‘zaro do‘sst bo‘la olishi mumkinmi?; (7) do‘sstar bir-biriga yolg‘on gapira oladimi? kabi savollar olim va pedagoglar o‘rtasida qizg‘in munozalarga olib keladi.

1. Madaniy tolerantlikni shakllantirish bilan bog‘liq:

- milliy madaniyatning umumbashariy ahamiyati;
- submadaniyatni qadriyat sifatida qabul qilinishi;

2. Millatlارaro tolerantlikni shakllantirish bilan bog‘liq:

- o‘zga millat vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- boshqa millat vakillarining tili, madaniyati, urf-odatlarini o‘rganish va ularni qabul qila olishning zaruriyati;

3. Gender tolerantlik bilan bog‘liq:

- boshqa jins vakillariga hurmat bilan munosabatda bo‘lish;
- o‘g‘il bolalarning qizlarga qaraganda o‘zlarini ustun qo‘yishlari.

4. Diniy tolerantlikka doir ishlar:

- o‘zga din vakillariga nisbatan toqatli bo‘lish.

Pedagogik faoliyat samaradorligini ta'minlashning eng muhim shartlaridan biri – bu pedagogik jarayon ishtirokchilari o'rtasida, xususan, o'qituvchilar, ma'muriyat, talabalar va ularning ota-onalari o'rtasida hamkorlikni yo'lga qo'yishdir.

Biz ko'rib chiqayotgan muammoga muvofiq, pedagogika universiteti sharoitida ijtimoiy va pedagogik tolerantlikni rivojlantirish mexanizmlarini amalga oshirish masalalari muhim ahamiyat kasb etadi. O'rganilayotgan muammoni ishlab chiqish, bizning fikrimizcha, quyidagi jihatlarni hisobga olgan holda boshlanishi kerak:

- birinchidan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarini kasbga tayyorlash jarayonida vujudga keladigan qiyinchilik va turli xil muammolar, talabalarning ijtimoiy pedagogikaga doir bilimlarni mukammal egallamaganliklar va ular pedagogik tolerantlik kompetentsiyani rivojlantirishning psixologik-pedagogik mexanizmlarini bilmasliklaridan kelib chiqadi;

- ikkinchidan, pedagogik tolerantlikga tashqi muhit ta'sirida shakllangan murakkab integral kasbiy va shaxsiy sifat va bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchining umumiylashtirishining umumiy kasbiy kompetentsiyasining ajralmas qismi sifatida qarashni taqozo etadi;

- uchinchidan, bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining pedagogik tolerantlik kompetentsiyasini rivojlantirish deganda ijtimoiy va kommunikativ faoliyatni samarali amalga oshirishga imkon beradigan ijobiy, miqdoriy va sifat o'zgarishlarini tizimli ravishda toplash va integratsiya qilishning maqsadli jarayoni tushuniladi.

«Integratsiya» so'zi lotincha, «integer» butun so'zidan kelib chiqqan bo'lib, integratio – tiklash, to'ldirish ma'nolarida ham qo'llanadi. Mazkur tushuncha dastlab XVIII asrda G.Spenser tomonidan ayrim bo'laklar yoki elementlarning bir-biriga qo'shilishi, bir butunga aylanishi, yaxlitlanishi sifatida izohlangan. Shuningdek, ilmiy manbalarda «integral», «integrallashgan» terminlari esa matematik tushunchalarni anglatishi qayd etiladi. Ta'lim jarayonida integratsiya – “turli fanlar asosida egallangan bilim, ko'nikma va malakalarni umumlashtirish, o'zaro uzviy bog'liqlikda va aloqadorlikda kompleks rivojlantirishdir” [65:14].

Ta'lim berish – qo'yilgan maqsadga erishishga yo'naltirilgan, ta'lim beruvchini tahsil oluvchi bilan tartibli o'zaro harakati. Ta'lim berish, ikkita bir-biri bilan uzlucksiz bog'liq hodisalardan iborat: o'rgatish (o'qitish) va o'rganish (o'qish)dan.


O'quvchilarni o'z Vataniga, xalqiga muhabbat, boshqa xalqlar, madaniyat vakillariga nisbatan diniy bag'rikenglik, do'stlik, birodarlik ruhida tarbiyalash maqsadida vatan va uning istiqloli hamda mehnatkash kishilari, buyuk ajdodlari haqidagi tasviriy san'at asar namunalaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tolerantlik madaniyati quyidagi muhim ijtimoiy ko'rsatkichlarga ega:

- tenghuquqlilik (millati, tili, dini, jinsi, irqiy kelib chiqishidan qat’iy nazar barcha odamlar bir xil huquqqa egadirlar);
- jamiatning siyosiy hayotida ishtirok etish uchun imkoniyatlarning tengligi;
- umumbashariy muammolarni hal etishda barcha xalqlar, davlatlar, odamlarning o‘zaro hamkorligi;
- jamiatning turli qatlam vakillariga o‘zaro hurmat va olivjanoblik;
- barcha xalqlarning o‘z tili, madaniyati, urf-odatlariga amal qilish imkoniyati;
- jamiatning boshqa a’zolari huquq va erkinliklariga xalaqit bermaydigan sharoitdagi e’tiqod erkinligi.

Etnomadaniyat xalq, millat yaratgan moddiy va ma’naviy boyliklarning, qadriyatlar, artefaktlar va olamni badiiy-estetik idrok etishga qaratilgan gnoseologik izlanishlar hamda tajribalarning o‘zak qismidir. Milliy madaniyat mudom ushbu o‘zakka qurilgan, ular orqali milliy xususiyat, shakl va mazmun kasb etgan. Etnomadaniyatni bilmay, anglamay milliy madaniyatning genezisini, immanent qonunlarini, mohiyati va vazifalarini tushunish, taraqqiyot yo’llarini belgilash, undagi pozitiv tajribalarni translyatsiya qilish mumkin emas.

Tolerantlikning assosini boshqalarni tushunish, tan olish va qabul qilish tashkil etadi desak to‘g‘ri bo‘ladi.



Tushunish deganda, begona madaniyat vakilining nigohi bilan olamni tasavvur qilish va ulardagi o‘xshashlik va farqlarni ajrata olish nazarda tutiladi. Tan olish – bu boshqalarni qanday bo‘lsa shundayligicha qabul qilishdir. Ularning haq-huquqlari va qadriyatlarini hurmat qilish shular jumlasidandir. Qabul qilish esa tan olish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unda o‘ziga g‘ayritabiiy (begona) bo‘lib ko‘ringan

madaniyat vakiliga nisbatan xushmuomala bo‘lish, ularning dunyoqarashi, diniy e’tiqodi, milliy va etnik xususiyatlariga nisbatan xolis munosabat va hurmat-ehtirom ko‘rsatish bilan bog‘liq murakkab va ko‘p o‘lchamli jarayondir.

Jahonda sport turlarini ommaviylashtirish bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Sport turlarini ommaviylashtirishda musobaqalarda yuqori natijalarga erishish hamda yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash mezonlari muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shuningdek, ommaviylashtirish bo‘yicha ishlarni tashkil qilishda xalqning turmush-tarzi, qiziqishi hamda tarixiy geografik joylashuvini ham o‘rganishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Xususan, sport tadbirlarini to‘g‘ri tashkil qilish hamda sport ta’lim muassasalarini oqilona boshqarish, daromad keltirish yo‘llarini rivojlantirish ommaviylashtirishning bosh omili sifatida e’tirof etilmoqda. Jumladan, bunday omillar doirasida rivojlanib kelayotgan sport turlaridan biri futbol bo‘lib, Braziliya va Yevropa davlatlarida ommaviylashgan sport turlaridan biri hisoblanadi. Futbol sport turini targ‘ib qilish, uning yoshlari salomatligini ta’minlashdagi o‘rni va ahamiyatini ko‘rsatib berish, ushbu sport turida daromad olish yo‘llarini o‘rganish hamda malakali mutaxassislarni taylorlash ishlarni samarali tashkil qilish ushbu yo‘nalishning eng asosiy va dolzarb talablaridan biridir.

Futbol sport turining rivojlanib borishi ortidan xalqlarni birlashtirish bilan birga yoshlarda jamoaviy ishslash, jismoniy holatini rivojlantirish negizida mehnat qilish qobiliyatini ham oshirishga xizmat qilib kelmoqda. Bu esa jamiyatda futbol sport turining kirib kelishi va rivojlanishidan manfaatdorlikni oshirishga olib keladi.

Mamlakatimizda ham futbol spor turining rivojlanishi quyidagi xususiyatlar bo‘yicha muhim hisoblanadi. Birinchidan, futbolning jamoaviy o‘yin ekanligi hamda unda tartib va intizom masalasiga jiddiy yondashilishi yoshlarni jamaa bo‘lib ishslashga o‘rgatadi, bir-birini tushunish, birgalikda ishslash ko‘nikmalarini shakllantiradi, ikkinchidan, o‘z ustida ishslash qobiliyatini shakllanishiga ta’sir qilib, kundalik turmush tarzidagi mehnatsevarlikka undaydi, uchinchidan, insondagi kommunikativlikni rivojlantiradi, to‘rtinchidan, sportdagi ilmiy yutuqlardan xabardorlikni oshirishga xizmat qiladi.

Albatta, mazkur xususiyatlarni shakllantirishda boshqa sport turlarining o‘rni va ta’siri katta hisoblanadi. Biroq, har bir sport turidagi xususiyatlarni o‘rganish zarur hisoblanadi. Chunki, bir sport turi bilan shug‘ullangan bolalar boshqa sport turi bilan shug‘ullanmasligi yoki bo‘lmasam ikinchi sport turini birinchisidek qabul qilmasligi mumkin. Shuning uchun ham har bir sport turini o‘rganish va uning yoshlarni mustaqil hayotga tayyorlashdagi rolini oolib berish, murabbiylarning sport turing xususiyatlari haqidagi bilim va ko‘nikmalarini rivojlantirib borish kerak bo‘ladi.

Futbol bugungi kunda ommalashgan sport turlaridan biri bo‘lib, uni rivojlantirishning ijtimoiy mexanizmlari takomillashtirib borish o‘z samarasini beradi. Unda asosan, insonlarni-yoshlarni birlashtirish, birgalikda harakat qilish

xususiyatlarini olib berish, futbolning ijtimoiy xususiyatlari haqidagi o‘quv adabiyotlarini chop etish, futbolni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlarini tashkil qilish orqali yanada rivojlantirish mumkin bo‘ladi.

Jismoniy tarbiya ta’limi faqat auditoriya (sinf)da o‘qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon bo‘lib qolmay, auditoriya (sinf)dan tashqari mashg‘ulotlarda, o‘quvchilar faoliyati, ijodkorligi bilan bog‘liq tarzda olib boriladigan jarayon hamdir. O‘quvchining o‘zini-o‘zi boshqarishi natijasida o‘quv jarayonining faollashuvi kuzatiladi. Auditoriya (sinf)dan tashqari mashg‘ulotlarda o‘qituvchining o‘z nutqini nazorat qilishi, yo‘l qo‘ygan xatolarini aniqlashi, bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etishi madaniyatlararo muloqot jarayonida ijobiy natijalarga olib keladi.

Xulosa va takliflar

O‘rganishlar jarayonida shunday xulosa va takliflar ishlab chiqildi:

1. Jismoniy tarbiya o‘qituvchilarida pedagogik tolerantlikni rivojlantirishda pedagogik muloqot eng ahamiyatli komponent hisoblanadi. Tolerantlik – o‘zgalarning turmush tarzi, xulq-atvori, odatlari, his-tuyg‘ulari, fikr-mulohazalar, g‘oyalari va e’tiqodlarini tushunish, tan olish va qabul qilish; pedagogik tolerantlik esa ta’lim-tarbiya jarayonining barcha sub’ektlari bilan tolerant munosabatda bo‘lish ko’nikma va malakalariga ega bo‘lish; o‘quvchilarda boshqalarning fikri, qarashlari va xatti-harakatlarini tushunish, qabul qilish va tan olish, turli din va madaniyat vakillariga nisbatan bag’rikeng bo‘lish singari ko’nikma va malakalarni takomillashtira oladigan pedagogning shaxsiy va kasbiy fazilatlari sifatida talqin etildi.

2. Bo‘lajak o‘qituvchilarda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida shaxsiy va kasbiy fazilatlar yig’indisi sifatida pedagogik tolerantlikka doir egallagan bilim, ko’nikma va malakalarni amaliyotda o‘quvchilarga etkaza olish qobiliyati va tayyorgarligi darajasini oshirishga xizmat qildi.

3. Hozirgi globallashuv sharoitida jismoniy tarbiya o‘qituvchilari tayyorlash saifatini zamon talablari darajasida ta’minalash, jamiyatda bo‘layotgan ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, madaniy sohalarda mavjud tajribalar asosida jismoniy tarbiya fani mazmunini takomillashtirib borish va ularda pedagogik tolerantlikni rivojlantirish muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Barkamol avlod – O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. – Toshkent: Sharq, 1997. – B. 20 – 29.
2. Абдулкаримов Г.Г. Об опыте работы по формированию у детей этнической толерантности // Дополнительное образование. – 2002. – №2. – С. 49 – 54.

3. Кожухарь Г.Г. Межличностная толерантность студентов-психологов. – М.: Изд-во «ЛАП Ламберт», 2020. – 132 с.
4. Knapp-Potthoff A. Interkulturelle Kommunikationsfähigkeitals ernziel / A. KnappPottohoff // Aspekte interkulturelle kommunikationsfähigkeit / Hrsg. A. Knapp-Pottohoff, M. Liedke. – Munchen, 1997. 181 – 205 ss.
5. Stambulova, N. (2015). Athletes' transitions into, within, and out of elite sports. In Sport Scientific Approach for Enhancement of Athletic Performance; Proceedings of the 2015 KNSU International Conference (pp. 82 – 90). Seoul, South Korea: KNSU.

OLIY TA'LIM CHET TILI FANI O'QITUVCHILARIDA SOTSIAL EMOTSIONAL KOMPETENTLIKNING NAMOYON BO'LISHI

Ataxo'jayeva Sh.A.
University of Business and Science o'qituvchisi, ps.f.f.d.

Annotatsiya. Ushbu maqolada empirik izlanishlar asosida tadqiqotning asosiy bosqichlariga olib chiqilgan sotsial-emotsional kompetentlik omillarining har biri o'ziga xos dinamikasi va natijasiga ega ekanligi va bu sotsial-emotsional kompetentlikni mustahkamlashga xizmat qilishi bilan alohida uslubni tashkil etishi qayd etildi.

Kalit so'zlar: *oliy ta'lif chet tili fani o'qituvchilari, sotsial-emotsional kompetentlik, kasbiy faoliyat, komponentlar.*

Аннотация. В данной статье было отмечено, что каждый из факторов социально-эмоциональной компетентности, вынесенных на основные этапы исследования на основе эмпирических исследований, имеет свою динамику и результат и служит укреплению социально-эмоциональной компетентности. Эмоциональная компетентность и представляет собой отдельный метод.

Ключевые слова: преподаватели иностранного языка высшей школы, социально-эмоциональная компетентность, профессиональная деятельность, компоненты.

Abstract. In this article, it was noted that each of the socio-emotional competence factors, which were taken to the main stages of the research on the basis of empirical research, has its own dynamics and result, and that it serves to strengthen the social-emotional competence and constitutes a separate method.

Key words: higher education foreign language teachers, social-emotional competence, professional activity, components.

Kirish

O'qituvchilarning kasbiy faoliyatida sotsial-emotsional kompetentlikning o'ziga xos o'rni mavjud. Bunga sabab o'qituvchilarning kasbiy faoliyatiga yo'naltirilgan ta'lif bosqichlarining, malakaviy talablarning o'sib borganligi hamda ijtimoiy tajribalarning shakllanganligidir. O'qituvchilar kasbiy faoliyatining yuqori bosqichiga erishganda o'sishi bilan bir qatorda faoliyat motivlarida hamda pedagogning erishishi lozim bo'lgan faoliyatining yakuniy bosqichi ekanligi ham bir oz bo'lsada, ijtimoiy ko'nikma va malakalarni shakllantirishlarida pasayishni keltirib chiqarar ekan.

O'qituvchilar kasbiy faoliyatiga xizmat qiluvchi sotsial-emotsional kompetentlik ko'rsatkichlarining o'sishi o'ziga xos uslubda namoyon bo'luvchi

shaxslilik omillariga ham bevosita bog‘liqdir. Sotsial-emotsional kompetentligini o‘rganishning tadqiqot metodikalarini umumiy sharhi xususida o‘tgan paragrafda aniqlik kiritib o‘tgan edik. Shu sababli bevosita tadqiqot natijalari sharhiga murojaat etaylik (1-jadval).

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Biz Dj.J.P. Gilford metodikasidan oliv ta’lim chet tili fani o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligini o‘rganish uchun foydalanamiz, chunki uning subtestlari alohida shaxsning kommunikativ va lingvistik jihatlariga qaratilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Umumiyl intellekt kontseptsiyasi va metodikaning tabiatini hisobga olgan holda, oliv ta’lim chet tili fani o‘qituvchilarining samarali muloqot qilish va ijtimoiy vaziyatlarga moslashish qobiliyati, boshqalarni tushunish va o‘zaro munosabatda bo‘lish uchun yaxlit intellektual salohiyati bilan bir qatorda, o‘rtacha diapazonga to‘g‘ri keladi. Bu shuni ko‘rsatadiki, oliv ta’lim chet tili o‘qituvchilari o‘zlarining ta’lim yo‘llari davomida umumiy va sotsial-emotsional kompetentligini rivojlantirishga doimo ustuvor ahamiyat berishlari kerak.

Sotsial-emotsional kompetentlik – bu o‘zining va boshqalarning his-tuyg‘ularini tan olish va tushunish qobiliyati. Intellekt konstruksiyasi Goleman tomonidan mashhur bo‘la boshladidi. Sotsial-emotsional kompetentlik konstruksiyasi Mayer va Salovey tomonidan fanga kiritilgan bo‘lib, sotsial-emotsional kompetentlik – his-tuyg‘ularni aniq ko‘rish, baholash va yetkazish qobiliyati; his-tuyg‘ularni va hissiy bilimlarni tushunish, hissiy va miya kuchayishini rag‘batlantirish uchun his-tuyg‘ularni normallashtirish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Goleman intellektni ifodalaydigan beshta ichki va shaxslararo kompetensiyalarni belgilab berdi. Bu qobiliyatlar:

- o‘z-o‘zin anglash – hissiy holatga qarab harakat qilishga tayyorlik qobiliyati;
- o‘z-o‘zini tartibga solish – ruhiy holatni nazorat qilish qobiliyati;
- motivatsiya – maqsad va vazifalarga erishishda yordam berish uchun aqliy tizimdan foydalanish qobiliyati;
- empatiya – boshqalarning kayfiyatini to‘liq o‘zlashtirish qobiliyati;
- ijtimoiy ko‘nikmalar – boshqalar bilan muloqotda ruhiy holatni qanday ushlab turish qobiliyati.

“Hissiy savodxonlik” hissiy intellektning sinonim terminologiyasidir, bu – boshqalarning his-tuyg‘ularini bilish, boshqalarni tinglash va his-tuyg‘ularni samarali ifoda etish qobiliyati .

Tahlil va natijalar

Hissiy va sotsial-emotsional kompetensiya. Hissiy va sotsial-emotsional kompetentlik kompetensiyasi o‘qituvchilar tomonidan o‘z o‘quvchilarining nuqtai

nazarini hisobga olish, o‘quvchilarning rivojlanishi uchun qayg‘urish, hissiy aloqani mustahkamlash, o‘qituvchilarning muhim ijtimoiy va hissiy kompetentsiyasini rag‘batlantiruvchi pozitsiyadir. Boshqa tomondan, Cherniss hissiy va ijtimoiy kompetensiyani his-tuyg‘ular bilan muloqot qilish, shuningdek, nizolarni nazorat qilishda ehtiyot bo‘lish qobiliyati sifatida ta’riflagan.

Goleman kompetentsiyalarni ikkita alohida guruhga ajratdi. Birinchisi, shaxslararo klaster bo‘lib, u ijtimoiy ong va munosabatlarni tashkil etishning kombinatsiyasi hisoblanadi. Goleman buni sotsial intellekt malakalari deb atadi. Ikkinchisi esa, o‘z-o‘zini anglash va boshqarishning uyg‘unligi bo‘lgan hissiy klasterdir. Sotsial intellektning yangi kontseptsiyasi ijtimoiy ong va munosabatlarni boshqarish, o‘zgalarning hissiyotlari, ehtiyojlari, dunyoqarashi va idrokini, o‘z-o‘zini anglash va farqlashga yordam beradi.

Sotsial-emotsional kompetentlik ijtimoiylashgan ta’lim dasturini taqdim etish orqali oshirish mumkin, chunki sotsial-emotsional kompetentlik hissiy intellektdan juda farq qiladi. Weis va Arnesen ham yuqoridagi fikrni qo‘llab-quvvatlaydilar: "Bizga ma'ruzalar, o‘qishlar va an'anaviy uy vazifalari sotsial-emotsional kompetentlik yaxshilashda samarali emasligi aytildi". Bundan tashqari, sotsial-emotsional kompetentlik rivojlaqntirish vaqt va kurashni talab qiladi, chunki u munosabatlarni shakllantirishga qaratilgan. Shu sababli, o‘quvchilarning o‘zini-o‘zi baholash va o‘z munosabatlarida mulohaza yuritish uchun ruhlantiradigan usullar ko‘proq mos keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, his-tuyg‘ularni o‘rganish qo‘llab-quvvatlanadi, chunki "hissiyotlar o‘qituvchilarning ichki motivatsiyasi, atributlari, samaradorlik e’tiqodlari va maqsadlariga ta’sir qilishi mumkin". Tuyg‘ular ta’limga turli yo‘llar bilan ta’sir qilishi mumkin, ular o‘qituvchi tomonidan o‘quvchilar uchun qo‘yilgan maqsadlarni tanlash, o‘qitishda konstruktiv natijalarga erishish uchun kurash va muhim maqsadlarni qidirishda o‘zgarishlarni ko‘rsatish uchun moslashuvchanlikni o‘z ichiga oladi. Bundan tashqari, o‘quvchilar o‘qituvchilarning o‘quvchilarini o‘rganishiga ta’sir qiladigan salbiy his-tuyg‘ularini sezalishlari mumkin. Boshqa tomondan, o‘qituvchilarning o‘quvchilar bilan aloqasi o‘z o‘quvchilarining o‘rganishiga sezilarli ta’sir qiladi. Kuchli hissiy qobiliyatlar, hissiy kompetentsiya, bilim, tajriba, sotsial-emotsional kompetentlik to‘g‘ri qo‘llash, o‘qituvchilar tomonidan qulay sinf muhitini yaratish qobiliyati, o‘qitish uchun o‘rganishning samaralarini ta’minlaydi.

Fer ta’kidlaganidek, agar o‘qituvchilar o‘quvchilarni yaxshiroq tushunsa va o‘quvchilar bilan samimiyl munosabatga kirishsalar, o‘quvchilar yaxshi natijalarni ko‘rsatishga moyil bo‘ladi.

Intellektual tadqiqotlar sotsial intellektni ijobiy namoyish etish uchun faoliyatga asoslangan o‘quv jarayonini ilgari suradi. Sinfdag'i ta’lim jarayonida sotsial-emotsional kompetentlik rivojlantirishni rag‘batlantiradigan faoliyatni integratsiyalashda o‘qituvchidan ko‘nikma va tajriba talab qilinadi.

O‘qituvchilar, shuningdek, o‘z o‘quvchilarining hissiy tabiatini tushunishni samarali tashkil etadigan faoliyat amaliyotidan ham foydalanishlari mumkin. Varvik va Nettilbek hissiy intellektni, ya’ni insonning hissiy aqli va hissiy kompetentsiyasini o‘rganish mumkinligini ta’kidladilar. Bundan tashqari, sotsial-emotsional kompetentlik ta’limi mehribonlik va hissiyotlar haqida tushunchalarni yaxshilaydi. Shuningdek, tadqiqotchilar bir nechta vositalarni qo‘llash orqali o‘qituvchilarni sotsial-emotsional kompetentlik oshirishga o‘rgatish, o‘qituvchilarni o‘z o‘quvchilarini tushunish nuqtai nazaridan xabardor bo‘lish va o‘z o‘quvchilarini takomillashtirishga g‘amxo‘rlik qilish, yanada qulay o‘quv muhitini yaratish uchun yordam beradi. Agar o‘qituvchilar o‘quvchilarning taraqqiyoti haqida chin dildan qayg‘ursa va o‘z o‘quvchilarining kayfiyatini, hissiy holatini idrok etish va shunga mos ravishda tushunish uchun hissiy intellektga ega bo‘lsa, o‘quvchilarda o‘z o‘qituvchisiga nisbatan xayrixohlik vujudga keladi. Tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilarni yaxshi o‘rganish natijalari do‘stona va yoqimli ta’lim muhiti bilan bog‘liq.

1-jadval

Oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligining ko‘rsatkichlari

№	Sotsioal-emotsional komponentlikni asosiy komponentlari	M	Δ
1.	Umumiy intellekt	93,82	10,24
2.	Muloqot ishtirokchisining hissiyoti, fikri va niyatlarini tushunish	3,50	0,52
3.	Noverbal hulq-atvorni tushunish	3,05	0,84
4.	Verbal ekspressiyani tushunish	3,60	0,62
5.	Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish	2,74	0,89

Ularning umumiy intellekt (IQ) darajasi o‘rtacha bo‘lganligi sababli, ular sotsial-emotsional kompetentligini aks ettiruvchi mezon bo‘lgan “Suhbatdoshning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish” bo‘yicha o‘rtacha kuchli darajani ($3,50 \pm 0,52$) ko‘rsatdi. Bu shuni anglatadiki, oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari shaxslararo dinamikani oldindan bilish va voqealar rivojini bashorat qilish qobiliyatiga ega, garchi bu jihat yanada rivojlantirishni talab qiladi. Agar oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari ushbu subtestda yuqori saviyada ishtirok eta olsalar, ular o‘zlarining fotosuratlarini tekshirish orqali notanish shaxsning batafsil tavsifini berishlari mumkin edi. Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligining ushbu jihat bo‘yicha malakasi o‘rtacha darajadan yuqori.

Bundan tashqari, oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari og‘zaki bo‘lmagan xatti-harakatlarni tushunishda o‘rtacha qiymatdan yuqori bo‘lgan qiymatni ko‘rsatdilar ($3,05 \pm 0,84$). Bu shuni ko‘rsatadiki, o‘quvchilar og‘zaki bo‘lmagan belgilar to‘g‘risidagi bilimlarni o‘zlashtirib, tana tilini, yuz ifodalarini va xatti-harakatlarini

talqin qilish kabi og‘zaki bo‘limgan muloqotdan foydalanish orqali o‘zlarini professional muhitga faol tayyorlaydilar. Og‘zaki bo‘limgan signalarni baholashda bunday mahorat oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarining faol, mulohaza yurituvchi va empatik ishtirok etishga moyilligini, shuningdek, o‘zlarining his-tuyg‘ularini anglash qobiliyatini ko‘rsatadi. Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari bu ko‘nikmalarini yanada kuchaytira olsalar, bu boshqalarni tushunish va ular bilan empatiya qilish qobiliyatini oshiradi, ularning muloqotida chuqurroq aloqalarni rivojlantiradi.

O‘rtacha rivojlanishiga qaramay, oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligiining bu jihatlari, xususan, og‘zaki ifodani tushunish ($3,60 \pm 0,62$) va shaxslararo o‘zaro ta’sirni tahlil qilish ($2,74 \pm 0,89$) hali ham o‘rtacha diapazonga yaqinligicha qolmoqda. Qo‘sishma ma’lumotga ega bo‘lish uchun biz oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligiini baholashda qo‘llaniladigan test mezonlari orasidagi o‘zaro bog‘liqlikni tekshirishimiz mumkin (1-jadval). Tahlil mezonlar o‘rtasidagi ijobiy bog‘liqlikni ko‘rsatib, oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchilarining “suhbatdoshning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish” va “og‘zaki bo‘limgan xulq-atvorni tushunish” bo‘yicha olgan ballari o‘rtachadan yuqori ekanligini ko‘rsatadi ($r=0,399$, $p<0,05$). Bu oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchilarining umumiyligi muhitni, suhbatdoshlarining xulq-atvorini, shaxsiy fazilatlarini baholadhlari o‘zlarining intellektual imkoniyatlari doirasida baholash qobiliyatları bilan o‘zaro bog‘liqligini tasdiqlaydi (2-jadval).

2-jadval

Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilari sotsial-emotsional kompetentligining munosabatlari

	Sotsial emotsional kompetentligini aniqlash shkalasi	1	2	3	4
1.	Xulq-atvor natijalarini bilish	1	0,401*	0,328	0,584**
2.	Noverbal bo‘lgan xulq-atvorni tushunish		1	0,362	0,614**
3.	Og‘zaki bo‘lgan ekspressiyani tushunish			1	0,341
4.	Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish				1

Izoh: 1-Xulq-atvor natijalarini bilish; 2-Noverbal bo‘lgan xulq-atvorni tushunish; 3-Og‘zaki bo‘lgan ekspressiyani tushunish; 4-Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish; nazarda tutilgan.

Keyinchalik, agar oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchilari “suhbatdoshning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunish” qobiliyatini rivojlantirsalar, ular “shaxslararo o‘zaro munosabatlarni tahlil qilish”da qiyinchiliklarga duch kelmasligi ilmiy jihatdan aniqlangan ($r=0,584$, $p<0,01$). Bundan tashqari, og‘zaki

bo‘lмаган xatti-harakatlarni tushunish qobiliyatini oshirish orqali ular shaxslararo o‘zaro ta’sirlarni tahlil qilishda o‘zlarining malakalarini oshirishlari mumkin ($r = 0,614$, $p < 0,01$). Umumiyl intellekt natijalari va sotsial-emotsional kompetentligi darajasi o‘rtasidagi bog‘liqlik shaxsning rivojlanishida muhim ahamiyatga ega ekanligi tabiiydir. Bizning tahlilimiz orqali biz oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchilarining sotsial-emotsional kompetentligiini boshqa intellektlar bilan o‘zaro bog‘liqligini tekshirish uchun qo‘llaniladigan barcha metodologiyalar o‘rtasidagi o‘zaro bog‘liqliki muvaffaqiyatli aniqladik [3-jadvalga qarang].

Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarini muloqot qilayotgan sherigining his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunishi va ularning umumiyl intellekti ($r=0,402$, $p < 0,05$), shuningdek, og‘zaki bo‘lмаган xatti-harakatlarini tushunishlari va murakkab analogiya testlarida ishlashlari o‘rtasida korrelyatsiya mavjud. ($r=0,366$, $p < 0,05$). Bu shuni ko‘rsatadiki, oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchilarining kognitiv intellektini oshirish suhbатdoshning his-tuyg‘ulari, fikrlari va niyatlarini tushunishga yordam beradi. Xuddi shunday, murakkab mantiqiy munosabatlarni farqlash qobiliyati ularning og‘zaki bo‘lмаган xatti-harakatlarini tushunishlariga yordam beradi.

3-jadval

Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarini sotsial-emotsional kompetentligining sotsial intellekt bilan munosabat ko‘rsatkichlari

№	Sotsial-emotsional kompetentlikni aniqlash shkalasi	Umumiy	Analogiya	Tushunchalar	Vizual	Amaliy
1	Xulq-atvor natijalarini bilish	0,402*	0,194	0,108	0,094	-0,162
2	Noverbal bo‘lgan xulq-atvorni tushunish	0,106	0,366*	-0,152	0,170	-0,160
3	Og‘zaki bo‘lgan ekspressiyani tushunish	0,230	-0,084	0,161	0,093	-0,055
4	Shaxslararo o‘zaro ta’sirlashuvni tahlil etish	0,283	0,248	0,164	0,026	-0,075

* $p < 0.05$

Oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarini intellektini har tomonlama tushunish uchun aql va jins o‘rtasidagi munosabatni o‘rganish juda muhim, chunki ular bu borada farq qiladi. Shuning uchun biz ayol va erkak oliy ta’lim chet tili o‘qituvchilarining ko‘rsatkichlarini alohida o‘rganishga alohida e’tibor qaratdik. Bu bizga jinslar o‘rtasidagi sotsial-emotsional kompetentligi rivojlanishidagi o‘zgarishlarni baholash imkonini berdi. Ushbu tahlilni o‘tkazish orqali biz genderning sotsial-emotsional kompetentligi dinamikasiga ta’siri bo‘yicha yanada kengroq va nozik nuqtai nazarga ega bo‘lishni maqsad qildik.

Xulosa va takliflar

Demak, oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchilar boshqa notanish kishilarning yuzida va harakatlarida yuz berayotgan o‘zgarishlardan, mimikasi, qo‘l harakatlari va boshqa emotsiyal harakatlari orqali ularning holatlari va nimalar demoqchi ekanligini oldindan bila oladilar. Shaxslar o‘rtasidagi munosabatlar dinamikasini tushunadilar, suhbatsoshi nimani nazarda tutayotganini, uning maqsadi va ehtiyojlarini aniq bila oladilar, “Men” konsepsiyasini chuqr differensiatsiya qila oladilar, chuqr reflekslarga egalar, o‘zlarini faxrlanib his etadilar. Ular boshqa bir kishining fotosuratiga qarab, uning nafaqat xarakteri, balki uning nimalarga qodirligi, mayda ikir-chikrlarini ham aytib bera oladilar.

O‘qituvchilar vazifalarining o‘zgarishi bilan ularning sotsial-emotsional kompetentlik ko‘rsatkichlarida o‘sish kuzatiladi. Bu o‘sish oliy ta’lim chet tili fani o‘qituvchisining kasbiy faoliyat jarayonida talabalari, pedagogik jamoa a’zolari, ma’muriyat bilan muloqot o‘rnatishda, inson xulq-atvorini boshqarish, rolli me’yorlar va qoidalarga doir bilimni boyitishda va o‘zaro ta’sirlashuvda ishtirokchilarning noverbal reaksiyalarida to‘g‘ri mo‘ljal olishidir. Bu esa, ta’limning turli bosqichida sotsial intellektga xos bo‘lgan shaxslararo munosabat ishtirokchilarini, ularning verbal va noverbal muloqot harakatlarini tushunish va shaxslararo munosabatda ishtirokchilarga ta’sir ko‘rsatish qobiliyatları o‘sib borishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Anvarovna A.S. Constructions (models) of social intelligence in future english language teachers // horizon: journal of humanity and artificial intelligence. – 2023. – т. 2. – №. 4. – с. 169 – 172.
2. Ataxo‘jayeva S. A. Et al. Ingliz tilini o‘rgatishda loyixa ishini tashkil qilishning afzalliklari //science and education. – 2020. – т. 1. – №. 1. – с. 403 – 406.
3. Ataxo‘jayeva S. Empirical foundations of the study english language teachers // guldu axborotnomasi. – 2023.
4. Mirzamurodovich, F.M. (2023). Concepts of formation and development of psychological literacy in continuous education. Horizon: journal of humanity and artificial intelligence, 2(5), 495-497.

HAMKORLIK PEDAGOGIKASI ASOSIDA MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR HUQUQLARINI O'RGANISHNING DOLZARBLIGI

Xolmirzayev Sh.A.

University of Business and Science katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada bola huquqlari, ularni himoya qilinishining yuridik asoslari, ushbu sohada amalga oshirilayotgan ishlar hamda uning mazmun – mohiyati yoritib berilgan.

Tayanch iboralar: bola, bola huquqlari, yosh avlod, insonparvarlik tamoyillari, huquq va erkinliklar, «Bola huquqlarining kafolatlari to ‘g’risida»gi qonun, huquqiy madaniyat

Аннотация. В данной статье описаны права ребенка, правовые основы их защиты, освещена работа, проводимая в данной области, а также ее содержание.

Ключевые слова: ребенок, права ребенка, молодое поколение, гуманистические принципы, права и свободы, Закон «О гарантиях прав ребенка», правовая культура.

Abstract. This article describes the rights of the child, the legal basis of their protection, the work being carried out in this area, and its content.

Key words: child, children's rights, young generation, humanitarian principles, rights and freedoms, Law "On Guarantees of Children's Rights", legal culture

Kirish

Yosh avlodni erkin, demokratik, insonparvarlik tamoyillari asosida komil inson ruhida o‘stirish, ularning nafaqat o‘z huquq va erkinliklarini yaxshi biluvchi, balki ularni amalga oshira oladigan hamda o‘z burch va majburiyatlarini ham ongli ravishda bajaruvchi inson sifatida jamiyatning teng huquqli va faol subyekti qilib tarbiyalash fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan har bir demokratik davlatlar kabi, O‘zbekiston uchun ham muhim va dolzarb masala hisoblanadi. “Azal-azaldan har qaysi ota-onas o‘z bolasining sog‘lom va barkamol, aqlzakovatli, baxtli bo‘lishini istaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Yoshlarni vatanparvar etib tarbiyalash, ta’lim olishlariga bo‘lgan qiziqishlari rivojlantirishda Sharq yakkakurashlarining o‘rni juda muhindir va borada bu bo‘yicha dunyodagi etakchi olimlar, yakkakurash ustalari o‘z izlanishlarini olib borishmoqda. Ushbu izlanishlar asosan ta’lim jarayonining

ijtimoiy ehtiyojlarini o‘rganishga qaratilgan bo‘lib, ko‘plab olimlar tадqiqotlar olib borganlar. Xususan, xorij olimlaridan Ahearn, D., Holzer, B. with Andrews, L.Freeman, M.Covell, K. and Howe, R.B. O‘zbekiston olimlaridan A.X.Saidov, L.Saidova, S.A.Ismailov, Tolibjonovich, M.T. kabi ko‘blab olimlar izlanishlar olib borganlar.

Bolalar huquqlarini o‘rganish orqali yoshlarni vatanparvar etib tarbiyalash bo‘yicha ko‘plab maqolalar chop etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Maqolada Bolalar huquqlarini o‘rganish orqali Yosh avlodni erkin, demokratik, insonparvarlik tamoyillari asosida komil inson ruhida o‘stirish, ularning nafaqat o‘z huquq va erkinliklarini yaxshi biluvchi, balki ularni amalgalash oshira oladigan hamda o‘z burch va majburiyatlarini ham ongli ravishda bajaruvchi inson sifatida jamiyatning teng huquqli va faol subyekti qilib tarbiyalash fuqarolik jamiyatiga asoslangan demokratik, huquqiy davlatni qurishni o‘z oldiga maqsad qilib olgan har bir demokratik davlatlar kabi O‘zbekistonda ham muhim va dolzarb masalalar o‘rganilmoqda.

Tahlil va natijalar

Shunday farzandni voyaga etkazish, uning hayotda munosib o‘rin egallashiga erishish – ota-onaning eng ulug‘, eng muqaddas orzusi, desak, ayni haqiqatni aytgan bo‘lamiz. Ayni vaqtida bugungi shiddatli zamon, hayotning o‘zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, o‘ta muhim va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda¹. Yosh avlod tartiyasi O‘zbekiston uchun yana shunisi bilan ham hayot-mamot masalasi hisoblanadiki, mamlakatimiz aholisining 40% ni 18 yoshgacha bo‘lgan bolalar, 60%ni 30 yoshgacha bo‘lgan yoshlar tashkil etadi.

Shu sababli, inson huquqlari va erkinliklari sohasidagi davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishi bolalar va yoshlarning jismoniy, intellektual va ma’naviy rivojlanishi uchun qulay va eng yaxshi sharoitlarni yaratish, shuningdek ko‘p bolali oilalarni, etim bolalarni va oila muhitidan mahrum bo‘lgan bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash hisoblanadi².

Mamlakatda yoshlar masalasi, ularning o‘z fuqarolik pozitsiyasiga ega inson sifatida tarbiyalash, ularning huquq va erkinliklarni, qonuniy manfaatlarini ta’minlash masalalariga mustaqillikning dastlabki kunlaridanoq, davlat siyosatining ustuvor yo‘nalish sifatida katta e’tibor qaratib kelinmoqda. Mustaqilligimiz endi e’lon qilingan paytlari, ya’ni 1991-yilning 20-noyabrida, “O‘zbekiston Respublikasida yoshlarga oid davlat siyosatining asoslari to‘g‘risida”gi maxsus qonuni qabul qilinganligi bunga dalolat bo‘la oladi. Mazkur

¹ “Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatni qurish – yorug‘ Nylajagimizning asosiy omilidir”. Prizidjnt Islom Karimovning O‘zbekiston Rjspublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdag‘i ma’ruzasi. / Xalq so‘zi, 2013-yil 7 dekabr.

² Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma /Mas‘ul muharrir A.X.Saidov. –T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbekiston Rjspublikasi Milliy markazi, 2011. – B. 5.

Qonunda yoshlarga oid siyosatning maqsadi, O‘zbekiston Respublikasining yoshlarga oid davlat siyosati qanday sohasidagi vakolatlari, yoshlarga oid davlat siyosati to‘g‘risidagi qonunlarning mazmun-mohiyati qanday bo‘lishi lozimligi, bu boradagi O‘zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomalari normalarining ustuvorligi tamoyili ko‘rsatib o‘tilgan.

Bu esa, yoshlar siyosati masalasi 1992-yilgi mustaqil O‘zbekistonning Konstitutsiyasida o‘z aksini topishiga, shu yili O‘zbekistonning BMTning asosiy hujjatlaridan biri hisoblanmish “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi konvensiyaga¹ qo‘shilishiga va mazkur hujjatlar asosida o‘tgan davr mobaynida bolalar va yoshlar masalalariga dahldor 100 dan ortiq qonunlarni qabul qilinishi hamda 2008-yilda, bu sohadagi maxsus qonun hisoblangan O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunini² qabul qilinishiga asos bo‘ldi.

2008-yil 7-yanvar kuni kuchga kirgan O‘zbekiston Respublikasining “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonuni, 18 yoshgacha bo‘lgan subyektlar hisoblanmish, bolalarning huquqiy ahvolini belgilashga doir munosabatlarni tartibga solishga, bola huquqlarini va erkinliklarini yuridik kafolatlashga qaratilgan.

Ta’kidlash joizki, Qonun normalarining yarmidan ko‘pi bola huquqlarining kafolatlarini belgilashga bag‘ishlangan³. Yuqoridagilardan kelib chiqib, aytish mumkinki, o‘tgan davr mobaynida, mamlakatda bolalarning huquqiy jihatdan himoyalashning xalqaro va milliy huquqiy asoslari yaratildi va ular hayotga jalb etilib borilmoqda. Mazkur huquqiy hujjatlarda bolalar, shuningdek, aholining boshqa barcha qatlami vakillarining ham bola huquqlari sohasidagi huquqiy madaniyatini shakllantirish va rivojlantirishga katta e’tibor qaratilgan. Bu yo‘nalishda huquqiy tarbiya muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu boradagi tegishli xalqaro hujjatlar, parlamentning qonun va qarorlari, mamlakat Prezidentining g‘oyalari, tegishli farmon va farmoyishlarining⁴ ijrosining samarasini o‘larоq, bugungi kunda mamlakatimizda maktabgacha va umumiy o‘rtta ta’lim muassasalarini, oliy o‘quv yurtlari va oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’limda huquqiy ta’lim tizimi yaratildi. Bola huquqlari o‘rganish masalasi mazkur tizimning tarkibiy qismiga aylandi. Alovida qayd etish kerakki, aholida bola huquqlariga oid huquqiy madaniyatini shakllantirishda hukumat tomonidan qabul qilingan quyidagi dasturiy hujjatlar ham muhim ahamiyatga ega.

¹ Inson huquqlari bo‘yicha xalqaro shartnomalar (to‘plam). – T.: “Adolat”, 2004. – B. 220.

² O‘zbjkiston Rjspublikasi qonun hujjatlari to‘plami. 2008-yil, 1 – 2-son, 1-modda.

³ Bola huquqlari monitoringi. O‘quv-uslubiy qo‘llanma / Mas’ul muharrir A.X.Saidov. – T.: Inson huquqlari bo‘yicha O‘zbjkiston Rjspublikasi Milliy markazi, 2011. – B. 6.

⁴ Misol uchun, BMTning “Inson huquqlari sohasidagi ta’lim o‘n yilligi (1995 – 2004)” doirasidagi tavsiyalari hamda O‘zbjkiston Rjspublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi, “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida”gi Qonunlari, O‘zbjkiston Rjspublikasi Oliy Majlisи qarori bilan tasdiqlangan 1997-yildagi “Jamiyatda huquqiy madaniyatni yuksaltirish milliy dasturi”, O‘zbjkiston Rjspublikasi Prizidjntining 1997-yil 25-iyundagi “Huquqiy tarbiyani yaxshilash, aholining huquqiy madaniyatini darajasini yuksaltirish, huquqshunos kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish, jamoatchilik fikrini o‘rganish ishini yaxshilash haqida”gi Farmoni, O‘zbjkiston Rjspublikasi Prizidjntining 2001-yil 4-yanvardagi “O‘zbjkiston Rjspublikasi Konstitutsiyasini o‘rganishni tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishi.

Har yili qabul qilinadigan davlat dasturlarida yoshlар muammosi doimo diqqat marqazida bo‘lmoqda. Ayniqsa, 2008-yilni “Yoshlар yili”, 2010-yilni “Barkamol avlod yili”, 2014-yilni “Sog‘lom bola yili” deb e’lon qilinishi bolalar, yoshlар va ularning tarbiyasi davlat siyosatining bosh masalasi ekanligini ko‘rsatib berdi. Ayniqsa, bu borada mamlakat miqyosida amalga oshirilayotgan turli tadbirlar yoshlarning huquqiy madaniyatini, ularning huquq va erkinliklarini samarali amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Xulosa va takliflar

Xulosa qilib aytganda, mamlakatda bugungi kunda aholining bola huquqlari oid huquqiy madaniyatini rivojlantirish bo‘yicha huquqiy asos va institutsional tizim yaratildi va u takomillashtirib borilmoqda. Ammo, qonunlarni ishlashi, ular Pexanizmlarining samaradorligi birinchi o‘rinda, aholining huquqiy madaniyatining qay darajada ekanligiga bog‘liqdir. Uni esa, bu boradagi ta’limsiz erishib bo‘lmaydi. Shuning uchun ham, mamlakatda inson huquqlari sohasidagi ta’limni rivojlantirish bilan bir qatorda, uning aholisining katta qismini tashkil etuvchi bolalarning huquqlarini ham maxsus o‘qitish bugungi kunning dolzarb masalasiga aylanmoqda.

Mazkur yo‘nalishda, bolalarning huquqiy madaniyatini yanada yuksaltirishda, aholining bola huquqlariga oid huquqiy bilimlarini oshirishda, quyidagi-larga e’tiborni yanada kuchaytirish maqsadga muvofiqdir: birinchidan, bola huquqlariga oid ta’lim va tarbiyaning nazariy jihatlarini kuchaytirish bilan bir qatorda, uning amaliy samaradorligini yanada oshirish; ikkinchidan, bolalar ta’lim va tarbiyasini amalga oshiruvchi muassasalar o‘quv dasturlarida bola huquqlariga oid O‘zbekiston Respublikasi qo‘shilgan xalqaro normalarga, umuminsoniy qadriyatlarga, ilg‘or horijiy tajribaga va albatta, mamlakatda tarixan shakllangan milliy an’analarga, qadriyatlarga e’tiborni kuchaytirish; uchinchidan, bola huquqlarini o‘qitishda zamonaviy axborot va pedagogik texnologiyalarni qo‘llashning samaradorligini oshirish; to‘rtinchidan, bola huquqlariga oid tadqiqotchilikni, ayniqsa, ularning o‘zlarining hamda aholining bola huquqlariga oid huquqiy madaniyatini o‘rganishga qaratilgan ilmiy va sotsiologik tadqiqotlarni yanada kuchaytirish; Beshinchidan, bola huquqlari borasida ta’lim muassasalari bilan davlat organlari, fuqarolik jamiyati institutlari, xususan mahallalar o‘rtasidagi o‘zaro tushungish va hamkorlikka erishish; oltinchidan OAVlarining bolalar va yoshlarning huquqiy tarbiya sohasidagi faoliyatini yanada kengaytirish.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. S.A.Ismailov. (2022). Ta’lim jarayonlarida “ma’naviyatning ilmiy metodologiyasi” fani tuzilishi, asosiy mavzu va muammolari. fan predmetini o‘rganishning ilmiy-uslubiy asoslari. Yosh Tadqiqotchi Jurnali, 1(4), 40–44. Retrieved from <https://2ndsun.uz/index.php/yt/article/view/224>

2. Urinov, B.D. (2020). The quality of education and the main factors and criteria that determine it. Scientific Bulletin of Namangan State University, 2(6), 469-475.
3. Tolibjonovich, M.T. (2021). Eastern renaissance and its cultural heritage: the view of foreign researchers. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions, 2(05), 211-215.
4. Амирхўжаев Шукуржон Қурбонович, Ғуломжонов Одилжон Рахимжон Ўғли (2022). Ижтимоий-фалсафий жиҳатдан оиласининг этномаданий хусусиятлари. Ta’lim fidoyilar, 14 (1), 133-143.
5. Баркамол авлод-Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори. // Кадрлар тайёрлаш миллий дастури. – Т.: Шарқ, 1997. – Б. 42.

YUQORI SINF O'QUVCHILARIDA "TARBIYA" FANI VOSITASIDA FAOL FUQAROLIK POZITSIYASINI RIVOJLANTIRISH MEXANIZMI

Abdullayev D.Y.

University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada "Tarbiya" fani vositasida yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish orqali yoshlarni fuqarolik ruhida tarbiyalashning ahamiyati va pedagogik asoslari haqida so'z yuritilgan.

Tayanch iboralar: "Tarbiya" fani; fuqaro; fuqarolik; fuqarolik tarbiyasi; faol fuqaro; fuqarolik pozitsiyasi; huquqiy ong; huquqiy madaniyat.

Аннотация. В статье рассматриваются важность и педагогические основы воспитания молодежи в гражданском духе через развитие активной гражданской позиции у учащихся старших классов с помощью предмета "Воспитание".

Ключевые слова: предмет "Воспитание"; гражданин; гражданство; гражданское воспитание; активный гражданин; гражданская позиция; правосознание; правовая культура.

Abstract. The article discusses the importance and pedagogical foundations of educating young people in a civic spirit through the development of an active citizenship among high school students with the help of the subject "Education".

Key words: subject "Education"; citizen; citizenship; civic education; active citizen; civic position; legal awareness; legal culture.

Kirish

Hozirgi davrda O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini barpo etish maqsadini hayotga tatbiq etish bilan hamohang tarzda bozor iqtisodiyotiga o'tish, demokratik qadriyatlarni egallash, fuqarolar ijtimoiy-siyosiy faolligini yuksaltirish, shani erkinligini amalda joriy etish, siyosiy jarayonlarni erkinlashtirish, demokratik me'yorlar asosida takomillashtirish kabi yangidan-yangi dolzarb vazifalar paydo bo'ldi.

Yangi jamiyat qurishdagi bu omillarning barchasi umuminsoniy qadriyatlар nuqtai nazaridan qaraganda ko'proq ma'naviyatga yaqin mezonlardir. Ma'naviyat insonning o'z erkinligini xis etishi, millat, jamiyat va o'z vataniga nisbatan muhabbat va ezgulikga erishish kafolati xamdir. Faqat ma'naviyatli inson o'z shaxsiy manfaatlarini jamiyat manfaatlaridan past qo'ya oladi. Inson jamoa, millat va davlat manfaatlarini ifoda etish va qondirish uchun faollik ko'rsata olsa, o'zining ham manfaatlarini anglashda ma'naviyatlilik darajasi yuksalib boraveradi. Haqiqiy barkamol va ma'naviyatli insonda jamiyatdagi barcha manfaatlar va ehtiyojlarni muvofiqlashtirishga intilish, bu faoliyatni u xuddi

o‘zining umri mazmunidek his qilish xarakteri shakllanadi. Xulosa qilib aytganda o’tmish, hozirgi zamon va kelajakni uyg’unlashtiruvchi qadriyatlar tizimi biz qurayotgan demokratik, fuqarolik jamiyatining poydevori bo’lib xizmat qiladi.

“Harakatlar strategiyasidan – Taraqqiyot strategiyasi sari” tamoyiliga asosan ishlab chiqilgan «2022 – 2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi»[1]da yoshlarni vatanparvarlik, fuqarolik tuyg‘usi, bag‘rikenglik, qonunlarga, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida, zararli ta’sirlar va oqimlarga qarshi tura oladigan, hayotga bo’lgan qat’iy ishonch va qarashlarga ega shaxs sifatida tarbiyalash, yoshlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyati darajasini yuksaltirish yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishning maqsadlari sifatida ko’rsatib o‘tilgan.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Mamlakatimizda o‘quvchi yoshlarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari O.Musurmonova, A.Akramov, B.Abdullayeva, A.Asqarov, Sh.Baratov, N.Djamilova, A.Begmatov, O.Jamoliddinova, X.Ibragimov, J.Yo’ldoshev, M.Quronov, M.Qaxxarova, A.Mavrulov, N.Muslimov, D.Ro’ziyeva, X.Tojiboyeva B.Xodjayev, G.Tulenova, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonova, G’.Shoumarov, N.Egamberdiyeva, E.Yusupov kabi olimlar tomonidan tadqiq etilgan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ummuta’lim maktablarida «Tarbiya» fanini o‘qitish hamda ma’naviy-ma’rifiy va tarbiyaviy ishlar vositasida yuqori sinf o‘quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning nazariy asoslari ishlab chiqilganligi, shaxsning faol fuqarolik pozitsiyasini egallah imkoniyatlarini kengaytirish, baholash metodikasi, mezon ko’rsatkichlari, shaxs faolligini namoyon etishning pedagogik shart-sharoitlarini yaratishga oid yondashuvlarning aniqlanganligi bilan izohlanadi.

Tahlil va natijalar

Ushbu ustuvor maqsadlar umumta’lim maktablarining yuqori sinf o‘quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish mazmuni, tamoyillari, metodikasi hamda pedagogik mexanizmlarini takomillashtirishni taqozo etgani bois Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldagagi 422-son qarori bilan umumiyl o‘rtalim muassasalari o‘quvchilari uchun “Tarbiya” fani konsepsiysi tasdiqlandi.

- unga ko‘ra, umumiyl o‘rtalim muassasalarida “Odobnama”, “Vatan tuyg‘usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirgan holda yagona “Tarbiya” fani 1 – 9-sinflarda – 2020/2021 o‘quv yilidan, 10 – 11-sinflarda esa 2021/2022 o‘quv yilidan boshlab fanlarga ajratilgan umumiyl soatlar doirasida bosqichma-bosqich amaliyotga joriy

etiladi. “Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv-metodik majmualar yangi o‘quv yili boshlangunga qadar chop etilib, joylarga [2] yetkaziladi.

- 2020-yil iyul oyidan boshlab yangi o‘quv yili boshlangunga qadar umumta’lim maktablaridagi “Boshlang‘ich ta’lim”, “Milliy g‘oya va huquq”, “Tarix” va “Dinshunoslik” mutaxassisligiga ega fan o‘qituvchilari uchun xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish hududiy markazlarida “Tarbiya” fanidan onlayn shaklda maqsadli malaka oshirish kurslari tashkil etiladi.

- “Tarbiya” fanidan darsliklar va o‘quv majmualarini xarid qilish va etkazib berish xarajatlari Respublika byudjeti hamda Xalq ta’limi vazirligi huzuridagi Respublika maqsadli kitob jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan qoplanadi. Shu bois yoshlar tarbiyasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan «Milliy istiqlol g‘oyasi: asosiy tushuncha va tamoyillar» turkumiga kiruvchi fanlarni o‘qitish ta’lim jarayoniga yangicha yondashuvni taqozo etmoqda.

- Jumladan, yoshlar tarbiyasida dunyoda yuz berayotgan murakkab geosiyosiy va mafkuraviy jarayonlarga to‘g‘ri baho bera olish, ijtimoiy muammolarni hal etishda to‘g‘ri qaror qabul qilish, hayotda o‘z o‘rnini topish bilan bog‘liq bo‘lgan aniq maqsadlarni shakllantira olishga o‘rgatish, buning natijasi o‘laroq, oila-jamiyat o‘rtasidagi munosabatlarning uzilib qolishining oldini olish, loqaydlik, huquqbazarlik, «ommaviy madaniyat»ning turli ko‘rinishlaridan saqlash imkonini yaratiladi.

Bu, o‘z o‘rnida, O‘zbekiston Respublikasini siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy-ma’naviy rivojlantirishning muhim omili bo‘lgan yoshlar tarbiyasi shaxsan O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining tashabbuskorligida davlat siyosati darajasiga ko‘tarilganini inobatga olib, ushu yo‘nalishdagi prinsipial yondashuvlarni takomillashtirish, strategik maqsad va vazifalarning konseptual asoslarini ishlab chiqish zaruratini talab qildi.

Yangi darslikning avvalgi darsliklardan farqi quydagilar:

1. “Tarbiya” darsligi “Odobnama”, “Vatan tuyg’usi”, “Milliy istiqlol g‘oyasi va ma’naviyat asoslari” hamda “Dunyo dinlari tarixi” fanlarini birlashtirdi.

2. 1 – 9-sinflarda – 2020/2021-o‘quv yilidan, 10 – 11-sinflarda esa 2021/2022-o‘quv yilidan amaliyotga joriy etildi.

3. Darsliklarni tayyorlashda Yaponianing “Axloq ta’limi”, Singapurning “Fe’l atvor va fuqarolik ta’limi”, Buyuk Britaniyaning “Tafakkur”, “Xulq ta’limi” fanlari va darsliklari yaqindan o‘rganildi.

4. Ilk marotaba darsliklarda 21-asr ko’nikmalari deb nom olgan “Yumshoq ko’nikmalar” joriy qilindi. Darsliklar orqali o‘quvchida bilim berishdan tashqari ko’nikma shakllantiriladi.

O‘quv-metodik majmuaning yangi avlodini ishlab chiqish prinsiplari hamda ularning mazmuni va sifatiga qo‘yiladigan talablar:

- o‘quvchilarda tayanch kompetensiyalarni shakllantirish;

- «Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari» prinsipi mazmun va mohiyatini o‘quvchilarning ongu tafakkuriga singdirish;
- o‘quvchilarni muvaffaqiyatli ijtimoiy hayotga tayyorlash;
- faol fuqarolik pozitsiyalarini mustahkamlash;
- mas’uliyat, majburiyat, huquqiy ong va huquqiy madaniyat, teran dunyoqarash, sog‘lom e’tiqodlilik, teran ma’rifatlilik, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni shakllantirish vazifalarini belgilaydi.

Tarbiya fani o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko‘maklashish, samarali hamkorlik qilish, vaqtini mazmunli tashkil etish, milliy, ma’naviy va umuminsoniy qadriyatlarni hurmat qilish, o‘zlarining intellectual va ijodiy salohiyatini ro‘yobga chiqarishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, yoshlar o‘rtasida uchrayotgan salbiy holatlarning asl sabablarini aniqlash va oldini olish, huquqbazarlik va jinoyatchilikni keskin kamaytirishga qaratilgan quyidagi profilaktik ishlar natijadorligini oshirishga zamin yaratadi:

- o‘quvchilarda milliy g‘urur va iftixor, moddiy va ma’naviy merosni asrab-avaylashga qaratilgan insonparvarlik tuyg‘usini tarkib toptirish;
- davlat ta’lim standartlari talablari asosida o‘quvchilar tomonidan bilim va hayotiy ko‘nikmalarning to‘liq o‘zlashtirilishiga erishish;
- o‘quvchilarda mustaqil va erkin fikrlashni hamda ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish;
- yangi avlod o‘quv-metodik majmularini yaratish va amaliyotga joriy etish;
- umumta’lim fanlarining o‘qitish metodologiyasini takomillashtirish asosida ta’lim-tarbiya samaradorligini oshirish;

Tarbiya fani o‘quvchilarda faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish, ularning har tomonlama ijtimoiylashuviga ko‘maklashishga yordam beradi. Shu bois dast avval o‘quvchilarda fuqarolik tarbiyasini rivojlantirish lozim.

Fuqarolik tarbiyasi fuqarolik tushunchasining mohiyatini anglatish orqali o‘quvchilarda yuksak darajadagi fuqarolik madaniyatini shakllantirish, ularni Xalq, Vatan, jamiyat manfaatlari yo‘lida kurashuvchi fuqarolar etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik jarayon. Fuqarolik tarbiyasining markaziy ob’ekti fuqaro sanaladi.

Fuqaro fuqaroligi huquqiy jihatdan e’tirof etilgan hamda muayyan jamiyat (davlat) a’zosi bo’lgan shaxsdir.

Fuqarolik esa huquqiy va axloqiy me’yorlarga ongli rioya etish, ma’lum huquqlardan foydalanish hamda burchlarni bajarishga mas’ullik bilan yondoshuv, mehnat jarayoni va jamoadagi faollik, ma’naviy etuklik asosida muayyan davlatga mansublik [4].

Fuqarolik tarbiyasining vazifalarini quyidagilar tashkil etadi:

- yosh avlodni doimiy ravishda jamiyatda ustuvor mavqega ega bo’lgan axloqiy va huquqiy me’yorlarga rioya etishga o’rgatib borish;

- o'quvchilarga fuqarolik huquq va burchlari to'g'risida ma'lumotlar berib borish, ularda fuqarolik faoliyatini tashkil etish borasida ko'nikma va malakalar hosil qilish;

- o'quvchilarda davlat ramzlariga nisbatan hurmat va muhabbatni qaror toptirish, Respublika Prezidenti sha'ni, or-nomusini himoya qilishga tayyorlik hissini shakllantirish;

- o'quvchilarda xalq o'tmishi, milliy qadriyatlarga nisbatan muhabbat tuyg'usini uyg'otish, ulardan g'ururlanish, faxrlanish va iftixor hislarini oshirish;

- vatan, yurt ozodligi va mustaqilligini e'zozlovchi, ardoqlovchi, uni himoya qilishga tayyor fuqaroni tarbiyalash ishiga keng jamoatchilik e'tiborini jalg etish:

Yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish modeli umumta'lim maktablarida pedagogik jarayonlarni huquqiy ta'lim va tarbiya bilan uyg'unlashtirish, «Tarbiya» fanini o'qitishda fuqarolik kompetensiyanlari shakllantirish, «shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat» prinsipi innovatsion texnologiyalarga asoslangan pedagogik tizimni kiritish orqali aniqlashtiriladi. Shu sababli "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni uning maqsadi, shakllari, metodlari va vositalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari majmui ishlab chiqildi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash mumkinki, fuqaroviylar faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirishning pedagogik mexanizmini takomillashtirish modeli umumta'lim maktablarida pedagogik jarayonlarni huquqiy ta'lim va tarbiya bilan uyg'unlashtirish, «Tarbiya» fanini o'qitishda fuqarolik kompetensiyanlari shakllantirish, «shaxs – oila – mahalla – ta'lim muassasasi – tashkilot – jamiyat» prinsipi innovatsion texnologiyalarga asoslangan pedagogik tizimni kiritish orqali aniqlashtiriladi. Shu sababli "Tarbiya" fanini o'qitish jarayonida yuqori sinf o'quvchilarida faol fuqarolik pozitsiyasini rivojlantirish jarayoni uning maqsadi, shakllari, metodlari va vositalarini takomillashtirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari majmui ishlab chiqildi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. 2022 – 2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son 29.01.2022.
2. Umumiyo o'rta ta'lim muassasalari o'quvchilari uchun "Tarbiya" fani konsepsiysi. Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 6-iyuldaggi 422-son qaroriga 3-ilova
3. Jo'rayev N. G'oyaviy immunitet yoki ma'naviy xaloskorlik tuyg'usi. – T.: O'zbekiston, 2001. 52-bet.



4. Mavlonova R.A. va boshqalar. Umumiy pedagogika. Darslik. – T., “Innovatsion rivojlanish” nashriyot-matba uyi, 2020. – 528 b.
5. Xodjayev B.X. Umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti. Darslik. – T., “Sano-standart” nashriyoti, 2017. – 416 b.

SPORT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHDA TABIIY KOMPONENTLARNING O'RNI

Xudoyberdiyeva S.M.
University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada jismoniy tarbiya va tabiiy geografiya fanlari integratsiyasi asosida talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini rivojlantirishni amaliy jarayoni, shuningdek O'zbekistonda turizmni boshqa turli hil joylarda rivojlanganligi. Turizmni yanada rivojlantirish borasidagi ijtimoiy zaruriyatni inobatga olgan holda respublika aholisi, xususan, mintaqaviy joylarda, yoshlar o'rtasida turizm ko'nikmalarini amalyotda shakllantirish muhim pedagogik vazifalardan ekanligi haqida so'z yuritilgan.

Tayanch iboralar: turizm, sport turizmi, tabiiy geografiya, integratsiya, ko'nikma, turli xududlar, ko'nikma, malaka.

Аннотация. В статье представлен практический процесс развития навыков спортивного туризма у студентов на основе интеграции дисциплин физического воспитания и естественной географии, а также развитие туризма в Узбекистане в различных других местах. Учитывая социальную необходимость дальнейшего развития туризма, было отмечено, что одной из важнейших педагогических задач является практическое формирование туристских навыков у населения республики, особенно в регионах, среди молодежи.

Ключевые слова: туризм, спортивный туризм, природная география, интеграция, навыки, различные регионы, навыки, компетенции.

Abstract. In the article, the practical process of developing sports tourism skills in students based on the integration of physical education and natural geographical sciences, as well as the development of tourism in Uzbekistan in various other homogeneous places. Taking into account the social need for the further development of tourism, it was mentioned that the formation of tourism skills among the population of the Republic, in particular, in regional places, among young people in amalyot is one of the important pedagogical tasks.

Key words: tourism, sports tourism, natural geography, integration, skills, various gods, skills, qualifications.

Kirish

O'zbekiston respublikasida turizm xalqaro ahamiyatga ega bo'lgan ijtimoiy-madaniy, siyosiy, iqtisodiy va tarbiyaviy jarayon sifatida mavjuddir. Mamlakatning geografik sharoiti va ijtimoiy-madaniy, iqtisodiy tuzilmalari asosida turizm ikki yo'nalishga (ichki va xalqaro turizm) ajratilgan. Ular asosan

sayr (ekskursiya) va sayohatlar (piyoda va turli ulovlarda yurish) shaklida olib boriladi. Hozirgi kunda jahon mamlakatlarining ko'pchilik qismida turizm yagona tizim sifatida rivojlanmoqda va u mamlakat byudjetiga salmoqli daromad keltiradi.

Bundan tashqari, mamlakatda turizmni rivojlantirish uchun zarur bo'lgan mavjud resurslardan oqilona foydalanish va turizm sohasini barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash uchun kerakli shart-sharoitlar yaratishda mutaxassislar, ekologlar, iqtisodchilar mamlakatda turizm rivojlanish qonuniyatlarini, sohaning o'ziga xosligini yaxshi tushunishi, to'g'ri xulosalar chiqara olishi zarur. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni qabul qilindi. Unga ko'ra mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoevning haqli e'tirofiga ko'ra O'zbekistonda turizm ko'p holatlarda qadimiy shaharlar, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda [2]. Holbuki, O'zbekistonning betakror tabiat, milliy qo'riqxonalari, tog'li hududlar turizmni samarali rivojlantirish bo'yicha katta imkoniyatlarga ega.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Keyingi yillarda O'zbekistonda barcha sohalarda keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Ta'lim, sog'liqni saqlash, moddiy-texnik ta'minot va aholi o'rtaida o'zini-o'zi boshqarish, nodavlat tashkilotlari faoliyatiga e'tiborni kuchayishi yangi yo'nalishlar vujudga kelmoqda. O'quvchi-yoshlar va aholining barcha tabaqalari faoliyatida milliy qadriyatlarni o'rganish, tarixiy vogeliklarni tahlil qilish, yangi islohotlar yo'lida ularga davr talablari asosida munosabatda bo'lish lozimligini davrning o'zi taqozo etmoqda. O'zbekistonga xorijiy mamlakatlardan mutaxassislarning tashrif buyurishi, qo'shma korxonalarni tashkil etilishi, tarixiy shaharlarga sayyohlarning oqiminining ko'payib borishi yangicha tus olmoqda [8]. Shu tufayli Respublika Prezidenti va hukumati tomonidan yurtimizda turizmni rivojlantirishga doir jiddiy tadbirlar o'tkazilmoya.

Hamroev H.R., Abdunazarova Z.A., Ovchinnikov Yu.D., Talibov S.N., Daurenov E.Yu., Qosimova R.A., Egamov V. kabilar sport turizmi bo'yicha ilmiytadqiqot ishlarini olib borganlar. O'zbekistonda turizmnинг, shakllanishi va uning rivojlanishiga bag'ishlab V.Ratsek, A.Kolbintsov, V.Kucheryavых, I.Xolmurodov, R.Abdumalikov, T.Holdorov, Ye.Daurenovlar kabi mahalliy mualliflarning ilmiy-ommabop risolalari, uslubiy qo'llanmalari yaratildi.

Tadqiqot metodologiyasi

«Turizm» so'zining negizi hisoblangan «Tour» so'zi lotincha «Tornare» so'zidan kelib chiqqan bo'lib, doiraviy shakl ma'nosini anglatadi. Bu so'z o'z ma'nosini o'zgartirmasdan boshqa g'arb tillariga ham kirib kelgan. Masalan, frantsuzchada «ayylanish» ma'nosiga to'g'ri keluvchi «tourner» va «tour» so'zlari hozirgi kunda ham ishlatilmoqda. Ingлизчада esa turizm so'zi turist so'zidan

olinib, 1811 yillarda yuzaga kelgan. Nemischada esa faqatgina «auslander» (ajnabiy yoki xorijiy) so'zi ishlatilar edi. 1958 yilda nemis tilida alohida e'tiborga olinib turizmning ekivalenti bo'lmish «fremdenverkehr» yoki «tourismus», turist so'zining ekivalenti esa «turist» tarzida qo'llanila boshlandi». Internatsional Vebster lug'atida tur (tour) ning ma'nosi quyidagicha ifodalangan: «Ish, zavq olish, o'qish uchun qilinadigan sayohat va bu sayohatlar mobaynida turli xil joylarni ziyyarat qilishdan va rejalashtirilgan sayohat dastlab sayohat turidan yuzaga keladigan jarayon tur deb ataladi».

Tahlil va natijalar

Sport turizmi – bu tabiiy to'siqlarni engib o'tishda odamni sport bilan takomillashtirishga qaratilgan sport turi. Sport turizmi tarixan qadimdan rivojlangan. Turizmning sport mahorati tabiiy to'siqlarni engib o'tish, to'siqlarni engib o'tishning turli taktikasi va usullarini qo'llashdan iborat.

Turizm sohasida olib borilayotgan tadqiqotlarning fanlar bilan o'zaro integratsiyasi asosida talabalarda sport turizmi ko'nikmalarini shakllantirishda tabiat elementlarining o'rmini ochib berish mazkur maqolaning asosiy maqsadi hisoblanadi. Bu maqsadni amalga oshirish jarayonida bir nechta vazifalar kelib chiqdi, jumladan yoshi va ijtimoiy xususiyatlariga ko'ra sport turizmini bo'linishi: bolalar turizmi; yoshlar turizmi; kattalar turizmi; oilaviy turizm; nogironlar uchun turizm. So'nggi yillarda sport turizmining ham bir necha yo'nalishlari faol rivojlanmoqda: sayohat (shu jumladan yakka sayohat); ekstremal turizm; intizom masofasi; sun'iy erlarda bino ichida intizom masofasi; sport sayohatlari sinfida qisqa marshrutlar. Mazkur sohalarni rivojlantirishdagi muammolar esa olib boriladigan ilmiy tadqiqotlarda bartaraf etib borilishi maqsadga muvofiq.

Keyingi yillarda mamlakatimizda turizmni yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilish, biologik xilma-xillikni saqlab qolishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ma'lumki, ekoturizm tabiatga zarar etkazmagan holda, undan bahra olishni anglatadi. Shunday ekan, mazkur tarmoqni rivojlantirish, o'z navbatida, odamlarda ekologik madaniyatni yuksaltirishni taqozo etadi. Yana bir e'tiborli jihat, mamlakatimizning uzoq tog'li xududlarida joylashgan qishloqlar aholisi muhim ish o'rniga, daromad manbaiga ega bo'layotir. Sayyoohlар esa qishloq ahlining kundalik turmush tarzi, urf-odatlari va marosimlari bilan yaqindan tanishishyapti [6]. Turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo'lgan O'zbekiston o'zining qadimiy obidalari, muqaddas ziyyaratgohlari, xushmanzara tabiatini va fayzli go'shalari bilan sayyoohlarni o'ziga rom etmoqda. Ma'lumotlarga ko'ra, yurtimiz sayyoqlik ko'lami va tarixiy joylar ko'pligi bo'yicha dunyodagi etakchi o'n mamlakat qatorida turadi [7].

Toza havoda va yirik shaharlardan uzoqda sport bilan shug'ullanishni yaxshi ko'radiganlar uchun O'zbekiston ayni joy hisoblanadi. Yumshoq iqlim deyarli butun yil davomida sportning ko'p turlari bilan shug'ullanishga imkon beradi. Klassik qishki sport turlari uchun to'rtta tog' kurorti mavjud: Chimyon, Bildirsoy,

Amirsoy va Yangiobod. Tez orada ularning soni yanayam ko‘payadi. Mamlakat o‘zining keng va xilma-xil landshaftlari tufayli ekstremal sport turlari uchun juda ko‘p imkoniyatlarni taqdim etadi, vaholanki bu sport turlari mamlakatda hali yangilik hisoblanadi. Bularga quyidagilar kiradi: - ekstremal chang‘i, snoubord; - moto poygalar (Motorsysle rasing), rally (Rallying), motokross; - skeytbording, tog‘ velosipedi, toqqa chiqish, kanyoning va paraplanerlik.

Mamlakatning ulkan tog‘li hududlari alohida jozibadordir. O‘zbekistonda tog‘ turizmi katta bo‘limgan, ammo faol rivojlanayotgan sohadir. Go‘zal manzaralari ichida yayov yurish, alpinizm, tog‘ g‘orlariga tashriflar, to‘rtta zamonaviy kurort komplekslaridan birida qishki chang‘i sporti, Axamoniylar (miloddan avvalgi 6 – 4 asrlar) va Iskandar Zulqarnayn (miloddan avvalgi 4-asr) davridan qolgan qadimgi tog‘ qal’alari, ming yoshdan oshgan qadimgi g‘or rasmlari, 3000 dan 4000 metrgacha bo‘lgan balandlikdagi tog‘ cho‘qqilarining hayratlanarli manzarasi, aholisi iliq va mehmondo‘st bo‘lgan an‘anaviy uzoq tog‘ qishloqlari, noyob nabotot, endemik va nodir yo‘qolib ketish xavfi ostida turgan hayvonlar, go‘zal sharsharalar, tog‘ ko‘llari va toshqin tog‘ daryolarini alohida ta’kidlab o‘tish joiz [9].

Suv turizmi O‘zbekiston dengizga yoki okeanga chiqa olmaydigan sanoqli davlatlardan biridir, ammo shunga qaramasdan suv turizmi uchun juda ko‘p joylar mavjud bular G‘arbiy Tyan-Shan etaklarida joylashgan Chorvoq chuqur suv havzasi, son-sanoqsiz toshqin daryolari va dengizga o‘xhash ulkan Aydarko‘l, Sudoche va Toshkent dengizi kabi ko‘llar. Bu erda dam olayotganda shamol tezligida skuterda uchish yoki katamaranda atrofni ko‘rib chiqish mumkin. Ekstremal dam olishni yaxshi ko‘radiganlar uchun ko‘plab turoperatorlar Chotqol, Pskom, Ugom, Sirdaryo kabi daryolar va boshqa ko‘plab joylarda rafting qilishni taklif etishadi.

O‘zbekistonning ulkan tog‘li hududlari alpinizm, qoyalarga chiqish va muzga ko‘tarilish sport turlari uchun aynan mo‘ljallangan. O‘zbekiston alpinistik va qoyalarga chiqish federatsiyasi o‘z veb sahifasida O‘zbekistonning 34 ta baland tog‘laridagi 74 yo‘nalishlar haqida eslatib o‘tadi, ularning balandligi 3099 dan 4326 m gacha, shundan 15 ta yo‘nalishga yoki 4b darajasida, 9 ta yo‘nalish ga yoki 5b darajadagi qiyinchiliklarga va faqat bitta yo‘nalish 6a qiyinchilik darajasiga ega. Alpinizm, qoyalarga chiqish va muzga ko‘tarilishning asosiy yo‘nalishlari asosan G‘arbiy Tyan-Shanda joylashgan: Maydontol tizmasi, Pskem tizmasi va Chotqol tizmasi. Har yili bu erlarda alpinizm va qoyalarga chiqish bo‘yicha ochiq musobaqalar o‘tkaziladi [5].

Ot turizimi-mashhur naslli, asl zotli o‘zbek otlarini ko‘rish, milliy ot sporti musobaqalarini tomosha qilish va naslli ot minishdan beqiyos quvonchni his etish uchun O‘zbekistonga tashrif buyuradigan sayyoohlар soni ortib bormoqda. Miloddan avvalgi II asrdanoq Farg‘ona vodiysidan jang otlari Xitoy imperatori armiyasi uchun Ipak yo‘li bo‘ylab olib chiqilgan. Toshkent shahridan unchalik uzoq bo‘limgan go‘zal vodiyya, Katta va Kichik Chimyon etagida 1600 metr

balandlikda, ot sportini sevuvchilar uchun mo‘ljallangan “Chimyon Oromgohi” kurort majmuasi joylashgan. Bu erda siz dam olish maskanining go‘zal atrof-tevarakni aylanib chiqishingiz mumkin. Tajribali ustozlar endi boshlovchilarga otlarni qanday boshqarishni o‘rgatadilar, mohir chavandozlar esa mahoratini oshirishlari mumkin. Dam olish maskanidan Chotqol va Ko‘ksu daryolari bo‘ylab Bildirsoy tizmasi atrofida ot minishingiz mumkin. Tajribali chavandozlar uchun eng mashhur yo‘nalishlardan biri bu Ugom tizmasining shimoliy yon bag‘rida, Pskom tog‘li daryosi bo‘yidagi yo‘nalish hisoblanadi. Ot safarining davomliligi 7 – 10 kun. Ot minish turli xil va o‘zgaruvchan nabotot va hayvonot ega bo‘lgan qo‘riqlanadigan hududlarda o‘tkaziladi Shuningdek, Ugam-Chotqol milliy bog‘ining Po‘latxon platosi yaqinida, G‘arbiy Tyan-Shan tog‘larida, Nurota tizmasi va Aydarko‘ ko‘llarida ham bir necha kunlik otliq sayohatlari bo‘lib o‘tadi. Hisor tizmasi tog‘larida ot minish yo‘nalishlari alohida qiziqish uyg‘otadi. Ular Qashqadaryo viloyatining kichik tog‘ qishloqlaridan boshlanadi va Surxondaryo daryosi vodiyida tugaydi. Yo‘nalishlarning eng yuqori nuqtalari 4000 metrغا etishi mumkin. Yo‘l davomida sayyoohlар balandlik zonalari, archa o‘rmonlari, alp yaylovlari, tog‘ tundralari va ba’zi yo‘nalishlarda – ko‘p yillik qor va muzliklarni kesib o‘tadilar. Toza va shaffof havosi son-sanoqsiz o‘tlar va gullarning xushbo‘y hidi bilan to‘lgan tog‘ bo‘ylab sayohat va minglab yulduzlar bilan to‘la, tubsiz tog‘ osmoni ostida olov atrofidagi romantik kechki ovqat taassurotlari xotirada uzoq vaqt saqlanib qoladi. Mamlakatda mavjud bo‘lgan ot klublari soni sayyoohlarni hayratda qoldiradi ular o‘n beshdan ortiq. Ular Toshkent shahrida va uning atrofida, Farg‘ona, Qashqadaryo hamda boshqa viloyatlarda joylashgan. Veloturizm – O‘zbekistonda Veloturizm ekzotika, afsonaviy va sharqona mehmondo‘stlikka boy. Mavsum aprel oyining o‘rtalarida boshlanadi va noyabr oyigacha davom etadi. Velosiped turlarini Buyuk Ipak yo‘li bo‘ylab sayohat, qadimiy Samarqand, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlari bo‘ylab sayohat, shuningdek hayajonli tog‘ manzaralari va gulli vodiylar bo‘ylab sayohat bilan birlashtirish mumkin. Velosipedchilar qishloqlar va tog‘ ovullari bo‘ylab sayohat qilganda, u yerdagi mahalliy aholining turmush tarzi bilan tanishib olishlari mumkin. Ekstremal sport turlarini yaxshi ko‘radiganlar uchun esa, Samarqand yaqinida Oqtog‘ tizmasi bo‘ylab yo‘nalish mavjud. Bundan tashqari, tog‘li hududlarda va yirik shaharlarda deyarli har oy issiq mavsumda ochiq tanlovlар va velosiped musobaqalari o‘tkazilib, unda hamma qatnashishi mumkin.

Bugungi kunda talaba-yoshlar o‘rtasida milliy sport turlarini rivojlantirish orqali yoshlarning sport bilan shug‘ullanishlari uchun barcha shart sharoitlar yaratilgan. O‘z kuchi va imkoniyatiga ishonongan yoshlar uchun esa qator loyihalalar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Oliy ta’lim muassasalari talabalari o‘rtasida “Turizm va sport vaziri kubogi” musobaqasining o‘tkazilishi ham bu kabi loyihalarning yorqin ifodasidir. Turizm va sport vazirligi axborot xizmati bu galgi musobaqaning final bosqichi ko‘hna Samarqand shahrida bo‘lib o‘tdi [4].

OTMning talabalari orasida turizmning mazkur turini keng targ'ib qilishga qaratilgan pedagogik faoliyat samaradorligi bu jarayonning izchil, tizimli tashkil qilinishini taqozo etadi. Amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat jarayonida talabalarda quyidagi sport turizmiga oid ko'nikmalarni rivojlantirish maqsadga muvofiqdir: birinchi tibbiy yordamni ko'rsatish; jarohatlangan (shikastlangan)lar evakuatsiya qilishni tashkillashtirish va uni amalga oshirish; palatkalar o'mnatiqidigan yoki vaqtinchalik to'xtaladigan joylarni to'g'ri tanlash; suv oqimini kechib o'tish yoki tog' qoyalariga chiqishda qo'llaniladigan arqonlar va texnik vositalardan to'g'ri foydalanish; muayyan to'siqlarda oqillik bilan ehtiyyot choralarini ko'rish; turli xarakterga ega harakat texnikalarini egallash va ularni yuqori darajada o'zlashtirish; guruhning harakatlanish tartibini to'g'ri tashkillashtirish va amalga oshirish; ekstremal sharoitlar (kuchli jala, qor vaqtida, suv havzalarida suv ko'payganda, etarlicha oziq-ovqat manbasi bo'limgan, guruh bilan aloqa yo'qolib qolgan jarayon)da to'g'ri qaror qabul qilish, o'z-o'ziga yordam ko'rsatish; safarlarda ovqatlanish menyusini tuzish, ovqat tayyorlash va guruhdoshlar o'rtasida ovqat mahsulotlarini to'g'ri taqsimlash; turli vaziyatlarda olov yoqish va uning o'chib qolmasligini ta'minlash; murakkab vaziyatlarda to'g'ri yo'nalish olish va harakatlanish; ishdan chiqqan texnik vositalarni ta'mirlash olish; guruhdoshlar o'rtasida ziddiyatlar kelib chiqishining oldini olish va bartaraf qilish; ekstremal vaziyatlarda ishlar va harakatlarni taqsimlash [11].

So'nggi yillarda respublikamizda jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirishga ham katta e'tibor berilmoqda. Aholi salomatligini mustahkamlash, yosh avlodning sog'lom va barkamol bo'lib voyaga yetishini ta'minlash davlat siyosati darajasiga ko'tarilgan. Prezidentimizning "Sog'lom turmush tarzini keng ttabiq etish va ommaviy sportni yana-da rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni ijrosini ta'minlash yuzasidan samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Yoshlar orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilish, qolaversa, davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning ikkinchi yo'nalishi ijrosini ta'minlash maqsadida tizimli ravishda sport tadbirlari va musobaqalar o'tkazib kelinyapti.

Xulosa va takliflar

Mamlakatni dunyoga tez tanitadigan soha, bu – sport. Sport millat va irq tanlamaydi, u barchani o'z atrofida birlashtirishga qodir vosita, deyish mumkin. Sport tufayli ko'p mamlakatlarga boramiz, musobaqalardan so'ng boshqalarga o'z yurtimiz, xalqimizning urf-odatlari, an'analari, qolaversa, tarixi necha asrlarga borib taqaladigan qadimiy obidalarimiz haqida so'zlab beramiz. Tabiiyki, shu suhabatlar jarayonida chet ellik hamkasblarimizda O'zbekistonga bo'lgan qiziqish ortadi. Bir so'z bilan aytganda, sport orqali turizm, turizm vositasida sport rivojlanadi. Kuni kecha davlatimiz rahbarining "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni e'lon qilindi [1]. Farmon o'z ichiga turizm, sport va madaniy meros

sohalarida zamonaviy boshqaruv mexanizmlarini joriy etish, ilg‘or xorijiy tajribaga tayanib ushbu yo‘nalishlarda infratuzilmani jadal rivojlantirish, obyektlardan samarali foydalanish, aholiga etarli sharoitlar yaratishga qaratilgan.

Sport turizmini bilan samarali shug‘ullanish uchun talabalar qo’shimcha ravishda quyidagi ko’nikmalari o’zlashtira olishlari zarur: sayohat joyida istiqomat qiluvchi aholining tilini muloqot darajasida bilish; aralash turizm ko’nikmalariga ega bo’lish; ov qilish va baliq tutish; turli texnikalar yordamida hayvonlar bilan “muloqot qilish”; geografik ob’ekt, shuningdek, mavjud tabiat to’g’risidagi bilimlardan xabardor bo’lish; tarjimonlik, bayon qila olish hamda muhandislik malakalariga ega bo’lish lozim [10].

Ko’rsatilgan ko’nikmalar majmuasi jismoniy tarbiya va tabiiy geografiya fanlari integratsiyasi asosida talabalarda sport turizmi ko’nikmalarini rivojlantirish jarayonining murakkab, bir qadar qiyin bo’lishidan dalolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi (2019 yil 5 yanvar) Farmoni // <https://lex.uz/docs/4143188>.
2. O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son Farmoni bilan tasdiqlangan «2022–2026-yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida»gi Farmoni. <http://uza.uz>
3. “2019-2025 yillarda O’zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada rivojlantirish Kontseptsiyasi” // <https://lex.uz/docs/4143188>
4. Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik – didaktik asoslari: ped. fan. dok. diss.... – Toshkent: TDPU, 2006. – 264 b.
5. Abdunazarova Z.A. Sport turizmi orqali o’smirlarning jismoniy tayyorgarligini rivojlantirish texnologiyalari.// “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnali, № 4. 2023. B.119 – 122.
6. Abdunazarov O’.Q., Mirakmalov M.T., Sharipov Sh.M. va boshq. Umumiyl tabiiy geografiya. – Toshkent: “Barkamol fayz media”, 2018. – 326 b.
7. Боймирзаев К.М. Ўзбекистонда экотуризмни ривожлантириш истиқболлари ва омиллари // Фарғона водийсида экотуризмни ривожлантириш истиқболлари. Республика илмий-амалий конференцияси материаллари. Наманган, 2016 . Б. 59 – 61.
8. Xudoyberdiyeva S.M. Jismoniy tarbiya va tabiiy geografiya fanlari integratsiyasi asosida talabalarda sport turizimi ko’nikmalarini rivojlantirish. NamDU ilmiy axborotnomasi. Namangan. 2023. № 12-son. – B. 616 – 623.
9. Овчинников Ю.Д., Талызов С.Н. Спортивный туризм как вид спорта и форма деятельности // Журнал Физическая культура. Спорт. Туризм.

SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA OILADA YUZAGA KELADIGAN KONFLIKTLARNI BARTARAF ETISHNING IJTIMOYIY PSIXOLOGIK USULLARI VA MEXANIZMLARI

Jurayev X.O.

University of Business and Science o'qituvchisi

Annotatsiya. Oilaviy muammolar – bu ikki yoki undan ortiq tomonlar bir-biriga mos kelmaydigan deb qabul qilingan yoki ifodalangan holatlar. Ular muntazam ravishda kundalik hayotimizning turli sohalarida paydo bo'lishi mumkin va agar ular to'g'ri muomala qilinsa, o'zgarishlarga va yangi munosabatlarga erishish uchun ijobiy bo'lislari mumkin.

Tayanch iboralar: oila, muammoli vaziyatlar, mojaro, pozitsiya, er-xotin, bolalar, ajralish, jamiyat, salbiy oqibatlar, kontrast, ota-onas, qiyinchilik.

Аннотация. Семейные проблемы – это ситуации, когда две или более стороны воспринимаются или выражаются как несовместимые. Они могут регулярно появляться в различных сферах нашей повседневной жизни и, если с ними правильно обращаться, могут быть позитивными для достижения изменений и новых отношений.

Ключевые слова: семья, проблемные ситуации, конфликт, позиция, супружеская пара, дети, развод, Общество, негативные последствия, контраст, воспитание детей, трудности.

Abstract. Family problems are situations in which two or more parties are perceived or expressed as incompatible. They can regularly appear in different areas of our daily lives and if they are treated properly, they can be positive for change and new relationships.

Keywords: family, problematic situations, conflict, positions, spouses, children, divorce, society, negative consequences, contrast, parents, difficulty.

Kirish

Bugungi kunda mamlakatimizda barcha aholining 97 foizi oilalarga birlashib yashaydi, qolgan uch foizi – ya'ni, yolg'iz qolgan keksalar, ota-onadan etim bo`lib qolgan va mehribonlik uylarida tarbiyalanayotganlar, boshqa yurtdan kelib vaqtinchalik O`zbekistonda istiqomat qilayotganlar ham oila a'zolari, yaqinlari, yurtdoshlari, turli davlat va nodavlat tashkilotlaridagi insonparvar odamlarning mehridan darig' emas. Shu ma'noda oila – inson o`z baxti va saodati, orzu-havaslari, maqsadmuddaolarini mushtarak qilgan, o`zini inson sifatida idrok etib hayot nashidasini suradigan muqaddas makondir.

Oiladagi nizolarni hal qilish usullari asosan jamiyatning muayyan hujayrasi doirasida qanday janjal yuzaga kelganiga bog'liq. Ota-onas munosabatlari va nikoh

tushunchalari bolalarda bo'lgan oiladagi nizolar juda salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ikki kishining fikrlari yoki istaklari bilan to'qnashganda, natijada ular umumiy yo'nalishni topishni istashganida, oiladagi nizolarni tabiiy jarayon deb biladi. Hatto janjallar janjal paytida janjallahishlariga qaramay, janjallar er-xotinning birligini anglatadi, deyish mumkin.

Birinchidan, agar er-xotinlar janjallahayotgan bo'lsa, demak, ular bilan baham ko'radigan narsa bor. Va odamlar har doim ham umumiy mulkni emas, balki erkinlikni, shaxsiy hududni, bolalarni va boshqalarni baham ko'rishadi. Boshqacha qilib aytganda, er-xotinlar janjal mavzusi ular uchun muhim bo'lgan taqdirdagina janjallahadilar. Bundan tashqari, qarama-qarshi tomon bilan janjallahishni istamagan odam mojaro yuzaga keladi. Bunday paradoks: odamlar o'zlariga zarar etkazmasdan, bir-birlarini xafa qilishni istamasliklari sababli janjal qilishadi.

Ikkinchidan, mojaro shuni ko'rsatadiki, er-xotinlar hali ham o'sha yo'lda harakat qilishmoqda. Mojaro – bu ikki kishi borishga tayyor bo'lgan yo'lning yo'qligi. Aynan janjal paytida ular uni topishga harakat qilishdi. Bu shuni anglatadiki, odamlar birgalikda harakat qilishni istaydilar, shuning uchun ular hozirgacha eng yaxshi variant deb o'ylagan narsani bir-birlariga majbur qilish uchun juda ko'p harakat qilishadi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Oiladagi nizolarning turlari va kelib chiqish sabablarini o`rgangan shu yunalishda tadqiqot olib brogan ilmiy izlanuvchilar jumladan shularning ishlarini tadqiq qilish davomida S.Pavlina. “Oilaviy munosabatlarning muammolarini tushunish”. (2006). 2. V.V.Kunitskaya. “Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo'llari” Ijtimoiy o'qituvchi. (2017) D.Levinson. “Madaniyatlararo nuqtai nazardan oiladagi zo'ravonlik”. Newbury Park, Kaliforniya: Sage. (1989) 2. H.Makkubbin, S.Figli, “Stress va oila: Normativ o'tishlar bilan kurashish”. Nyu-York: Bruner / Mazel. (1983). Vasila Karimova OILA PSIXOLOGIYaSI Toshkent 2017 tadqiqotlarida uyoki bu usulda tadqiqi qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

Tadqiqotda ilmiy bilishning analiz va sintez, kompleks yondashuv, kontent-analiz kabi usullariga tayanildi.

Tahlil va natijalar

Psixologlar oilaviy janjallarni normal holat deb bilishadi. Qarama-qarshiliklar tufayli er-xotinlar bir-birlarini yomon ko'rishni boshlaydilar, hatto undan ham ko'proq ajralishadi. Shuning uchun har doim paydo bo'ladigan oiladagi nizolarni qanday hal qilish masalasi juda muhim bo'lib qoladi. Odamlar janjallahishi tabiiy, ayniqsa bu odamlar turmush o'rtog'i va mehribon sherik bo'lsa. Sizning munosabatlaringizda hech qachon janjal bo'lmaydi deb umid qilish ahmoqlikdir, chunki dunyoda bir xil ikkita odam yo'q. Siz qanchalik yaqin va

sevikli bo'lishingizdan qat'iy nazar, har doim sizning fikringiz sherikingiz bilan mos kelmaydigan savollar mavjud. Odamlar odatda bahsli masalalarni qanday hal qilishadi? Ular qichqiradi, tanqid qiladi, qoralaydi, janjal qiladi, hatto idishlarni sindirib, yugurib keladi. Hech kimga sir emaski, muammolarni hal qilishning bunday usullari nafaqat sevuvchilarining munosabatlarida iz qoldiradi. Biroq, odamlar ba'zi bir tushunchalar bo'yicha kelisha olmasalar, hamma qichqiradi va qichqiradi. Ammo bitta haqiqatni yodda tutish kerak: qichqirganni eshitish mumkin emas! Shuning uchun janjal va qichqiriqdan so'ng, sheriklar bir-birlari bilan tinch ohangda muloqot qilishni boshlamaguncha, muammo hal qilinmaydi.

Oiladagi nizolarning turlari. Nizolarning eng keng tarqalgan tasnifi:

1. Konstruktiv to'qnashuvlar. Turli sabablarga ko'ra bunday to'qnashuvlar mavjud, ammo ularning echimi ikkala uzumchiga qoniqish hissi tug'diradi, boshqacha qilib aytganda, bu o'zaro kelishmovchiliklarni hal qilish uchun kelishuvga aylangan. Bu yosh oilada yoki uzoq yillar tajribaga ega oilada nizo bo'ladimi, natijasi doimo gullab yashnaydi.

2. Yomon nizolar. Bunday to'qnashuvlar juda xavflidir, chunki ularning natijasi ikki tomonni qoniqtirmaydi va ko'p yillar davomida davom ettirishga, nikohlari bilan qoniqish hisini kamaytirishga, uzoq vaqt yoqimsiz depozit qoldirib ketishga majbur qiladi. Bunday to'qnashuvlarning tez-tez takrorlanishi ajralishga olib kelishi mumkin.

Oilaviy mojaro yuzaga kelishining sabablari bor ko'p miqdorda, chunki nikoh nafaqat qo'shma uyni saqlash va farzand ko'rish, balki ularning istaklarini ro'yobga chiqarish, ehtiyojlarini qondirish va baxtli yashash istagini ham o'z ichiga oladi. Erkak va ayol turmush qurishni davom ettirish orqali hayotlarini yaxshilashni xohlaydigan odamlar bo'lib qolmoqdalar.

Biroq, nizolar, turmush o'rtog'i qarama-qarshi yoki turli xil qarashlarga, istaklarga, manfaatlarga, ehtiyojlarga va boshqalarga qarshi to'qnashuv yuzaga kelganda paydo bo'ladi. Er-xotin o'rtasidagi janjallarning tez-tez sabablari quyidagilardir:

- Turmush o'rtoqlardan birining mastligi.
- Oilaviy hayotni o'tkazish bo'yicha qarashlarning farqi.
- Zino.
- Turmush o'rtoqlarning xudbinligi.
- Haddan tashqari rashk.
- Sheriklarga nisbatan hurmatsizlik.
- Qondirilmagan ehtiyojlar.
- Turmush o'rtoqlardan birining bolalarni tarbiyalashda yoki hayotni boshqarishda ishtirok etmasligi. Ma'lumki yuqoridagi sabablarning qaysi biridir ko'proq foizni qaysi biridir kamroq foizni tashkil etadi, lekin baribir o'z o'rnida oilaviy konfliktlarni vujudga keltirmoqda.

Oila nizolarini hal qilish usullari. Oiladagi nizolarni hal etishning ko'pgina samarasiz usullari mavjud, ulardan foydalanish nafaqat sizning qimmatbaho vaqtini

olib tashlashi mumkin, balki oiladagi mojaroni yanada kuchaytirishi mumkin. Oilangizdagи ziddiyatlarni bartaraf etish uchun oilaviy psixologlardan yordam so'rang va oilangizga qo'shnilar, tanishlar yoki ota-onalarning maslahatini tekshirmang. Oilada hech qanday qarama-qarshiliklar mavjud emas, chunki oila munosabatlarining o'ziga xos jihatи shundaki, qarama-qarshi jinsdagi odamlar butunlay boshqacha hayotiy hikoyalar va turli xil tarbiya bilan uylanadi va ayni paytda ular bir-birlari bilan bir-birining tagida bo'lishlari kerak. Bu holatda bajarilishi mumkin bo'lgan barcha narsalar oiladagi nizolarning oldini olishdir. Oiladagi nizolarni hal qilish uchun siz tushunishga intilishingiz kerak. Agar ikkala turmush o'rtog'i bir-birlarini eshitishga harakat qilsalar, unda murosaga kelish mumkin. Bu yerda g'alaba qozonishning hojati yo'q, chunki g'alaba yutqazishni taxmin qiladi. Ittifoq – bu qul va xo'jayin emas, ikki teng sherikning birlashmasi. Ikki turmush o'rtoq o'zaro munosabatlarda qulay bo'lishi kerak, natijada kimdirning xohish-istiklari amalga oshmagani sababli nikoh ittifoqi buzilmaydi.

Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida aytishimiz mumkinki, bu kabi oiladagi nizolar oldini olish uchun oila ishonchli munosabatda bo'lishi kerak. Agar hamkorlardan biri biror narsani tugatsa yoki uni boshqa bir sirdan saqlaydi, bu o'z-o'zidan munosabatlarda keskin atmosferani keltirib chiqarishi mumkin va buning oqibatida yuzaga kelgan ziddiyatning hajmi siz yashirilgan haqiqatdan ham qo'rqinchli bo'lishi mumkin. Oilaviy nizolarni hal qilishda muammolardan qochmaslik, balki ularni hal qilish kerak. Muammoni hal qilish, g'alaba qozonish yoki himoya qilmaslik maqsadida konstruktiv va xotirjamlik bilan olib boring. Uchinchi tomonlarni nizoga jalb qilish maqsadga muvofiq emas, chunki ular mojaroning yanada kuchayishi uchun katalizatorga aylanishi mumkin. Ajrashish bu nizoni echimi bo'lib qolmasligi kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. D. Levinson. "Madaniyatlararo nuqtai nazardan oiladagi zo'ravonlik".
2. Newbury Park, Kaliforniya: Sage. (1989)
3. H. Makkubbin, S. Figli, "Stress va oila: Normativ o'tishlar bilan kurashish". Nyu-York: Bruner / Mazel. (1983).
4. PULATOV SH.N. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Hindistondagi ijtimoiy-siyosiy vaziyat. Academic Research In Educational Sciences. Volume 1. 2020 468-474 P.
5. S. Pavlina. "Oilaviy munosabatlarning muammolarini tushunish". (2006).
6. V. V.Kunitskaya. "Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo'llari" Ijtimoiy o'qituvchi. (2017)

7. Dilnoza S. OILAVIY NIZOLAR TURLARI VA VUJUDGA KELISH SABABLARI // Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. – 2021. – Т. 1. – №. 2. – С. 196 – 200.
8. Vasila Karimova Oila psixologiyasi Toshkent 2017-yil.
9. S.Pavlina. “Oilaviy munosabatlarning muammolarini tushunish”. (2006). V.V.Kunitskaya. “Oilaviy nizolar va ularni hal etish yo'llari” Ijtimoiy o'qituvchi. (2017)



University of Business and Science oliv ta’lim muassasasining “UBS ilmiy axborotnomasi” jurnaliga taqdim etiladigan ilmiy maqolalarga qo’yiladigan asosiy talablar jahon andozalaridan kelib chiqadi. Jurnal bunday talablarni o’rnatish orqali o’z mualliflarini asta-sekin xalqaro andozalarga moslashib borishida yaqindan ko’mak berish vazifasini bajaradi. Qo’shimcha savollar, talab va takliflar bo’yicha tahririyatning telefoni va telegram raqami (+998-94-308-48-58) orqali murojaat etish mumkin.

1. Mualliflar tomonidan taqdim etilayotgan ilmiy maqola mavzusi quyidagi bo’limlarga mos kelishi kerak:

- Fizika-matematika va texnika fanlari;
- Biologiya fanlari;
- Tarix fanlari;
- Iqtisodiyot fanlari;
- Falsafa fanlari;
- Filologiya fanlari;
- Geografiya fanlari;
- Pedagogika va psixologiya fanlari.

2. Maqola xalqaro andozalar talabi doirasidagi quyidagi bandlarga ega bo’lishi lozim:

- maqola mavzusi;
- maqola muallifi to’g’risida ma’lumot (F.I.SH., ish joyi, lavozimi, ilmiy daraja va unvoni, telefon va elektron pochtasi);
- Annotatsiya (o’zbek, rus va ingliz tillarida);
- Tayanch so’zlar (o’zbek, rus va ingliz tillarida);
- Kirish;
- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili;
- Tadqiqot metodologiyasi;
- Tahlil va natijalar;
- Xulosa va takliflar;
- Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati.

3. Maqola matni shrifti “Times New Roman”da, 14 kegelda bo’lib, qatorlar oraliqlari masofasi 1 intervalda bo’lishi lozim. Maqola matni sahifasining barcha (o’ng, chap, yuqori va quyi) tomonidan 2 santimetrdan iborat masofa qoldiriladi.

4. Maqolalar o’zbek, rus va ingliz tillarida taqdim etilishi mumkin.

O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan berilgan 2024-yil 22-yanvardagi 210192-sonli guvohnomaga asosan nashr etiladi.

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY TA'LIM, FAN VA
INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

UNIVERSITY OF BUSINESS AND SCIENCE

ILMIY

AXBOROTNOMA

№2/2024

*Yilda to 'rt marta nashr etiladi. Bahosi kelishilgan narxda.
Jurnalga nashrnning istalgan sonidan obuna bo 'lish mumkin.*

Obuna tahririyatda rasmiylashtiriladi.

Ayrim maqolalarni tayyorlashda Internet materiallaridan foydalanildi.

Mualliflar fikri tahririyat nuqtai nazaridan farq qilishi mumkin.
Nashr uchun mas'ul: N.J.Sotvoldiyev

Bosishga ruxsat etildi.
Offset usuli. Oq qog'oz.
Bichimi A4. Hajmi 22,25 bosma taboq.
Adadi 50 nusxa. Buyurtma № 262.

“Yashin sanoat” xususiy korxona bosmaxonasida chop etildi.
Manzil: Namangan shahri, Hamroh ko‘chasi, 71^A-uy.

